

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSI”
(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent-2022

KIRISH

“Nomoddiy madaniy meros” o‘quv qo‘llanmasi “Folklor va etnografiya” yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga xalqning milliy turmush tarziga singib ketgan milliy merosning xalq og‘zaki ijodi san‘ati bilan boshqa madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yoritish masalasiga bag‘ishlangan. O‘zbek xalqining Uchinchi Renissans davriga kelib nomoddiy madaniy merosga nisbatan ehtiyoji yanada kuchaydi. Buni Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning madaniyat va sohasi taraqqiyotiga bag‘ishlangan qator qaror va farmonlari tasdiqlaydi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risi” (15.02.2017; PQ-2778 sonli), “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsipsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (28.11.2018; PQ-4038 sonli), “Xalqaro baxshichilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” (PQ-1.11.2018 y), “Xalq xunarmandchiligi san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida” (28.11.2018 y PQ) singari qator tarixiy xujjatlari misol bo‘la oladi.

Bundan tashqari o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosini saqlash kiyingi avlodlarga yetkazish bo‘yicha ko‘plab qaror va farmonlar e‘lon qilindi. Bunga misol tariqasida yurtimizning eng qadimgi va betakror milly merosini jahon miqiyosida muhtaram Prezidentimiz ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xususan, BMTning YUNESKO tashkiloti bilan doimiy hamkorlikda vatanimizdagi 10 ta nomoddiy madaniy merosga oid obyektlar YUNESKO reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi buning isbotidir. Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga O‘zbekistondan “Boysun” tumani madaniy makoni, “Shashmaqom”, “Navro‘z”, “palov madaniyati va an‘analari”, “Marg‘ilon hunarmandchiligini rivojlantirish markazi; (atlas-adras)”, “Xorazm raqsi “lazgi” san‘ati”, “Minatyura” san‘ati” va “bag‘shichilik san‘ati” kabi nomoddiy madaniy meros qadriyatlari kiritildi.

Demak, o‘zbek xalqining o‘ziga xos betakror nomoddiy madaniy merosini har tomonlama o‘rganish, ulardan yangi O‘zbekiston ma‘naviy va madaniy taraqqiyoti yo‘lida foydalanish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma “Folklor va etnografiya” kafedrasida umumiy ilmiy va amaliy izlanish jarayonida talabalar, ilmiy tadqiqodchilar va xalq madaniyati tarixi bilan shug‘ullanuvchi odamlarga bilim-ko‘nikmalar berishga xizmat qiladi.

Chunki insoniyat ma‘naviy-madaniyatining ilk namunalari nutq va madaniy tafakkur uyg‘unligida yaratilgan. Buni nomoddiy madaniy merosning eng sodda mifik tasavvurlaridan tortib, urf-odatlar, marosimlar, bayram-sayillar, tomosha shaklidagi turli san‘at namunalari, diniy-e‘tiqod qarashlari, shuningdek, moddiy ko‘rinishdagi turli-tuman predmetlar, jihozlar, uy-joy-makonlar orasidagi bog‘lanish vositalarida ko‘rsatish mumkin.

Binobarin, ta'kidlangan qadriyatlar ijtimoiy fanda "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi bilan istifoda etiladi.

Nomoddiy madaniy meros bo'yicha Konvensiya BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan 2003 yil 15 oktabrda rasman qabul qilingan bo'lib, u 2007 yil yurtimiz Parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilingan. 2010 yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 222-sonli Qarori qabul qilinib, uning 3-bo'limida "Folklor va etnografiya" sohasi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash, targ'ib qilish va ulardan zamonaviy madaniyat-ma'rifat muassasalari ish faoliyatlarida foydalanish, madaniyat-san'atni milliy an'analar ruhida rivojlantirishga ixtisoslashgan tashkilotchi-rahbarlar bilim va ko'nikmalarini oliy ta'lim tizimi orqali shakllantirish masalalari kun tartibiga qo'yilgan edi. Yurtimizda "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, saqlash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi"ning qabul qilinishi mazkur soha uchun juda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Konvensiya Dasturiga muvofiq milliy merosni saqlash, to'plash, arxivlashtirish va yangi davrga mos tomonlaridan amaliy foydalanish ishlari rejali tartibda olib borilmoqda. Buni Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan Harakatlar strategiyasi bo'yicha beshta yo'nalishlarning eng asosiy konsepsuallaridan biri hisoblangan yurtimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, undan miliy yuksalish sari va Uchinchi renessans poydevorini qurish ishlarida o'zlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. "Nomoddiy madaniy meros" o'quv qo'llanmasi ham ana shu Dastur asosida madaniyat – san'at sohasida tahsil olayotgan talabalar ixtisosliklari yo'nalishida olayotgan bilim va ko'nikmalarini tarkib topdirish, ularning ilmiy-malakaviy dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beruvchi risola sifatida taqdim etilmoqda.

O'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosidagi "O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakli va an'analari" yo'nalishiga muvofiq etnik turmush tarzida asrlar bo'yi avloddan-avlodga, otadan farzandga, ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan og'zaki so'z san'ati bilan boshqa an'anaviy namunalar orasidagi o'zaro bog'liqlik tasodifan yoki sun'iy ravishda sodir bo'lmaganligi va ular ijtimoiy-madaniyatning evolyusion qonunlari ta'sirida bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlardir.

Har bir etnik guruhning milliy va o'ziga xos madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-estetik qarashlari ifodalanishida etnomadaniy yo'nalishdagi nuqtai nazar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zotan, turmush tarzi va ma'naviy-axloq sferasidagi har qanday ma'no so'z vositasi orqali namoyon bo'lishi isbot qilinmasligi e'tiborga olinsa, nomoddiy madaniyat bevosita folklor ya'ni badiiy nutq orqali bunyod etilgan.

Masalan, biror xalq urf-odat yoki mrosimi yo'qki, u poetik aytim, ibora va so'z ilatilmagan bo'lsin. Bu holatni xalq amaliy san'atiga oid istalgan nomoddiy madaniyat namunalari yaratilishida kuzatish mumkin.

Shuning uchun ham, etnik turmush tarzida bizga qadar yetib kelgan etnomadaniyat an'analarini xalq og'zaki badiiy ijodi so'z san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yana shuni alohida ta'kilash joyiz XXI-asrga qadar yetib kelgan barcha tarixiy va arxeologik yodgorliklari xalq jonli ijrosida saqlanib kelayotgan nomoddiy madaniy meros yodgorliklarida folklor so'z san'atiga oid mifologik tasvirlardan tortib, afsona va rivoyatlar, ertaklar, dostonlar tarkibida uchraydigan qahramonlar, afsonaviy personajlar u yoki bu darajada o'z akslarini topgan.

Buni kundalik hayotda hozirga qadar o'tkazib kelinayotgan xalq irim, udum, urf-odat va marosimlar hamda tarixiy-arxeologik muzeylardagi eksponatlar misolida ko'rsatish mumkin.

O'zbek xalqining etnomadaniy turmush tarzi o'ziga xos xususiyatlari bilan dunyoning boshqa etnoslaridan farqlanishini belgilaydi. Shunday nomoddiy uchramaydi.

Masalan, xalq og'zaki dramasi turiga kiruvchi "Askiya" janri ana shunday folklor namunasi hisoblanadi. Mana shu janr o'z xususiyatiga ko'ra o'zbek etnomadaniyatining so'z san'ati turida inson nutq faoliyatida fikrni tinglovchi va tomoshabinga turli badiiy vositalari orqali yetkazuvchi go'zal san'at hisoblanadi. Mazkur janr atamasi arab tilidan olingan bo'lib, "zakiy" ya'ni o'tkir zehni, hozirjavob kabi ma'nolarni anglatadi.

Bu misolni alohida ta'kidlashdan maqsad shuki, askiya aytuvchi yoki uni tinglab, zavqlanuvchi etnik omma qadimdan so'zning qudrati va imkoniyatlaridan foydalanib kelishgan. Vaholanki, bunday o'zlikni namoyon qilishning og'zaki ijod shakl va namunalari folklor merosida salmoqlidir.

Madaniy meros ayrim hollarda "xalq og'zaki ijodi", "folklor", "milliy qadriyat" singari atamalar bilan qo'llab kelinmoqda. "Madaniyatshunoslik", "San'atshunoslik" va "Etnografiya" kabi fan sohalarida "Nomoddiy madaniy meros" atamasi istifodaga kirmasdan oldin "Xalq ijodiyoti" tushunchasi ko'proq ishlatilgan.

"Xalq ijodiyoti"ga og'zaki so'z san'ati bilan birgalikda raqs, musiqa, qo'shiq, og'zaki drama, xalq sirki, tomosha san'ati, baxshichilik san'ati va milliy hunarmandchilik bilan bog'liq an'analar kirishi taomilga kirgan. 21-asr boshlariga kelib, nomoddiy madaniyat meros tushunchasining mohiyati ilmiy-nazariy talqin etilgach, uzoq davrlardan buyon G'arbiy Yevropa va AQShda insonning turmush kechirishi jarayonida ishlatiluvchi moddiy va nomoddiy predmet va hodisalarga izohlanib, "Nomoddiy madaniy meros"ga baho berildi. "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi sho'rolar davri ijtimoiy-gumanitar fanlari an'anasiga muvofiq ana shu taqlid izohlab kelinganligi tufayli, bu ta'sir 20-asrgacha o'zbek ijtimoiy-gumanitar fanlarida ham qo'llab kelingan.

Biroq XXI-asr o'zbek ilm-fanida turli sohalarni tadqiq etish, ularning natijalaridan amaliyotda foydalanishga munosabat o'zgarishi munosabati bilan milliy merosni o'rganish borasida tadqiqotlar sifat darajasi ko'tarildi.

Natijada, xalqning etnik madaniyatini tarixiy-folkloriy jarayon nuqtai nazaridan o'rganish asta-sekin amaliyotga kira boshladi. Buning isboti sifatida O'zbekiston san'ati

va madaniyati institutida “Folklor va etnografiya” kafedra shakli tashkil etilishi, hozirgi paytgacha to‘plangan nomoddiy madaniy merosni oliy ta’lim ixtisosligi yordamida targ‘ib qilish, ilmiy-nazariy tomondan o‘rganilib, ularning natijalaridan turli ommaviy-badiiy tadbirlar tashkil qilishda foydalanishga layoqatli rejissyorlar, badiiy rahbarlar tayyorlanib, maydon tomoshalari, zamonaviy teatr sahnalari va konsert dasturlari orqali namoyish etishga layoqatli professional kadrlar tayyorlanayotganligini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Dunyo xalqlari etnik turmushida sodir bo‘layotgan madaniy soha bilan bog‘liq katta-yu kichik o‘zgarishlar umumjahon iqtisodiy, siyosiy va ilmiy taraqqiyoti ta’siriga bog‘liqligi uchun turli-tuman etnoslardan tashkil topgan bashariyat tarixiy ahamiyat kasb etuvchi moddiy va nomoddiy madaniyat merosidan asta-sekin mahrum bo‘lish xavfi tug‘ildi. Natijada, umumbashariy qadriyatlarni saqlash, ularni kelajak avlodlarga iloji boricha tabiiy holda yetkazish bilan mas’ul YUNESKO va boshqa tashkilotlar turli amaliy va ilmiy-nazariy tadbirlar tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda 2018-2020 yillar “Xalqaro baxshichilik san’ati”, “Xalqro hunarmandchilik festivali” va “O‘zbekiston madaniy merosi-yangi renessans poydevori” 7-Xalqaro kongressi singari xalqaro tadbirlar ana shunday progressiv ahamiyatga ega umumbashariy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan anjumanlardir.

Xalqimizning nomoddiy madaniyati merosining salmoqli qismidan iborat bo‘lgan og‘zaki badiiy ijod san’ati qadimdan insonlarni so‘z va soz san’ati vositasida ma’naviy-estetik o‘ziga jalb etib kelgan. 2019 yil aprel oyi Termiz shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivalida Prezident SH.M. Mirziyoyev tomonidan so‘zlangan nutq dunyoning 74 ta davlatidan tashrif buyurgan 160 dan ziyod olim-mutaxassislariga ilmiy-nazariy va amaliy-ma’rifiy jihatdan juda katta yo‘nalish berdi. Yurtboshimiz: “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga ma’lum. Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an’ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir,” deganlarida, insoniyatning ota-bobolari tomonidan yaratilgan ma’naviy-estetik qadriyalar ham nazarda tutiladi.

Jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan globalashuv sharoitida milliy g‘oyaga nisbatan ehtiyoj yanada kuchayib bormoqda. Buni zamonaviy ilm-fan va axbortlar texnologiyasi ummonida tarbiyalanayotgan bolalar misolida kuzatish mumkin. Chunki biz yashayotgan kurrai zaminning ko‘z ilg‘amas tomonlarida sodir bo‘layotgan va insonni hayratga soluvchi har qanday yangilik yoki kashfiyot tez fursatda virtual odamga yetib kelayotganligi, ota-bobolar tomonidan yaratilgan ma’naviy-falsafiy merosga qiziqish ehtiyojiga u yoki bu jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun inson ongi va qalbida odamzod bolasiga in’om etilgan his etish, idrok qilish, mehr-muhabbat ko‘rsatish, rahm-shafqat, ezgulik bilan yovuzlikning farqiga borish, yaxshilik yo‘lida muruvvatli bo‘lish va boshqa folklor madaniyati va milliy merosimiz qadriyatlarini anglashga qodir avlodlarni shakllantirish, ularda mafkuraviy immunitetni hosil etish zarur. Bu jihatdan eng kuchli ma’naviy-estetik hamda ibratli vosita tomosha san’ati desa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, odamlar eng ko‘p va tez qabul qiladigan tomosha san’ati nomoddiy madaniy merosga taalluqli barcha milliy qadriyatlar kirish maqsadga muvofiqdir. Chunki

nomoddiy meros sifatida tan olingan og‘zaki so‘z san‘atidan tortib, inson hayotidagi turli urf-odatlaru rang-barang marosimlar va bayramlar odamzodning eshitish, ko‘rish va his qilish singari axborotlar olishda vositalar hisoblanadi. Chunonchi, milliy madaniy merosning ko‘z orqali tomosha qilish quloq bilan eshitish tomonlaridan boshqa-idrok qilish, his etish, xayol qilish va taqlid qilish singari ruhiy-psixologik jihatlari xam bor. Masalan, biror milliy marosimga borgan odam faqat o‘sha tadbir ishtirokchisi bo‘lishdan tashqari, unda bajariladigan udumlardan bahramand bo‘ladi yoki marosimda ijro etiladigan aytim, verbal harakatlardan muayyan xulosa chiqaradi. Buni xalqimiz etnik turmush tarzidagi go‘dakning tug‘ilishi, beshikka solinishi yoki uning keyingi hayoti davomida o‘tkazib kelinayotgan an‘analari kabi ko‘plab misollar orqali asoslash mumkin.

Nomoddiy madaniyat an‘analari asrlar davomida turli avlod vakillari ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy-falsafiy ehtiyojlari yo‘lida xizmat qilib kelmoqda. Binobarin, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit doimo o‘ziga xizmat qiladigan an‘analardan foydalanib, madaniy hayotda yangilarini yaratib kelgan. Hatto, sovet davri tuzumi ham xalqning kommunistik mafkuraga mos tomonlaridan foydalanganligini folklor-etnografik jamoalari misolida krsatish mumkin. Biroq xalq milliy mafkurasi qadriyatlarini jamiyat uchun eskilik sarqiti-feodal unsurlar deya jamiyat madaniy-axloqiy hayot tarzidan yo‘qotishga uringan.

O‘zbekiston madaniyati tarixidagi 19-asr oxirlari va 20-asr boshlaridagi savodsizlikni tugatish kampaniyasi davridagi arxiv hujjatlari, muzeylarda namoyish qilinayotgan faktlarda nomoddiy madaniy meros an‘analariga bo‘lgan munosabat yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, yurtimizda o‘tmish merosga nisbatan ehtiyoj birdaniga kuchaydi. Davlat va jamiyat etnomadaniyatimizga taalluqli an‘analarni to‘plash, arxivlashtirish va ulardan milliy mafkura g‘oyasi ishlab chiqishda foydalanishga e‘tibor qaratdi. Istiqolning dastlabki yillari O‘zbekiston madaniy-ma‘rifiy va etnomadaniy hayotidagi oilaviy-maishiy udum-marosimlardan tortib, ommaviy-badiiy tadbirlarni o‘tkazish an‘analari xalq tomonidan asrlar bo‘yi orzu qilib kelingan milliy g‘oyalari tantanasi ramzi. desa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yurtimiz Uchinchi renessans poydevorini qurish davriga kelib, nomoddiy madaniy merosga zarurat yanada kuchaydi. Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev xalqimizning asrlar mobaynida orzu qilib yashagan mustaqillikni yanada mustahkamlash, so‘nggi yillar islohatlarni amalga oshirishdagi beshta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha Harakatlar strategiyasini hayotga joiy etish asosida barcha sohalar qatori ma‘naviy-ma‘rifning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratayotganligini xalq va deputatlarga yo‘llagan Murojaatnomalari orqali bilish mumkin. Prezidentimiz kun tartibiga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini real voqelikka aylantirish shiorini qo‘ydi. Yurtimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” bevosita xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratgan nomoddiy madaniyati sohasidagi ishlarga taalluqlidir. Jahon nomoddiy madaniyati merosiga YUNESKO tomonidan rasman kiritilgan “Boysun etnomadaniy muhiti”, “Shashmaqom”, “Katta ashula”, “Askiya san‘ati”, “Navro‘z” xalq bayrami, “Palov” taomi tayyorlash an‘anasi, “Marg‘ilon hunarmandchilik markazi” va “Lazgi” raqs san‘ati kabi milliy qadriyatlar nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilganli ham davlat tomonidan milliy konsepsiya amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Demak, nomoddiy madaniyatga xos yetib kelgan meros yurtimiz madaniy hayotiga globallashtirish munosabati bilan kirib kelayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari soyasida qolib ketmasligi uchun turli amaliy choralar topish lozim. Prezidentimiz 2021 yil 21 yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishda zamonaviy axborot texnologiyalariga noto'g'ri munosabatning salbiy tomonlari haqida fikr bildirib, yoshlar tarbiyasi uchun ko'proq milliy ruhdagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi meroslardan bahramand bo'lishga chaqirdi. Shuni alohida ta'kidlash joyiz, tirik inson bolasi yo'qki, u muayyan bir milliy urf-odat, udum yoki biror marosimdan ajralgan tarzda voyaga yetgan bo'lsin. Milliy an'analardan mosuvo kimsani jamiyatning ongli a'zosi deb atash ham xato bo'lur edi. "Nomoddiy madaniy meros" o'quv qo'llanmasi kutubxonchilik, teatr san'ati, dramaturgiya, kino va radio-televizion madaniyat sohasidagi tashkilotchi, soha boshqaruvi, zamonaviy estrada aktyori, rejissiyori, milliy vokal va cholg'u ijrochiligi, ashula va raqs hamda folklor-etnografiya badiiy rahbarligi bo'yicha oliy ma'lumot olayotgan bakalavrlar, madaniyat va san'at yo'nalishi bo'yicha ilmiy izlanish olib borayotgan magistrlar uchun nomoddiy madaniy meros, uning an'anaviylik va zamonaviylik mohiyatini ilmiy idrok qilishlariga yordam beradi. Bulardan tashqari, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va elshunoslik fanlari tahsil olayotgan talabalar, magistrlar, mustaqil ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar ishlari yo'nalishlarida metodik tavsiyanoma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

HAYOTBAXSH AN'ANALAR VA SAN'AT

“San’at” arab tilidan kirib kelgan atama bo‘lib, “hunar”, “kasb”, “sanoat” kabi ma’nolarni anglatuvchi so‘zdir. U odamzod o‘zi yashab turgan dunyoning turli tabiat hodisalari, tabiat go‘zalliklari va insoniy munosabatlar doirasidagi qalb kechinmalariga his-tuyg‘u vositasida obrazli badiiy ifodalash natijasida paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham, san’at ilohiy tushuncha sifatida faqat inson bilan birgalikda tasavvur qilinadi. Insoniyatning nomoddiy madaniyati ilk debochasi hisoblangan miflar san’atning asosiy manbaidir. Istalgan xalqning mifologiyasi hayratlanish tuyg‘usi orqali paydo bo‘lganligini “Asotirlar va rivoyatlar”, “Dunyo xalqlari mifologiyasi” va bugungi kunlargacha xalq og‘zaki jonli so‘zlashuv nutqidagi fantastik tasvirga ega ramziy inonchlarni kuzatish mumkin. Masalan, “Sulaymon o‘lib, devlar qutuldi”, “Daqqi Yunusdan qolgan-ku” kabi oddiy iboralar, “Oq ilon, oppoq ilon, Oydinda yotganing qani. Biz yomondan ayrilib, yaxshini topganing qani,” singari folklor qo‘shig‘idagi dev, Daqqi Yunus, oq ilon mifologik ramzlar ko‘plab uchraydi.

Dunyo xalqlari etnomadaniyatida mifologiya san’atning boshlanishi deya unga yondoshuvchi olimlar jamiyat tarixidagi tabiat stixiyasiga qarshi qurol vazifasini bajargan deb baholaydilar. Vaholanki, inson aql-idroki o‘zligini so‘z kuchi magiyasi yordamda aks ettirib, ilk badiiy ramzlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Olimlarning e’tiroficha, qadimgi odamning o‘zini qurshab turgan olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari mifologiyada aks etgan. Oradan millionlab yillar o‘tishiga qaramay, odam farzandlari otabobolarining ibtidoiy tasavvuri hisoblangan miflarga nisbatan e’tiborlarini yo‘qotgan emas. Folklorshunos M. Jo‘rayevning ta’kidlashicha, odamlar olam haqidagi dunyoqarashlarini avloddan-avlodga yetkazishda asosan jonli ijro usuli orqali hikoya qilib berishgan va shu tariqa folklorning afsona janri shakllanishiga manba bo‘lgan. Darhaqiqat, dunyo folklorshunosligida ham miflar insoniyat mada niyatining insoniyat tafakkur taraqqiyoti uchun muhim manba ekanligi E. Taylor, Dj. Frezer, A. Kun, M. Miller, A. Potebnya va YE. Meletinskiy va boshqa olimlar tadqiqotlarida ta’kidlangan. “Mif-bu muayyan voqelik bayoni bo‘lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisalar nechog‘lik uydirma bo‘lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyda hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilinadi”, - deya ta’riflaydi folklorshunos M. Steblin-Kamenskiy. (Mif.-L: Nauka, 1976. Str.4.). Ilm-fan taraqqiy etgan va turli-tuman axborot olish imkoniyati mavjud davrda ham insonlar kundalik turmush tarzlari hamda shaxsiy hayotlarida mifologiya asoslangan irimlar, udumlar, urf-odatlariga hamon inonch bilan munosabatda yashamoqda, Buni nomoddiy madaniyatga kiruvchi etnik turmush tarzi

manzaralari orqali ko‘rsatish mumkin. Chunonchi, go‘dakning dunyoga kelishi bilan bog‘liq udum va marosimlarda bayon etiladigan so‘z magiyasidan tortib, ijro jarayonidagi ritullar misoli orqali kuzatamiz. Zero, mifologiya ruhida juda ko‘plab o‘zbek an‘analari YUNESKO tomonidan e‘tirof etilgan nomoddiy merosi sifatidagi umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi, deya baholanadi (YUNESKOning 2003 yil 15 oktabr, Parijda qabul qilingan Konvensiyasi). Konvensiyada umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan nomoddiy meros turli tilda so‘zlashuvchi va turli e‘tiqodlarga ega odamlarning ijodkorlik faoliyati ekanligi qayd etildi. O‘zbekistondan o‘sha paytda to‘rtta nomoddiy madaniyat obyekti reprezentiv ro‘yxatga kiritilgan edi. 2021 yilga kelib, yana to‘rtta madaniy meros YUNESKO tomonidan e‘tirof etildi va ro‘yxatga kiritildi. Shular orasidagi “Lazgi” raqsi tom ma‘noda ota-bobolarimizning erdan oldingi davrlarda ham oddiy xalq vakilari tomonidan ijro etilganligi haqidagi ma‘lumotlar grek-yunon tarixchilari Strabon va Gerodot asarlarida uchratish mumkin. Qadimgi massagetlar kechasi gulxan yoqishib, uning atrofida qo‘shiq aytishib, raqsga tushganliklari haqida yozganlar. Bundan tashqari, otashparastlikning ilohi Mitraning ramziy holati raqqoslar tomonidan ko‘rsatilishi singari mifologik tasavvurlarga oid qarashlar ham mavjud.

Ijtimoiy ong shakliga kiruvchi turli fan sohalari tadqiq etilyotgan mavzular asosini xalq tomonidan ming yillar muqaddam yaratilgan og‘zaki so‘z san‘atiga borib taqalishiga bog‘lashni e‘tibordan ataylab qoldirgandek tuyuladi. Masalaga mantiq nuqtai nazardan yondoshilsa, tariximizda buyuk kashfiyotlar qilgan alloma-yu, olimlar, shoiru davlat arboblari hozirgi biz yashayotgan yurt tuprog‘i va undagi turli-tuman nomoddiy malaniy an‘analar qurshovi-muhitida go‘dakligi, bolaligi, o‘smirligi va yigitlik davrlarini o‘tkazishgan. Chunki oilaviy va ijtimoiy muhit insonning xarakteri hamda ma‘naviy-ma‘rifiy qobiliyati shakllanishida asosiy omil ekanligini hech kim inkor qilmaydi. Agar hozirgi kungacha maydonga kelgan va faoliyat ko‘rsatayotgan san‘at turlari taraqqiyot jarayoniga yuqorida bayon etilgan fikrlar nuqtai nazaridan yondoshilsa, folklorning og‘zaki ijod an‘analari ta‘siri u yoki bu darajada o‘z ta‘sirini hanuz yo‘qotmay kelayotganligini anglaymiz. Ushbu ta‘sirning yorqin namunasini san‘atning badiiy adabiyot, teatr, kino (animatsiya), qo‘shiq, raqs, sahna va maydon tomoshalari san‘ati hamda folklor-etnografik jamoalar san‘ati kabi turlari rivojlanish yo‘llarida ko‘ramiz.

XXI-asr boshiga kelib, G‘arb dunyosida olimlari juda keskin va xatarli muammo-demografik omilga ya‘ni oila va ijtimoiy munosabat an‘analari inqirozi boshlanganligini aniqlab, uning asosiy sababini aniqladilar. O‘sha olimlar orasidagi taniqli faylasuf Patrik Byukenen demografik vaziyatning keskinlashuviga azaliy urf-odat va qadriyatlarning yemirilayotganligi, bu salbiy holat kishilarning ongi va dunyoqarashi yomon tomonga o‘zgarishida aks etganligi bilan belgilanadi, degan xulosani chiqargan. (Qarang: Tamaddun: xatarli alomatlar. T.: ”Tafakkur” nashiyoti. 2010.5-bet.). Keltirilgan iqtibosning mazkur o‘quv qo‘llanmaga aloqasi shundaki, nomoddiy madaniy merosning

eng qadimiy va azaliy qadriyati hisoblangan xalq ogʻzaki ijodi qaysidir bir tomondan milliy oʻzlik saqlanib qolish uchun u yoki bu darajada xizmat qilganligi tabiiydir. Chunki yurtimiz ilm-fan va sanʼati sohasida yetishib chiqqan aksariyat insonlar oʻzlarining xarakter va tafakkur faoliyatlari shakllanishida ona tomonidan aytilgan allalaru, buvi-bobolar pand-nasihatlari, bayon etgan ertaklari poydevor rolini oʻynaganligi eʼtirof etiladi. Binobarin, xalq milliy qadriyatlari ummonida voyaga yetgan har qanday odam ilm-fan yoki sanʼat sohasi bilimdoni boʻlmasa ham qalbi insoniy fazilatlarga toʻla oddiy kishi boʻlib shakllanadi. Shu fikrni tasdiqlovchi misollar sangʻi yoʻqdir. Taqdir taqozasi bilan respublika madaniyat markazlari yoki zamonaviy axborot vositalari kam yetib borgan uzoq qishloq-ovullar, togʻ oraliqʻida ota-bobolari azaldan hayot kechirib kelgan joylarga borganimizda oddiy bir onaxon yoki otaxonning soʻz boyligi nechogʻlik normal darajadaliq, nutqlari eshituvchiga taʼsirchanligi va eng asosiysi, oʻtmish avlodlari tomonidan aytib kelingan ibora, maqol, naqlar-umuman, ogʻzaki ijodga oid namunalarni soʻzlab berganlarida xuddi bir aktyor teatri tomoshasida zavq olgan kabi taassurotlar bizlarda paydo boʻlganligini taʼkidlash joyiz. Demak, insoniyatning tamadduni faqat ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ilmiy-texnologik yutuqlarni qoʻlga kiritish bilan cheklanmas ekan. XXI-asr boshlariga kelib aksariyat rivojlangan davlatlar maʼnaviy-madaniy hayotida yuz berayotgan axloqiy inqirozlar, xususan oila institutidagi salbiy holatlar dunyo hamjamiyati olimlarini tashvishga sola boshladi. Chunonchi, azaliy diniy qadriyatlar bilan birga axloqiy anʼanalar zamonaviy virtual olomon tomonidan rad etila boshladi. Bu holatni “ommaviy madaniyat” deb nomlangan tushuncha bilan ragʻbatlantirish, unga ergashmaydiganlar “qoloq odamlar” deya jamiyatdan chetlantirila boshladi. Dunyoning aksariyat yoshlari tomonidan qabul qilingan axloqqa zid va qadimgi ota-bobolar tomonidan qargʻishga uchragan illatlar xuddi epidemiya singari qoʻshni mamlakatlar turmush tarziga ham taʼsir eta boshladi. Xususan, etnik turmush tarzida azaliy milliy qadriyatlar barham topmagan Markaziy Osiyo hududida ham “ommaviy madaniyat” oʻz qiyofasini koʻrsata boshlaganligi Davlatimiz rahbari va xalq milliy qadriyatlari boʻyicha mutaxassislarida jiddiy tashvish uygʻotdi. Shuning uchun ham, nomoddiy milliy merosni saqlab qolish, undan jamiyat maʼnaviy-maʼrifiy rivojlanishida faol bahramand boʻlish masalalari kun tartibiga qoʻyildi. “Alpomish” dostonining 1000 yilligi, “Baxshichilik sanʼati Xalqaro festivali”. “Xalq hunarmandchiligi xalqaro festivali”, “Xalq milliy moddiy madaniyati boʻyicha 7 Xalqaro simpoziumi”, “Lazgi” xalq” raqsi boʻyicha Xalqaro festivali”ni oʻtkazish” boʻyicha Qaror va har yili keng miqyosda nishonlanayotgan xalq bayram-sayillar, Respublika Maʼnaviyat-maʼrifat markazlari tomonidan olib borilayotgan yuzlab tadbirlar va boshqa “milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” gʻoyaviy ishlar davlatimiz siyosati darajasini belgilaydi. Yurtimizda maʼnaviyat bilan bogʻliq barcha madaniy-maʼrifiy ishlar pirovard natijada milliy gʻoyani yuksaltirish, kelajak avlodlarimiz yashaydigan jamiyat hayotbaxsh qadriyatlarimiz ruhida boʻlishi uchun kerakli choralar koʻrishni taqoza qiladi. Buning

uchun bugungi kun san'at va madaniyat sohasi kadrlari ko'proq ilmiy bilim va nazariy ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. Xususan, nomoddiy madaniy meros va uning zamonaviy san'at va madaniy hayot uchun mos keladigan an'analardan amaliyotda foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Zero, bir vaqtlar dunyoni lol qoldirgan ko'pgina tamaddunlarning barchasi uchun xos bo'lgan ma'naviy inqiroz sodir bo'lishiga hech kim kafolat bera olmaydi. G'arb axloqshunos va faylasuflari kuyunib yozayotganlaridek, "...qandaydir sabablar tufayli an'anaviy e'tiqodning jamiyat hayotiga ta'siri susaygan yoxud undan butunlay voz kechilgan hollarda millatlar, xalqlar va davlatlar tanazzulga yuz tutgan". (Tamaddun: xatarli alomatlar. T.: "Tafakkur". 2010. 12-bet.). Ijtimoiy-iqtisodiy nihoyatda rivojlangan davlatlar olimlarining bergan maslahatlari bugungi o'zbek olimlari va soha mutaxassislariga saboq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Nomoddiy madaniy merosning xalq og'zaki ijodi qadriyatlarini barhayot an'analari, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Buni oila pedagogikasi bilan tortib, keng miqyosda ta'lim tarbiyaga oid muassasalar ish faoliyatidan tortib, turli mavzuda uyushtirilayotgan ommaviy-madaniy tadbirlarda foydalaniladigan ishlar tarkibidagi og'zaki ijod namunalari misolida izohlash mumkin. Yuqorida biz G'arb sotsiologlari demokratiya yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda aholi boshiga tushayotgan noinsoniy ko'rguliklarning ta'siri dunyodagi milliy qadriyatlarini hali yo'qotmay kelayotgan boshqa xalqlar tushmasligi borasida bong urayotgan fikrlarini bejizga keltirmadik. Chunki bu yomon kasofat bamiqli epidemiyalar singari yurtimiz sarhadlariga kirib kelishi kafolatlanmagan. Zamonaviy axborot almashinuvi vositalari takomillashgan davrda xalqimiz milliy qiyofasini saqlab kelayotgan bebaho nomoddiy madaniyat merosni nafaqat saqlash, balki uni ta'lim dargohlarida o'quvchi-talabalar saviyalariga moslab o'rganish, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va san'at muassasalarida qadriyatlardan intensiv foydalanish lozim. Yo'qsa, "ommaviy madaniyat" ruhida yashayotgan g'arblik odamlar qatoriga qo'shilib ketishimiz xavfi tug'iladi. Mamlakatimizning millatparvar va insonparvar insonlari Istiqlol kirib kelgan ilk yillar ommaviy miqyosda uyushtiriladigan har qanday madaniy-ma'rifiy tadbirlarga iloji boricha yurtimizdagi katta-yu kichik tushunadigan, tomosha qilsa, tushunarli, tinglasa, tez anglaydigan folklorning ibratli so'z san'ati namunalari o'rinli foydalanganliklarini "Navro'z" xalq bayram-sayillari, "O'zbekiston Mustaqilligi" bayrami hamda qishloq, tuman, shahar va viloyatlar miqyosidagi ommaviy-badiiy tadbirlari dasturlari misolida ko'rsatish mumkin. Binobarin, katta masshtabdagi ommaviy-badiiy maydon tomoshalari faqat mamlakatimiz aholisi uchunгина emas, balki xorij tomoshabinlariga ham namoyish etilishi endigina yurt ozodligi va Istiqlolini chin yurakdan his etayotgan xalqimizning milliy ruhini bilishlari uchun imkoniyat tug'ilgan edi. Davlatimiz tomonidan xalq milliy qadriyatlariga nisbatan e'tibor baxshichilik san'ati an'analari, bolalar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega tomosha vositasi – bolalar folklor festivallari, o'yinlari va badiiy multfilmlar yaratish kabi va boshqa ishlar

yo‘nalishida aksini topdi. O‘zbek folklori an‘analarining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lgan xalq baxshichilik san‘ati yanada qadrlandi. Davlatimizda “Xalq baxshisi” unvoni joriy etilishi asta-sekin unutilib borayotgan doston janri va u orqali boshqa janrlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, dunyoning biror etnik aholisida uchramaydigan “Askiya” janri, ayol ijrochi xalfalar joylardagi madaniyat muassasalari orqali yanada jonlantirildi. Misol tariqasida Farg‘ona vodiysi viloyat va shaharlarida askiyachilik klublari, Xorazm viloyati shahar va qishloqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan folklor-etnografik jamolari tarkibidagi ayol xalfalar ijro san‘atlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosining zamonaviy san‘at, xususan, Yevropa va Rossiya ta‘sirini orqali kirib kelgan birinchi VIA-“Yalla” ansamblini milliy estrada qo‘shiqchiligi sifatida jahonga tanitganligini hech kim inkor eta olmaydi. “Yallama yorim, yallola” nomli erkaklar hozirgacha kuylab kelinadigan xalq qo‘shig‘i ta‘sirida shakllangan bu ansambl repertuari asosan folklor aytimlaridan iborat. “Boychechak”, “Qarg‘alar uchsa qaraylik”, “Qilpillama yorim”, “Mardikorlar qo‘shig‘i”, “Yomg‘ir yog‘aloq boshqa xalq qo‘shiqlari o‘zlarining qadimiy ritm va ohanglari ijrosini saqlagan holda tinglovchiga yoqimli his-tuyg‘u bag‘ishlaydi. Ushbu jamoa ijro san‘ati milliy ohang uyg‘unligida qo‘shiq shinavandalariga ajib zavq bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, xalq qo‘shiqlari bag‘rida voyaga yetgan elimizning suyuqlik san‘atkorlari – Botir va Farrux Zokirovlar ansambl repertuariga qo‘shiq tanlashlari, zamonaviy estrada san‘ati talablarini buzmasdan folklorga xos ijro san‘ati ohanglarini aranjirovka qilishlarida milliy madaniy merosni chuqur o‘rgangan edilar. Ularda nomoddiy madaniyatimizning milliy ruh aks etgan udumlari, urf-odatlar va marosimlariga nisbatan samimiy hurmat borligi ushbu estrada guruhining dovrug‘i dunyoga tanilishga sabab bo‘lgan. Mazkur milliy estrada qo‘shiqchiligi guruhi boshlagan an‘ana 20-asrning oxiri va 21-asr boshlarida maydonga kelgan “Surxon”, “Anor” va boshqa estradaga moyil jamoalar ijro san‘atiga ta‘sir ko‘rsatdi. Biroq ulardagi ayrim san‘atkorlar ijro mundarijalaridan o‘rin olgan qo‘shiqlar hisobga olinmasa, repertuardagi dasturlar eron, ozarbayjon, turk va arab folklori ijro usuliga taqliddan iboratligi tomoshabin ensasi qotishiga olib keldi. Masalan, “Surxon” guruhi xonandasi Maxmud Nomozov tomonidan ijro etilgan xalq baxshilari an‘anaviy doston va terma kuy-ohanglari 1990 yillar xalq tomonidan juda yaxshi kutib olindi. Bu guruh xorij safarlarida bo‘lib, elimizning qadimiy folklor ijro usuli an‘analarini dunyoga tanilishi uchun xizmat qilgan edi. “Surxon” davlatimiz tomonidan rag‘batlantirilib, keyingi ijodi faoliyatini boshlagan uslubda davom ettirishga katta umidlar bildirilgan folklorning Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktabi baxshilari ijro san‘ati an‘analari ruhida shakllangan bu jamoa ham 21-asr boshlariga kelib, boshqa mavsumiy estrada jamoalari singari ijodiy faoliyatlarini to‘xtatdilar. Nazarimizda, bunga sabab sifatida yurtimiz moddiy tomondan ancha yuksalgani, odamlar orasida milliy to‘y marosimlarini hoyu-havas bilan juda

xarajatlar hisobiga nishonlash urfga kirganligi va to‘yni kim o‘zar salbiy holatga aylantirilgani, to‘y egalari mehmondorchilik bazmlarini nihoyatda isrofgarchilik darajasiga yetkazib, mast-alast olomoni yanada xursand qilishlari uchun respublikamizning dong‘i chiqqan san‘atkorlarini katta-katta pullar hisobiga xizmat qildirish taomili “xizmat ko‘rsatgan” va “xalq” artistlari ijodiy faoliyatlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgani bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Chunki o‘tmishning inson omiliga xizmat qiluvchi har qanday milliy qadriyat muqaddas hisoblanadi. Og‘izdan-og‘izga, otadan-farzandga, ustozdan-shogirdga – umuman, bir avloddan keyingi avlodlarga ma‘naviy meros bo‘lib kelayotgan barhayot an‘analar hech qachon bepisandlik va mensimaslikni kechirmaydi. Ayrim san‘atkorlarning muqaddas nomoddiy merosimizni nafs yo‘lida unutayotganligi tufayli, ajdodlar ruhi norozi bo‘laveradi. Xalq ommasi umumiy madaniyati, ya‘ni ming yillar mobaynida axloq-odob, insof va adolat, kamtarlik va insonparvarlik singari umumbashariy g‘oyalarni o‘zlaridan keyingi avlodlari hayot kechirish tarziga singdirish uchun kashf etilgan vosita va muassasalar barhayot an‘analarni davom ettirish, yangi davrga mos holda ettirishni taqozo qiladi. O‘tmishning barcha milliy qadriyatlari mundariyasi odamzodni baxt-saodat va faqat yaxshilikka xizmat qiluvchi ibratli g‘oyalardan tashkil topgan. Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha etnik xalqlarning milliy qadriyatlari o‘zlari uchun hayot kechirish maktabi hisoblanadi. Shuning uchun ham turli til, turli diniy e‘tiqod va turli irqqa mansub odamlar qanday bo‘lmasin, milliy qiyofalari, etnomadaniyati va boshqa barhayot an‘analarini saqlab qolishga intiladilar. Masalaning mana shu ahamiyati dunyo hamjamiyatida nomoddiy madaniy merosni saqlab qolish zaruratini tug‘dirdi va 2003 yil, 15 oktabr kuni YUNESKOning 32-sessiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi Konvensiya qabul qilindi.

Nomoddiy merosning milliy qadriyatlarni zamonga mos beshta yo‘nalishlaridan eng muhimlaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki so‘z san‘ati hisoblanadi. Folklor so‘z san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari, ya‘ni og‘zakilik, an‘anaviylik, ommaviylik va variantlilik jihatlari turli yosh va har xil saviyadagi tinglovchi hamda tomoshabinlar uchun tez qabul qilinishi, ma‘no-g‘oyaning barchaga mosligi va syujet voqealarining hammabop-ibratliligi bilan hamoshabinlar uchun tez qabul qilinishi, ma‘no-g‘oyaning barchaga mosligi va syujet voqealarining hammabop-ibratliligi bilan hamon ahamiyatini yo‘qotmay kelayotir. Nomoddiy madaniy merosning ijro san‘ati, turli urf-odat, marosim va bayramlar hamda an‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq yo‘nalishlari og‘zaki ijod so‘z san‘atiga nisbatan hammabop xarakterga emas. Chunki ushbu yo‘nalish turlarini uyushtirish, tashkil etishda qadimdan el orasidan an‘anani biladigan, tajribali va so‘zga chechan kishilar faoliyat ko‘rsatib kelishgan. Bu holat hozirgi kun o‘zbek etnomadaniyatida saqlanib qolgan. So‘nggi yillar xalqaro va mamlakatimiz madaniy hayotida tashkil etilayotgan ommaviy-badiiy tadbir va maydon tomoshalarini uyushtirishda respublikaning turli viloyatlaridan tashrif buyurishgan folklor-etnografik

jamoalari vakillari hamda milliy madaniyatimizni yaxshi biladigan ommaviy tomoshalar rejissiyorlari korfarmonlik vazifasini bajarayotganligini ta'kidlash kerak. Toshkent shahri va viloyat markazlarida maydon tomoshalari san'atining yanada milliy ruh va Istiqlol g'oyalarini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar iloji boricha keng jamoatchilik manfaatlariga mos bo'lishi, tomoshalarda xorijlik mehmonlar, qardosh xalqlar vakillari ham ishtirok etishlari ham hisobga olinishi ko'zga tashlanadi. Bu holatni konsert dasturlari tanlanishida iloji boricha qadimiy urf-odat va marosimlar, ulardagi verbal qo'shiq-aytimlar ijrosi tanlanayotganligi, namoyish qilinayotgan sahna ko'rinishini milliy libosdagi ishtirokchilar va etnik turmush tarzimizga xos an'anaviy hunarmandchilik, milliy pazandachilik singari etnomoddiy an'analar bilan bezatilayotganligidan ko'rish mumkin. Keng masshtabdagi ommaviy-badiiy tadbirlarning zamonaviy ruhda o'tkazilayotganligining obyektiv sabablaridan biri davlatimiz Rahbarining xalq milliy an'alariga nisbatan alohida g'amxo'rlikning amaliy ifodasi, ikkinchisi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining "Folklor va etnografiya" kafedrasida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning soha yo'nalishida olib borayotgan amaliy faoliyatlaridir.

O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlar tizimidagi barcha shaklga xos namunalar inson aqliy-idroki va ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi taraqqiyotiga xizmat qiluvchi mohiyatga ega. Zamonaviy estrada qo'shiqchiligi yoki aktyorlik san'ati ijodkorlarining turli-tuman mavzulardagi chiqishlarida notiqlik mahoratlari, sahna nutqlarida qo'llayotgan iboralari (frazologik birliklar), xalq maqollari, xalq aytimlaridan bahramand bo'lishlari ozgina bo'lsa-da, konsert dasturlariga milliy ohang bag'ishlaydi. Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan san'atkorlarning folklor an'alariga nisbatan munosabatlari ular yoshlikdan o'zlari ulg'aygan hudud jonli ijro va muhit etnomadaniyati ta'siriga ham u yoki bu darajada bog'liq. Buni estrada san'ati qiziqchiligi ijro jarayoni tahlilidan bilsa bo'ladi. Masalan, Mustaqillik yillari arafasi va undan keyingi yillar o'zbek qiziqchilik san'atida maydonga chiqqan askiyachilar, yakkaxon so'z ustalari va tomoshabinlarga tabassum ulashayotgan turli guruhlar ijrochilari xalqimizning og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan turli mavzulardagi la-tifalari bilan bir qatorda iboralaridan bahramand bo'lishayotganligini ta'kidlash joyiz. Hojivoy Tojiboyev, Mirzaoxun, Zokir Ochildiyev va boshqa qiziqchi-so'z ustalari tomonidan qo'llangan o'zbek tilining ma'nosi bir so'z holiga teng kelib qolgan xalq iboralariga zamonaviy axloq-odob nuqtai nazaridan izoh berish orqali kulgi chiqaruvchi hazillari barcha yoshdagi tomoshabinlarga manzur bo'layotganligi fikrimiz dalilidir. Shunday iboralar (ayrim hollarda "matal" ham deb qo'llanadi) borki, agar u to'g'ri aytiladigan shaklda qo'llansa, haqiqatdan ham kulguli ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, "Besh barmog'ini og'ziga tiqadi", "Bi-ti to'kildi", "Diydasi qattiq", "Dor tegidan qochgan", "Manglayi sho'r", "Po'staini qoqdi". "Quloqqa lag'mon osdi", "Yumshoq supurgi" va boshqa yuzlab frazeologik iboralar ota-bobolarimiz tomonidan bejiz yaratilmagan. Ular nutqni ta'sirchan qilishlari

bilan birga tinglovchiga ibratli saboq berishi va soʻzlovchining no- tiqligini bildirishga xizmat qilgan.

Xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratgan oddiy iboralaridan tortib, anʼanaviy soʻz sanʼatiga oid merosi yillar osha ogʻizdan ogʻizga, otadan farzandga, ustozdan shogirdga oʻtib, sayqallanib borgan va bizga qadar qancha-qancha avlodlarga maʼnaviy- maʼrifiy, axloqiy-madaniy oziq berib barqaror holatga yetishgan. Ayniqsa, soʻz, nutq va muomala madaniyatida oʻzbek tilining imkoniyat darajasi nihoyatda kengligini soʻz mulki sultoni Alisher Navoiy asarlari bu borada yorqin misol boʻladi. Chunonchi, ulugʻ shoir soʻz boyligi jihatdan dunyo ijod- korlari oʻrtasida 26 ming 35 ta soʻz qoʻllagani bilan yetakchi oʻrinda turadi. A.S. Pushkin 21 ming 193 ta, Uilyam Shekspir 20 mingdan bir oz ortiq ona til lugʻatlarini asarlarida qoʻllaganlar. Mazkur misollarni keltirishdan maq- sad yurtimizda tavallud topib, dunyo ilm-fani, falsafasi va madaniyatiga hissa qoʻshgan alloma-yu, shoirlar, faylasufu davlat arboblari biz yashayotgan zamin va uning nomoddiy madaniy anʼanalaridan bahramand boʻlishgan. Agar biz oʻrganayot- gan masalaga mantiq nuqtai nazaridan baho beriladigan boʻlsa, goʻdakligida ona allasi ogʻushida bolalik davriga yetgan va bolaligi-oʻsmirligi buvi-bobolar erta- gidan fantaziyalari shakllangan va yigitlik yoshiga qadar turli-tuman urf-odat, udum va marosimlar ummonida voyaga yetib, ilm-fan, maʼrifat dunyosiga kelgan buyuk shoiru allomalar, faylasufu davlat arboblari kamoloti asosini nomoddiy milliy merosimiz tashkil qiladi.

Ogʻzaki ijod bilan bogʻliq nomoddiy madaniy merosning dunyodagi oʻzga xalq- lar folklorida uchramaydigan noyob tomosha janri-“Askiya” sanʼatiga xos hayot- baxsh anʼnalarining zamonaviy ahamiyati toʻgʻrisida tahlilimizni davom ettira- miz.

“Askiya” oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining sahna tomoshasi usulida yaratilgan ogʻzaki drama turidir. Yuqorida xalqona sahna tomoshasi sanʼatining bu turi faqat oʻz-bek folkloriga xos deyildi. Darhaqiqat, askichilik nihoyatda murakkab va ayni choqda, masʼuliyatlidir. Uni ijro etish qanchalik qiyin boʻlsa, tinglovchilar, tomoshabinlar tomonidan qabul qilish ham oson emas. Chunki askiyada nozik soʻz oʻyini qoʻllaniladi. Maʼlumki, soʻz oʻyinida askiyachidan soʻzni nihoyatda mohirlik va oʻz oʻrnida qoʻllay olish sanʼati talab qilinadi. Bundan tashqari, askiya ikki odam yoki ikki guruh askiyachilar mantiq asosida muayyan mavzu doirasida fikrlay olish musobaqasi hisoblanadi. Mazkur janrning asosiy mohiyati soʻz oʻyini vositasida biror maʼno va uning mohiyatini kulgi chiqarish orqali tomoshabinga yetkazish. Askiya janri ilmiy tadqiqotchisi Rasul Muhammadiyev uning yana bir xususiyati-hozirjavoblik orqali raqibiga chuqur maʼnoli javob qaytarish hisoblanadi (Muhammadev R. Askii Y. T.: 1962 y. 7bet.). Shuning uchun “Askiya” soʻzi arabcha “zakiy” yaʼni zehni oʻtkir, nozik tabiatli odam degan maʼno anglatishi ham bejiz emas. Askiyachilar soʻzdan soʻz hosil qilib, betakror sanʼat namunasini yaratadilar. Demak, askiya ijrochisi, qolaversa, uning tinglovchilari ham nozik did ega egalari sifatida bu janr anʼanalarini yaxshi bilishlarini talab qiladi. Ota-

bobolarimiz bugungi fanida ulkan kashfiyot deb baholanayotgan insonning fikr va his-tuyg'ulariga psixologik ta'sir ko'rsata olish usullarini bundan ming yillar muqaddam yaratib qo'yganligini tinglovchiga so'z vositasi bilan ibratli ta'sir etuvchi miflar, afsona va rivoyatlar, ibora va maqollar, topishmoq va tez aytishlar, ertak va dostonlar, latifa va loflar hamda askiyachilik va qiziqchilik singari verbal ta'sir vositalari orqali isbotlash mumkin. Zero, nomoiy madaniyat an'analari hali yozuv paydo bo'lmasdan avval odamlar orasidagi muomala va muloqot manbai sanalgan. Odamlar o'rtasidagi muomala va muloqotlarning qay darajada tabiiy hamda nihoyatda hayotiy bo'lganligini og'zaki so'z san'ati namunalari ijrosi orqali ko'rsatish maqsadga muvofiq. Folklor so'z san'atiga xos an'anaviylik, og'zakilik, badihago'ylik, ommaviylik jamoaviylik, variantlilik va versiyalilik hamda anonimlilik kabi xususiyatlar zamonaviy fandagi ruhiy-psixologik eksperimentlar xalq milliy pedagogikasida oddiy odamlar turmush tajribalari orqali o'tkazib bo'linganligi taassurotlarini beradi. Binobarin, folklor namunalari qachonlardir bir individ tomonidan yaratilgan. Har bir normal individga xos xususiyatlar betakror bo'lib, uning hayotiy tajribasi va tasavvurlari muloqotlar natijasida boshqa shaxslar bilimi va fantaziyasi bilan asta-sekin uyg'unlasha boradi. Bunday an'ana tarixiy-folkloriy jarayon deyiladi. So'z san'atiga xos folklor tur va janrlari ana tariqa badiiy merosga aylangan. Odamlarning o'zaro muloqatga ki-rishish ehtiyoji o'zlari orasidagi turli-tuman munosabatlarni jamoa tomonidan qabul qilingan umumiy qoidalar chegarasida bizga qadar yetib kelgan milliy qadriyatlar shaklida namoyon etgan. Shu tufayli, folklor so'z san'ati merosida shartlilik yetakchi o'rinda turadi. Zamonaviy madaniyat va san'at til qurilishi barchaga tushunarli va sodda, g'oyaviy-badiiy jihatidan ommabop, xotirada saqlanib qolish hamda ijro usuli barchaga yoqishi, g'oyaviy maqsadning ibratli ahamiyat kasb etishi tufayli ijodiy bahramand bo'lishi har tomonlama foydalidir. Ayniqsa, ijtimoiy tajribalarning yorqin namunasi hisoblangan so'z san'ati 21-asr globallashuv davriga kelib, "ommaviy madaniyat" tomonidan xudbinlashayotgan odam bolalarini ijtimoiylashuviga san'at ko'mak beradi. Hozirgi davr madaniy hayotida yetakchi o'rinni egallagan maydon tomoshalari san'ati nomoddiy madaniy merosning o'zlikni namoyon qiluvchi folklor ijodiyotidan intensiv foydalanayotganligini katta masshtabdagi bayramlar, ommaviy-badiiy tadbirlardagi an'anaviy og'zaki tomoshalar tasdiqlaydi. Xalqimiz mentalitega nihoyatda mos keladigan askiyachilik faqat kulgu vositasida aholiga xush kayfiyat bag'ishlashi bilan birga, moddiy-ma'naviy turmush yo'larida odamgarchilik va boshqa insoniy fazilatlarni tarbiyalanishida ibratli maktab rolini ham o'ynaydi. Askiya janri payrovlari va mavzulari zahirida xalq donishmandligi madaniyati o'z ifodasini topgan. Avlodlarimiz etnik turmush tarzlarida katta avlod vakillarining bebaho pand-nasihatlarini bilan odamni yaxshilikka undash, hayotga muhabbat uyg'otish va odamlarni ilhomlantiruvchi duolar tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas. Aksariyat xalq ommaviy tadbirlari hayotbaxsh ruhda o'tkazilmoqda. Buni har yil bahor fasli mavsum va marosim hamda bayram-sayillari

tarkibiga transformatsiyalangan xalq og‘zaki so‘z san‘ati qo‘shiqlari, aytimlari va askiyalari misolida kuzatish mumkin. Yangilanayotgan O‘zbekiston madaniyatida ota-bobolarimiz tomonidan yaratib, hayot tarziga singdirilgan bebaho milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat o‘zgarib boryotgan bir sharoitda xalq ijodiyotini yanada rivojlantirish, uning zamonaviy ahamiyatiga davr sharoiti nuqtai nazaridan yondoshish, o‘tmish merosini san‘at turlariga singdirish vazifasi dolzarb vazifalarga aylandi. Bu dolzarblikni Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning madaniyat – ma‘rifatimiz taraqqiyotiga shaxsan ko‘rsatib berayotgan amaliy kursatmalari orqali anglashimiz, shu sohaga mas‘uliyatli insonlarga nisbatan g‘amxo‘rliklaridan bilish mumkin. Buni 2019 yilning 5-6 aprel kunlari Yurt boshimizning tashabbuslari bilan jahon svilizatsiyasining qadimiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan Termiz shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro baxshichilik san‘ati” ochiq festivali misolida ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur festivalga jahonning 74 mamlakatidan 160 dan ziyod mutaxassis va folklor ishtirokchilari qatnashdi. Muhtaram Prezidentimiz festival minbari dan butun dunyoga murojaat etib, quyidagi umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarni bayon etdilar: “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san‘atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma‘lum. Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an‘ana va urf-odatlarini etadigan baxshichilik san‘ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir...hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biz nesning salbiy ta‘siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san‘atiga e‘tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san‘ati, ta‘bir joyiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir”. (Mirziyoyev SH.M. “Xalqaro baxshichilik san‘ati” festivali. 5.04.2019.y.). Darhaqiqat, Yurtboshimizning folklorsevarlarni mulohaza qilishga undovchi bu fikrlari xalq og‘zaki so‘z san‘atining askiya janri uchun ham bevosita tegishlidir. Dunyo xalqlari folklorida shunday janrlar borki, ular bevosita o‘sha xalqning nomoddiy madaniyatiga mansubdir.” Askiya” ana shunday original va faqat o‘zbek folkloriga xos bo‘lgan janr hisoblanadi. (Qarang: Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”. 2010 y. 95-bet.) Darhaqiqat, bu e‘tirof Jahon va rus folklorshunosligida ham o‘z aksini topgan. (Qarang: Likoshin S.P. Poljizn v Turkestane. Spb., 1916, Ibragimov I. Pyat dney v Kokande// Turkestanskiye vedemosti. 1872. №20.). Shuningdek, dunyo xalqlari folklori va etnografiyasi bo‘yicha berilgan internet saytlarida ham “Askia” janri bo‘yicha ma‘lumotlarning yo‘qligi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Bu janrning tarixiy-folkloriy jarayonda yuzaga kelishi va ommalashishiga tegishli tarixiy ma‘lumotlarni O‘zbekistonda teatr san‘ati maydonga kelishi bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqot olib borgan san‘atshunos

M.Rahmonov, folklorshunos va san'atshunos Muhsin Qodirovlarning monografik risolalaridan ko'rish mumkin. (Qarang: Rahmonov M., O'zbek teatri tarixi. T.FAN. 1968), (Qdirov M. Tomosha san'ati. T. 1993 y.) Ular sahna orqali ijro etilgan maydonda ko'rsatilgan "Aytishuv", "Zarofat", "Masxarabozlik", "Bahri bayt" kabi xalq og'zaki drama san'ati, shuningdek, keyinchalik "Askiya" janrlari o'zbek teatr san'ati tug'ilishi uchun manba bo'lib xizmat qildi, degan fikrlarni ilgari surganlar. (Ko'rsatilgan kitoblar.) Bizning fikrimizcha, askiyachilik oddiy mehnat ahlining badiiy so'z san'atidan kulgu chiqarish yo'li bilan fikrni hozirjavoblik usulida bayon qila olish musobaqasi sifatida askiya yaratilgan. Bunday intilish, odatda, oddiy xalqqa xos tipik holatdir. Chunki xalq ommasining umumiy psixologiyasida o'z iste'dodi va donishmandligini mehmondorchilik, to'y-tomosha va bayram-sayillarda ko'pchilik oldida namoyish etib, olqish olish an'anasi mavjud. Ikki kishi yoki ikki guruhning keng davrada so'zga chechanligi va berilgan mavzu mohiyatini so'z o'yini, qochirim, kinoya, mubolag'a, chiroyli lutf orqali davraning olqishlariga sazovorliklar, g'olib raqiblarga bag'oyat katta ruh bag'ishlaydi va tomoshabinlar hurmatiga erishadilar. Ma'lumki, so'z o'yini musobaqasida bayon etiladigan so'z va iboralar qanchalik aniq, ravshan va jarangli talaffuz etilsa, jumlar qisqa, puxta tuzilsa, tomoshabinga shunchalik tez yetadi, qiziqish yanada kuchayib, mavzu (payrov) uzoq davomli bo'ladi. Demak, "Askiya" janri ana shunday ma'naviy-madaniy ehtiyoj asosida paydo bo'lgan, deya xulosa chiqarishga imkon beradi.

O'zbek xalqining etnomadaniyatida xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, xalqtabobati, xalq meteorologiyasi, xalq odobnomasi va boshqa shunga o'xshash qator qadriyatlar mavjud. Ularni turli fan sohalari vakillari o'zlarining ilmiy yo'nalishida o'rganishadi.

Ma'lumki, madaniyatning bosh manbai hisoblangan Til, Nutq, Muomala singari kategoriyalar ko'proq lingvistika, tilshunoslik fanida ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etib kelinadi. 20-asrning 70-80 – yillari o'zbek madaniyatiga kirib kelgan Folklor – etnografik san'at nuqtai nazaridan xalq og'zaki ijodiyoti merosiga munosbat 21-asr boshlariga kelib, rivojlana boshladi. Buning obyektiv sabablaridan biri, mustaqilligimiz sharofati bilan keng miqyosda "O'zbekiston mustaqilligi", "Navro'z bayram-sayillari"ni tashkil etish, uning tantanalarini jahonga namoyish etish orqali yurtimizni olamga tanishtirish tadbirlari bo'lsa, ikkinchisi, Mustaqillik g'oyasining odamlar tafakkuriga ijobiy jihatdan ta'siri yanada kuchayganligi, milliy ruhning yuksala borishi va uchinchidan, Davlatimizning milliy qadriyatlarni rivojlantirish va saqlab qolish, zamonaviy san'atimizni milliy ruh an'alariga mos sintezlash kabi qator omillar tashkil etadi.

Mana shunday ommaviy - badiiy tadbirlar, maydon tomoshalari san'ati mohiyatan o'zbek folklorining "Askiya" janri tabiatiga mos kelganligi tufayli bu milliy qadriyatimizning amaliy ahamiyati oshdi. Avvallari bu janr O'zbekistonning

Fargʻona vodiysi va qis man Toshkent vohasida xalqning sevimli sanʻati sifatida funksiyasini bajargan boʻlsa, soʻnggi chorak asrda yurtimizning oʻziga xos milliy sanʻati sifatida ishqibozlarning sevimli dam olish vositasiga aylandi. Bu haqda marosimshunos va bayramshunos olimlarimiz ning askiyachilikka bagʻishlangan qator ilmiy va ommaviy-publitsistik ishlari ham xabar beradi. (Karabayev U. Kulturologiya. T.: “Shark”, 2005. str. 124.)

Demak, “Askiya” janri Oʻzbekistonda shakllangan “Maydon tomoshalari” sanʻatning yanada ommalashishi, madaniy-maʼrifiy va madaniy-estetik ahamiyatini targʻib etishda badiiy-gʻoyaviy qadriyat sifatidagi rolini oshishga yordam berdi, deyilsa mubolagʻa boʻlmaydi.

Askiyachilik dunyoning birorta etnik guruhlari ogʻzaki ijod sanʻatida uchramasligini yuqorida taʼkidlagan edik. Buning ham sabablari mavjud. Folklorshunoslikda tarixiy-folkloriy jarayon tushunchasi bor.

Unga koʻra, qaysi xalqning folklor sanʻatida muayyan xalqqa koʻproq qadrliligi va ommaviy janr yetakchi boʻlsa, uni yaratgan qadimgi avlodlar etnomadaniyati ularning umumiy dunyoqarashlari, falsafasi, atrof-muhitga munosabatlari va soʻz boyligi, nutq madaniyati oʻsha janrda u yoki, bu darajada oʻz aksini topgan boʻladi.

Qadimgi Yunon-rim, Xitoy va arab tarixchilaridan bizgacha yetib kelgan kitoblari va yilnomalardagi maʼlumotlarga qaraganda, hozirgi Fargʻona vodiysi va Toshkent vohalarida odamlar miloddan avval oʻtroq turmush kechirishgan, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashgʻul boʻlishgan. (Qarang: Gerodot, Poleon, Sima Szyan, Aristotel va boshqa eramizdan avvalgi mualliflarning asarlari nazarda tutiladi). Demak .ming yillar mobaynida oʻtroq etnik turmush tarzida yashab kelayotgan aholi madaniyati ularning ogʻzaki soʻz sanʻatida oʻz taʼsirini, ijtimoiy-madaniy ildizini qoldirishi tabiiydir. Askiyachilikdagi folkloriy jarayonning eng yorqin taʼsirini ijro usuli va badiihagoʻylik sanʻati orqali koʻrsatish mumkin. Ushbu janrning tabiati va ifoda uslubi soʻz oʻyini asosiga qurilganligida namoyon boʻladi. Soʻz oʻyini esa askiyachining soʻz boyligi, nutq madaniyati oʻz oʻrnida qoʻllay bilishlik mahorati bilan bogʻliqdir. Nozik soʻz oʻyinini ijro etish, soʻz va iboralarni sanʻatkorona qoʻllash mazkur janr ijrochisining hayotiy tajribasi, donishmandligi va bilimi darajasiga qarab baholangan. Buni oʻzbek askiyachilik maktabining Fargʻona vodiysi va Toshkent vohalarida mashhur boʻlgan Dehqon yuzboshi Shernazarov, Erka qori Karimov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tursunbuva Aminov, Abulxay maxsum Qozoqov, Joʻraxon Sultonov, Gʻanijon Toshmatov va boshqa koʻplab askiyachilar repertuarlaridagi asarlari ijrosi orqali koʻrsatish mumkin. (Qarang: Biz dissertatsiya ilovasida oʻnga yaqin askiyachilar toʻgʻrisida qisqacha izoh berib, ularning ijro mundarijalaridan oʻrin olgan askiyalar berib, ular bilan yaqindan tanishish mumkinligini bildiramiz.) Yana shuni alohida taʼkidlash kerak: askiya ijro etiladigan muhit, uni toʻgʻri qabul qila olish, askiyachining soʻz

o‘yinidan zavqlanish va o‘ziga yarasha xulosa chiqra olish malakasi bu janr yaratilgan hudud odamlarining madaniy saviyasi. hayotiy tajribalariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Buni 21-asrdek fan-texnika yuksak, axborot texnologiyalari rivojlangan davr maydon tomoshalari ishtirokchilari misolida ham kuzatish mumkin. Binobarin, yoshlikdan askiyachilik san‘atini tushunmagan yoki ommaviy-badiiy tadbirlarda askiyachilar guruhi chiqishlaridagi nozik so‘z o‘yining go‘zalliklaridan bahramand bo‘lmagan odamga kichkinagina askiyabop hazil qilib qo‘yilsa, o‘sha birodarimiz “kosa tagida nim kosa” qabilidagi lutfni qabul qila olmasligi, uning Farg‘ona vodiysi yoki Toshkent vohasi xalqi orasida kam bo‘lganligidan dalolat beradi. (Sultonov H. Askii.Y.T.: “CHO‘lpon”,1998 y.3-5 –sahifalar.)

“Askiya aytish qanchalar murakkab bo‘lsa, uni tushunish ham oson emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so‘z o‘yini qo‘llanildi. So‘z o‘yinini tushunish esa uni o‘ylab topishdek qiyin. So‘z o‘yinida uni o‘ylab topgan odamning fikrlash usulini qo‘llash lozim”,- deb yozgan edi folklorshunos olim Omonulla Madayev.(O.Madayev.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”,2010 y.95-bet.). Demak, askiya kechalarida uning ijrochilari auditoriyaning tarkibini ham hisobga olishlari kerak ekan. Askiyaga tashrif buyurgan tomoshabinlar tarkibi ularning yosh xususiyatlari, hayotiy tajribalariga qarab,payrovga mavzular tanlanadi. Chunki askiya ijrosi jarayonida kimdir kuladi,kimdir loqayd holda o‘tiraveradi. Gap nima to‘g‘risida boryotganini anglay olmaydi. Zero.mazkur janrning bosh maqsadi so‘z o‘yini vositasda kulgu hosil qilish, odamlarga tabassum ulashishdir. Askiyachilar bilan ishqibozlarning o‘zaro bog‘liqligi umumiy kulgi tug‘ilishi, kechaga xushchaqchaqlik bag‘ishlashida namoyon bo‘ladi.Masalan, “Gul payrovi”da askiyachilar turli gullarni o‘zaro dialoglari orqali gullarning nomlarini “qistirib” o‘tishlari va qaysi askiyachi ularni mahorat bilan ijro etishlariga qarab baholanishadi. Buni vodiylilik Maxsum aka va Hasanboy askiyachilar ijrosi tasdiqlash mumkin.(Bu payrov dissertatsiya ilovasida mavjud). Yuqorida eslatilganidek, askiya hozir javoblik, ziyraklik, donishmandlik va so‘zni mohirlik bilan qo‘llay olishlik san‘atini talab qiladi.Shuning uchun ham,vodiyda istiqomat qiladigan aksariyat odamlar O‘zbekistonning boshqa viloyatlariga nisbatan askiyachilik san‘atini nozik did bilan his etishib.bu holat ularning kundalik jonli muloqotlarida ham o‘z aksini topgan.Masalan,Qo‘qonlik Tursunbuva Aminov biror ilm dargohida bilim olgan bo‘lishlariga qaramay,ijro etgan askiya payrovlari orqali odamlarning mehrini qozongan edilar.Chunki Qo‘qon askiyachilik maktabida ustoz-shogirdlik an‘anasi qadimdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi tufayli,ko‘pgina mohir askiyachilar ustozlar ijro usulidan ibrat olishib,xalqning hurmatiga sazovor bo‘lishganligini Tursunbuva Aminov va qo‘qonlik boshqa askiyachilari ijro faoliyatlarida ko‘rinadi.Chunki qo‘qonlik askiyachilar butun vodiyl bo‘ylab turli ommaviy tadbirlar,bayram-sayillar va to‘ylarda davrani qizdirishganligi ular haqida yozilgan maqolalar, risolalar va hujjatli filmlar vositasidan bilsa bo‘ladi. “Ijroqo‘m”laqabi bilan mashhur bo‘lgan Tursunbuva shaxsiy ibrati bilan

xalqqa tanilgan edi. Askiya janri ustasiga xos fazilatlar egasi bo'lgan Tursunbuva o'z raqiblari va tomoshabinlarni go'zal insoniy fazilatlarini, axloq-odobi va so'zlash madaniyati bilan rom etgan edi. U kishining chehrasi doimo ochiq bo'lib, raqibiga "yo'l ochib", chiroyli lutf bilan gapni "chaynalib o'tirmay", asosiy maqsadini lo'nda va tushunarli aytib qo'ya qolishlari bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan edi.

Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi askiyachilari o'zbek tilining maktab o'quvchilari sinfida emas, balki katta-katta davralarda oddiy xalqning so'z boyligi va nutq madaniyatini o'stirishga o'zlari bilmaganlari holda ulkan hissa qo'shgan edilar va bu jarayon hozirgi kunlarda ham davom etayotir. Bunga isbot qilib televideniya orqali intervyu berayotgan ayrim yosh qo'shiqchilar, qiziqchilarning askiyachilik an'analari ta'sirida bayon qilgan nutqlaridan bilsa bo'ladi.

Boshqa folklor janrlarini aslo kamsitmagan holda askiyachilikni nutq madaniyatini rivojlantirishning eng qulay va oson ta'lim-tarbiya vositasi desa, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ham kuldirish, ham zavqlangan tarzda fikrlatish usuli, nazarimda, faqat askiya janrga ko'proq taalluqlidir. Ochiq maydon tomoshalarida ishtirok etuvchi tomoshabin birinchi marta askiyaning payrovining so'z o'yini ma'nosini unchalik anglamasligi mumkin. Biroq mana shunday askiya tomoshasiga ikkinchi bor tushgan odamda albatta muayyan bir fikrlash, aytilayotgan payrovning mohiyatini tushunishga beixtiyor intilishi tabiiy paydo bo'ladi. Mazkur xulosamizni misol tariqasida ko'rsatish uchun dissertatsiya ilovasidagi berilgan istalgan askiya matnini o'qishi mumkin. Ilovadagi Abdulla Akbarov bilan Mansurjonning "Bog'bonlar payrovi"da olma, nok, anor, xurmo va yong'oq kabi mevalar nomi zikr etilgan jummalarni shunday chiroyli nutq orqali bayon etishadiki, ishqibozlar ularning dialoglaridagi savol-javoblarigi lutf san'ati, o'zaro muomala madaniyatidan beixtiyor zavq olishadi.

"Askiya" janri ikki yoki ikki guruh askiyachilarining fikrlar, hozirjavoblik va so'zamollik munozarasidir. Lekin bu munozara xuddi askiyachilar orasidagi o'zaro tortishuv, bahsga o'xshasa-da, ularning bir-birlariga qaytargan javoblarida mantiq doimo ufurib turadi va askiyachilar nutqida raqibiga nisbatan umuman, salbiy holat tug'dirmaydi. Chunki askiyachilar qadimgi salafalaridan an'ana bo'lib kelayotgan askiya san'ati janr tabiatida asrlar bo'yi saqlanib keluvchi vositalar-allegoriya, mubolag'a, o'xshatish, grotesk, chandish, iyhom (shubha tug'dirish), maqol va ibora kabilardan vaziyatga qarab o'z o'rnida foydalanadilar. Bu fikrni dissertatsiya ilovasida keltirilgan askiya matnini kuzatib, aniqlash mumkin.

O'zbek folklorida "Askiya" janrining ilk tadqiqotchisi Rasul Muhammadiyev: "Askiya tez tafakkur qilish musobaqasi. Hozirjavoblik askiyaning eng muhim sharti, agar biror taraf o'z vaqtida chuqur ma'noli, raqibga nisbatan ustun javob qaytara olmasa (pauza bo'lsa), kulgining avji to'xtaydi, raqibning fikrida kuchsizlik alomati sezilib qoladi", - deya bu janrga izoh bergan edi. (Muhammadiyev R. Askiya. T.: G'ulom, 1970 y. 5-bet.).

Dunyoda juda ko‘p tillar barham topgan yoki yo‘qolib ketish holatiga kelib qolgan. Agar masalaga mana muammo nuqtai nazaridan baho beriladigan bo‘lsa, o‘zbek tilini yo‘qotishga qanchalik ko‘p urinishlar sodir bo‘lgan. Biroq asrlar mobaynida xalqimiz boshiga tushgan qancha-qancha balolar, zulmlarga qaramay millatimiz hamon dunyo tamadduniga atoqli allomalar-u, san’atkorlarni yetishtirib berishda davom etmoqda. Buning sabablaridan bittasi – ona tiliga muhabbat, uni e‘zozlab saqlashdagi intilish hisoblanadi. Ona tilimizning saqlanib kelishi va kundan-kun boyishida xalq ijodiyoti og‘zaki so‘z san’ati an’analariga nisbatan oddiy xalqimizning cheksiz mehr-muhabbatidir. Zero, askiyachilik ommaviy tomosha uchun yaratilgan folklor san’ati. Demak, fikrni to‘satdan, tayyorgarliksiz to‘g‘ri bayon qilish, omonim, sinonim va atonim so‘zlarni odamlarga bu san’at orqali yetkazilishi, albatta, ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otishi bilan folklorona fikrlash ko‘nikmalarini tarbiyalagan. Shu bois, askiya tomoshalarida ko‘p ishtirok etgan tomoshabinda beixtiyor so‘z va nutqqa e‘tibor zarurati paydo bo‘lgan. “Askiya” va boshqa maqol, ibora, topishmoq, sanama, tez aytish singari inson tafakkur taraqqiyotiga og‘zaki usulda ta’sir etuvchi janrlar ona tilimizning asrlar mobaynida saqlanib kelishi va taraqqiyoti uchun o‘ziga xos omil bo‘lgan. Chunonchi, bir necha ma’noni anglatuvchi, ko‘chma ma’nolar ifodalovchi o‘ynoqi so‘z va iboralarni qo‘llab, so‘z o‘yinlari kombinatsiyasida mantiqli javob aytish askiyachidan yuksak tajriba va so‘z boyligini talab qiladi. Askiyachi tomonidan so‘zlar qanchalik aniq, ravshan va jarangli ijro uslubida aytilsa, jumlar qisqa, puxta tuzilsa, payrov (mavzu) tinglovchilarga shunchalik tez yetib boradi, qiziqish yanada kuchayib, ularning xotirasida askiyadagi so‘z va iboralar uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu holatni folklorshunos R. Muhammadiyev va mashhur Abulhay Masumning shogirdi-askiyachi Hasanboy Sutonovlar tomonidan to‘plab nashr etilgan “Askiya”lar kitoblaridagi askiyalarni o‘qish orqali bilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Askianing o‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosidagi o‘rni va madaniy-ma’rifi va axloqiy-estetik mohiyatini ilmiy-nazari o‘rganish bu janr haqidagi mulohazalarimizni xulosalar ekanmiz, mazkur janr dunyodagi barcha xalqlar folklor ijodida yo‘qligi va faqat o‘zbek folkloriga xos qadriyat ekanligini ta’kidlaymiz.

Bu janr uzoq tarixiy-folkloriy jarayonda og‘zaki so‘z san’atining maqol, matal, ibora, topishmoq, tez aytish, sanama, latifa, lof singari inson tafakkur taraqqiyotiga ta’lim-tarbiyaviy usulda bizga qadar yetib kelgan folklor san’atidir.

Askiyachilik yurtimizning Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi aholisi o‘rtasida ommalashgan tarzda hozirga qadar mohiyatini yo‘qotmagan holda yetib kelmoqda.

Mazkur janr tarixiy-folkloriy jarayonda boshqa paremiologik janrlar va xalq og‘zaki dramasi bilan o‘zaro munosabatda rivojlanib, og‘zaki ijro usuli bilan davrlar sharoitiga moslashib, 21-asrga qadar yetib keldi.

“Askiya” janri ommaviy nutq madaniyatini rivojlantirish, so‘z boyligini o‘stirish va odamlar orasida muomala madaniyatini saqlashda betakror milliy qadriyat hisoblanadi.

“Askiya” janrini faqat rivojlantirib qolma, uning imkoniyatlaridan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida amaliy foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nomoddiy madaniyat merosida “Askiya”ning alohida o’rni va amaliy ahamiyati mavjud. Folklor merosida og‘zaki drama, doston, marosim-mavsum qo‘shiq-lari janrlari ommaviy-badiiy tadbirlar(klassik tomoshalar:turli marsim,udumlarni uyushtirish,xalq sayillari,to‘ylar va aholi ko‘p to‘planadigan guzarlar,bozorlar va h.z.)da ijro etib kelingan. Tomoshabin ulardan muayyan zavq olgan,g‘oyaviy-badiiy oziq olgan. Biroq ularda mohir qo‘shiqchilar,raqqoslar, baxshilar, qiziqchi-masxarabozlar o‘zlari tomonidan ijro etiladigan janr an’anviy usullariga u yoki bu darajada rioya etgan holda o‘z san’atlarini namoyish qilishib,o‘sha davrani qizdirishgan.Xalq tomosha san’atida yana bir janr mavjud bo‘lib,asosan,tomoshabinlarga kulgu ulashish.ularni so‘z o‘yini kombinatsiyasi orqali hayratlantirish,jozibali nutq san’ati vositasida fikr uyg‘otish va eng asosiysi,tez va to‘g‘ri tafakkur qila olishga xizmat qilishi bilan alohida ajralib turadi.Bu – o‘zbek askiyachilik janri san’atidir.

“Askiya” janri xalq turmush tarzining turli qirralarini badiiy so‘z orqali askiyachilar tomonidan satira-yumor orqali beg‘araz kulgu yordamida ifoda etishi bilan qadrlanadi.Mazkur qadriyat inson tafakkurining zehn o‘tkirligi,aql-idrok jihatdan donoligi va hozirjavobligini namoyish etishi bilan ajralib turadi.Uning tarkibida insonni fikrlash,to‘g‘ri xulosa chiqara olish,so‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilish va aql-idrokni charxlashga bevosita yordam beradigan qochiriqlar,chandishlar,kinoyalar va mubolag‘a singari badiiy tasvir vositalari mavjud.Demak,askiyachi zimmasida xalq manfaatlari va tushunchasiga mos keladigan so‘z orqali ommaviy tomosha ishtirokchilariga ma’naviy-estetik zavq berishdan tashqari,mavjud turmush tarzida ularni qiziqtirgan turli mavzular mohiyatini kulgu chiqarish orqali ochish masalasi turadi.Folklorshunos Rasul Muhammadiyev askiyani fikrlash musobaqasidan iborat so‘z san’ati,deya muxtasar ta’riflagan edi.(Muhammadiyev R.AskiY.O‘XI turkumidagi to‘plam. T.:1970 y.5-bet.).Darhaqiqat,bu janr tabiatiga xos badiiy so‘z ta’sirchanligi,askiyachi tomonidan askiya mavzusi chegarasidan chiqmay,fikrni lo‘nda va “nuqtaga”-nishonga tegadigan tarzda bayon etilishi uchun so‘zlar shakl va ma’nolarini kombinatsiyalash san’ati bu janrning fikrlar musobaqasi ekanligini tasdiqlaydi.yaaskiyachilik san’ati musobaqasining hakami-tomoshabin hisoblanadi.Dissertatsiyamizning ilovasida berilgan payrovlardan istalgani tahlil qilinsa,yuqorida aytilgan fikrga asos bo‘ladi.

Askiyachilik tarkibidagi mavzularni yoritishda turlar mavjud. Ularning eng ommalashgani payrovlar, qolganlari: “Gulmisiz, rayhonmisiz?”, “O‘xshatdim”, “Qofiya” “Tutal”, ”Bo‘lasizmi?”, ”Rabbiya”. ”Safsata” kabi nomlar bilan ataladi.

Askiya payrovlari tomoshabinlarning tarkibi,yosh xususiyatlari,kasb-korlari,mahalliy sharoit vaziyatlarini hisobga olinib,askiyachilar o‘zaro kelishgan holda tanlanadi. Mavzular dehqonchilik. bog‘dorchilik, chorvachilik, kosiblik, biror hunarmandchilik, shuningdek, badiiy asar, maqol, imorat, tabobat, sport, teleko‘rsatuv va boshqa hayotdagi

turli narsa va ashyolardan iborat bo'lishi mumkin. Askiya bazmi yoki tomoshasi uchun biror mavzu tanlandimi, boshlanishidan oxirigacha o'zaro dialoglar izchillik bilan davom etishi shart. Agar askiyachi mavzudan chetga chiqdimi, u yengilgan hisoblanadi. Tanlangan mavzu doirasida o'zaro bahslashayotgan askiyachilar hech qachon bir-birovlarining izzat-nafslariga tegmagan holda fikr musobaqlarini olib borishlari askiyaning asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi. Askiya davomida biror raqib so'z topa olmay, mavzudan chiqadigan bo'lsa, yoki aytilishi lozim bo'lgan javobda bir oz bo'lsa-da qo'pollik va qo'rslikka yo'l qo'ysa ham an'anaga zid ish tutganligi e'tiborga olinib, o'sha askiyachiga lutf bilan tanbeh beriladi. Bunday vaziyatlar ko'pincha to'y marosimlarida sodir bo'lishi mumkin.

Folklor-etnografiya mutaxassisligida faqat turli urf-odat, marosim va mavsum qo'shiqlari, ayrim etnografik jarayonlarni sahnalashtirish, ularga ijrochilarning munosabatlari aktyorlik, raqqoslik, rejissiyorlik, sahnalashtirish mahorati, bezak, oro berish (grim) kabi elementlarni qay tarzda namoyish qilinishi e'tiborga olinadi. Askiyachilik san'ati ham folklor janri sifatida funksiyasini bajarib kelayotgan nomoddiy madaniyat namunasi. Ularga baho berishda folklor-etnografik jamoa singari yo'l tutilmaydi. Chunki bu janr faqat Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi hududlarida qadimdan tarixiy asosga ega maktablarda mavjudligi, u maktablarning usta askiyachilari tomonidan bir oz bo'lsa-da, o'z uslublariga egaligini e'tiborga olish lozim. Masalan, Farg'ona viloyatidagi Qo'qon askiyachilik maktablari (hozir klublar deb nomlanmoqda) shu viloyatdagi Marg'ilonlik askiyachilari so'z ustida ishlash. ularni qo'llash va bayon etishidagi usullaridan oz bo'lsa ham farqi borligini askiya janri muxlisi Hasanboy Sultonovning "Askiya" nomli kitobida berilgan vodiy askiyachilari ijro usullaridan ham bilsa bo'ladi. (H. Sultonov. Askiya. T.: Cho'lpon nashriyoti, 1998y.) Bu fikrni ta'kidlashdan maqsad, askiya matnini tahlil qilish va uni baholashda e'tiborni askiyachining so'z qo'llash, uni kombinatsiyalash mahoratiga emas, balki askiya aytilish jarayoni, ya'ni askiyachilarning ijro jaranida o'zlarini qanday tutishlari, muomala madaniyati, uning tomoshabinlar bilan muloqati, yuz-ko'zidagi holati, chehrasi qay darajadagi, umuman, folklorona aktyorlik mahorati kabi jihatlariga baho berilsa, to'g'ri bo'ladi. Chunki bu holatlar, ya'ni askiyachining tajribasi va mahorati ishqibozlar ko'z o'ngida sodir bo'lib, asosiy bahoni ular berishadi. Shuning uchun askiya bo'yich fikr yuritilganda, askiyachilarning payrovni to'g'ri tanlaganligi, uni izchillik bilan mantiqiy yakuniga yetkaza olganligi va badihago'ylik san'atini qay darajada ishga solganligi va tinglovchilar qay darajada sazovor bo'lganliklar hisobga olinadi.

Hozirgi madaniy hayotimizda ommaviy tomosha san'atiga respublikamiz hududlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuzdan ortiq folklor-etnografik ansambllarga alohida e'tibor ko'rsatilayotgani barchaga ma'lum. Biroq Farg'ona vodiysi viloyatlari va Toshkent vohasidagi kam sonli askiyachilik klublariga nisbatan mutasaddilarning e'tibori yetarli emas. Buni birinchidan, janrni ijro etuvchi askiyachilikda ustoz-shogirdlik

an'anasining to'y va boshqa daromadli tadbirlarda askiyachilikka qiziqishi bor bo'lgan yoshlarning "Handalak", "SHo'r danak" singari shou ketidan quvayotgan guruhlariga kirib ketishi, qiziqchilik va maynavozlik kabi yengil-yelpi ishlar bilan "otarchilik"ka mukkasidan ketishi bo'lsa, ikkinchidan, O'z MTRK va xususiy televideniyaning odamlar saviyasini toraytiruvchi, ayniqsa, yosh avlodni fikrlashdan ko'ra, ko'proq bo'lar-bo'lmas bachkana qiliqlarga o'rgatuvchi dasturlar ko'payganligi bilan izohlash mumkin. Zero, tomoshabin ma'naviy-madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bunday bachkana tomoshalardagi aktyorlarning ko'pchiligi davlatimizdagi oliy va o'rta maxsus madaniyat-san'at dargohlarini tugatgan yosh yigit va qizlar tashkil qiladi. So'nggi yillarda respublika miqyosida bu janrga qiziqishi bor yoshlarni askiyachilikka tortish, ularning boshlarini birlashtirish ishlari yuzaga kela boshladi. Shu soha bo'yicha ko'rik-tanlovlar tashkil etilish yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillari 18-25 yoshdagi askiyachilarning "Xush kayfiyat" tanlovi o'tkazildi, 2014 yil noyabr oyida Xalqaro YUNESKO tashkiloti "Askiya"ni nomoddiy meros sifatida ro'yxatga olinishi mazkur janrga nisbatan e'tiborni qaratdi. Vodiy viloyatlarida bir qancha askiyachilar klublari tashkil qilinib, ular imkoniyatlari darajasida faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Ushbu dissertatsiya xotimasida ilova qilingan askiyalar turli guruhlarining repertuarlari mundarijasidan iborat. Masalan, Qo'rg'ontepa tumanidagi "Abulhay Maxsum", "Bo'ztumanidagi "Husan qiziq", Asaka tumanidagi "Qah-qaha" kabi guruhlar tuman va viloyat miqyosida aholiga xizmat qilib kelishmoqda. Ularning repertuarlaridan o'rin olgan askiyalarda bu janrga xos so'zdan san'atkorona foydalanish, payrov va boshqa askiya turlari ijrosida improvizatsiya san'atidan an'anani buzmaganda bahramand bo'lish mahoratini ko'ramiz.

Askiya xaqida fikr yuritishda avval uning mohiyati xaqida qisqa mulohaza bildirish joiz. Askiya aytish qanchalik murakkab bo'lsa, uni tushunish xam onson emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so'z o'yini qo'laniladi. So'z o'yinini tushuntirish esa uni o'ylab topishdek qiyin. So'z o'yinida uni shylab topgan odamning fikrlash usulini qo'llash lozim bo'ladi. Shu bois askiya paytida kimdir kuladi, kimdir gap nima to'g'risida borayotganini anglay olmay garang bo'lib turaveradi. Askiya janrining bosh maqsadi, uning mohiyati so'z o'yini vositasida kulgi xosil qilishdir.

Kichik bir misolga murojaat qilaylik. Kunlardan bir kun dutorchi qizlar ansambli ishtrokchisi Sanobar Karimova musiqa mashqi o'tkaziladigan xonaga hammadan avval kelibdi. Ustozi G'anijon Toshmatovdan "Qizlar kelishmadimi?"-deb so'rabdi. Tabiatan askiyachilikka moyil G'anijon aka shu zahoti iliq tabassum bilan: "Kelishgani kelishdi"-deb javob berdilar. Mana shu ikki so'zda askiyadagi eng muxim xususiyat aks etgan. Birinchidan, G'anijon aka Sanobarxon savolidagi "kelish" so'zidan unumli foydalangan. Javob ikki so'zdan iborat bo'lgani holda xar ikki so'z shakllan bir xil ko'rinishda. Ikkinchidan, birinchi so'z ikki ma'noni ifodalamoqda. YA'ni "kelgan odam kelgan hisoblanadi", degan ma'noni ifodalagan. Uchinchidan, "kelishgan" so'zi ko'plik ko'shimcha bilan bitta Sanobarxonga nisbatan qo'llanilishiga ajablanish kerak emas.

Chunki Farg‘ona vodiysida dialektida bitta shaxsga nisbatan ko‘plik ya‘ni “lar” shaklda fikr bildirish odat xisoblanadi. Ayni paytda, “kelishgan” so‘zi bu o‘rinda “kelgan” ma‘nosidan tashqari qadi-qomatida nuqsoni yo‘q odam, o‘zbeklarda “kelishgan qiz”, “kelishgan yigit”, “kelishgan odam” so‘z birikmasida qo‘llanganidek ma‘noni ifodalamoqda. YA‘ni G‘anijon aka qizning savoliga ajoyib lutf bilan javob bermoqda. Keyingi so‘z “kelishdi” esa Andijon shevasida ko‘plikni yakka shaxsga qo‘llash mumkinligidan foydalanilgan xolda so‘z turkumidan fe‘l ma‘nosi bildirmoqda. Sanobarxonning soddagina savoliga ustoz mohirona javob topdi.

“Askiya” so‘zining asosi arab tilidagi “Zakiy”dan olingan bo‘lib, sof fikrli, o‘tkir zehqli, nozik tabiat bilan fikr yuritish ma‘nolarini anglatadi. “Azkiyo” esa ko‘plik shaklidir. Fikrimizcha, “k” jarangsiz undosh tovushi tasirida “z” jaranglisi jarangsizlashib, “s”ga aylangan bo‘lishi mumkin.

Askiya san‘atini ilmiy o‘rgangan olim Rasul Muxammadiyev o‘zbeklarning askiya aytishi qadim zamonlardan boshlanganni qayd etgan. Xususan, XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosifiy o‘z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbarahna, Burhoniyy Gung, Hasan Voiz, Said G‘iyosiddin, Sharfiy, Halil Sahhob, Muhammad Badaxshiy kabi o‘tkir so‘z ustalari borligini aytib o‘tgan. Hunarmandchilik rivojlangani sari askiya ham keng ommalashdi. Ayniqsa, bo‘z, atlas to‘qiydigan kosiblar qo‘l va oyoqlari muttasil harakatda bo‘lganligi uchun qo‘shiq, ashula aytishgan va askiya bilan ko‘ngilni ovutishgan. Bu jihatdan, Farg‘ona vodiysi aholisi aloxida ajralib turgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamayunus Tillaboyev, Erkaqori Karimov, Amin buva, G‘anijon Toshmatov, Tursun buva Aminov, Abdulhay Maxsum kabi mashhur so‘z ustalari askichilik san‘atini rivojlanitirishda munosib hissa qo‘shdilar. Xalq hofizlar Jo‘raxon Sultonov, Rasul qori Mamadaliyev, Shoqosim, Shoolim, Shoakbar Shojalilovlar, Orif Qosimov, Orif Alimaxsumov va o‘nlab xonandalar to‘ylarda ajoyib askiyaboz sifatida xam mashhur edilar. Yurtimizda Mustaqillik, Navro‘z, Hosil bayramlari munosabati o‘tkaziladigan ommaviy yig‘inlar askiya tomoshalariga fayz bag‘ishlamoqda. Shuningdek, ulfatlarning gap-gashtaklari, turli to‘y, ommaviy marosim kabi yig‘inlar va ziyorat ustida askiya aytish odati hanuz davom etib kelayotir.

Askiya san‘atining asosini badiiy adabiyotdagi “iyhom” deb ataluvchi badiiy tasvir vositasi tashkil etadi. “Iyhom” arab tilida “shubhaga solish” degan ma‘noni bildiradi.

Askiyada esa ko‘proq “iyhom” san‘atidagi so‘z o‘yini yetakchilik qiladi. Ba‘zan bu san‘at shu qadar murakkablashib ketadiki, uni aytilgani zahoti anglab olish ham qiyin bo‘ladi. Masalan, Rasul Muxammadiyev 1962 yilda e‘lon qilgan, “Askiya” kitobida quyidagi matnni havola etgan:

Qodirjon aka:

- Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirish uchun bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

- Qodirjon aka, sizlardaka aziz mehmonlarga atab, har xil ovqat qilganmiz: bu sho‘rva, osh qovoqda.

Amin buva:

- Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga osh qovoqdan olinsa bo‘ldi.

Qodirjon aka:

- Amin buva, ajoyib xush fe‘l odamsiz-a, indamay olaverasiz: oshga qovoq solinmaydi, deb.

Amin buva:

- Ham indamay turaversangiz-a qovoqdan osh yaxshi , deb.

Qodirjon aka:

- Siz ham indamay turaversangiz-a, oshdan qovoq yaxshi, deb.

Amin buva:

- Siz ham indamay turaversangiz-a, qovoq oshmi, osh qovoqmi, deb.

Ikromiddin:

- ...bir oz uyoq buyoqdan gaplashib o‘tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoq-siz!

Endi askiyada qayta-qayta takrorlangan ”qovoq” so‘ziga diqqat qilamiz. Avvalo, ”qovoq” so‘zining ma’nolarini ko‘rib chiqaylik. Birinchidan, palak otib o‘sadigan poliz o‘simligi. Ikkinchidan, shu o‘simlik qobig‘idan tayyorlangan idish. Unga, odatda, sut, ovqat saqlanadigan. Uchinchidan, odamning qoshi ostidagi ko‘z kosasini qoplovchi teri. Askiya matnida uchta ma’noning hammasi faol ishtirok etadi. Qodirjonning birinchi jumlasida oshga qovoq solish haqida gapiriladi. Ammo mehmonlarga jahl chiqqan holda ya’ni qovoq solib ovqat qilish yaxshi emasligi, shundan so‘ng “osh qovoqda” deyilganda oshning qovoq po‘stidan yasalgan idishga solingani aytilmoqda. Askiyaning oxirgi jumlasida alohida ahamiyatga ega. Unda “qovoqsiz” so‘zi bor. Bir qarashda ovqatga qovoq solmayman ma’nosi ifodalanadi. Ammo askiyachi bu so‘zni shunday talafuz qiladiki, oqibatda, askiya boshlagan odam befahm ya’ni “qovoq” nomi bilan atalib qoladi. Natijada, askiyadagi har bir “qovoq” so‘zini qo‘llashda yangi ma’no, fikrni tovlash san’ati orqali atrofdagi tinglovchilarga kulgi bag‘ishlaydi.

Kulgi hosil qilishning yana bir usuli askiyabozlarning laqablari bilan bog‘liq so‘z o‘yinlaridir. Haqiqiy mohir askiyabozlar raqiblarining laqablarini askiya matniga mahorat bilan singdirib yuborishadi. Uni faqat askiyani nozik tushunadigan tinglovchi anglashi mumkin.. Mashhur hofiz Mamayunus (laqabi kal) poyezdda ketishayotganda do‘sti Erka qorini (ko‘zi ojiz) askiyaga tortar ekan, qori akaning ko‘zi ojizligiga shama qilib:

- Turing, qori aka! Ko‘r otga (kurortga) keldingiz!-deydi. Erka qori yostiqlardan boshini ko‘tarib, kupe derazasidan shosha-pisha qaragan bo‘lib, Mamayunus aka tomon yuzlanadi va:
- Hovliqmay qoling, Mamayunus! SHO‘rtepa-ku!-deya javob qaytaradi.

Matnni tahlil qilishda tinglovchi “ko‘r ot”, “sho‘rtepa” so‘zlarining ma‘nosini shu zahoti zakiylik bilan ko‘zi ojiz, kal ma‘nolarida tushunib yetmasa, askiya butun mohiyatini va o‘z qadrini yo‘qotadi. Natijada, Mamayunus akaning mahoratini ham, Erka qorining topqirligini ham baholay olmaydi.

Shunday qilib, askiya o‘zbek xalq og‘zaki ijodining so‘z o‘yini asosida shakllangan va ommalashgan o‘ziga xos janri sifatida baholanishi mumkin. Askiya jozibasi asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan baholanib kelingan. Uning taraqqiyotiga bugungi kunda Jo‘raxon aka Po‘latov, Baxodir Shokirov, Nematjon Toshmatov, Akromjon Anvarov, Mansurjon Oxunov, Sodiqjon Hasanov, Mamasiddiq Shiryayev, Ubaydulla Abdullayev, Ma‘ruf Rahimov, Jaloliddin Rahimov, Hotamjon Hakimov, Hotamjon Teshaboyev kabi so‘z san‘atkorlari munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Jamiyatning umumiy taraqqiyotida moddiy-iqtisodiy sohalar bilan birga xalq ijodiyoti qadriyatlarining o‘rni bor. Inson faqat moddiy manfaatdorlik tuyg‘usi bilan tirik emas. U dunyoni aql yordamida idrok etgan kundan boshlab, o‘zining ma‘naviyati ustida qayg‘ura boshlaganligini bizga qadar yetib kelgan moddiy va nomoddiy madaniyati merosi asoslay oladi. Bunga misol tariqasida yer qa‘ridan topilgan yoki ulkan qoyatoshlar sathida odamzod qo‘li bilan bitilgan yashash uchun ishlangan turli ashyolar predmetlar, turli hayvonu jonivorlar, hatto, odamlarning ibtidoiy ishlangan suratlari kabi topilmalarni keltirish mumkin. Ushbu fikrni ta‘kidlashdan maqsad, 21-asrga qadar og‘izdan-og‘izga, bir avloddan keyingisiga, ustozdan-shogirdga o‘tib kelgan folklor so‘z san‘ati bejizga yaratilmaganligi, ota-bobolar doimo o‘z kelajagi uchun qayg‘urib yashaganliklarini ta‘kidlashdir.

“Askiya” janri ham boshqa og‘zaki so‘z san‘ati namunalari singari ajdodlarning muayyan hayot ehtiyojlari asosida shakllanib, tarixiy-folklori jarayonda sayqallanib, bizga qadar yetib kelgan. Demak, tarixiy-folkloriy jarayon qonuniyatiga binoan u janr sifatida o‘z funksiyasi va munosib o‘rniga ega. Biz yuqoridagi boblarda “Askiya” janrining ilk qaror topishi va rivojlanishini Farg‘ona vodiysi, Toshkent vohalari aholisi etnomadaniyatiga bog‘liqligini bejiz ta‘kidlamadik. Chunki tarixan o‘troq etnoturmush tarzida mehnat taqsimoti shakllaridan tortib, inson ma‘naviy-falsafiy dunyoqarashlarigacha bir zamin va hududda yashagan aholi madaniyatida o‘sha joy odamlarining hayot zaruratlari asosida og‘zaki so‘z san‘ati shakllari paydo bo‘lishi tabiiy. Masalan, qadimda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilik etnoturmush tarzi bilan yashagan Janubiy O‘zbekiston hududlaridagi

o‘zbek aholisining etnomadaniyatida baxshichilik, termachilik va urf-odat, marosim qadriyatlariga mansub qo‘shiq, aytimlar, dostonlar an‘anaviy ahamiyat kasb etgan. Agar ularning biror ommaviy tadbir yoki marosimlarida “Askiya” aytilsa, uning ahamiyati Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi ishtirokchilari singari qabul qilinmaydi. To‘g‘ri, tinglovchilar orasida vodiy yoki Toshkent vohasida yashaganlari ham bo‘lishi mumkin. Bu holatni o‘tgan asrning 30-yillari respublikada paxtachilikni

rivojlantirish,Samarqand,Surxondaryo kabi viloyatlarga ko'chirma qilingan ayrim oilalar bilan o'sha joydagi aholi o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy munosabatlar natijasida vodiyan keltirilgan odamlarning baxshilar ijodiga qiziqish uyg'onganligi, o'z navbatida yerli aholining vodiy etnomadaniyatidagi ertakchilik, askiyachilik an'alarini qabul qilganliklarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Lekin bu askiyachilik ommaviy ravishda o'sha hudud odamlari tushunchasidan o'rin oldi, degani emas.

21-asr boshlariga kelib, O'zbekistonda Mustaqillik qaror topgach, xalqimizning qadimgi milliy qadriyatlari, unutilayozgan an'analari tiklanib, ular respublika madaniyatida keng targ'ib qilina boshladi. Davlat miqyosidagi katta-katta ommaviy-badiiy tadbirlar,bayram-sayillarda xalq baxshi-shoirlarining terma va dostonlari,milliy urf-odatlar bilan bog'liq qo'shiq va raqslar,turli aytimlar,shu jumladan,askiyalar ijro etila boshladi. Agar ta'bir joyiz bo'lsa, 1991 yidan to so'nggi yillargacha respublika poytaxti-Toshkentda uyushtirib kelinayotgan "Navro'z" xalq bayram-sayili, "O'zbekiston Mustaqilligi" bayramlari dasturlari tahlil qilinsa,har yili bayram tashkilotchilari, rejissyorlari vodiyning namunali askiya guruhlarini dunyo miqyosiga namoyish etiladigan mazkur tadbirga taklif etganligini ko'rish mumkin.(Qarang:O'zMTRK sayti.) Ushbu ulkan yig'inlarda asiyachilar o'zlarining ichakuzdi chiqishlari bilan bayram ishtirokchilari qatori xorijlik mehmonlarni ham zavqlantirganligini ularning askiya haqida bergan intervyu va maqolalaridan bilish mumkin.

Demak, Istiqlof sharofati bilan askiyachilik ham respublikamiz madaniy-ma'rifiy hayotida boshqa folklor jamoalari singari faol ishtirok eta boshladi.Farg'ona vodiysi viloyat va tumanlarida ketma-ket askiyachilik guruhlar vujudga kela boshladi.Oldingi boblarda eslatilganidek,Farg'ona,Andijon va Namangan viloyatlari madaniyat muassasalari va madaniyat uylari qoshida askiyachilik klublari,to'garaklari ish boshladilar.Davlatimiz, ayniqsa,Madaniyat vazirligi tomonidan askiyachilikka alohida e'tibor berilishi bilan Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi tuman markazlari shaharlari istirohat bog'larida askiyachilarning chiqishlarini uyushtirish an'anaga aylana boshladi.Masalan, Toshkent shahrining G'afur G'ulom istirohat bog'i rahbariyati ayrim dam olish kunlari va biror kasblar kunlarida vodiyan taklif qilingan askiyachilar va poytaxtdagi havaskor askiyachilar hamkorligida kulgi kechalari,askiya musobaqalari uyushtirilishi bu janrga bo'lgan munosabatning yorqin namunasi desa bo'ladi.Mazkur tadqiqotning xotima qismida ilova qilingan askiyachilar klubi va ularning repertuarlaridan keltirilgan namunalar ham respublikamizda askiya janriga nisbatan e'tiborning bir tasdig'i,desa to'g'ri bo'ladi.

Qo'qon faqat shoiru allomalar markazi bo'lmasdan,so'zga chechan,gapga usta,fikran hozirjavob insonlar makonidir.Bu shaharda Yo'ldoshxon Nosirov tashabbuslari bilan tashkil qilingan "Askiyachilar klubi" kulgusevar xalqning mazkur yurt ota-bobolari tomonidan asrlar osha yaratilib,madaniy-axloqiy turmush tarziga singdirilgan va keyinchalik Yevropa va boshqa xorij mamlakatlarining "ommaviy madaniyat" targ'ibi

ta'sirida unutilayotgan "Askiya" janrini tiklash va uni yana xalqqa qaytarish maqsadida qayta tug'ildi. Qo'qondagi askiyachilar guruhi respublikamiz madaniy hayotida faol ishtirok etib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lmoqdalar. Ularning repertuarida mahorat bilan ijro qilinayotgan "Tish doktori", "Telefon", "Nos chekish", "Shaxmat", "Radio" kabi ko'plab askiya payrovlari muhlislarga manzur bo'lmoqda.

Yo'ldoshxon Nosirov oddiy kosib bo'lishlariga qaramay, vodiy askiyachilik an'analarini juda yaxshi bilganligi, yoshliklarida Erka qori Karimov, G'oyib ota Toshmatov, Tursun buva Aminov, Obid buva Normatov, Aka Buxor singari mashhur askiyachilardan bu janr sirlarini sabr bilan o'rganganligi, ularning davralarida sodiq sifatida har doim ishtirok etganligi natijasida 20-asr 80-yillariga kelib, ustoz askiyachi darajasiga yetganlar. Ustoz tashkil qilgan guruhda M. Darveshov, T. Toshmatov, A. Matxoliqov, SH. Shojalilov, O. Xalilov kabi shogirdlari bilan hamkorlikda vodiy bo'ylab tashkil etilayotgan ommaviy-badiiy tadbirlar, to'ylarda faoliyat ko'rsatishib, kulgusevar xalqimizga tabassum ulashmoqdalar. Qo'qonlik ustozlik darajasiga yetgan Ne'matjon Toshmatovning askiyachilar guruhi ham yurtimiz madaniy-ma'rifiy hayotida astoydil xizmat qilishlari bilan odalarga turmushning past-balandida sodir bo'ladigan turli voqea-hodisalarni askiyalari orqali badiiy ifodalab, so'z o'yini vositasida aks ettirmoqdalar. N. Toshmatov respublikamiz poytaxtida o'tkazilib kelinayotgan "Navro'z", "O'zbekiston Mustaqilligi" va xalqaro festivallar sahnalarida safdoshlari Bahodir Sharipov, Mansurxon Oxunov, Abdurahmon Siddiqov va boshqa askiyachilar bilan hamkorlikda xalqimizga manzur askiya payrovlarini maromiga yetkazib ijro etayotganliklarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Shunday askiyachilar borki, dastlabki kulgu yo'lidagi qadamini qiziqchilikdan boshlab, muhit ta'siridan askiyachilikka muhabbat qo'ygan va bu janrda muvaffaqiyat qozonib, el-yurtga tanilgan. Ana shulardan biri Mansurjon Oxunovdir. Qo'qon askiyachilar maktabida Nosirjon Toshmatov, Bahodir Sharipov singari askiyachilar bilan ijodiy hamkorlik Mansurjonni 1978 yil Qo'qonda tashkil qilingan "Qah-qaha" askiyachilar klubiga yetakladi. Kasbi pedagog bo'lgan Mansurjon folklorning murakkab va doimo o'z ustida ijodiy izlanishni talab qiladigan "Askiya"ni qalb buyrug'i bilan ikkinchi kasb sifatida qabul qilib adashmagan edi.

M. Oxunov kulgu sohasidagi dastlabki qadamini qiziqchilikdan boshladi. U yashagan madaniy muhit Mansurjonni askiyachilikka yetakladi. O'zbekistonlik usta askiyachi Muhiddin Darveshov bilan ustoz-shogirdlik munosabatlari Mansurjon ijodiy faoliyatida katta rol o'ynagan edi. Qo'qon shahar madaniyat uyida tashkil etilgan "Qah-qaha" askiyachilar klubida o'sha yillar xalqqa tanilgan askiyachilar bilan ishlash, ulardan askiya janri sirlarini o'rganish, ayniqsa, ijroda so'z san'ati qirralaridan mohirona foydalanish, tomoshabinlar qarshisida o'zini tuta bilish, askiyada badihago'ylikni o'z o'rnida ishlata olish kabi sirlarni o'rgana borib, M. Darveshov bilan "Bedana", "Kurash", "GAI", "Ota-bola", "Savdo-sotiq" va boshqa mazmuni ta'sirchan, ijro san'ati qiziqarli va

satira-yumor elementi huzurbaxsh qator askiya payrovlari yaratilib, ular madaniy-ma'rifiy tadbirlar, istirohat bog'laridagi dam oluvchilar va to'y bazmlarda namoyish etildi. Uning ustoz Muhiddin Darveshov bilan ijro etilgan "Bedana" payrovi qahramonlari obrazlarining samimiyligi ya'ni chapani bedanovozlarning kasbini anglatuvchi jargon so'zlardan o'rinli foydalanganliklarida namoyon bo'ladi. Bunday birovini takrorlamas iste'dod egalari respublika, tuman, shahar va qishloqlarimizda uyushtiriladigan ommaviy-badiiy tadbirlardan tortib, xalq ijodiyoti jamoalari tarkibida xorij mamlakatlari tomoshabinlari kayfiyatlarini ko'taruvchi ichakuzdi askiyalari bilan xizmat qilayotganliklarini alohida ta'kidlash joyiz

Fikrlar hozirjavobligi, tilning beqiyos imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanish san'ati hisoblangan askiyachilik qo'shiq, raqs, estrada kabi ommaviy axborot vositalari orqali xalq e'tiboriga tez-tez havola etilsa, uning etnopedagogika ta'lim-tarbiya unsurlariga boy jihatlaridan bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi murabbiylar, doimo "qarisi bor uyning parisi" bor deya iltijo etuvchi ota-onalar uchun o'ziga xos tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi. Bu fikrlarni aytishdan maqsad, radio va televideniya axloqiy-falsafiy mavzudagi payrovlarning namoyish etilishi tinglovchi va teletomoshabinda fikr uyg'ota olish ko'nikmasi shakllanishi, so'zni o'z o'rnida ishlata bilish malakasi oshishi va eng asosiysi, askiyachi obrazida namoyon bo'ladigan muomala madaniyatini o'rganadi. "Askiya" janri respublikamiz madaniyat muassasalari ish faoliyatlarida o'ziga xos va betakror qadriyati sifatida davr taqozasiga binoan bahramand bo'lish, uning madaniy-ma'rifiy, axloqiy-falsafiy tomonlaridan amaliy foydalanish faqat muvaffaqiyat keltiradi. Chunki kulgu inson ruhini poklaydigan, har qanday jaholatga tabassum va qah-qaha bilan qarshi kurashadigan bebaho qadriyat, desa mubolag'a bo'lmaydi.

"Askiya" asos e'tibori bilan ommaga kulgu orqali xush kayfiyat bag'ishlovchi janr. Yaxshi kayfiyat insonga sog'lik-salomatlik, yashashga muhabbat uyg'otadi. Demak, odamga kuch-quvvat bag'ishlaydigan askiyachilik o'zining ommaviylik xususiyati bilan minglab insonlarga malham berar ekan, bu jamiyatimiz hayoti uchun juda kerakli nomoddiy san'at. Jamiyatdagi bunday ko'tarinki ruh baxsh etuvchi "Askiya" ni xalqimiz etnomadaniyatiga yanada mustahkam jipslashtirish, yangilanib boryotgan diyorumizni xush kayfiyatga ega odamlar bilan to'ldiraylik.

Respublikamiz madaniy hayotida uyushtirilayotgan barcha ommaviy-badiiy tadbirlarning bosh maqsadi xalqimiz kayfiyatini ko'tarish, ularni yangi g'alabalar sari undash va yangilanayotgan jamiyatimizni yanada yuksaltirish g'oyalardan iborat. Mana shu bosh maqsad yo'lida madaniyatshunosu san'atshunoslar, rahbaru tadbirkorlar tadbir ssenariyasidan tortib, uning badiiy bezaklar-yu ishtirokchilar mahorati, tarkibi singari masalalar ustida bosh qotirishadi. Zero, insoniyat umr kechirish davomida turli tadbirlarni oddiy korfarmon ko'rsatmalariga amal qilib, ko'pchilik niyatiga mos o'tkazib kelgan. Buni madaniyatshunos, san'atshunos va marosimshunos mutaxassislar o'zlarining

ilmiy izlanishlarida kerakli misollar bilan isbotlab ham berishgan. Lekin ommaviy tomosha san'ati uchun yaratilgan shunday xalq ijodiyoti shakli borki, u faqat uni ijro etuvchilar bilimi, hayotiy tajribasi, notiqligi va so'zni qay darajada ishlata bilishi mahorati bilan belgilanadi. Folklorning bu janri "Askiya"dir. San'atshunos ustoz Muhsin Qodirovning xalq og'zaki tomosha san'atini o'rganishga bag'ishlangan monografiyasida "Askiya" janrining xalq orasda ommalashishi, uni tashkil etish usullari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Olimning yozishicha, askiyaning qadimgi klassik shakli "Zarofat" deb nomlangan. (Qodirov M. Tomosha san'ati. T.: "Fan", 1993, 116-bet.) Qadimgi avlodlar ham ijtimoiy bo'sh vaqtlarini bekorga sarflashmagan. Ayniqsa, mehnat mavsumi tugab, odamlarda bir oz bo'sh vaqt paydo bo'la boshlagach, o'zlarida biror san'at turi yoki ko'pchilikni hayratga soladigan bir san'atga moyil hunarini namoyish qilish uchun odamlar ko'p to'planadigan guzarlar, bozorlar yoki samovarlarda uni namoyish qilish istagi tug'ilgan va ana shu tarzda ilk badiiy jamoalar shakllangan. Ma'lum bo'ladiki, kulgu, hazil-mutoyiba aslida odamzodning qadimgi hamrohi. Uni rivojlantirish esa xushchaqchaq, hazilni yaxshi tushunadigan va odamshavanda kishilarning zimmalaridagi ish. Demak, qadimgi zamonlarda shakllanib bizga qadar yetib kelgan "Askiya" janrining ham folkloriy jarayonda tarixiy yo'li mavjud. Bu janrga xos ommaviylik, ikki guruhga bo'lingan holda fikrlashish musobaqasi, so'z o'yinida birining ikkinchisidan ustun kelishi, ijro usulidagi an'anaviylik xususiyatlari ildizi qadimgi avlodlarimiz tomonidan ma'naviy-madaniy turmush tarziga tomosha shaklida namoyish qilingan.

Mazkur janrga xos xususiyat asrlar davomida davrlar taqozosiga ko'ra o'zgarib, bizga qadar yetib kelgan. Agar askiyachilarning ikki guruhga bo'linib, ma'lim bir payrov mavzusida o'zaro musobaqalashish usulini qadimgi turkiylar va keyingi zamonda o'zbek folklor havaskorlari tomonidan ijro etib kelinayotgan "Aytishuv" janri bilan qiyoslansa, askiyaning genezisi ikki guruh tarfakashligi asosiga qurilgan lirik shakldagi so'z o'yiniga o'xshab ketadi. San'atshunos ustoz Muhsin Qodirov xalq ijodiyotining aytishuv, bahru bayt, zarofat va askiya, qiziqchilik, masxarabozlik va askiya janrlarini tomosha san'atidagi og'zaki dramaga asos bo'lgan deydi. (Qarang: Qodirov M. Tomosha san'ati. T.: 1993q. 105-115-betlar.) Olimning ko'rsatishicha, ular orasidagi "Zarofat" biz tadqiq qilayotgan "Askiya"ning 14-15 – asrlarda qo'llanilgan muqobili. Binobarin, "Zarofat" Alisher Navoiy yashagan davrda zodagonlar o'rtasida keng rasm bo'lganligi "Hayratul-abror", "Favoidul-kibor" kitoblarida so'z o'yini orqali kulgu chiqarish, so'zning turli ma'nolaridan foydalanib, yashirin fikrni topish singari askiya janri ijro usuliga monand san'at haqida ma'lumot berilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da: "Alisherbekning mijozni nozuk bila mashhurdir", - deya shoirga ta'rif berib, u zarofat ahlidan ham shunday nafosat, nazokat teran fikrlashni talab qilgan edi deya ta'rif berganligi "Zarofat" folklordagi "Askiya" janrining qadimgi formasi ekanligini tasdiqlaydi. Biroq zarofat muayyan tabaqaga xos odamlarning adabiy

majlislari, ziyofatlari va uchrashuvlarida o‘tkazib kelingan. Uning askiyaga o‘xshab ketadigan tomoni-har ikkisida ham o‘zaro tortishuvlarda badihago‘ylik qilinadi. Zarofatda ishtirokchilar o‘zlarining bilimlarini namoyish etish bilan birga fahm-farosatlari, topqirligi, donoligi va hozirjavobligi bilan harifidan ustun kelishini ko‘zlaydi. Zarofatda jamoa yoki davra qatnashchilarining kulgusi hakamlik vazifasini bajargan. Zarofatda ishtirok etuvchi ya’ni turli ilm-fan, san’at va boshqa qiziqarli sohalarda do‘stona musobaqalashadigan odamlarni zariflar deyishgan. Insonlar qaysi zamon yoki ijtimoiy tuzumda hayot kechirishmasinlar, doimo tafakkur taraqqiyoti yo‘lida turli aql-idrok o‘yinlarini o‘ylab topishgan. Buni kichkina bolalar uchun topilgan topishmoq misolida tasdiqlash mumkin. Zero, topishmoq ham zarofat, askiya singari zukkolik va topqirlik orqali raqibidan ustun kelish qoidasiga qurilgan.

Xalq ijodiyotining so‘z orqali inson bilim-tajribasi, donoligi va voqelikdan tez xulosa chiqara olish xislati, leksikonidagi boshqalarga nisbatan so‘z boyligi ko‘pligi va tomosha san’ati orqali bu jihatlarni ommaga namoyish etish an’anasi bebaho meros.”Askia” ana shunday ma’naviy yuksalishga qadimdan xizmat qilib kelayotgan betakror milliy qadriyat hisoblanadi.

Yurtimiz madaniy-ma’rifiy hayotida “Askia” janrining o‘rnini ko‘rsatishda keng miqyosdagi ommaviy tadbirlar dasturlariga bu janrning kiritilishi, uni ijro etuvchi xalq ijodkorlarini taklif etilishida namoyon bo‘ladi. Bayram tashkilotchilari unda ishtirok etadigan yoki bayram tomoshalarini “oynai jahon” orqali ko‘radigan ishqibozlarning kayfiyatlarini ko‘tarish, kulgu orqali insonlarga kuch bag‘ishlash maqsadida respublikamizdagi taniqli va el-yurt orasida dong‘i ketgan kulgu darg‘alarini tomosha sahnalariga taklif etishlari tasodif emas. Chunki ular faqat askia aytish, hazil-mutoyiba qilishib odamlarga yaxshi kayfiyat baxsh etishlari bilan birga o‘zbekning milliy qiyofasini, muomala madaniyatini, axloq-odob fazilatini va lutf etish san’ati kabi etnoqiyofamizni ham dunyoga namoyish etadilar. Buni birgina Marg‘ilonlik Yusujon qiziq Shakarjonovning farzandlari Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar askiyachilik faoliyati misolida ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Har ikkala aka-uka Yusupovlar respublikada uyushtirilgan keng miqyosdagi ommaviy tadbirlarga doimo ishtirok etishib, o‘zlarining ichakuzdi askiyalari, latifaga monand voqeliklar hikoyalari bilan davralarni qizdirib kelishmoqda. Chunonchi, ular tashrif buyurgan askia davralarida boshqa askiyachilar bir oz “cho‘chib” turishgan. Yusufjon qiziq Shakarjonovdek dunyoga taniqli odam oilasida tarbiya topgan aka-uka Zaynobiddin bilan Madaminjonovlar yoshliklaridan katta “san’at qozonida qaynab, sohaning pishib yetilgan askiyachilari darajasiga yetishgan edilar. Ayniqsa, Zaynobiddin aka umrining asosiy qismini Farg‘onadagi otalarining nomidagi komediya va drama teatrida o‘tkazganliklari, ushbu san’at dargohida o‘z zamonasining mashhur san’atkorlari bilan yonma-yon mehnat qilganliklari uning faqat so‘zga chechanliklari, balki san’atning boshqa turlari bo‘yicha ham yetarli tajribaga ega askiyachi-qiziqchi bo‘lib yetishlarida muhim rol o‘ynagan edi. Aka-uka Yusupovlar

Farg‘ona, Andijon, Namangan va Toshkent shaharlaridagi ommaviy-badiiy tadbirlarda chiroyli chiqishlar qilishib, ko‘p ming sonli tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo‘lgan edilar. Ular tomonidan ijro etilgan askiya payrovlari,voqeband kulgu hikoyalari qaysi mavzuda bo‘lmasin,ular tinglovchida zavq-shavq uyg‘otishi bilan birga o‘zbekona lutf madaniyati,jamoa oldida o‘zini tuta bilish,o‘zga odam bilan muomalada nimaga e’tibor berish,raqib bilan dialog qilganida uni hurmat qilish,so‘zlovchining fikrini bo‘lmaslik,uning fikri qanday bo‘lmasin,hurmat qilish singri milliy odobimiz an’analarini ijro jarayonida namoyish etilganligini ta’kidlash joyiz.Toshkent shahridagi Pushkin (hozirgi A.Qodiriy), Namangan shahridagi Navoiy, Andijon, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlaridagi madaniyat va istirohat bog‘laridagi uyushtirilgan askiya va kulgu kechalarida Zaynobiddin va Madaminjon Yusupovlar tomonidan ijro etilgan askiya payrovlari,latifa va satira-yumorga boy voqeband hikoyalar tomoshabinlarga badiiy-estetik zavq bag‘ishlagani bilan bir qatorda haqiqiy o‘zbekning milliy qiyofasi-etnik madaniyati kabi qadriyatlar sahnada namoyish etishgan.

O‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosida askiya o‘ziga xos ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega.Uning shakllanishi va taraqqiyoti qadimgi ota-bobolarimizning so‘z san’ati imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib,kelajak avlodlarga ma’naviy-axloqiy tarbiyani sahna vositasi orqali tomosha shakli-“Askiya” janri vositasida yetkazish,madaniy-ma’rifiy sohasiga mas’uliyat yuklaydi.

Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi madaniyat muassasalari qoshida tashkil etilgan askiyachilik klublari bu janrning zamonaviylashgan formasidir. Klublar faoliyatida an’anaviylik va zamonaviylik transformatsiyalashgan ijro uslubida namoyon bo‘ladi.

Respublika,viloyat,shahar va tumanlar miqyosida o‘tkazilayotgan ommaviy-badiiy tadbirlarda askiyachilik xalqda kulgu uyg‘otish,xush kayfiyat tug‘dirish va tomoshabinlarga hayotdan zavqlanib yashash tuyg‘ularini shakllantiradi.

“Askiya” tomosha san’atining o‘ziga xos tarbiya vositasi sifatida samimiy kulgu orqali odamlarda kundalik turmush chorrahalarida yuzaga keluvchi ayrim salbiy illatlarni ko‘zgi kabi namoyish etib,muhim ibratli tarbiya vazifasini bajaradi

O‘zbek folklori janrlar tizimida “Askiya”janri xalq ijodiyotining tomosha san’atida so‘z o‘yini orqali insonning tafakkur faoliyati imkoniyatarini fikrlar hozirjavobligini kulgu orqali aks ettiruvchi qadriyatdir.

U jahonning birorta folklorida uchramaydigan - so‘zdan so‘z hosil qilish,so‘z jilosidan mohirona foydalanib,matiqiy xulosa chiqarish san’ati.Askiyaning o‘zga xalqlar folklorida uchramasligi sababi,o‘zbek tilining boyligi bilan belgilanadi.

Askiyachilik san’atining muhim bir xususiyati,uning ommaviyligidir.Mazkur janr faqat ommaviy-badiiy tadbirlar: bayramlar,xalq sayillari,to‘y marosimlari va boshqa tantanali yig‘inlarda ijro etiladi.Askiyachilar tomonidan ifodalangan so‘zlar,qo‘llanilgan iboralar va ularni kombinatsiyalash natijasida fikrni badiiy tasvirning allegoriya,ta’zod,mubolag‘a,o‘xshatish,jonlantirish kabi vositalaridan foydalanish bu

janrning ta'sir kuchini belgilaydi. Askiyachi tomonidan bayon qilinuvchi so'zo'yini tinglovchilar nutqi boyishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Askiyachilik janriga xos ijro san'ati alohida o'ziga xoslikka ega. Usta askiyachilar tomonidan ishlatiladigan oddiy so'z askiya payrovi yoki "Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?", "O'xshatdim" singari turlarini ijrosi jarayonida payrov mavzusiga bo'ysundirilib, boshqa ma'no ifodalaydi. Demak, so'zlarni kombinatsiyalagan askiyachi tinglovchilar olqishiga sabab bo'lgan javob qaytarib, raqibiga "zarba" beradi. Bu o'ziga xos aql-idrok va fikrlash musobaqasi

Har qanday askiya kechasi yoki kulgi kechasida ijro etilgan askiya payrovlari, askiyachining ilgarigi bahslarda qaytargan javoblari hech qachon aynan takrorlanmaydi. Bu hodisa askiya janriga xos an'ana hisoblanib, badihago'ylik askiyachidan dialog vaziyatidan kelib chiqib, boshqa javob berishni taqozo qiladi. Badihago'ylik askiya san'atining asosiy elementidir.

Folklorning boshqa janrlari singari an'anaviylik "Askiya" uchun ham qonuniy hisobalanadi. Askiyadagi an'anaviylik holatini ustz-shogirdlik munosabatlari orqali ko'rish mumkin.

O'zbek xalqi etnomadaniyati merosida "Askiya" alohida o'ziga xos janr hisoblanadi. U faqat jamoatchilik va omma orasida o'zini namoyon qiladi. Mazkur xalq og'zaki ijodi san'ati faqat o'zbek etnomadaniyatining nomoddiy shakli bo'lib o'zga etnik guruhlar folklorida uchramaydi.

O'zbek xalqi madaniy-ma'rifiy hayotida "Askiya" janri tomosha san'ati hisoblanib, xalq ommasiga umumiy kulgu ulashish orqali jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi.

21-asr boshlarida vujudga kelgan Askiyachilar klubi an'anaviylik o'zanida tomosha san'atining bu turini rivojdantirish, undan davr madaniy-ma'rifati rivojlantirish yo'lida yuzaga kelgan yangi tashabbus.

Respublika, viloyat, tuman va shaharlar madaniyat muassasalari "Askiya" janri imkoniyatlaridan foydalanib, aholining ijtimoiy bo'sh vaqtini mazmunli va qiziqarli o'tkazishlarida joylarda faoliya ko'rsatib kelayotgan askichi-qiziqchilarni tadbirlariga jalb etmoqdalar.

Askiyachi-qiziqchilar askiya payrovlari, voqeband kulgili xangomalari va so'z o'yini asosiga qurilgan dasturlari bilan tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo'lmoqda. Tadbir mehmonlari, qatnashchilari askiyachilarning ichakuzdi chiqishlaridan bahramand bo'lishlari bilan birga o'zlari uchun kerakli ma'naviy-ma'rifiy bilim-ko'nikmalar oladilar.

- Nomoddiy madaniy merosning xalq og'zaki so'z san'ati faqat zamonaviy maydon tomoshalarida faol foydalanib kelayotgan askiya yoki boshqa folklor janrlari ijtimoiylashuvi uchun ijodiy ta'sir vositasi bo'lib xizmat qilmay, badiiy adabiyot san'ati ijodkorlari faoliyatlarida turli ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi

asarlari milliy ohangi ifodalanishida ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Buni o'tgan asrning 70-90-yillar shoir va yozuvchilar ijodi mahsullari orqali kuzatish maqsadga muvofiq. A. Oripov, E. Vohidov, H. Xudoyberdiyeva, M. Yusuf, A. Suyun, A. Obidjon, SH. Rahmon, U. Azim, A. Ko'chimov, M. Toir, S. Said, F. Afro'z va boshqa so'z san'atkorlari milliy ruhdagi asarlari yuzaga kelishida ona-yurt folklori betakror meros hisoblanadi.

Ota-bobolar tomonidan yaratilgan og'zaki so'z san'atining xalq milliy udum, urf-odat, marosim shaklidagi an'analari borki, ular orasida dunyoning o'zga xalqlari etnomadaniyatida uchramaydigan verbal holatlar zamonaviy kino, teatr va boshqa sahna tomoshasi bilan bog'liq san'at turlari milliy yo'nalishda rivojiga noyob materiallar bera oladi. Buning uchun yangi davr san'ati ijodkorlari xalqimiz milliy qadriyatlarini sinchkovlik bilan o'rganishlari, kerakli epizodda o'rinli foydalanishi lozim bo'ladi. Bunga "Maftuningman", "Yor-yor", "To'ylar muborak", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Chinor ostidagi duel", "Suyunchi", "Abdullajon", "Tangalik bolalar", "Chol va nevara" va boshqa el suyub tomosha qiladigan milliy etnomadaniyatimiz yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi filmlarni misol keltirish maqsadga muvofiq. Zero, o'zbek kino san'atini dunyoga tanitgan filmlar ijodiy guruhi va rejissiyorlari faoliyatlari va ijodi bilan tanishganda, ular xalqimiz nomoddiy milliy merosidan qay darajada bahramand bo'lganliklari namoyon bo'ladi. San'at va madaniyat xodimlari, shu sohaning yetishib kelayotgan yosh mutaxassislari birinchi navbatda ona tili va uning boy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana bilishlari, o'zbek tilining shevalari (dialektlari), ibora-yu maqollari, afsona-yu naqlari, rivoyatu ertaklari, askiyachiligu so'z o'yinlaridan albatta xabardor bo'lishlari, ikkinchidan, milliy qadriyatlarimiz boyligi hisoblangan nomoddiy madaniy meros bo'yicha keng bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim.

Ijtimoiy ong shakllari bilan qiziqadiganlar orasida "Xalq ijodi-Haq ijodi" degan taomil mavjud. Chunki oddiy xalq o'zining Yaratganga munosabatini og'zaki shakldagi poetik so'z san'ati orqali va ta'sirchan ifoda usulda bayon etib kelgan. Xalq og'zaki ijodi san'atining eng birinchi elementi ezgu so'z-ta'sirchan nutq, keyingisi ibratli maqsadg'oya, uchinchi milliy urf-odatlar qobig'iga singdirilgan e'tiqod-an'anaviy qarashlar kabi manbalardan tashkil topgan. Ular tarixiy-folkloriy jarayonda nutqning turli shakli yordamida janrlar tizimida reallashadi. Demak, folklor ham ilk san'at namunasi hisoblangan miflardan boshlab, insonning ichki kechinmalari hukmronligi ta'sirida ijtimoiy mohiyatga ega turli shakldagi janrlar tizimiga ega. Agar folklor janrlariga oid istalgan namuna tahlil etilsa, til orqali tasavvur qilish va fantaziyalash tafakkur izmiga bo'ysunganligi ma'lum bo'ladi. Masalan, baxshi tomonidan ijro etiladigan terma yoki dostonida jamiyat ijtimoiy munosabatlariga oid biror axloqiy mavzuni tinglovchi saviyasiga mos kuylashidan oldin tasavvur-fantaziyalash tuyg'usini tafakkuridan o'tkazib oladi va auditoriyaning tarkibini aniqlagach, ichki kechinmasini janr tabiati an'anasiga

muvoqif ijro qiladi. Kundalik hayot jarayonida mexanik ravishda bayon etiladigan har qanday ibora, maqol yoki biror aytimlar ham til va tafakkur dialektikasiga bo'ysunadi. Masalan, "Moshxo'rdaga qatiq bo'lma", "Pixini yorgan", "Mevali daraxtga tosh otilar", "Tekin tomoq" va boshqa yuzlab xalq iboralari, maqollari to'g'risida ham shu fikrni aytish mumkin. Chunki tarixiy-folkloriy janrlar sil-silasida shakllangan barcha og'zaki so'z san'ati namunasi til va nutq orqali tasavvur qilish va fantaziyalash – tafakkur qilish dialektikasi mahsullaridir. O'tmishda yashagan avlod o'zini o'rab turgan olam haqidagi tasavvurlaridan tortib, odamzodning ichki qalb kechinmasi-yu, turli mavzudagi his-tuyg'ulari va aql-idroklarini lirik, epik, liro-epik, dramatik va hikmatli aytim shakllarida bayon etib kelishgan. Buloq suvidek pokiza tuyg'ular silsilasi necha-necha avlodlarning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-madaniy va tafakkur donishmandligi dunyoqarashlari kamol topishiga xizmat qilib kelgan. Yana shuni alohida ta'kidlash o'rinli, 10-11-asrlar yurtimizda tug'ilib, jahon ilm-fani va falsafasiga ulkan hissa qo'shgan Allomalar ham ilk san'at namunasi – ona "Alla"si-yu, ilk tasavvurlash-fikrlash ko'nikmalarini bobo-buvi ertaklarini shu zaminda tinglab, voyaga yetishishgan. Bulardan tashqari, o'zlari yashagan oila, mahalla muhitda uyushtiriladigan urf-odat, udum, marosim, bayram kabi nomoddiy madaniyat an'analari ruhida voyaga yetganliklarini ham inkor etib bo'lmaydi.

Xalq ijodiyoti ham xalq tili kabi qadimiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kategoriyalardan biri bo'lib, o'tmishda yaratilgan va asrdan asrlarga o'tib, butun boshli elni boshqa milliy guruhlardan farqlashga xizmat qilib keluvchi xalq ijodiyoti qadriyatlarini faqat boshqa millat xalqi vakillarigina ko'rishi, baho berishi mumkin. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi va boshqa bir qator bilim dargohlarida "Odobnoma", "Madaniyatshunoslik", "Axloqshunoslik" kabi xalq madaniy-ma'naviy merosi bilan bog'liq fanlar o'qitilmoqda. Talabalarni xalq milliy madaniyati, axloqiy ma'naviyati ruhida tarbiyalash orqali Istiqlol mafkurasini mustahkamlashga yordam beruvchi bu say-harakatlar ushbu munosabat tamoyillariga javobdir. O'zbekistondagi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida sodir bo'lgan moddiy manfaatlar tuyg'usi bilan ma'naviy-axloqiy an'analarda o'rtasidagi ziddiyatlardan kelib chiqqan holda tarbiyaga yondoshish kerakligi va xalq donishmandligi merosi yangi davr odamlari uchun naqadar zarur qadriyatlar ekanligini isbotlagan edi. Jumladan, "Vatan tarixi va madaniyati, jo'g'rofiyasi va iqtisodi, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bolalar bog'chalaridan tortib, oliy ta'lim dargohlari-yu, o'rta maxsus o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur yo'nalishdagi fan va bilimlarni o'qitish muhim siyosiy vazifa sifatida qaralishi talab qilingan edi. Chunki xalq tili va dunyoqarashiga yaqin bo'lgan o'tmish qadriyatlari barcha uchun tushunarli va xotiraga tez singishi, ma'naviy-axloqiy jihatdan ibratli ekanligi ham nazarda tutiladi.

Ma'lumki, xalqimiz rus chorizmi va sovet davri mustabidligi hukmronligi zamonlarida ham o'zining qadimgi avlodlari tomonidan yaratilgan xalqning axloqiy-

ma'naviy madaniyati sifatida barham topmagan odobnoma, ibratnoma, odatnoma qadriyatlarini u yoki bu darajada saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan edi. O'zbek xalqi og'zaki ijodi merosining milliy ruhi, yashovchanlik qudrati va tarbiyaviy ahamiyati naqadar kuchli ekanligini bilgan chorizm mafkurachilari ularni asta-sekin yo'qotib yuborish, sobiq Ittifoqning shimoliy hududlarida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar singari ruslashtirish siyosatini asrimiz boshlaridayoq amalga oshira boshlagan edi. Buni N.P.Ostroumov, A.Divayev, Lagofet, Likoshin singari folklorshunos, elshunos va tarixshunoslari, rus missionerlar ilmiy faoliyatlari, keyinchalik esa Masson, Bartold, Radlov va boshqa sovet olimlari tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Shu bois, yurtboshimiz xalq og'zaki ijodi namunalarining kelajak avlodlar uchun ahamiyati haqida: "Kichkintoy bolalarimiz uchun milliy ruhdagi ko'plab multfilmlar, badiiy va videofilmlar yaratish zarur. Toki farzandlarimiz faqat Uolt Disney qahramonlarinigina emas, balki o'zbek xalq ertaklarini, milliy qahramonlarimizni ham tanisin-bilsin, ular bilan iftixor qilishga odatlansin", — deganida juda katta ma'no yotibdi.

Haqiqatan ham, farzandlarimiz o'zbek xalq ijodiyoti donishmandligi qadriyatlarini samimiy hurmat qilsalar, bu merosning asl mohiyatiga tushunib yetsalar, xalq orzu-umidlari, falsafiy-axloqiy qarashlari aks etgan qahramonlari fazilatlari bilan tanish bo'lsalargina, ulardan zamonaviy Alpomishlar, Go'ro'g'lilar, To'marislari, Barchinu Orzigullar yetishib chiqishiga imkon yaratiladi. Xalq ijodiyoti donishmandligi merosi ota-bobolarimizning asrlar mobaynida turmush sinovlaridan, hayot tajribalaridan o'tib, mukammal xolatga kelib qolgan betakror qadriyatlaridir. Agar har tomonlama taraqqiy etgan davlatlar o'tmish tajribasiga nazar tashlasak, ularning o'z madaniy merosini qadrlaganligi iqtisodiy-madaniy jihatdan rivojlanib ketishining muhim omillaridan biri bo'lganligini ko'ramiz. Bunga misol qilib, 1958 yil ulkan hajmda chop etilgan "Amerika xalqlari 3 jildlik to'plamini ko'rsatish mumkin. AQShda yerli xalqlar, G'arbiy Ovrupodan XVI asrda kelgan oq tanli xalqlar va XVII asrlarda Afrikadan keltirilgan negrlar folklorini to'plash, ilmiy o'rganish va ulardan zamonaviy maorif-madaniyat sohasida unumli foydalanish ishlarini yo'lga qo'yilgan. Yoki Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya davlatlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti tarixi tajribalaridan ham o'sha mamlakatlar o'z milliy folklorini asrab-avaylagan holda, zamonaviy madaniyat yaratganliklari kuzatiladi. Chunonchi, Daniyadagi ertaklar shaharchasi, Germaniyadagi xalq milliy donishmandligi merosining asrab-avaylangan holda bir avloddan keyingisiga yetkazilish an'analari, maktab va oliy ta'lim tizimi dasturlarida german xalq donishmandligiga oid ko'plab mavzular kiritilganligi buning isbotidir. 2014 yil bir guruh nemis folklorshunos va etnomadaniyat sohasi olimlari va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU ijtimoiy fanlar tadqiqotchilari bilan birga o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyada yurtimizda saqlanib qolgan nomoddiy madaniy meros haqidagi ma'lumotlarni bilishib, bu boylarni avaylab asrash, globallashtirilgan davrda ularni mustaqillikka erishgan yosh davlatning demokratik taraqqiyoti yo'lida foydalanish masalalari bo'yicha tajribalarini bayon

etishdi. Milliy madaniy merosga o‘z vaqtida e‘tibor berilmasa, dunyoning har tomonlama rivojlangan davlatlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma‘rifiy jihatdan zaif xalqlarning tarixiy xotiralari aks etgan milliy qadriyatlarini transformatsiyalash orqali barham topishiga sabab bo‘ladi, degan xulosalarni bayon etishdi.

Xullas, qaysiki xalq o‘zining o‘tmish madaniyati ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari an‘analari o‘zanidan chiqib ketmagan tarzda ish tutsa, o‘sha mamlakatlar ham iqtisodiy, ham madaniy va ham siyosiy jihatdan boshqa xalqlar oldida yuqori nufuzga ega bo‘lishini jahon xalqlari tarixi tajribalari ko‘rsatib turibdi. Folklor xalq milliy donishmandlik qadriyatlarining o‘ziga xos axloq Kodeksi deb bejiz ta‘riflanmaydi. Davlatimizning birinchi Prezidenti Istiqlol mafkurasi g‘oyalarini yaratishda bejizga xalq og‘zaki so‘z san‘atini yuksak baholamagan. I.A. Karimov: “Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytsak, sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak”, — deganlarida hozirgi tarixiy sharoit odamlari uchun nihoyatda kerakli bo‘lgan ma‘naviy tarbiya masalasi ko‘zda tutilmoqda.

Oliy ta‘lim va madaniyat-san‘at tizimidagi har qanday soha mutaxassislari, qaysi jabhaga xizmat qilishlaridan qat‘iy nazar, avvalo, tom ma‘noda odam bo‘lishi, ta‘kidlaganidek, harom-harish, nopoklikdan, adolatsizlik, poraxo‘rlik, mansabparastlik kabi ijtimoiy illatlardan hazar qiluvchi O‘zbek fuqarolari bo‘lib tarbiyalanishi har bir oliy dargohning oliy maqsadi hisoblanadi. Shunday ekan, xalq ijodiyoti merosi qadriyatlarini O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimidagi bilim dargohlarida “Nomoddiy milliy meros”, “Xalq donishmandligi madaniyati” kurslari shaklida o‘rgatilishi amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. “Nomoddiy milliy meros”, “Xalq og‘zaki ijodi donishmandligi” zamonaviy talabalar ruhiy dunyosini milliy iftixor tuyg‘usi bilan boyitish va tafakkurini rivojlantirishda quyidagi amaliy bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi:

- o‘zbek xalqi milliy iftixor tuyg‘usini tarkib toptirishi;
- xalq milliy urf-odat va marosimlariga hurmat hissiyotini tarbiyalash;
- xalq milliy madaniyati, o‘tmish avlodlar ilm-fani allomalariga nisbatan farzandlik burchi tuyg‘usi shakllantirishga yordam beraish;
- o‘z Vatanini, ona-yurtini, uning tili, axloqiy madaniyatini hurmat qiladigan, haqiqiy vatanparvar bo‘lib yetishiga undash;
- shaxsiy fazilati, hayotdagi tutgan o‘rniga nisbatan tanqidiy qarash burchini shakllantirish;
- etnomadaniyat yo‘nalishida ilmiy-nazariy bilim-ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘zbekiston XXI asr boshlariga kelib, jahonning har tomonlama taraqqiy etayotgan mamlakatlari qatoridan o‘rin oldi. Buning zaminida faqat iqtisodiy rivojlanishlik omillaridan tashqari, Istiqlol mafkurasining asosini tashkil qiluvchi ma‘naviy-ma‘rifiy omillar ham yotganligini ko‘ramiz, chunki asrlar mobaynida xalqimiz odobnoma,

odatnoma va ibratnoma qadriyatlarini vazifasini bajarib kelgan folklor qadriyatlarini mustaqillikni qo‘lga kiritgan mamlakatning asosiy mafkura g‘oyalari ishlab chiqish manbai bo‘lib xizmat qilishini e‘tiborga olish lozim. Binobarin, hozirgi faoliyat ko‘rsatayotgan san‘atning rang-barang turlari manbai ham o‘zbek xalq milliy ijodiyoti, uning bitmas-tuganmas namunalarini ekanligini bugungi kun madaniy hayotimiz ham isbotlab turibdi.

Nomoddiy madaniy merosning Xalq og‘zaki ijodi yo‘nalishini oliy ta‘lim maskanlarida o‘rganish, uning turli shakl va namunalaridan g‘oyaviy-estetik maqsadda foydalanish muhim tarbiyaviy natija beradi. Chunonchi, folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va san‘atshunoslik yo‘nalishlardan tashqari, ijtimoiy madaniy faoliyat, madaniyat muassasalari ishlarini tashkil etish va ta‘lim-tarbiya muassasalari uchun qadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim dargohlari “Madaniyatshunoslik”, “Ma‘naviyat asoslari”, “Adabiyot tarixi”, “Kasbiy fanlar o‘qitish uslubiyati”, “Pedagogika” kabi darslar jarayonida ham nomoddiy o‘zbek madaniyati merosi, shuningdek, folklor og‘zaki so‘z san‘ati va amaliy san‘at janrlari bo‘yicha qiziqarli mashg‘ulotlar olib borish mumkin. Buning uchun esa ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xalq amaliy san‘ati singari folklor bilan bog‘liq dunyoqarashga ega bo‘lishlari kerak. Zotan, har qanday folklor namunasi xalqning u yoki bu darajada g‘oyaviy maqsadi, orzu-istagi va kelajak to‘g‘risidagi hayotbaxsh ideali bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Masalan, “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas”, “Er yigit-el g‘amida”, “Baliqning tirikligi suv bilan, odamning tirikligi odam bilan”, “Ustoz—otangdan ulug‘” kabi xalq maqollari, “Zumrad va Qimmat”, “Egri bilan To‘g‘ri”, “Muqbil toshotar”, “Uch og‘a-ini botirlar” singari xalq ertaklari, “Alpomish”, “Rustamxon”, “Orzigul” dostonlari kabi xalq og‘zaki badiiy so‘z san‘ati namunalarini ona xalqimizning ming yillar mobaynida og‘izdan og‘izga, otadan farzandga, ustozdan shogirdga o‘tib, sayqal topib bizga qadar yetib kelgan odobnoma, odatnoma va ibratnoma qadriyatlarini o‘z ifodasini topganligini anglaymiz.

Hozirgi dunyodagi globallashuv, turli-tuman fan sohalarida yuzaga kelgan inqilob, millionlab axborotlar almashinuvi nihoyatda tezlashgan bir davrga kelib, umuminsoniyat oldida muhim muammo—inson qadri, insonni sharaflash masalasi yuzaga keldi. Garchi, ayrim iqtisodiy-madaniy rivojlangan mamlakatlarda bu muammo biologik hayot kechirish, inson biologik ehtiyojlarini moddiy jihatdan qondirish, ya‘ni mo‘l-ko‘lchilik, turmush kechirishdagi qulaylik kabi omillar ostida ko‘zga ko‘rinmay qolishi oqibatda xalq ijodiyotiga nisbatan ekzotik nazar bilan qarash taomilga kirganligini e‘tirof etish kerak. Biroq har qanday fan-texnika inqilobi, iqtisodiy farovon hayot kechirish sharoiti asosida eng birinchi muammo—inson omili yotadi. Bas, shunday ekan, ushbu masalaning hayotiy amalga oshishi va inson taqdiri bilan bog‘liq ma‘naviy inqiroz kuchaymasdan turib, hozirgi jamiyatning kelajagini o‘z qo‘llariga oluvchi mutaxassislarni xalq donishmandligi—folklor an‘analari g‘oyalari bilan ma‘nan sug‘orish payti keldi.

Folklor—baynalminal ahamiyatga molik ijtimoiy-badiiy ong shakli. U dunyoda istiqomat qilayotgan eng kichik urug‘—etnosdan tortib, millionlab aholiga ega bo‘lgan xalqqa xos bo‘lgan madaniy-axloqiy, madaniy-estetik, madaniy-falsafiy qadriyatlardir.

O‘zbek folklori an‘analari, uning yozma badiiy adabiy san‘ati va boshqa faoliyatdagi san‘at turlariga ta‘siri masalasi qisman tadqiq etilgan. Biroq folklorning oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida o‘qitilishi masalasi hanuz yopiq holda qolmoqda. Ushbu masala yuzasidan olib borilayotgan har qanday ish bugungi kun o‘qitish uslubiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta‘lim ijtimoiy-gumanitar fanlari, xususan, madaniyatshunoslik, san‘atshunoslik va filologik yo‘nalishlarida bilim olayotgan talabalarning o‘zbek folklori materiallaridan bilim-ko‘nikmaga ega bo‘lishlari, ularning shaxsiy dunyoqarashlari, bilim doiralari kengayishiga yordam berishidan tashqari, kelajakda barcha yoshga mansub insonlarbolalar, o‘quvchilar, talabalar va keng jamoatchilik bilan ish olib borishlari uchun muhim hayotiy material bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy iftixor tuyg‘usi, o‘tmish avlodlar xotirasini asrab-avaylashda o‘ziga xos manba‘ rolini ham o‘ynaydi.

Talabalar bilan folklor materiallari ustida ishlashda oddiydan murakkabga tomon borish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘quv qo‘llanmada avvalo janrlar, ularning o‘zaro munosabatlariga doir ayrim fikr-mulohazalarni bayon etilgach, navbatda aniq bir janr xususida ma‘lumot berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodining har bir janri tarixiy kategoriya hisoblanib, u tarixiy-folkloriy jarayonda shakllanadi. Shuning uchun folkloriy jarayon, uning ichki qonuniyatlar haqidagi fikrlarni yetarli misollar orqali asoslagach, o‘quv qo‘llanmaning keyingi fasllarida bevosita muayyan bir janr tabiati, unga xos badiiy vositalar, kompozitsiya, syujet, motiv va obrazlar tizimi masalalariga yondoshiladi.

Folklor janrlararo munosabat an‘anasi

Folklor janrlari tarkibi qanchalik qadimiy va ko‘p qatlamli bo‘lishi ularning qadimdan o‘zaro murakkab munosabatlar asosida tarkib topganligidan dalolat beradi. Bu holat esa janrlar orasida sodir bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar jarayoni beto‘xtov davom etishini anglatadi. Janrlar tarkibidagi bunday holat va o‘zgarishlar tarixiy rivojlanish jarayoniga muvofiq, turli g‘oyalarni ilgari suruvchi og‘zaki ijod namunalari yaratilishiga yordam beradi. Chunki folklor janrlarining o‘ziga xos tizimga kelib qolishi tarixiy-folkloriy jarayon mahsuli bo‘lib, uzoq davrlar mobaynida insoniyat taraqqiyotining u yoki bu jihatdan ta‘siri natijasidir.

Janrlararo munosabat masalasi tarixiy-folkloriy jarayonda sodir bo‘luvchi jarayon bo‘lganligi uchun bu hodisa haqidagi fikr va mulohazalar bahsli tuyulishi tabiiy. Folklor materiallariga ijtimoiy ongning badiiy adabiyot, tarix, falsafa singari sohalariga yondoshish uslubida emas, balki bu sohaning o‘ziga xos tabiatidan kelib chiqqan holda yondoshish zarurligi taqozo etadi. Bunday yondoshuv esa o‘zbek folklori janrlari

tarkibidagi o‘zaro munosabat masalasini yechish talabalarda ertak janri bo‘yicha ilmiy xulosa va yangi fikrlar yuzaga kelishi uchun imkoniyat yaratadi, deb o‘ylaymiz.

Janrlararo munosabatni tarixiy-tipologiya yo‘nalishida o‘rganish xalq madaniyati tarixi, avlodlarning o‘tmishdagi hayot kechirish tarzlarini aniqlashda muhim yangiliklar berishi mumkin. Folklor janrlarining o‘zaro munosabati va ta’siri masalasi o‘ta darajada keng qamrovli murakkab masala bo‘lib, u folklordagi ijodiy jarayonning tarixiy-tadrijiy masalalarini nisbatan to‘laroq va chuqurroq yoritishni talab qiladi. Folklor janrlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat dinamik jarayon hisoblanib, u xalq ijodiyotining voqelikni aks ettirishdagi evolyusion, barqaror an’anaviylik bag‘ridagi individual ijro mahorati asosida sodir bo‘ladi.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi tizimidagi janrlar uzoq davom etgan tarixiy-folkloriy jarayon natijasi. Hozirga qadar yetib kelgan folklor janrlari allaqanday mualliflar tomonidan ijod etilgan yoki biror odam tomonidan ongli ravishda tabaqalashtirilgan g‘oyaviy-badiiy tushunchalar bo‘lmay, balki, turli davrlarda yashagan ajdodlarimizning orzu-istaklari, hayot haqidagi qarashlari va kelajak to‘g‘risidagi ideallarining xalqona ruhdagi badiiy tasvirlangan mahsullaridir. Folklor janrlari munosabatini tarixiy-folkloriy jarayon va uning dinamik rivojlanish qonuniyatlari asosida kuzatar ekanmiz, eng avvalo, insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlari bilan birga folklor janrlari bosib o‘tgan yo‘llar o‘rtasidagi bog‘lanish hamda turli ishlab chiqarish munosabatlari mafkurasi bilan xalq og‘zaki ijodi janrlari orasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash imkoniyati ham tug‘iladi.

Folklor janrlari munosabatini hozirgi folklorshunoslik nuqtai nazari bo‘yicha tadqiq etishning muhim jihatlaridan yana biri, janrlar orasidagi o‘zaro muvofiqlashuv va diffuziya hodisalarini o‘rganish masalasidir. Muvofiqlashuv va diffuziya hodisalari sodir bo‘lishining o‘ziga xos qonuniyatlari mavjud bo‘lib, ular ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Shundan ikkinchisi alohida tadqiq etishga loyiq muammo hisoblanadi. Xalq merosi namunalari davr hukmron mafkurasi ta’sirida sodir etiladigan sun’iy munosabatlar ana shunday muammodir. Bunday hodisani sovet davri folklori deb ataluvchi tarixiy davr janrlar tizimidagi ayrim o‘zgarishlarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Folklor janrlari tabiiy rivojiga sun’iy munosabat asosida bir tomonlama yondoshilishi oqibatida milliy madaniyatining ko‘pgina namunalari keyingi avlodlar nazaridan chetda qolishiga sabab bo‘ldi. Xalq marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq folklor namunalari, tarixiy voqelikni aks ettiruvchi afsonalar, rivoyatlar, muqaddas Islom diniga doir ma’rifiy xarakterdagi xalq og‘zaki ijodi namunalari sun’iy muvofiqlashtirish asosida latifa, hayotiy-satirik ertak, terma va qo‘shiqlar tarkibiga singdirib yuborildi. Boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi folklor janrlari taraqqiyoti va undagi munosabatlari “Hamma vaqt ilgarilanma harakatlanuvchi jarayon” bo‘lib, bu jarayon o‘ziga xos dialektik qonuniyatga bo‘ysunadi. Ana shunday qonuniyatlardan biri bo‘lgan muvofiqlashtirish meyorining buzilishi, salbiy oqibatlarga olib kelishini ayrim folklor to‘plamlaridan ham bilsa bo‘ladi.

1980-yillarga qadar janrlararo munosabat masalasi janrlarning poetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida o'rganib kelingan. Lekin jahon folklorshunosligi va keyingi davr ilmiy-tekshirish talablari shuni taqozo etadiki, har qanday og'zaki ijod namunasi uning hajmi yoki shakli qandayligidan qat'iy nazar, uni yaratgan milliy etnos tarixi, maishiy va ma'naviy psixologiyasi bilan bog'liq kompleks o'rganilishi muhim amaliy ahamiyat kasb etishi darkor. Yo'qsa, unday tadqiqotlar xalq madaniyati ko'zgusi hisoblangan folklor merosi, uni yaratgan xalq to'g'risida yetarli ma'lumot va axborotlar bera olmasligi mumkin. Ma'lumki, dunyoning turli xalqlari folklorida janrlar tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi xususiyatga ega. Inglizlarda ekstrotsentrik og'zaki hikoyalar ommaviy bo'lsa, fransuzlarda xalq balladaları qadrlanadi, slavyanlarda chastushka, bo'linalarga e'tibor ko'proq bo'lsa, chuqchalarda shomonlik an'analari samimiyat bilan kuylanadi. O'zbeklarda qadimdan ibratli mazmun anglatuvchi va ommaviylik xarakteridagi epik janrlarga qiziqish kuchliroqdir. Agar shu nuqtai nazardan folklor janrlar orasidagi munosabatlarga yondoshiladigan bo'lsa, afsona, rivoyat, naql, ertak va doston kabi epik tur namunalari turli davrlar tarixiy-folkloriy jarayonda doimo o'zaro ta'sir va aks ta'sir aloqada bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Chunki maishiy hayot va undagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish jarayoni folklor janrlari taraqqiyoti jarayoniga har tomonlama ta'sir ko'rsatishi folklor namunalarining asta-sekin takomillasha borishida namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shakl jihatdan kattaroq bo'lgan ertak, doston janrlari tarkibida nisbatan qadimiy afsona, rivoyat kabi turdosh janr elementlari uchrashi tasodif emas. Shuningdek, tur va shakl jihatdan o'xshash bo'lmagan paremiologik, (aforistik) marosim folklori bilan bog'liq janrlarning lirik, epik janrlar tarkibiga muvofiqlashgan element va motivlari uchrashi janrlararo munosabat folklor taraqqiyotidagi harakatlantiruvchi o'ziga xos kuch ekanligini ko'rsatadi. Fikrimizni asoslash uchun "Ayozi" nomli xalq ertagiga murojaat etish mumkin. Mazkur ertak janrlararo munosabat yo'nalishida tahlil qilinar ekan, uning taribida epik turga mansub afsona, rivoyat va ertak janrlari birikib, ertak janrlari voqealarini tashkil etganga o'xshaydi. Bundan tashqari, paremiologik janrlar ertak ta'sirchanligini ta'minlaydigan vosita sifatida ishtirok etganligini ham eslatish kerak.

Ko'pgina o'zbek xalq epik namunalari uchun tipik hisoblangan farzandsizlik yoki farzand tilash bilan bog'liq motiv "Ayozi" ertagi syujet voqealari tuguni sifatida kelgan. Bu motiv aksariyat xalq dostonlarida ham tugun vazifasida kelishini "Alpomish", "Rustamxon", "Bahrom va Gulandom", "Bo'tako'z" va boshqalar orqali ko'rish mumkin. "Ayozi" ertagi ifodalaydigan epik mazmun-mohiyati va umumiy g'oyaning ijtimoiy-didaktik ahamiyat kasb etishi, voqealar markazida podshoga qarshi qo'yilgan oddiy xalq vakili Ayozi obrazi turganligi bu ertakning sinfiy ziddiyatlar kuchaygan davrda yaratilganligidan guvohlik beradi. Mazkur ertak ifodalaydigan estetik qoyaning demokratik xarakterda bo'lishi, folklor an'analarga xos qahramonni ideallashtirish san'atida kichik epik janrlar, paremlar tarixiy-folkloriy jarayon qonuniyatlari asosida bir

syujetga muvofiqlashganligi uchun bu folklor namunasi xalq orasida keng tarqalgan, uning turli variant va versiyalari jonli ijroda hamon mavjud. Janrlararo munosabatlarda biridan ikkinchisiga ko‘chib yuruvchi o‘xshash motivlarning yagona syujet voqealari yuzaga kelishi uchun muhimligini farzandsizlik motivi, o‘qil farzand tilash motivlari misolida kuzatamiz. Agar e’tibor berilsa, faqat farzandsizlik yoki o‘qil farzand tilash motivlaridan tashqari, o‘gaylik, kamsitilgan kishilar yoki xoinlik, sotqinlik, yomonlikni qoralash kabi motivlardagi xalq orasida aytib kelinadigan afsona, rivoyat, naqlarni ham ko‘rish mumkin. Albatta, bunday motivlar davrlar o‘tishi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar o‘zgarib borishi natijasida og‘izdan-og‘izga, ustozdan-shogirdga, bir avloddan ikkinchisiga o‘tar ekan, diffuziyalanishi, o‘zaro muvofiqlashishi, sayqallanishi tabiiy. “Ayozi” ertagidagi turli janrlarning o‘zaro munosabati tarixiy-folklori jarayon qonuniyatlari asosida hosil bo‘lgan tabiiy muvofiqlashish desa bo‘ladi.

Folklor janrlari munosabatidagi yana bir muhim jihat — boshqa janr tarkibiga uyg‘unlashgan janrning asl xususiyatlariga xos asosiy elementlari qay darajada saqlanishi va u bajaradigan vazifa hisoblanadi. Folklor namunalari boshqa ijtimoiy ong shakllaridan o‘zining ko‘p funksiyaliligi, ommaviyligi bilan ajralib turuvchi xarakterga ega. Har qanday folklor asari qanday tur yoki qaysi janrga mansubligidan qat’iy nazar, o‘z imkoniyati doirasida muayyan bir xalqchil g‘oya va maqsadni aks ettiradi. Chunonchi, eng kichkina shakl birligiga ega frazeologik iboralaridan tortib, murakkab syujetli epik namunalarigacha xalq o‘tmishga aloqador hayot tajribalari yoki bevosita insoniyat madaniy-maishiy turmushi, tarixi bilan bog‘liq biror voqelikni folklor an’anasiga xos u yoki bu usulda estetik aks ettirib kelgan. Demak, xalq og‘zaki ijodi janrlar tizimini tashkil qiluvchi barcha janrlar muhim vazifa: axloqiy-tarbiyaviy va ta’limiy-estetik funksiyalarni bajarar ekan, folklorga xos ko‘p funktsionallik xususiyatining shakllanishini turli janrlar munosabati natijasida hosil bo‘lgan badiiy mahsul, desa bo‘ladi. Buni xalq naql va ertak janrlari o‘zaro munosabati ham tasdiqlay oladi. O‘zining “qissadan hissa chiqarish”dek tipik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi xalq naqlari, birinchidan, paremiologik janrlar bilan faol munosabatga kirishgan tarzda ko‘proq uchrasa, ikkinchidan, hayotiy-maishiy ertaklar tarkibiga muvofiqlashgan tarzda keladi. O‘zbek xalq ijodi ko‘p tomligi turkumida chop etilgan to‘plamdagi “Luqmoni hakim” ertagi ana shunday munosabatlar asosida yaratilgan. Agar bu folklor namunasi struktural-tipologiya asosida tahlil qilinsa, uning syujet voqealari chizig‘ida bir necha kichik epik janrlar o‘zaro muvofiqlashgani natijasida vujudga kelgan kattagina hajmli ertak ekanligi ma’lum bo‘ladi. Darhaqiqat, Luqmoni hakim obrazi bilan bog‘liq ko‘pgina xalq naql, rivoyat va afsonalari xalq orasida, shuningdek, nashr etilgan holda uchraydi. «Luqmoni hakim» syujeti bir-biridan mustaqil syujet, motiv va obrazlar sistemasiga ko‘ra ajralib turuvchi rivoyat va naqlar tizmasidan tashkil topgan. Ertak kichik janrlar tabiatiga xos tipik xususiyatlar bu ertak strukturasiga umumiy syujet voqealari zanjirga muvofiqlashgan. Bu ertak matnini yozib oluvchi (balki, aytuvchidir) asli mustaqil syujetga ega bo‘lgan kichik

folklor janrlarini xalq ertakchilik san'ati an'analari uslubida sun'iy muvofiqlashtirgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Biroq qanday shaklda bo'lmasin, folklor janrlar munosabati tarixiy-folkloriy jarayon qonuniyatlari asosida hosil bo'lgan janrlar orasidagi o'zaro praporsional boqlanish orqali vujudga kelgan nemuna, deya olamiz. Ertakka muvofiqlashgan rivoyat va naqlar yagona syujetga semantik jihatdan mosligi ertak markazida turuvchi Luqmon obrazining xalqchilik mohiyatini ochib berishga yordam bergan. Ertak tarkibidagi naql, rivoyat kabi kichik epik janrlarning umumiy syujetga o'zaro muvofiqlashgan tarzda kelish hodisasini ko'rsatuvchi bu ertak quyidagi murakkab tuzilishga ega: a) Iskandar Zulqarnaynning butun olamni bosib olishi va fath etilmagan suv osti odamlari bilan sodir bo'lgan voqea, suv osti odamlarining Iskandarga shart qo'yishi rivoyati;b)suv osti odamlari yuborgan sirli un, undan non yopgan podshoh xotining "o'xshamay" qolgan nonni gado-Luqmonga berib yuborishi,nonni yegan Luqmon devonaning mashhur hakimga aylanishi rivoyati;v) Luqmonning to'quvchilik kasbi, uning Iskandar va o'g'li buyrug'iga muvofiq dunyoda yo'q sirli matodan kiyim tikishi, ortib qolgan asl matodan bolasiga ham kiyim tikib berib, podshohdan baloga qolgani natijasida Luqmon va o'g'li Oqtepa cho'lida qazilgan zindonga tashlanishi rivoyati;g)Iskandar vafot etib, uning o'rniga o'tirgan shahzodaning halqumiga to'satdan suyak tiqilib qolishi va suyakni olib tashlashda barcha tabiblar bajara olmagan ishni tadbirkorlik bilan Luqmonning yuajarishi naqli;d) Luqmonning "oshini oshab, yoshini yashab", o'limi oldida odamlarga tabiblik bo'yicha aytgan foydali maslahatlari haqidagi naqlari kabi kichik epik janrlar tizimidan tashkil topgan.

Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, xalq og'zaki ijodi namunalari munosabatida bir janrga xos elementning boshqasi tarkibida muvofiqlanishi yoki diffuziyalanishining obyektiv sabablaridan yana biri, folklor namunalari ijrosi va badihago'ylik san'ati an'analari bilan bog'liqdir. Chunki ijro jarayonida qaysi janr bo'lishidan qat'iy nazar, unga xos barcha tipik xususiyatlar takrorlanganida, o'zgarishsiz qolishi hech qachon kafolatlanmaydi. Bu folklor asarlari ijrosiga xos umumiy qonuniyatlardan hisoblanib, ertakchi, dostonchi—baxshi, askiyachi, qo'shiqchi, umuman, ijrochining ijro jarayonida ma'lum darajada badiha qilish huquqi bor bo'lib, aytayotgan asari syujeti voqealari tizimiga mazmunni yanada xalqchil, ta'sirli chiqishi uchun o'z davrida ko'pchilik e'tiboridan qola boshlagan arxaik janrlarga xos elementlarni an'anaga muvofiq muvofiqlashtirishi tabiiy. Genetik jihatdan bir-biriga yaqin janrlar munosabatida mazkur holat yaqqol ko'zga tashlandi. Bu borada ustoz folklorshunoslarning qahramonlik tipidagi ertaklar bilan dostonlar munosabati haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.¹

Folklor janrlar tizimidagi biror janr yo'qki, ular o'zaro munosabat yoki aloqada bo'lmasin, barcha janrlar uchun xos bo'lgan bu xususiyat folklor asarlarining umumiy qoyaviy-badiiy prinsipi bilan bog'liq. Lekin shunday holatlar ham bor bo'lib, o'z umrini

¹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос, ГИХЛ, 1947, стр. 92-96, Жирмунский В. Сравнительная литературоведение. Наука, Л., 1979, стр. 320.

tugatayotgan va xalq orasida ommaviylik xususiyati asta-sekin barham topayotgan ayrim janrlar go‘yo yo‘q bo‘lib ketgandek tuyulsa ham, aslida batamom yo‘qolmaydi.

Balki, o‘zidagi eng muhim tabiiy xususiyatlarning ayrim jihatlarini ommaviy janr tarkibiga singib, uning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bunday holatni tarixiy, toponim, antropomorfik, zoomorfik va etiologik afsonalar syujeti va motivlarining ertak, doston janrlariga muvofiqlashgan shakldagi ko‘rinishlaridan bilsa bo‘ladi. Masalan, o‘zbek dostonchilik maktablarining so‘nggi vakillari repertuarlaridagi ijro etilgan dostonlar syujeti, umuman, epik janrlar syujet ko‘rinishida arxaiklasha boshlagan kichik epik janrlardan tashqari, xalq milliy marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq janrlar ham sintezlashganligini kuzatamiz. Sherobod dostonchilik maktabi dostonchi—baxshisi Qodir baxshi ijro etgan “Norguloy”, “Kelinoy”, “Temurnoma” kabi dostonlarda ana shunday holatlar ko‘zga tashlanadi. Binobarin, xalq dostonlari tarkibida faqat epik janrlarga xos elementlar muvofiqlashmay, ayrim arxaiklasha boshlagan lirik, paremiologik janrlar ham doston umumiy syujet kontekstiga semantik singdirilishi mumkin. Marosim folklori namunalariidan hisoblangan “Kelin salom”, “Yor-yor”, “Alla”, “Yoramazon” kabi lirik turga mansub janrlarning xalq dostonlaridagi muvofiqlashish hodisasini Qodir baxshi ijrosida kuylangan “Norguloy” dostoni misolida ko‘ramiz. Lirik janr namunalari doston syujeti voqealari badiiyligida muhim rol o‘ynamasa-da, asarga milliy ruh bag‘ishlash, xalq milliy marosimi bilan bog‘liq voqelikni tasavvurda jonlantirish uchun muhim ahamiyatga ega Qodir baxshi repertuaridagi “Norguloy” dostoni tarkibidagi “Yoramazon” qo‘shig‘i ana shunday xarakterdagi muvofiqlashgan namunalardan biri. Bu qo‘shiq syujet voqealari davomida uchraydi. Doston qahramoni So‘ltoqning zimdan yaxshi ko‘rib qolgan qizni ko‘rish uchun Dono degan cho‘pon maslahatiga ko‘ra, uning uyiga borish epizodiga tegishli bo‘lib, boshqa o‘rinlarga hech qanday aloqasi yo‘q. Biroq hayot voqealarini doston shaklida kuylayotgan baxshi mavjud turmushda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan detallarni ham nazardan chetda qoldirmasligi, o‘rni kelganda, syujetda ishtirok etayotgan barcha odamlarni xuddi jonli hayotdagi singari tasvirlash maqsadida “Yoramazon” qo‘shiqini doston tarkibiga singdirgan. Shuni yana ta’kidlash kerakki, doston tarkibidagi qo‘shiq lirik janrga mansub bo‘lgan o‘ziga xos an’ana chegarasida unga muvofiqlashganligi, ijro uslubidan ham ko‘rinadi:

Dono cho‘pon: Yoramazon aytib keldik eshigingizga,
Qo‘chqordek o‘g‘il bersin beshigingizga.

Cho‘ponlar hammasi: Yoramazon, yoramazon!

Dono cho‘pon: So‘m-so‘m tilla, so‘m tilla,
Suvga solsa botmasin,
Xudo bergan keng davlat,
Tepkilasa ketmasin.

Hamma: Yoramazon, yoramazon!²

Biror janr tarkibiga muvofiqlashgan lirik, paremiologik tur namunalari kichik epik janrlardan farqli o'laroq, o'zlariga xos tipik xususiyatni bir oz bo'lsa-da, saqlab qoladi. Bunday hodisani "Norguloy" dostoni bilan "YO ramazon" qo'shig'i munosabatlarida qisman ko'rsatdik. Biroq lirik janrlarning vazifasi, xususiyatlarni saqlashlaridan tashqari, epik mazmuni yanada kuchaytirish, badiiy ta'sirchanlikni oshirishdek vosita rolini bajarishini ham ta'kidlash o'rinli bo'lar edi. Buni Xorazm dostonchilik maktabi - vakillari ijro san'atida kuylayotgan dostonning badiiy-didaktik xususiyatlarini kuchaytirish maqsadida aforistik janrlarni an'ana meyorida muvofiqlashtirilgan Mashrab, Maxtumquli kabi demokrat shoirlar ijodidagi xalq qo'shiqchiligi uslubi va g'oyasiga yaqin she'rlar orqali ko'rsatish mumkin. Bunday holat Sherobod dostonchiligi maktabi vakillari repertuaridagi dostonlarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Xushvaqt Mardonqul o'g'lining "Suv parisi" nomli dostonida ana shunday xalq qo'shig'i badihalash yo'li bilan dostonga muvofiqlashtirilgan:

Osmonga chiqqan bo'z bulut,
Havo bilan qor keltirar.
Ikki botir talab qilsa,
Qo'sh bilakka zo'r keltirar.
Yeng shimargan yigitlar,
Nor ustida zar keltirar.
Bir yomonga amal tegsa,
Keng dunyoni tor keltirar.
Adolatli sulton kelsa,
El boshiga nur keltirar.³

Mazkur parchadan ma'lum bo'ladiki, har qanday sharoitda folklor lirik janri o'ziga xos tabaqaviy xususiyatni yo'qotmasdan, boshqa janrga transformatsiyalangan taqdirda ham vazifasini saqlab qoladi. Bunday holatlar esa doston tarkibida istalgancha topiladi.

Xalq og'zaki ijodi janrlararo munosabatlarning yanada yorqin ko'rinishini afsona va ertak janrlari o'zaro aloqalari orqali ko'rsatish qulaydir. Bu janrlar orasidagi munosabat ildizlari uzoq tarixiy-folkloriy jarayonga borib qadaladi. Tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq syujet va motivlar faqat afsona janri va uning turli variantlarida emas, balki xalq ertaklari tarkibida ham tez-tez uchrashi ma'lum. Zotan, Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur, Luqmoni Hakim, Hotam Toyi kabi tarixiy shaxslar obrazi tasvirlangan ko'pgina o'zbek xalq ertaklari mavjudligi hisobga olinsa, genetik jihatdan o'zaro yaqin janrlar boshqalarga nisbatan faol munosabatda rivojlanishi ma'lum bo'ladi. Afsonaga xos xususiyatlarning xalq ertaklari janrlarida uchrashi tarixiy hodisalarning xalq og'zaki ijodi,

² Норгулой. Достон, айтувчи: Қодир Раҳим ўғли, ёзиб олувчи: А.Эргашев, Машинада ёзилган қўлёзма, Қарши, 1982 йил, 48-49-бетлар.

³ Сув париси. Достон, айтувчи: Хушвақт Мардонқул ўгли, ёзиб олувчи: А.Эргашев, профессор Б.Саримсоқовнинг шахсий архиви, қўлёзма, 158-бет.

xususan, inson tafakkuri taraqqiyotiga nisbatan ta'sirini aniq tarixiy shaxslar, ular yashagan tarixiy sharoitning xalq talqinidagi badiiy ifodasi, deyish mumkin. Har ikkala janrning estetik vazifadoshlik jihatdan umumiyliigi, ammo real voqelik tasviriga ko'ra farq qiluvchi tomonlarini hisobga olsa, ular uzoq tarixiy bosqichlar mobaynida biri ikkinchisini g'oyaviy-estetik jihatdan to'ldirib, kelayotganligi namoyon bo'ladi. Masalan, o'tmishda yashab o'tgan aziz avliyo va anbiyolar, shuningdek, Hotam Toyi, Aleksandr Makedonskiy, Doro, Luqmoni Hakim, Amir Temur, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqa tarixda yashab o'tgan shaxslar nomi bilan bog'liq afsonalarning har biri tarkibida ertak janri elementi mavjudligi yoki o'z navbatida "Ayozi", "Doro bilan Iskandar", "Shoxli Iskandar", "Hotam", "Navoiy bilan cho'pon", "Mir Alisher bilan Sulton Boyqaro" tipidagi hayotiy-maishiy ertaklar tarkibida esa afsona janri elementlari borligi fikrimiz dalilidir. Quyida Amir Temurning dunyoga kelishi bilan bog'liq afsonani ertak janri xususiyatlariga ko'ra ta'siri nuqtai nazaridan tahlil etamiz.⁴ Afsonada hikoya qilinishicha, Amir Temur tug'ilganida, dunyoning to'rt tarafidagi biri ikkinchisidan zo'r podshohlarga ham ma'lum bo'lgan ekan. Ularning yulduzlarga qarab fol ochadigan munajjimlari bu sirni o'z hukmdorlariga aytishlaricha, dunyoga kelgan bu go'dak voyaga yetgach, butun dunyoni bosib olishi ta'bir etilgan ekan. Shunda, o'sha mamlakatlar hukmdorlari o'z ayg'oqchilarini Movarounnahrning Kesh viloyatida tug'ilgan o'sha bolani qanday qilib bo'lsa ham o'ldirib kelishlari uchun jo'natishibdi. Bu mash'um xabar og'izdan-og'izga, quloqdan-quloqqa o'tib, Buxoroyi Sharifda tijorat bilan mashg'ul Amir Tarag'ayga ham ma'lum bo'libdi. Bundan tashvishga tushgan ota o'z farzandining xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'ribdi. Bir kuni ota Buxoroga borib, bola-chaqasiga joy hozirlaydigan bo'libdi va o'zining eng sodiq xizmatkoriga chaqaloq bilan onasini ziyon-zahmat yetkazmay, ortidan olib borishini tayinlab, avvalroq yo'lga tushibdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, aytilgan muddatga kelib, Temur va uning onasi tushgan katta karvon ham yo'lga chiqibdi.

Ular uylaridan chiqar zahoti, chaqaloq beshigi ortilgan kajavali tuya ustida kichkina bulut ham paydo bo'libdi. Lekin u bulutni hech kim payqamabdi. Karvon bilan birga haligi bulut ham soyadek ergashib ketaveribdi. Kesh bilan Buxoro oralig'idagi jaziramali Malik cho'lga kelib, bir quduq yonida karvon dam oladigan bo'libdi. Temurni o'ldirish payida kelgan ayg'oqchilar allaqachon Keshga kelishib, Temur va onasini qo'riqlab boruvchi eng sodiq xizmatkorni ham katta boylik evaziga qo'lga olgan ekanlar. Kech kirib, horigan karvon uyquga ketibdi. Shunda haligi munofiq xizmatkor qilich bilan barcha navkarlarni o'ldirib, chaqaloq va ona yotgan chodir tepasiga borganida yulduzlar charaqlab turgan osmonda birdan kuchli yashin chaqib, ona-bolani o'ldirish uchun qilich ko'targan xizmatkorni urib o'ldiribdi. Momaqaldiraq shovqini bilan uyg'onib ketgan ona qarasa, o'g'li hech narsani sezmay, beozor beshikda pishillaganicha uxlab yotgan emish.

⁴ Бу афсонани 1987 йил Панжикент туманида фольклор-этнографик экспедиция пайти Ҳаким Бозоров деган одамдан ёзиб олдим. С.А.

Chodirning yirtilgin joyidan qarasa, qilich uzatilgan qo‘lini bular tomonga cho‘zgani holda, sodiq xizmatkor o‘lib yotibdi. Ona qo‘rqqanidan navkarlarni chaqirsa, hech bir inson ovoz bermabdi. Quduq atrofida cho‘kkan tuyalar esa kavsh qaytarganicha yotganmish-u, barcha odamlar qonga belanganicha yotganmish. Tong yorishgach, ona uxlab yotgan bolani o‘zlari kelayotgan tuya ustidagi kajavaga ortib, boshi oqqan tomonga qarab yo‘l olibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, quyosh chiqib, atrofni qizdira boshlabdi. Tevarak-atrof issiq quyosh taftidan rosa qizdirarmishu, ular ustiga oftob nuri tushmasmish. Ona qarasa, ularning tepasida bir parcha bulut ularga soya solganicha, ergashib kelar emish. Shunda ona Yaratganga cheksiz minnatdorchilik bildirib, yo‘lida davom etibdi. Tuya ham xuddi bilganidek, to‘ppa-to‘g‘ri Buxoroyi Sharif tomon borar ekan.

Shaharga yaqinlashganlarida, Mag‘ribdan kelayotgan qora bulut osmon yuzini qoplabdi va kuchli jala quya boshlabdi. Xudoning karomatini ko‘ringki, haligi bulut ularning ustiga zarracha ham yomg‘ir tomchilarini tekkizmay manzilgacha omon-eson yetkazib boribdi. Aytishlaricha, o‘sha bulut ulug‘ jahongir dunyoni fath etishi davomida ham doimo uning ustida panoh bo‘lib yurgan, deyishadi.

Tarixiy shaxs nomi bilan bog‘liq ushbu kichkina afsona janrlararo munosabat yo‘nalishida tahlil qilinsa, unda xalq ertaklari tabiatiga xos jihatlar qanchalik ko‘p ekanligini sezish qiyin emas. Afsona syujeti tugunidan tortib, yechimning yaxshilik bilan tugashigacha bo‘lgan voqealar tizmasidagi ertakka o‘xshash ayrim an‘anaviy elementlar, sintaktik formulalar va ayniqsa, voqealar kulminatsiyasidagi uydirmali vosita bu kichik epik janr ertak ta‘sirida yuzaga kelgan, deya olamiz. Biroq afsona syujeti mazmuni ifodalaydigan asosiy ma‘no, uydirma va fantastik elementlar salmoqining ertaklarga nisbatan kamligi, ular asosiy maqsadni tarixiy shaxsni ideallashtirishga xizmat qilishi, eng asosiysi, “voqealar real haqiqatdan tinglovchiga xabar beruvchanligi”, ya‘ni, tarixiy shaxsning nima uchun ulug‘ ekanligini folklorga xos badiiy ifoda usuli bilan hikoyalashi bu namuna afsona janriga mansub ekanligidan dalolat beradi.

Folklor janrlari munosabatini ijtimoiy ong umumiy qonuniyatlari asosida, bu munosabatlarni insoniyat tarixi, o‘tmishi madaniyati va hayot kechirish tarzi xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganish, folklor janrlar tarkibi shakllanishi uchun asos bo‘lgan janrlararo munosabatlarning tarixiy-folkloriy jarayonida o‘ziga xos harakatlantiruvchi kuch ekanligini ko‘rsatish, janrlararo munosabatlarda muvofiqlashish va interpretatsiya hodisalari folklorning an‘anaviy qonuniyatlari ekanligini aniqlash, janrlar orasida sodir bo‘ladigan barcha munosabatlar tasodif yoki biror subyekt tomonidan ongli ravishdagi faoliyati bilan sodir bo‘lmay, folklor janrlari tabaqalanish xususiyatlaridan tortib, ijro va badiha san‘ati kabi an‘anaviy jihatlar og‘zaki ijod qonuniyati asosida ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Folklorshunos B.Sarimsoqov janrlar munosabatiga janrlar poetikasi xususiyatlari nuqtai nazaridan emas, balki tarixiy-tipologiya asosida yondoshish ya‘ni folklor asarlari materiallari

milliy ruhidan kelib chiqqan holda o‘rganish kerakligini kun tartibiga qo‘yib: “Janrlarning o‘zaro munosabati uzoq tarixiy jarayon, bu jarayonning harakatlantiruvchi qonuniyatlari mavjud va ularning amal qilish tarzi maxsus tadqiq qilinishi lozim”⁵,—deya janrlarning o‘zaro munosabatlari bo‘yicha yangicha izlanish usuli haqida muhim fikrni ilgari surgan edi.

O‘zbek folklori janrlar tarkibi qanchalik qadimiy va ko‘p qatlamli bo‘lmasin, bir-biri bilan shunchalik murakkab munosabatlar asosida taraqqiy etib, hozirgi holatga kelib qolgan. Aminmizki, bu holat va jarayonlar tarixiy davrlar mobaynida hali yanayam o‘zgarib boradi. Janrlarning shakllanganidan to o‘ziga xos murakkab tizimga kirishi tarixiy-folkloriy jarayonning uzoq davrlar mobaynida insoniyat tafakkuri evolyusiyasi bilan bog‘liq rivojlanish mahsulidir. Binobarin, har bir milliy xalq folklori tadrijiy rivojlanishi, takomili bir xil emas. Biroq janrlar tarkibining umumiy taraqqiyot usuli jihatdan asrlar bo‘yi yonma-yon hayot kechirib kelgan xalqlar folklori janrlari tizimi o‘rtasida o‘xshashlik mavjud. Chunki dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lmasin, folklor asarlarining yaratilishida umumiylik, ya’ni, og‘zaki uslubdagi ijod ko‘zga tashlanadi.

Bu muammoning ilmiy asosini yoritishda folklorning epik turiga mansub janrlar munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Epik janrlar evolyusion jarayoni, syujet va mazmun xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro o‘xshash bo‘lishiga qaramay, ular orasidagi noo‘xshashlik jihatida namoyon bo‘ladi. Janrlararo shakliy hamda g‘oyaviy-badiiy munosabatlarni aniqlash natijasida epik tur namunalaridagi eng oddiy poetik vositalardan tortib, umumlashma darajasiga kelib qolgan mifik tasavvurlar, turli motivlar, obrazlarning tarixiy-tipologik ildizi ham ochilishiga yordam beradi.

Fikrimiz dalili sifatida yozma adabiy manbalardan biri—“Kultegin” bitiklari tarkibidagi mifik personjlarning transformatsiyasini misol keltirish o‘rinlidir⁶. Vaholanki, bunday detallar folklor epik turiga kiruvchi aksariyat asarlarda istaganicha uchraydi. Shuning uchun ham, janrlar munosabatidagi transformatsiya hodisalari bilan birga zohiran ko‘rinish jihatdan munosabatlari haqida ham fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Epik janrlar syujetini tashkil qiluvchi an’anaviy stilistik formulalar, vaqt, makon, obraz va ayrim motivlarga ko‘ra munosabat ana shunday yo‘nalishda o‘rganiladi. Bundan tashqari murakkab syujet va kompozitsiyali epik janrlar tarkibiga muvofiqlashgan boshqa janrlarning semantik funksiyalari ham ana shu muammoga dahldor masaladir.

Epik janrlar munosabatiga: tarixiy-genetik, tarixiy-tipologik, struktural-morfologik tomondan yondoshish lozim. Janrlararo munosabatlarning tarixiy-genetik, tarixiy-tipologik asoslari janrlar tabiatini hisobga olish kerakligi, ularning boshqa ijtimoiy ong shakllari orasida o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bu o‘rinda folklorshunos K.V.Chistovning folklor san’ati xususidagi xulosalari diqqatga sazovordir:

⁵ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси Ўзбек фольклорларининг эпик жанрлари. Фан, Тошкент, 1980, 98-бет.

⁶ ўранг: Раўмонов Н. Тошга битилган китоблар. Ўзбекистон, Тошкент, (.к, :-бет.

“Folklor — so‘z san’ati. Ko‘rinib turibdiki, u faqat san’at yoki faqat so‘z emas! Folklor kengroq miqyosda qaraganda, insoniyatning ilk hayot kechirish bosqichlarida yuzaga kelgan aloqa vositasi, til bilan bog‘langan ma’naviy madaniyat shaklidir”⁷. Demak, insoniyatning bir avlod madaniyatini ikkinchisiga qoldiruvchi og‘zaki ijod merosi kelajak uchun bebaho qadriyatga aylanishida u bosib o‘tgan tarixiy-folkloriy jarayon va unda sodir bo‘lgan an’anaviy hodisalar, ya’ni, janrlarning shakllanishi, rivojlana borib, avvalgisiga nisbatan keng, progressiv, vazifalar bajaruvchi shakllarga aylanishi kabi biri ikkinchisiga bog‘langan dinamik harakat qonuniyatlari janrlararo munosabatlar doirasida kechadi. Epik turga oid janrlararo munosabat masalasi dunyo xalqlari folkloriga ham xos. Biroq bu etnomadaniy hayot kechirish usullariga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi xalqlar folklori. Alohida bir etnik guruhga taalluqli deb nisbat beriluvchi “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” tipidagi eposlar, shuningdek, ko‘pgina ertak, afsona, rivoyatlar tarixiy-genezisi Markaziy va Kichik Osiyodan tortib, to Tinch okeanigacha bo‘lgan katta hududda istiqomat qilgan xalqlar madaniy merosiga ham tegishlidir. So‘nggi tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan ko‘plab millatlar shakllangach, qadimiy xalqlar folklorida mavjud bo‘lgan syujet, motiv va obrazlar rekonstruksiyalanishi sodir bo‘lib, ularning millat sifatida namoyon bo‘lgan xalqlar og‘zaki ijodida yana jonlanishi ko‘zga tashlanadi.

Shuning uchun ham, epik janrlar struktural-morfologik munosabatlarini o‘rganish quyidagi masalalarga oydinlik kiritadi: birinchidan, janrlarning genetik ildizi bilan bog‘liq umumiy hamda xususiy jihatlaridan kelib chiqqan holdagi munosabatlarni aniqlash, ikkinchidan, janrlar orasidagi o‘zaro bog‘lanish uchun sababchi bo‘lgan omillarni aniqlash, uchinchidan, transformatsiyaga uchragan janrning funksiyasi va semantikasini kuzatish, to‘rtinchidan, janrlar munosabatidagi teng bog‘lanishlari natijasida yuzaga kelgan yangi namunaning g‘oyaviy-badiiy holatlar ustida fikr yuritish, beshinchidan, epik janrga xos tarixiy-tipologik xususiyatlarning boshqa janrlar bilan munosabatidagi botiniy sodir bo‘luvchi hodisalarning struktural-morfologik holatdagi sifat va miqdor o‘zgarishini ko‘rsatish, yettinchidan, folklor janrlari uchun tipik xususiyat hisoblangan an’anaviy sintaktik formula, motiv, syujet, obraz, personaj, epitet, ramz, majozlarning janrlar munosabatidagi o‘rni va rolini aniqlash, sakkizinchidan, epik janrlar tarkibiga moslashgan kichik epik janrlarning umumiy kontekstdagi semantik funksiyasi va rolini aniqlash, to‘qqizinchidan, janrlararo munosabatda milliy marosim va xalq urfodatlarining aks etishi masalasi kabi biri ikkinchisiga bog‘liq qator muammolardir.

Janrlarning struktural-morfologik jihatdan o‘zaro bog‘lanish va ta’sir aloqalari shuni ko‘rsatadiki, ertak janri tarkibida naql yoki matal janrlariga xos elementlar uchrasa, dostonda ertakka xos xususiyatlar muhim o‘rin tutadi. Naql va hayotiy ertak janrlari xulosa qismi semantik jihatdan maqol, yumuq so‘z birikmalariga to‘g‘ri keladi, tarixiy qo‘shiqda esa afsona, terma janrlariga xos ruh mavjud. Janrlar munosabati masalasidagi mushohadalarimizni folklorshunos K.Imomovning “O‘zbek xalq prozasi” mavzuiga

⁷ Чистов К.В. Народнѳе традиции и фольклор, “Наука”, Л., 1986, с. 287.

bag‘ishlangan monografik tadqiqotida bayon qilingan fikrlari ham tasdiqlaydi⁸. Demak, janrlar orasida doimo sodir bo‘lib turuvchi ta’sir va aks ta’sir hamda praporsional bog‘lanishlar birinchi navbatda ularning struktural-morfologik xususiyatlarida namoyon bo‘lar ekan. Ayrim naql, latifa janrlariga mansub folklor namunalarini ertak janri bilan aralashtirib yuborish hollari ana shu ta’sir munosabatlarini e’tiborga olmaslik orqasida sodir bo‘ladi. Yoki buning aksi, ayrim ertak, rivoyatlarni naql, matal, latifa kabilar bilan chalkashtirib talqin qilish ham shular jumlasiga kiradi. Masalan: “Hunarli yigit” nomli o‘zbek xalq ertagida bosh qahramonning donishmandligi, tadbirkorligini tasdiqlash maqsadida ertak tarkibiga ilm-ma’rifatni ulug‘lovchi ota-ona bergan pulga o‘qishi, sozandalikni o‘rganishi va shaxmat o‘ynashni bilishi kabi xalq naqllariga xos motivi mavjud⁹. Bunday motiv turli mavzudagi xalq ertaklarida o‘zining badiiy ifodasini topgan. Aslida ilm-ma’rifat, hunar o‘rganishga undovchi motivlar xalq maqollari, matal va naqllari ko‘rinishida shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar murakkablasha borishi bilan ertakka ko‘chgan.

“Aql—bebaho boylik”, “Ilm afzal” singari xalq ertaklari struktural-tipologik jihatdan naql, rivoyat janrlariga yaqin turadi¹⁰. “Ilm afzal” ertagi qahramoni otaning sakkizta o‘g‘liga bergan: “Ilmni yoki davlat afzalmi?” savoliga eng kichkina farzandi—Oqila qiz bergan javoblar ham xalq naqllari motiviga mos keladi¹¹.

Janrlarning struktural-morfologik tuzilishiga ko‘ra munosabatlarida syujet voqealari konflikt yechimi xarakteri ham muhim ahamiyatga ega. Hayotiy-satirik ertak syujeti konflikti bilan satirik naql syujeti konfliktlari yechimlari o‘rtasidagi farq bu fikrga dalil bo‘ladi. Masalan, “Yaxshisi ham, yomoni ham til” naqli bilan “Til tig‘dan o‘tkir” ertagi syujet voqeasi yechimi ana shunday farqlanishga misoldir. Ertakda: “Til tig‘dan o‘tkir deb bekorga aytmaganlar” tarzida yakunlansa, “Yaxshisi ham, yomoni ham til” naqli: “Tish tilning qal’asi, til boshning balosi” degan maqol bilan xotimalangan¹². Doston janri bilan ertak janri epik mazmuni konfliktlari haqida ham ana shu fikrni aytish mumkin. Yoki majoziy ertak syujeti konflikti bilan latifa janri syujeti konfliktlari o‘rtasidagi konfliktli vaziyat semantikasidan chiqadigan ma’no ham bir-biridan ajralib turadi.

Folklorshunos V.K.Sokolova rivoyatning boshqa janrlar bilan o‘zaro aloqasi xususida to‘xtalib: “Janrlararo aloqalarini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish ba’zi janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyotini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Taraqqiyot jarayonida (Tarixiy-folkloriy—S.A.) ba’zi janrlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, ular o‘rtasida aloqalar turli xil sharoitlarda intensiv shaklida bo‘lgan¹³”,—

⁸ Қаранг: Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. Фан. Тошкент, 1981, 54-77-бетлар.

⁹ Ойжамол. ЎХИ. Ҳаётий эртақлар, 2-китоб. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 1969, 135-бет.

¹⁰ Булбулиг‘ё. Ғ.Ғ. улом нашриёти. 19-37, 76-бетлар.

¹¹ Ўша китоб, 79-бет.

¹² Ойжамол. ЎХИ. Ҳаётий эртақлар, 2-китоб. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 1969, 208, 210-бетлар.

¹³ Прозаические жанры фольклора народов СССР. Тезис докладов на Всесоюзной научной конференции в Минске. Минск, 1974, с.125.

deydi. Mana shunday fikrlar faqat rus folkloriga xos bo'lmay, balki, boshqa xalqlar og'zaki ijodi uchun ham bevosita taalluqli, deyish mumkin.

Afsona va ertak janrlari munosabati

Afsona va ertak janrlari tarixiy-tipologik, struktural-morfologik munosabatlarning ildizi insoniyat moddiy-maishiy tarixi bilan tafakkuri o'rtasidagi dialektik aloqalar zamirida yuzaga kelgan.

O'zbek folklori janrlari tarixiy-tipologik rivojlanish jarayonining murakkabligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqligidan darak berib, folklor asarlari o'tmish hodisalarining u yoki bu darajadagi o'ziga xos ifodalangan xronikal badiiy tasvirini namoyon etadi. Masalan, xalq ertaklari tarkibiga muvofiqlashgan mifik timsollardan tortib, to tarixiy shaxslar hayotiga oid informativ tasvirlash an'alarini o'zbek xalq hayotiy-maishiy ertaklari turkumiga kiruvchi "Ibn Sino va tarbiya", "Navoiy bilan cho'pon", "Dunyoda nima lazzatli?", "Muqbil toshotar" kabi ertaklar misolida ko'ramiz. Bu ertaklarda o'rta asr feodal tuzumi sharoiti munozaralari xalq og'zaki ijodi an'anasi ruhida tasvirlanadi. "Navoiy bilan cho'pon" ertagida xalq rivoyati tarzidagi ibratli voqeani hikoyalash orqali ulug' shoirga bo'lgan yuksak hurmatini ifodalasa, "Muqbil toshotar" ertagi Buxoro amirligi davri misolida oddiy cho'pon yigit bilan malika Mehrinigor o'rtasidagi sevgi sarguzashtini tasvirlaydi. Ertak voqealari zanjiriga Hotamtov to'g'risidagi xalq rivoyatlaridan biri moslashgan holda syujet yechimi beriladi. YA'ni, Muqbil Mehrinigorga yetishish yo'lida Hotamtovi bilan uchrashib, ikkalasi birgalikda zolim podshoga jazo beradi. Albatta, xalq ideali g'alaba qiladigan bunday yechim epik janrlar munosabatida tipik hodisa emas. Biroq ertaklarning badiiy-g'oyaviyligini ta'minlashda uning tarkibidagi tarixiy davr, tarixiy shaxslar haqidagi informatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Afsona bilan ertak janrlari o'rtasidagi aloqalarning umumiy yoki xususiy tomonlari haqida fikr yuritar ekanmiz, har ikkala janr ma'lum ma'noda xalq ma'naviyati donishmandligining u yoki bu tomonlarini badiiy aks ettiruvchi janrlar sifatida folklor merosidan o'rin olganligini ta'kidlash lozim.

Chunki jamiyat qanchalik rivojlanib, o'zgarib borishi tabiiy bo'lganidek, ijtimoiy ong shakllari ham o'zgarib boruvchanligi xususiyatlari afsona, rivoyat, naql, ertak, latifa kabi epik janrlar munosabatlarida o'z aksini topib, folklor janrlari doimo yangi sifat o'zgarishiga o'tib turishi qonuniyatga amal qilishini ko'rsatdi.

«O'zbek folklori eposi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilarda saqlangan patriarxal-urug'chilik munosabatlari-dehqonchilikning turli shaklidan tortib, yuz, ming yillar davomida shakllanib kelgan eski feodal shahar madaniyatigacha aks ettirilgan»¹⁴,— degan fikrlar dostonidan boshqa epik janrlar uchun ham tegishlidir. Demak, afsona bilan ertak janrlari o'rtasidagi struktural-morfologik munosabatlar ildizi tarixiy-tipik jihatdan

¹⁴ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. ГИХЛ, М., 1947, стр. 59.

juda qadimgi davrlarga borib taqalar ekan. Bu fikrni quyidagi misollar tahlili ham isbotlashga yordam beradi: folklorshunoslikda tarixiy shaxslar haqidagi afsonalar turkumiga kiruvchi Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur kabi sarkardalar nomi bilan bog‘liq afsonalar syujeti, motivlarning faqat afsona janri variantida emas, balki, xalq ertaklari tarkibida ham uchrashi shular jumlasiga kiradi. Chunonchi, folklorshunos K.Imomov tahlil obyekti sifatida keltirgan afsonalarning O‘rta Osiyo folklorida tarqalish yo‘llari—interpretatsiyalashuvi, transformatsiyalashuvi turlicha sodir bo‘lganligini hisobga olinsa¹⁵, ulardan eng muhimi va ommaviysi ertak janri shaklidagi ko‘rinishidir. Binobarin, “Shoxli Iskandar”, “Doro bilan Iskandarbek”, “Luqmoni Hakim”, “Iskandar Zulqarnayn”¹⁶ kabi xalq ertaklari shular toifasiga kiradi.

Jahon xalqlari folklorida bir-biriga o‘xshash motiv, syujetlarning mavjudligiga hech shubha yo‘qligini e’tirof etgan holda, qadim zamonlardan yonma-yon istiqomat qilib kelayotgan O‘rta Osiyo regionini etnik guruhlariga og‘zaki ijodining bir-biriga o‘xshab ketuvchi, mushtarak o‘rinlari ham bor. Buni o‘zbek folklorshunoslari ayrim epik janrlar yordamida aniqlaganlar¹⁷. Xususan, Sharq xalqlari o‘rtasidagi mashhur “Avesto”, “Kitobi dadam Qo‘rqut”, “O‘g‘uznoma”, “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna” kabi risolalar, shuningdek, ayrim mualliflar tomonidan yaratilgan “Qobusnoma”, “Devonu lug‘atit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Shohnoma”, “Iskandarnoma”, “Metamorfoza” singari kitoblar borki, ularda ishtirok etuvchi obrazlar, motivlar, xalq g‘oyalari bilan sug‘orilgan axloqiy-estetik qarashlar ta’sirini bevosita folklorida uchratish mumkin. Demak, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub eng yaxshi namunalar jahonning boshqa joylari, xususan, Sharq folklorida uchrashi o‘tmish avlodlar faqat yangi eramiz boshlanganidan keyin emas, balki, eramizdan avval ham o‘zga xalqlar bilan o‘zaro madaniy, iqtisodiy aloqalari borligini tasdiqlovchi dalildir. Chunki qadimgi tosh bitiklar poetikasi, bitik xususiyatlari va ularning xalq og‘zaki ijodi bilan o‘zaro munosabati masalalari hamda ayrim arxeologik yodgorliklarni tarixiy-tipologik xususiyatga ko‘ra o‘rgangan tadqiqotchilar chiqargan ilmiy xulosalar ham bu fikrni tasdiqlaydi¹⁸. Xalq afsonalari, ertaklarning voqealarni bayon qilishdagi anonimlik ottenkasidagi hikoyalash uslubidan tashqari, an’anaviy magik raqamlarning xalq marosimlari, urf-odatlar bilan parallel holda qo‘llanilib kelish hodisasi ham insoniyat azaldan o‘zaro madaniy aloqada bo‘lganliklarini tasdiqlaydi. Binobarin, Kichik Osiyodan to Tinch okeaniga qadar katta geografik kenglikda yashagan turkiy xalqlar umumiy madaniy yodgorliklarida uchraydigan yetti¹⁹ raqamining afsona, ertak, naql, maqol, dostonlar strukturasi yashab kelayotganligi ham xalqlar orasidagi ayrim tarixiy ahamiyatga molik voqealar, buyuk shaxslar, ko‘pchilik nazariga tushgan geografik joylar, barcha insonlar uchun hamon

¹⁵ Ўارانг: Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. Фан. Тошкент, 1981, 65-82-бетлар.

¹⁶ Ўзбек халқ эртаклари. Ўзадабийнашр, Тошкент, 1964, 2 том.

¹⁷ Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртакчилик анъаналари тарихидан очерклар, “Ўқитувчи”, Тошкент, 1982.

¹⁸ Раҳмонов Н. Кўҳна тош битиклар, Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 1991, 69-70-бетлар.

¹⁹ Жўраев М. Магические числа в узбекских народных сказках. АҚД. 1987, Ташкент, с. 12.

jumboq hisoblanuvchi kosmos hodisalari—umuman, moddiy dunyoning yaratilishi bilan bog‘liq og‘zaki ijod namunalari motiv, syujet yoki obrazlari ko‘chib yuruvchanlik xarakteriga ega ekanligini ko‘rsatadi. Demak, afsona bilan ertak janrlari o‘zaro struktural-morfologik munosabatlarining qirralari bir tomondan turli xalqlar folklori orasidagi mana shu tarixiy-tipologik xususiyat bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, turkiy xalqlar oilasidagi alohida etnik guruhni tashkil etuvchi o‘zbek xalqi milliy folklori an‘analari shu xalqning lokal taraqqiyot qonuniyatlariga binoan davom etganligini ko‘rsatadi.

Hozirgi o‘zbek millati deb rasmiy tan olingan xalq folklori janrlar munosabatiga yuqorida eslatilgan nuqtai nazar asosida yondoshilsa, bu masalada ayrim muammolarga aniqlik kirishi shubhasizdir.

Afsona janrining kompozitsiyasi va poetikasiga xos xususiyatlari xalq ertaklariga tez moslashib ketishi tasodifiy emas. U uzoq davrlar davom etgan tarixiy-folkloriy jarayon mahsuli bo‘lib, ijtimoiy-tarixiy hodisalarning xalq og‘zaki ijodiga, xususan, inson tafakkuri taraqqiyotiga nisbatan ta’siri qonuniyatlari asosida sodir bo‘lgan hodisalarning bir ko‘rinishidir. Avliyo va anbiyolar, Hotam Toyi, Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur, Luqmoni Hakim, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bibixonim kabi tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘liq afsonalarning har birida xalq ertagi janriga xos element mavjud ekanligi yoki o‘z navbatida, “Ayozi”, “Doro bilan Iskandar”, “Shoxli Iskandar”, “Luqmoni Hakim”, “Hotam”, “Muqbil toshotar”, “Navoiy bilan mardikor”, “Navoiy bilan cho‘pon”, “Mir Alisher bilan Sulton Boyqaro”, “Shahzoda Salmon”, “Iskandar Zulqarnayn” va boshqa shu singari ertaklar kompozitsion qurilishi, syujet chizig‘i, obrazlar tizimida afsonaning transformatsiyasini ko‘ramiz. Buni “Amir Temurning go‘dakligi voqealari bilan bog‘liq afsona ham tasdiqlay oladi”²⁰.

Ko‘rib o‘tilgan tarixiy shaxs nomi bilan bog‘liq kichkina afsonani ertak janri tabiatiga qiyoslab tahlil qilinsa, ular orasida nechog‘liq farq va umumiylik mavjudligi namoyon bo‘ladi.

Afsona syujeti voqealari tizimi, kompozitsiyasi va obrazlari, hikoyalash uslubiga e’tibor berilsa, bu folklor namunasi xuddi ertak janri strukturasiga monand keladi. Lekin syujet voqealari mazmunidan chiqadigan ma’no, ifodalanayotgan voqealardagi uydirmalar salmoqi, fantastika elementlari mavjudligi, eng asosiysi, “haqiqatdan tinglovchiga xabar beruvchanlik”, ya’ni, tarixiy shaxsning uluqligini folklorga xos qo‘shimcha informatsiya berishi yo‘li bilan hikoyalash uslubi birinchi planda ekanligi xususiyati bilan bu janrning afsonaga mansubligi ma’lum bo‘ladi. Folklorshunos K.Imomov ta’kidlaganidek, “Afsona xayolan to‘qilgan, qahramonlar hamda tarixiy fakt va hodisalarni xayolan, hayotiy uydirmalar qobig‘ida hikoya qiluvchi badiiy asar”²¹ bo‘lib, epik turga mansub boshqa turdosh janrlar bilan oson munosabatga kirishadi. O‘ziga nisbatan keyinroq paydo

²⁰ Бу афсона фольклор-этнографик экспедиция пайти ёзиб олинган. 1987 йил Панжикент тумани. Айтувчи Ҳаким Бозоров, ёзиб олувчи С. Алимов.

²¹ Имомов К. Ўзбек халқ п розаси, Тошкент, 1981, 67-бет.

bo'lgan boshqa epik janr tarkibiga tez moslashib, uning epik mazmunini kengaytirish, estetik g'oya ta'sirini yana ham kuchaytirishga yordam beradi. Biz yozib olgan afsona syujeti, kompozitsiyasi, qahramonning sirli tug'ilishi motivi xalq ertaklariga o'xshab ketishi, syujet voqealari rivojidadagi tilsimli o'rinlarga qarab u tarixiy-folkloriy jarayonda boshqa epik janrlarga muvofiqlashganidan dalolat beradi. O'zbek, umuman, O'rta Osiyo sharqi xalqlari og'zaki ijodini yozib olish, o'rganish, umuman, o'tmish tarixi madaniyatiga oid tadqiqot ishlari boshlangan 20-30-yillar sovet folklorshunosligi, istoriografiyasi, madaniyatshunosligi kommunistik mafkuraga to'g'ri kelmaydigan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar haqidagi folklor namunalari, Islom madaniyatiga oid barcha asarlarga qarshi kurashib, ularni o'rganishga moyil kishilarga tavzyiq o'tkazganligini unutmaslik kerak. Binobarin, Amir Temur haqida bitilgan folklor namunalari ataylab yozib olinmagan yoki atayin sun'iy moslashtirish orqali obrazlar boshqacha talqin etib yuborilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Xususan, Amir Temurga bag'ishlangan ertak va afsonalarda xalq ideali sifatida ulug'langan buyuk inson obrazi turli tarixiy voqealar fonda tasvirlanib, struktural-tipologik jihatdan ilgari yozib olingan folklor epik janrlari shakliga o'xshab ketadi. Amir Temurga bag'ishlangan yuqoridagi afsona motivi, syujeti voqealarining mantiqiy davomi sifatida ulug' jahongirning o'spirinligi, yigitlik, sipohlik va jangu jadalga kirishgan davrlarini folklor uslubiga xos xronikal tarzda hikoya qiluvchi o'nlab afsona va rivoyatlar mavjudligi fikrimiz dalilidir. Bu afsona va rivoyatlar genezisi, xalq ommasi og'zaki ijrosida tarqalishi bizning tahlil obyektimizga kirmasa ham, shuni ta'kidlab o'tishi lozimki, tarixiy shaxslarga bag'ishlangan folklor namunalari birinchidan, muayyan hayot va undagi tarixiy shaxsga nisbatan real munosabat bildirish, ikkinchidan, tarixiy shaxsning xalq manfaatlarini nuqtai nazaridan baholanishi (yo inkor yoki tasdiq ma'nosida), uchinchidan, tarixiy shaxsning xalq og'zaki ijodi an'alariga kirishining obyektiv sabablari va tarixiy shaxsga xos real xususiyatlarning xalq tasavvurida qayta jonlanishi, to'rtinchidan, azaldan udum, odat bo'lib kelayotgan (an'ana bo'lib kelayotgan) eng sodda xalq axloqiy-falsafiy, diniy-ma'rifiy qarashlarini davom ettirishda tarixiy shaxslar obrazidan ramziy foydalanish, beshinchidan, boshqa xalqlar uchun salbiy tip hisoblangan milliy qahramonni millat faxri sifatida ulug'lash, shu orqali tarixiy shaxsni ulug'lash, undagi fazilatlarni folklorga xos uslubda ko'tarinki ruhda ta'riflash bilan o'sib kelayotgan kelajak avlodlarni ota-bobolariga nisbatan sadoqatli bo'lishga chaqirish va nihoyat, oltinchidan, yarim afsonaviy, yarim real tarzda tarixiy shaxs obrazi vositasida xalq orzu-maqsadi, xalqchil g'oyalarini ifodalovchi folklor namunalari o'zaro munosabat jarayonida muayyan estetik funktsiya bajarish mumkin degan fikrlarni asoslash imkonini beradi. Biroq bu tezisni kosmogonik, etiologik, toponomik afsonalarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Chunki tarixiy shaxslar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar syujet va mativlari ko'chib yuruvchilik xususiyatiga ega. Tarixiy yoki real shaxslar nomi bilan bog'liq syujet, motiv yoki epitetlarni ertak, doston, naql kabi janrlardagi istagan

obrazga moslashtirish yoki tarixiy shaxslarga atalgan afsona, rivoyat janrini ijro jarayonida uning syujet, motivlariga o'zgartish kiritib, kompozitsiyasi yana ham murakkab epik asarga aylantirish mumkin. Buni misol sifatida tarixiy shaxslar yoki real odamlar nomi bilan bog'liq "Temurnoma", "Shayvali", "Oysuluv" kabi dostonlar, o'zbek xalq hayotiy-maishiy ertaklariga kiruvchi Navoiy, Husayn Boyqaro, Ibn Sino, Beruniy, A.Makedonskiy va boshqa tarixiy shaxslar nomi zikr etilgan ertaklar shular jumlasiga kiradi.

Xalq ertaklari va afsona janrining struktural-morfologik xususiyatlariga ko'ra munosabatlar faqat ikki janrning qiyosi, ulardagi umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlashda ko'rinmay, balki alohida olingan bir janr strukturasi tahlil etish asosida ham aniqlash mumkin. Buning uchun so'nggi yillar yozib olingan ayrim afsonalarda ertak janriga xos elementlar mavjudligi va ular vujudga kelishi mumkin bo'lgan boshqa epik janrda o'ziga xos manba rolini bajarishi haqidagi xodisani kuzatamiz. YE.M.Meletinskiyning arxaik folklor namunalari tarixiy taraqqiyotiga bergan bahosi nuqtai nazaridan afsona janri struktural-morfologik xususiyatlariga yondoshilsa, afsonadagi epik mazmun bayon qilish uslubi ertak janriga o'tgach, undagi yarim informativ, yarim afsonaviy xususiyat yo'qolib, faqat estetik funktsiya bajaradigan janrga aylanishi ma'lum bo'ladi. O'z-o'zidan ravshanki, bu hodisa uzoq asrlar davomidagi tarixiy-folkloriy jarayon orqali sodir bo'ladi. O'zbek folkloridagi nisbatan arxaik hisoblangan afsona ham ertak janri bilan ana shu jarayon mobaynida munosabatga kirishib, keyinchalik, o'z o'rnini ertak janriga bo'shatib bergan. Jonli ijroda saqlanib qolgan afsonalar esa yana shu o'rin almashinish qonuniyatining so'nggi ko'rinishlari deyish mumkin. Haqiqatan ham, tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq so'nggi yillar yozib olingan afsonalar xususiyatiga ko'ra xalq hayotiy ertaklariga o'xshab ketishining ham boisi ana shu munosabatlar ta'siri natijasidir. Fikrimiz dalili sifatida "Olovxon to'ra", "Shoh vasiyati"²², "Tadbir"²³, "Amir Temur buluti"²⁴ kabi tarixiy shaxslarga bag'ishlangan afsonalarni misol keltirish mumkin. O'tmish mavzulariga bag'ishlangan boshqa tip afsonalar tarixiy shaxslar haqidagi singari folkloriy jarayon rivojida deyarli interpretatsiyaga uchramagan, syujet fabulasi va epik mazmun qariyib o'zgarmagan holda saqlanadi. Buning sabablaridan biri, xalq ommasidagi kosmos dunyosi, yer yuzidagi turli geografik joy va landshaftlarga bag'ishlangan arxaik tasavvurlarning hanuzgacha o'zgarmay kelayotganidir. Masalan, "Ipak yo'li afsonalari" to'plamidan o'rin olgan epik namunalarni janr tabiatiga qarab, ana shunday tipga kiritishi mumkin. Chunonchi, parrandalar, hayvonlar, har xil hashorat, o'simliklarga bag'ishlangan afsonalarning transformatsiyaga uchramagani ham ular haqidagi ilk tasavvurlar hamon turg'un saqlanib kelinayotganligidan, deb qarash kerak. Tarixiy shaxslar, aziz-anbiyo va avliyolar, hukmdorlar, olimlar, shoirlar hayoti, faoliyati tarixda qoldirgan xizmatlari, xalq manfaatlarini nuqtai nazaridan

²² Асотирлар ва ривоятлар. Тўшловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. Ёш гвардия, Тошкент, 1990, 6-7-бетлар.

²³ Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 8-11-1991 йил, 45-сон, 7-бет.

²⁴ 1987 йил фольклор экспедицияси пайти ёзиб олинган афсоналар. ўўлёмза, шахсий архив.

tutgan o‘rinlari haqidagi afsonalar, asta-sekin vaqt o‘tishi, zamon o‘zgarishi bilan badiiy shakl va g‘oyaviy ifoda usuli o‘zgarib, rivoyatlarga aylangan. Ma’lumki, rivoyat afsona bilan ertak janrlari oralig‘ida shakllangan janr bo‘lib, muayyan tarixiy shaxsga xos real fazilatlar yarim afsonaviy tarzda xalq og‘zaki jonli ijrosida yashab, folkloriy jarayon rivoji davomida yarim afsonaviy fazilat va xalq nazdida ko‘rsatgan xizmatlari ideallashtirila boradi. YA’ni yarim informativ xarakterdagi afsona xalq romantizmi bilan yo‘g‘rila borib, didaktik, tarbiyaviy funksiyasi kuchaytirilgan rivoyatga aylana boradi. O‘zbek xalq hayotiy-maishiy ertaklari to‘plamlari²⁵ alohida afsona va rivoyatlar to‘plamlaridagi rivoyatlar ana shunday folklor namunalariga mansub²⁶.

Tarixiy shaxslar haqida izlangan aksariyat tadqiqodchilar ko‘proq O‘rta Osiyo uchun bosqinchi hisoblangan Aleksandr Makedonskiy, Doro, Kir nomlari bilan bog‘liq afsonalarga murojaat qilgan edilar²⁷. Lekin bu borada Amir Temur, uning keyingi avlodlari to‘g‘risidagi afsonalar istiqloq davriga qadar e’tibordan chetda qolib ketganligini aytish joyiz. Amir Temur to‘g‘risidagi afsonalar struktural-tipologik xususiyatlariga ko‘ra, Iskandar, Doro yoki Kirga bag‘ishlangan afsonalardan g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion tuzilishi jihatdan kam joyi yo‘qligi ma’lum bo‘ladi. Garchi XX asrning 90-yillari chop etilgan afsonalar janr xususiyatlariga ko‘ra rivoyat va ertak janrlariga o‘xshab ketsa-da, ularda haqiqatdan xabar beruvchanlik ruhi ustun bo‘lib, tarixiy shaxs hamda tarixiy fakt va hodisalar hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanishini e’tiborga olib, ularni afsona deyish mumkin²⁸.

Ana shunday afsonalardan biri “Tegina begim” bo‘lib, unda Amir Temurning tug‘ilishi, uning o‘ng oyog‘i lat yeb, umr bo‘yi nogironligi sabablarini ochib berishga xizmat qiluvchi informatsiya beriladi²⁹. Ma’lumki, xalq orasida jahongirning oyog‘i nogironligi masalasida biri ikkinchisiga zid o‘nlab og‘zaki ijod namunalari bor. Ular qanday maqsadda aytilgan bo‘lmasin, real voqelikka turlicha yondoshishning folklorga xos usuli deb qaralish kerak. Muayyan bir tarixiy zot o‘zi mansub bo‘lgan etnos og‘zaki ijodida ideallashtirilishi, boshqasi uchun istilochi sifatida, salbiy bo‘yoqlar bilan tasvirlash an’anasi ham folklorga xos tipologik hususiyat hisoblanadi. Amir Temur nomi bilan bog‘liq O‘zbekiston hududidan eshitgan va yozib olingan aksariyat afsonalarda bu ulug‘ inson xalq tomonidan hurmat bilan tasvirlangan. Chunki azaldan davom etib keluvchi an’analar tarixiga nazar tashlansa, xalq manfaatlari nuqtai nazaridan yaratilgan yoki yozma holda bitilgan barcha epik asarlar syujeti voqealari uchun odil hukmdor, sahovatli

²⁵ Ўзбек халқ эртаклари. 2-том, Ўзадабийнашр, Тошкент, 1964; Ойжамол. ЎХИ. 2-китоб, Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 1969.

²⁶ Алломалар ибрати. Ёш гвардия нашриёти, Тошкент, 1982; Кулса гул, йиқласа дур. ЎХИ, Тошкент, 1983, Лайлак келди, ёз бўлди, Тошкент, 1990, Ипак йўли афсоналари, Тошкент 1993.

²⁷ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқитувчи, Тошкент; Ўзбек халқ поэтик ижоди. Ўқитувчи, Тошкент, 1990, 176-бет. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. Тошкент, 1990, 176-бет.

²⁸ Алломалар ибрати. Ёш гвардия нашриёти, Тошкент, 1982; Асотирлар ва ривоятлар. Ёш гвардия, Тошкент, 1990.

²⁹ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991, 45-сон, 7-бет.

podsho, xudojo‘y inson obrazlarini ideallashtirish an‘anasi mavjudligi, Amir Temur nomi bilan bog‘liq afsona, rivoyat va ertaklar ham ana shu an‘anaga muvofiq yaratilganligini tasdiqlaydi. “Tegina begim” afsonasi ham Qashqadaryo viloyatining uzoq tog‘li qishloqlaridan yozib olingan³⁰. Afsonada Amir Temurning ota-onasi, bo‘lajak jahongirning tug‘ilishi tafsilotlari haqidagi axborot aslida hayot haqiqati mantiqiga mos voqea tarzida berilsa ham, lekin syujeti, voqealar rivoji, uni tashkil etuvchi element va motivlar, kompozitsion qurilishlarga qarab, bu afsona ijro jarayonida ertak janri tabiatiga moslashtirilganligini ko‘ramiz.

Afsonaning kirishi xalq ertaklari syujet voqealari muqaddimasi singari tipik boshlamaga monand, ya‘ni Amir Tarag‘ay birinchi xotinidan farzand ko‘rmagach, asli kelib chiqish nasabi buxorolik bo‘lgan Tegina begim degan bir ayolga uylanadi. Vaqti-soati kelib, Tegina begim homilador bo‘ladi. Tabiiyki, afsona syujet tuguni – farzandsizlik motivi xalq ertaklari, dostonlarida uchraydigan yana bir o‘gaylik, kundoshlik motivlari bilan qo‘shilgan holda beriladi. Tegina begim homilador bo‘lganligidan kundoshi iztirobga tushib, qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham uni yo‘qotish choralari izlaydi. Kundosh Buxoroda oqir kasal yotgan ota nomidan yolg‘on xat uyushtirib, maktubda qizi – Tegina begimning tez yetib kelishini so‘raydi. Asli maqsad, kundosh yo‘lda xizmatkorlarga katta boylik berib, Tegina begimni o‘ldirish edi. Amir Tarag‘ayning uzoq safarda ekanligidan foydalangan katta kundosh razil niyatni amalga oshirish uchun kichik kundoshga “kasal” ota bilan vidolashib kelishga ruxsat beradi va xizmatkorlarga yo‘lda uni o‘ldirib, kiyimini uning qoniga bo‘yab kelishini tayinlaydi. Yo‘lda kelayotib, yollangan xizmatkorlar homilador ayolni o‘ldirishga Xudodan qo‘rqishib, uni eski quduqqa tashlab yuborishadi va bir kiyikni o‘ldirib, qoniga Tegina begimning kiyimlarini bo‘yashib, kundoshga keltirib beradilar. Afsona syujeti shartli ravishda biri ikkinchisiga bog‘liq ikki voqeaning birikishidan tashkil topgan. Chunonchi, Tegina begimning kundoshi xiyonati bilan quduqqa tushuviga qadar voqealar birinchi qism bo‘lsa, uning quduqda ko‘z yorishi, quduq tepasidagi sirli bulut, tor quduqda dunyoga kelgan chaqaloqning oyog‘i lat yeyishi, va nihoyat, Tegina begimning akasi tushida singlisi ayon bo‘lib, eski quduqni topishi, singlisi bilan chaqaloqni olib, Buxoroga jo‘nashi voqealari esa ikkinchi qismdir.

Bir inson taqdiri bilan bog‘liq ikki qismdan iborat syujet afsona fabulasi bo‘lib, u tinglovchi yoki kitobxonni o‘tmishdagi tarixiy shaxs hayoti bilan bog‘liq voqealarni xuddi real hodisa singari, ya‘ni o‘sha shaxsga aloqador real belgilar orqali tasdiqlash asosiga qurilgan. Bu esa yuqorida ta‘kidlanganidek, afsona janri uchun tipik xususiyat hisoblanib, Amir Temurga xos ulug‘likni Alloh bergan, shuning uchun ham u butun dunyoga hukmronlik qilgan shaxs degan xalq qarashi hayotiy, xayoliy uydirmalar, ertak janri tabiatiga oid elementlar yordami bilan informatsiya berish va badiiy fantaziyalash orqali o‘z ifodasini topadi. Bu afsona kompozitsion qurilishi jihatidan ham ertakka o‘xshaydi.

³⁰ Мазкур афсона фольклоршунос М.М.Муродов “Буюк соҳибқирон юрган йўллар” илмий экспедициясининг ташкилотчиси сифатидаги сафар пайти 1991 йил ёзиб олинган.

Buni syujet voqealari boshlamasidagi an'anaviy farzandsizlik motividan ham bilish mumkin. O'zbek folklori epik turga oid rivoyat, ertak, naql, doston kabi janrlarga xos tipik xususiyatlaridan biri syujet boshlamasi farzandsizlik motivlari ekanligi ko'pgina tadqiqotlarda e'tirof etilgan³¹. Tegin begim afsonasi kirish qismining ana shu an'anaga asoslanishini o'zbek epik folklori asarlari uchun tabiiy hol deb qarash to'g'ridir. Xalq eposlari genezisi bilan shug'ullangan olimlar epik asarlar orasida ko'chib yuruvchi syujet, motiv va obrazlar faqat bir xalq og'zaki ijodi uchun bo'lmay, balki, turkiy xalqlar folklorida tipik xarakter kasb etishini farzandsizlik motivi, Allohdan farzand so'rab olish motivlari mavjudligi misolida ko'rsatib bergan edilar³². Bulardan tashqari, ko'plab xalq ertaklari kirish qismi an'anaviy-medial formuladan keyin "bir boy bo'lib, bolasi yo'qligidan kecha-kunduz qayg'urib, yegan-ichganida halovat yo'q ekan"³³ yoki "... O'sha yurtning bir zolim podshosi bor ekan-u, o'g'il-qizga zor ekan"³⁴, "... o'tgan zamonda bir podshoh bor ekan, lekin uning farzandi yo'q ekan"³⁵ qabilidagi xabar bayoni bilan boshlanadi. Bunday motivning dostonlar syujeti uchun qanday ahamiyati borligi masalasida to'xtalmasa ham bo'ladi³⁶. Haqiqatdan ham, "Tegin begim" afsonasi kirishidagi farzandsizlik an'anaviy motivlardan biri bo'lib, u urug'chilik davrlari bilan bog'liq hodisadir. Insoniyat tarixidan ma'lumki, urug'chilik davrlari odamlarida o'z qabilasining mustahkamligi, merosxo'rlik va kelajagi uchun qayg'urish ehtiyoji kuchli bo'lgan. Befarzandlik, pushtsizlik endigina ibtidoiy hayotdan ajralib chiqqa boshlagan etnik guruhlar uchun salbiy hodisa hisoblanishining asl genezisi ana shu manbalarga borib qadaladi. Bulardan tashqari, farzandsiz odamni ular Yaratgan himmatidan bebahra qolgan, baxtsizlik, yomonlik timsoli deb ham tushunishgan. Hozirgacha bunday qarash davom etib kelayotganligini o'zbek xalqi irim, urf-odat marosimlari ham tasdiqlaydi. Binobarin, tug'maydigan ayolni beshik to'yiga chaqirmaslik, tug'mas xotinni kelinchak go'shanga-siga yaqinlashtirmaslik, uning kiyimini kiymaslik kabi irimlar Samarqand, Qashqadaryo, hatto, Farg'ona vodiysida ham saqlanib qolganligini kuzatganmiz³⁷. Demak, bu motiv epik turdagi boshqa janrlar uchun tipik hodisa bo'lib, tarixiy-folkloriy jarayonning sinfiy-sotsial munosabatlar yanada murakkablasha borgach, rivoyat, ertak, doston, naql janrlari tabiatiga muvofiqlashgan. "Tegin begim" afsonasi boshlanishidagi farzandsizlik motivi syujet voqealari uchun tugun vazifasini ham bajaradi. Afsonaning yuzaga kelishini xalq o'z sevimli farzandi nomini abadiylashtirish bilan bog'laydigan bo'lsa, uning tug'ilish voqeasi esa ertakchilik an'analari qabilida fantaziya qilingan. Ma'lumki, o'zbek sehrli-fantastik ertaklari, shuningdek, qahramonlik tipidagi o'zbek xalq dostonlarida

³¹ Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Фан, Тошкент, 1979, 66-бет; Эгамов Х. Совет шарқи туркий халқлари эртақчилиқ тарихидан очерклар. Ўқитувчи нашриёти, 1987, 17-бет.

³² Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. ГИХЛ, М., 1947, стр. 74-79.

³³ Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. 2-китоб. Ғулом нашриёти. Т., 1969, 47-бет.

³⁴ Ойжамол. Ҳаётий эртақлар. 2-китоб. Ғулом нашриёти. Т., 1969, 115-бет.

³⁵ Ўша китоб, 60-бет.

³⁶ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. ГИХЛ, М., 1947, стр. 79.

³⁷ Фольклор экспедициялари даври ёзиб олинган шахсий архив материаллар. 1987-90 йиллар.

tug‘ilajak qahramon yoki alpning dunyoga kelishi qandaydir sirli kuch orqali (Hizr buva, sehrli olma kabilar) bajariladi. Xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Yakka Ahmad”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlar, “Qurbaqa polvon”, “Dono Hidoyat”³⁸, “Baxt daraxti”, “No‘monazar”, “Olmos botir”, “Guliqahqah”³⁹ singari xalq ertaklari qahramonlari tug‘ilishi ana shunday xususiyatga ega. Amir Temur nomi bilan bog‘liq “Tegina begim” afsonasi qahramoni tarixiy shaxs bo‘lishiga qaramay, folklor an‘analariga xos qahramon tug‘ilishi an‘anasi ta‘siridan chetda qolmaydi. Haqiqatdan ham, omma orzu qilgan, ulug‘lagan kishilarini qadimdan davom etib kelayotgan tasvirlash uslubiga moslashtirish, xuddi romantik obrazlar singari xayoliy, hayotiy uydirmalar yordamida mo‘jizaviy tasvirlash folklorning o‘ziga xos qonuniyatidir. “Tegina begim” afsonasi kompozitsiyasidan o‘rin olgan qahramonning sirli dunyoga kelish motivi yoki noreal sharoitda tug‘ilgan (qorong‘i quduqda tug‘ilgan) go‘dak va ona taqdiridagi homiy kuch sifatida tasvirlangan sirli yashin, jigarbandi ko‘rgan tush kabi sirli vositalarga qarab, bu afsona struktural-morfologik xususiyatlari bilan ertak janriga o‘xshaydi, deyish mumkin.

Mazkur o‘xshashlik esa afsona, rivoyat kabi kichik epik janrlarning asta-sekin ertak janriga o‘tishi jarayonidagi moslashish va muvofiqlashish hodisalarining janrlararo munosabatda harakatlantiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Xalq ertaklari janri strukturasida ko‘chib yuruvchi medial, insial, final formulalar, shuningdek, an‘anaviy funksiyalar borki, ular avval afsona, rivoyat janrlari shakllanishi uchun muhim rollarni bajargan bo‘lsa, ertak ommalashganidan so‘ng o‘sha elementlar semantik jihatdan o‘z ma‘nosini o‘zgartirgani tarzda namoyon bo‘ldilar. Amir Temur nomi bilan bog‘liq (boshqa afsonalar ham) turkum afsonalarni kuzatar ekanmiz, ularda ana shunday funksiya va formulalarning dastlabki elementlari saqlanib qolganini ilg‘ash qiyin emas. Masalan, “Amir Temur yoshlik choqlari oz sonli qo‘shin bilan Shahrisabzni olmoqchi bo‘libdi” («Darxon momo afsonasi») “Temur:—Darxon momo, siz bilan enabola bo‘layin, tilang tilagingizni”,— («Darxon momo afsonasi»), “Temur yoshligida ham boshqa bolalardan ancha dovyurak ekan. Kunlardan bir kuni tengdoshlari bilan bahslashib qolibdi” (“Qamchili”), “Garchi, oyoqim oqsoq bo‘lib qolsa-da, yaxshiliklaringiz yodida, tilang tilagingizni”,—debdi, “Momoning nafsi shunchalik katta ekanki, otni qistab ketaveribdi. Horib tolgan ot bir joyda yiqilibdi-yu, o‘libdi. Shunda ham momo qanoat qilmay qo‘lidagi qamchini oldinga qaratib otibdi va qamchi tushgan joygacha meniki bo‘ldi debdi” (“Qamchili” afsonasidan), “Amir Temurning onasi homilador bo‘lganida dunyo bo‘ylab shov-shuv tarqaldiki, Temur degan zot tug‘ilarmish va dunyoni egallar emish” (“Olov”), “Oy-kuni yaqinlashib bola tug‘ilibdi. Temurning tug‘ilgani yana hukmdorlarga ma‘lum bo‘libdi. Shunda shoh yangi tug‘ilgan chaqaloqlar borki, tig‘dan

³⁸ Ёнар дарё. Сехрли эртақлар. 4-китоб. Ёш гвардия, Тошкент, 1986, 114,122-бетлар.

³⁹ “Булбулигўё”, Эртақлар. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 34,40,104,213-бетлар.

o‘tkazishga farmon beribdi”. (“Olov” afsonasidan), “shunda ona qarasa, o‘g‘li Temur tandidir ichida olovni o‘ynab yotgan emish...” (“Olov”). Bunday misollarni boshqa shu tipdagi afsonalarda ham istagancha keltirish mumkin⁴⁰. Keltirilgan misollarni folklor epik namunalari sintaktik qurilishi, so‘z birikmalari, mazmuni ifoda etish usuliga ko‘ra baholaydigan bo‘lsa, ular xalq ertaklari sintaksisiga yaqinligini ko‘ramiz. “Emish”, “ekan”, “debdi”, “aytibdi”, “kunlardan bir kuni”, “tila, tilagingni debdi” qabilidagi o‘tgan zamon to‘liqsiz fe‘llarining qo‘llanilishi ham afsona bilan ertak janrlari munosabatidagi umumiylik va ertakning afsonadan o‘sib chiqqanligini tasdiqlovchi faktlardir. To‘g‘ri, muayyan bir davrga kelib, ayrim janrlar o‘z funksiyasini boshqalariga berishi qonuniyatlariga amal qiladigan bo‘lsa, afsonaga xos elementlarning ayrim muvofiqlashgan ko‘rinishlarini keltirilgan misollar ham tasdiqlaydi. Litva folklorshunosi B.Kerbelite afsona va rivoyat janrlari keyingi davrlarda ham ijro etiladi, lekin ular xalq og‘zaki ijodidagi boshqa epik janrlar bilan diffuzion munosabatlarga kirishgan tarzda sodir bo‘ladi. Bu kichik epik janrlar o‘z o‘rinlarini ertak, bo‘linlarga bo‘lib berib, tom ma‘noda barham topadi⁴¹,—deydi. Darhaqiqat, bu fikr bir tomondan o‘zbek afsona janr taraqqiyoti, uning ertak bilan munosabatida sodir bo‘luvchi struktural-morfologik o‘zgarishlari holatiga ham to‘g‘ri keladi. YA’ni Litva xalq ertak, bo‘lina janrlarining jonli ijroda ommalashuvi bilan afsona, rivoyat janrlari krizis davrini kechirayotganligini ko‘rsatishi jarayoni o‘zbek afsonalari taqdiri bilan o‘xshashiga qarab, bu fikrga qo‘shilish mumkin.

Biz tahlil qilayotgan afsona strukturasida ertak janriga xos yana bir muhim o‘rin — syujet voqealarining kulminatsiyasi va yechimi bilan bog‘liq masala. Negaki, “Tegina begim” afsonasi shu turkumdagi boshqa afsonalar strukturasida uchun ham xos (kompozitsiyasidan o‘rin olgan yana bir motiv)—kundoshlik, ko‘p xotinlilik hodisasining xalq etikasi, axloqiy dunyoqarashi doirasida berilganligidir. Mana shu motiv har qanday epik turga mansub folklor janrida dramatik kolliziyani keltirib chiqarishga xizmat qiluvchi bir vosita hisoblanadi. Ushbu afsonada xalq ideali, axloqiy qarashlaridagi o‘gaylik, kundoshlik munosabatlari Tegina begim bilan Amir Tarag‘ayning bepusht, katta xotini orasidagi konfliktida ochib berilgan. Bunday motiv va konflikt tug‘diruvchi vosita xalq ertaklari, dostonlarida ko‘p uchraydi. Murakkab epik mazmun ifodalovchi janrlar syujetidagi shaxsiy adovat, oilaviy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi motivlar ildizi qadimiy asosga ega. Dastlab kichik epik janrlarda asosiy syujet vazifasini bajaruvchi bunday motivlar tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot taqozosi bilan boshqa motivlarga muvofiqlasha boradi va “Tegina begimi”, “Qamchili”, “Tadbir”, “Amir Temur buluti”, «Olov» tipidagi afsonalar yuzaga kelishiga imkoniyat tug‘iladi.

⁴⁰ Keltirilgan misollar “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” рўзномасининг 8 ноябр 1991 йил 45-сонида Amir Temur haqida berilgan ilk afsonalar turkumidan olinadi. Tўplovchi: M.Murodov.

⁴¹ Kerbelite B. Литовские народные предания на современном этапе (к вопросу о диффузии жанров) проблемы фольклора. “Наука”, М., 1975, стр. 107.

“Tegina begim” afsonasidagi kundoshlik motivi va undan chiquvchi g‘oya epik mazmunni yanada kuchaytirish, voqealarini kulminatsiyasiga chiqarish va syujet yechimi uchun sharoit tayyorlashga xizmat qiladi. Xalq ertak, dostonlarida tez-tez uchraydigan yana bir element kundoshlik motivi bilan birga qo‘llaniladigan shartli vaziyat tasviridir. U afsonani morfologik xususiyat jihatdan xalq ertaklari janriga yaqinlashtiruvchi vosita, ya’ni, salbiy obraz asosiy qahramonni o‘ldirtirib, uning qoniga kiyimini bo‘yab kelishga buyurish motivini yuzaga keltiradi. Ma’lumki, epik janr an’analariga muvofiq, o‘limga hukm qilingan qahramon biron-bir tasodif yoki jallodlarning xudodan qo‘rqishlari sabab bo‘lib, qurbon o‘ldirilmay, qo‘yib yuborilishi, kiyimlarini esa biror jonivor qoniga bo‘yab, o‘limga mahkum qilganning oldiga olib borishi tipologik ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatdir. “Tegina begim” afsonasida ham ana shu an’ana mavjud. Yuragi qora kundash homilador Tegina begimdan qutulish maqsadida xizmatkorlarga oltin berib: “Tegina begimni o‘ldirib, qonga belangan kiyim-kechagini olib kelishni buyuribdi”. “CHO‘lda homilador ayolni o‘ldirishdan qo‘rqqan kishilar payt poylab turib, uni eski quduqqa itarib yuboribdilar. Va ... yo‘lda bir kiyikni tutib olib o‘ldirib, Teginni begimning kiyimini qonga belab kundoshining oldiga olib borishibdi”⁴². “Kundan-kun o‘tib, oydan-oy o‘tib, xotinning oy-kuni yaqinlashibdi. Buni bilgan kundoshlari bir shum kampirni chaqirib: “Kundoshimiz tilla kokilli o‘g‘il tug‘sa, uning bolasini yo‘q qilasan. Senga hammamiz bir tovoqdan tilla beramiz —deyishibdi»,⁴³ yoki “Amaldorlar marhum podshoning xotinini cho‘lga olib borib o‘ldiribdilar. Oy-kuni to‘lgan ayol o‘sha zahoti o‘g‘il tug‘ibdi, chaqaloq o‘lgan onasini emibdi. Amaldorlar orasida bir ko‘ngli bo‘shrog‘i bor ekan, marhumani ko‘may deb ortiga qaytibdi. Qarasa, ayolni chaqaloq emib yotganmish”⁴⁴ Mazkur vaziyatlarning umumiy mohiyati “Tegina begim” afsonasidagi go‘dakning sirli tug‘ilishi, kundoshlik motivlariga qaysidir jihatdan o‘xshab ketishi hodisasi ham bu afsona bilan ertak janri orasida struktural-tipologik aloqalar mavjudligi qonuniy ekanligidan dalolat beradi. Xalq afsonalaridagi kundoshlik motivini xalq dostonlari tarkibida ham uchrashini “Rustamxon” dostoni syujeti tugunidagi motiv tasdiqlaydi: “Oqtosh mamlakat podshosi Sultonxon farzandsizlikdan nolib, butun amaldoru ulamolarga:

O‘ylasam quriydi tandan quvvatim,
Yo‘qdir bu dunyoda ko‘rgan rohatim,
Mendan nishon bo‘lmadi bir farzandim,
O‘ylasam, beega mening davlatim,
Senga qolsin Oqtoshdayin mamlakatim.

deya murojaat qildi. Amaldorlar esa:

— Ey, podshohi olam, machitga so‘fi-darvesh odamlar yig‘iladi. Sallangizni bo‘yningizga solib tursangiz, darveshlardan fotihani olsangiz”,—deb maslahat bergach,

⁴² “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991, 45-сон, 8 ноябрь, 5-бет.

⁴³ “Булбулиг‘ў”, Эртақлар. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 213-бет.

⁴⁴ “Булбулиг‘ў”, Эртақлар. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 41-бет.

“Oydan oy, kundan kun o‘tib, Huroyimning oy-kuni yaqin yetib kelaveribdi”⁴⁵. Shundan keyingi voqealar “Tegina begim” afsonasiga xos yo‘sinda bo‘lib, Sultonxon: “Tag‘in farzandimni ko‘rib quvonganimdan o‘lib qolmayin deb, Qurudum mamlakatiga 14 yillik sa-farga ketadi. Huroyim oy-kuni yetib, o‘g‘il tug‘adi. Otini Rustam qo‘ydilar. “Zamon Huroyimniki bo‘ldi” deb ikki kundosh ich-ichidan kuyishib, “Oqtosh shahrini bulg‘atdi, buzg‘unchilik yo‘liga kirdi” degan tuhmat bilan uni o‘ldirish payiga tushadilar va oqibatda Huroyim tuhmatga uchrab, o‘limga hukm qilinadi. Keltirilgan misoldan ko‘rinadiki, kundoshchilik, befarzandlik motivlari faqat afsona janri tabiati uchun xos motiv emas, balki, epik turga mansub katta hajmli asarlar vujudga kelishi, g‘oyaviy maqsadni yanada kuchaytirishga yordam beruvchi elementlardan biri ekan.

Afsona bilan ertak janri munosabatlarida voqealar bayoni usuli ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Pari bilan dev” afsonasi yechimi uning syujet voqealaridagi Sulaymon payg‘ambar g‘azabiga uchragan parini “dunyoning eng uzoq burchiga surgun qilishi” va gunohkorni yelkasiga ortgan dev samoda parvoz qilib, Xorazm degan kimsasiz manzilga tushishi va parini sevib qolgan dev u bilan shu makonda qolishi, ulardan tarqalgan avlodlar xarazmliklar ekanligi bilan tugaydi. Misoldan ko‘rinadiki, bu yechim xalq ertaklariga xos “Murod-maqsadiga yetibdi” formulasiga o‘xshamaydi⁴⁶.

Afsona bilan ertak janri orasidagi mana shu noo‘xshashlik ularning janr tabiatidagi eng muhim belgilari bo‘lib, ularga xos xususiy jihatlar mavjudligini ko‘rsatib turadi.

Afsona bilan ertakda voqealar bayoni usuli bir-biriga o‘xshab ketsa-da, biroq afsonadagi final qism folklor an‘analari ruhidagi informatsiya berish xarakteriga ega. U “Tegina begim” afsonasidagi Amir Temurning tug‘ilishi vaziyati tasviri va afsonaning g‘oyaviy maqsadi yechimi hodisalari tasvirida ham ko‘rinadi. YA’ni, “Onani to‘lg‘oq tutaveribdi. Shu payt osmonda bir bulut paydo bo‘libdi. Bulut ortidan bir nur yorib chiqib, o‘z shu‘lasini quduqqa sochibdi. Birdan quduq ichi yorishibdi-yu, chaqaloqning ovozi eshitilibdi. Bola quduqda tug‘ilganidan o‘ng oyoqi qattiq lat yebdi. Oqibat umr bo‘yi cho‘loq bo‘lib qolibdi”, “Singlisi tug‘olmay juda qiynalgani va nihoyat, sohibqiron dunyoga kelgani akasining tushida ayon bo‘lib, uni qidirib yo‘lga tushibdi. Axtarib-axtarib ularni eski quduqdan topibdi. So‘ng singlisi bilan chaqaloqni olib Buxoroga jo‘nabdi”,⁴⁷ epizodlari afsona syujeti voqealari yechimi xalq og‘zaki ijodi poetik usuli qonuniyatlari asosida bayon etilgan. Sehrli-fantastik ertaklar an‘anaviy struktural-morfologik xususiyatlariga mos keluvchi bunday voqealar tuguni, kulminatsiyasi afsonaga o‘xshaydi va ular har ikki janr tabiati uchun umumiy hodisa hisoblanadi. Ertak qahramoni aql bovar qilmaydigan mashaqqatli shartlarni bajarib, go‘zal qizni qutqarishi, sehrli olma, gul yoki boshqa predmetlarga ega bo‘lishi va ular vositasida dev, alvasti, jodugardan xalos bo‘lishi kabi o‘rinlar “Tegina begim” afsonasidagi singari, ya’ni, sehrli vositalarga suyanishiga qarab, afsona va ertak janrlari genetik yaqinligini ko‘rsatadi. Bu yaqinlik esa ularga xos

⁴⁵ Алпомиш. Рустамхон. Достонлар. Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент, 1985, 351-352-бетлар.

⁴⁶ Ипак йўли афсоналари. “Фан” нашриёти, Тошкент, 1993, 18-бет.

⁴⁷ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991, 45-сон, 8 ноябрь, 5-бет.

xususiyatlarning tarixiy-tipologik jihatdan ildizi yagona manba—mifologiyaga borib taqalishini anglatadi. O‘zbek folklori janrlar tarkibining hozirgi holatiga kelishida afsona bilan ertak janrlari munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarixiy-folkloriy jarayonning insoniyat tafakkuri rivojlanish qonuniyatlari bilan hamohang rivojlanishini tasdiqlaydi.

Rivoyat va ertak janrlari munosabati

Afsona va ertak janrlari orasidagi o‘zaro struktural-morfologik munosabatlarga to‘xtalgan chog‘imizda ular oralig‘ida turuvchi bir janr borligi, u afsona bilan ertak janrlari xususiyatlarini o‘zida baravar aks ettirishi, kichik epik janrning ertak janriga o‘tishini ta‘minlovchi o‘ziga xos bosqich vazifa bajaradigan rivoyat haqida ham ayrim mulohazalarimizni bayon etamiz. Ba‘zi tadqiqotlarda afsona janri shakllanishiga ko‘ra ertak va dostonlar ta‘sirida vujudga kelgan deyiladi. Buning sababi sifatida afsonaning professional ertakchi yoki shoir-baxshi tomonidan aytilmasligi, uni istagan shaxs xohlagan usulda hikoya qilishi mumkin ekanligidir⁴⁸. Aslida esa afsona, rivoyat janrlari ertak, dostonlardan avval yuzaga kelgan. Buni insoniyatning tarixiy taraqqiyot qonunlari bo‘yicha taqqoslaganida ham yaqqol tasavvur qilish mumkin. Chunonchi, odamlar orasidagi o‘zaro muloqot zarurati, o‘zlarini qiziqtirgan narsa va hodisalar to‘g‘risida ma‘lumotlar berish tuyg‘usi bir oz bo‘lsa-da, haqiqatga yaqin ma‘lumotlar berish tuyg‘usi va eng asosiysi, hayotiy uydirmalar orqali axloqiy-ma‘naviy, ma‘rifiy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatlari rivoyatga xosdir. Shuningdek, odamlar orasida mehnat taqsimoti paydo bo‘lib, turli kasblarning yuzaga kelishi, ishlab chiqarish munosabatlari rivoji natijasida tarkib topgan dastlabki urug‘lar, ularning keyinchalik o‘zaro qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qabilalar- fratriylar nomlari bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarning (miflar bundan mustasno) ilk namunalari paydo bo‘lganligi e‘tiborga olinsa⁴⁹, bu kichik janr genezisi to‘g‘risidagi tushunchaga bir oz oydinlik kiradi. Chunki afsona bilan ertak janrlari oralig‘idagi bu folklor namunasi tarixiy-folkloriy jarayon rivojlanishi qonuniyatlariga binonan maydonga kelgan. Rivoyat janri uchun asosiy manba — bu xalq afsonalari.

Rivoyat janri ilk bora mifologiyadan ajralgan afsonalarning davrlar o‘tishi, ijtimoiy-axloqiy g‘oyaga ehtiyoj kuchaya borishi natijasida shakllangan namunalardir. Rivoyat afsonaga nisbatan poetik ustunligi, voqealarning yarim informativ, yarim uydirmaga xosligi bilan ajralib turadi.

«Rivoyat, — deb ta‘riflaydi folklorshunos K.Imomov, — hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi folklorning realistik xarakterga ega bo‘lgan alohida turidir»⁵⁰. Bu o‘zbek folklori xarakteridan kelib chiqilgan holda berilgan ta‘rif. Endi

⁴⁸ Imomov K. Ўзбек халқ прозаси, Тошкент, 1981, 67-бет.

⁴⁹ Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. ЎзССР ФАГ, Тошкент, 11960, 121-122-бетлар.

⁵⁰ Imomov K. Ўзбек халқ прозаси. Фан, Тошкент, 1961, 88-бет.

turkiy xalqlar folkloriga boshqa xalqlarnikiga qaraganda yaqinroq bo‘lgan buryat, folklorshunosi bergan ta’rifga murojaat qilaylik: «Rivoyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri undagi rivoyatlar milliylik va lokalligi bilan ajralib turadi, shuning uchun rivoyatlar mahalliy yoki milliy tarix haqida hikoya qiladi»⁵¹. Rivoyat tarixiy xotira va xalqning donishmandligi, tabiat hodisasi, tabiiy ofatlar haqidagi tushunchasidir. Unda qiziqarli voqea va hodisalar ham aks ettiriladi.

«Rivoyatlar poetik shakl hamda funksiyalari bilan afsonalarga juda yaqin turuvchi epik janrlardan biridir. Ularda xalq hayoti va uzoq o‘tmishda yuz bergan voqealar, qachonlardir yashab o‘tgan shaxslar faoliyati haqida hikoya qilinadi. Garchi, voqealar rivoyatda tasvirlanganidek shaklda yuz bermagan bo‘lsa-da, ular u yoki bu darajada real hayotda yuz bergan voqealardan iborat»⁵², — deb ta’riflanadi «O‘zbek folklori ocherklari» kitobida.

Folklorning kichik epik janrlaridan biri bo‘lgan rivoyatga berilgan yuqoridagi ta’riflarning tipik jihatlaridan biri—tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan real voqealar yoki real shaxslar bilan bog‘liq jihatlarining turli badiiy shaklda hikoyalanish uslubidir. Haqiqatdan ham, rivoyat janri tabiatiga xos har bir xususiyat alohida-alohida tekshirilib ko‘riladigan bo‘lsa, ularni afsona, ertak va naql kabi boshqa turdosh janrlar tarkibida ham uchratamiz. Buning sababi nimada, degan haqli savol turadi. Rivoyat epik turga kiruvchi afsonadan keyin vujudga kelgan va ko‘p qirrali funksiyaga ega bo‘lgan oraliq janri. Unda faqat afsonaga xos tarixiy-voqealarga nisbatan reallikka undovchi intiluvchanlik, biror landshaft yoki geografik makonning paydo bo‘lishi tarixini o‘ziga xos yo‘sinda asoslab berish kabi qator xususiyatlar bilan birga, ertak janriga xos uydirmali vositalardan foydalanish, inson aqli bovar qilmaydigan noreal hodisalarni mo‘jiza yordamida hal etish uslubi va ayniqsa, tarbiyaviy-didaktik mazmun ifodalashi kabi belgilari uning ko‘p qirrali funksiyaga egaligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, rivoyatning afsonaga nisbatan ma’rifiy-ta’lim beruvchi tomoni bilan ustunlik qilishini ham eslatmoq kerak. Biz rivoyatni afsona bilan ertak janrlari oralig‘idagi vositachi janr deb shartli ataganimizning boisi ham shunda. U ertak, doston kabi asosiy estetik funksiya ifodalovchi janrlardan farqli o‘laroq, tarixiy-folkloriy jarayonda real voqea-hodisalarga nisbatan voqealarni yarim romantik va yarim ideallashtirishi jihatlari bilan ajralib turadi.

Xalq og‘zaki jonli ijrosida shunday rivoyatlar borki, ularni ijro etuvchilar janr tabiati, qanday funksiyadaliqi, estetik va tarbiyaviy ahamiyati qay darajada ekanligini e’tiborga olmaydilar. Ular xalq ertaklari uslubi tarzida ham ijro etiladi. Rivoyat janrining tabiatiga xos o‘tmish haqidagi voqealardan tinglovchiga axborot beruvchanlik xususiyati ertak janriga ko‘cha boshlagan holati uning syujet fabulasida sezilarli darajada ko‘rinadi. Ertakka xos an’anaviy fantastika, uydirma elementlari, doimiy qo‘llanuvchi stilistik for-

⁵¹ Тўлохонов М.И. Об отражении действительности в бурятских легендах и преданиях. Фольклор и историческая действительность, Махачкала, 1976, стр. 75.

⁵² Ўзбек фольклори очерклари. 1-том, Фан, Тошкент, 1988, 72-73-бетлар.

mulalar, obrazlar faoliyatiga xos an'anaviy funksiyalar, epitetlar ko'magi bilan real tarixiy shaxs yoki tarixiy voqealar ertaklashtirilib rivoyat uchun asos bo'lgan syujet yoki motivgina saqlanib qolgan rivoyatlar ham mavjud. Fikrimiz dalili sifatida "Kitobfurushga mukofot" deb nomlanuvchi rivoyatni ertak janri struktural-tipik xususiyatlarga ko'ra tahlil qilish mumkin⁵³. Ushbu rivoyatning yuzaga kelishi uchun asosiy manba XV asr buyuk olimi, davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning ilmu fan rivoji va Movarounnahr xalqlari tinch-osuda hayot kechirishini ta'minlagan xizmati, mehnat ahli va shoiru ulolamolarga nisbatan marhamatidir. Haqiqatdan ham, tarixiy kitoblar, Ulug'bek yashagan davr adabiy muhiti yozib qoldirgan asarlarda bu temuriy podshohning xalqparvarlik siyosati aniq ma'lumotlar yordamida o'z ifodasini topgan. Bu real voqelik hammadan avvalroq xalq og'zaki jonli ijrosida o'z aksini topgan edi. Folklorning kichik epik janlari, xususan, Ulug'bekka bag'ishlangan "Kitobfurushga mukofot", "Ulug'bekning shogirdi", "Ulug'bek yulduzi" nomli rivoyatlar folklorning ana shunday hozirjavobligini ko'rsatuvchi xususiyatidir. Bu rivoyatlar orasida "Kitobfurushga mukofot" kompozitsiyasi, real voqelikka nisbatan tinglovchini ishontiruvchanligi va tarixiy shaxs fazilatlariga xos aniq belgilarning xalq og'zaki ijodi ruhi va uslubida ifodalashiga qarab, uni rivoyat janriga kiritish mumkin. Rivoyat syujeti, voqealarida tasvirlangan Ulug'bek yarim real, yarim romantik planda tasvirlanib, uning yechimi ham demokratik xarakter kasb etuvchi g'oyalar bilan sug'orilganligini qayd etish lozim.

Rivoyat kompozitsion tuzilishi jihatdan bellitristik hikoyaga o'xshab ketadi. Syujet ham bir epizodli voqea asosiga qurilgan. Lekin rivoyatning boshlanish qismi, ayrim an'anaviy sintaktik formulalar qo'llanilishiga qarab, unda ertak janri tabiatiga xos elementlar mavjudligini ilg'ab olish qiyin emas. Masalan, "Samarqand shahrida bir kitobfurush yashar ekan", "Samarqanddan kitob olib chiqib ketuvchilarga hecham chidolmas ekan" kabi uydirma obraz — kitobfurush Avazning ta'rifi hayotiy xalq ertaklari kirish qismiga o'xshasa, "Kunlardan bir kuni", "Avazbekka bir to'n bilan bir hovuch oltin in'om etibdi" kabi sintaktik konstruksiyalar ko'pgina xalq ertakchilari ijrosida tez-tez takrorlanuvchi xarakterga egadir. Mazkur rivoyat sirdan qaraganda, kitobfurush Avazni ideallashtirayotgandek tuyulsa ham, uning mazmuni mohiyatidan Mirzo Ulug'bekning ilm-fan fidoiylariga, madaniyat vakillariga, oddiy mehnatkash toifasidan chiqqan kitobsevarlarga bo'lgan haqiqiy munosabati anglashiladi. Haqiqatdan ham, xalq ommasi bir tomondan adolatli, ilm-fanga, ijod ahllariga o'z zamonasida yo'l ochib bergan Ulug'bekka xos real xislatlarni uydirmali voqealar bilan ishontirishga harakat qilsa, ikkinchi tomondan, Ulug'bek, Avaz kitobfurush obrazlari vositasida ma'rifatparvarlik, olijanob insoniylik g'oyalari ideallashtirilgan.

Rivoyat syujeti tugunini "Uzoq bir o'lkadagi noyob bir kitobni qo'lga kiritib", Samarqandga qaytib kelayotgan Avazning shahar darvozasidan shoshilinch ravishda chiqib

⁵³ Алломалар ибрати. Тошкент., 1982, 23-бет.

ketayotgan bir odam bilan uchrashuvi, uning xurjunida kitob bor, deya gumon qilib, “janjallashuvi” epizodi tashkil qiladi. Shundan so‘ng, urishayotganlarni sarbozlar tutib olishadi va o‘g‘ri gumon qilishib, Sultonning oldiga olib borishadi.

Syujetdagi mana shu dramatik vaziyat rivoyatning asosiy maqsadi — tarixiy shaxsga xos real elementlardan biri haqida informatsiya berish bilan birga, xalq og‘zaki ijodiyotiga xos romantizm o‘sha real voqeani mantiqqa xos romantizm o‘sha real voqeani mantiqqa mos ishonarli bo‘lishini ta‘minlagan. Ulug‘bekning adolatli hukmdorligi uning olimligi bilan uyg‘unlashtirib yuborilganligi rivoyat janri tabiatiga xos usulda ifodlangan. Lekin shunga qaramay, mazkur rivoyat yuqorida eslatilganidek, ertak janriga xos an‘anaviy elementlardan tashqari, voqealarning tadrijiyligi, xulosaning hayotbaxsh ruhda berilishi tomondan ham hayotiy ertaklarga o‘xshab ketadi. Masalan: “Shu payt Sultonning sarbozlari kelib qolishib, har ikkisini saroyga haydab borishibdi. Sarbozlar boshlig‘i Ulug‘bekka qarab: — Mana bularning ikkovi o‘g‘ri, qaroqchi ekan, xazinadan o‘g‘irlangan oltinlarni bo‘lolmay, janjallashib turishganda qo‘lga tushishdi, jazoga buyursangiz,— debdi. Ulug‘bek tikilibroq qarasa, qo‘lga tushganlarning birovini haqiqatdan mashhur o‘g‘ri ekan. Ikkinchisi kutubxonasini kitob bilan ta‘minlab turgan Avaz kitobfurush emish. Shunda sulton:— Anovi o‘g‘rining jazosi o‘lim, manavisi—siz bilan bizlarga o‘zi bilmagan holda g‘oyibona ustozlik qiluvchi..., unga ozodlik va in‘omlar bering,—debdi”⁵⁴. Rivoyatda tarixiy shaxsga xos real xarakterni ishonarli, o‘z davri tarixiy muhiti fonida ochib berishga xizmat qiluvchi sirli narsa yoki hodisani birdaniga fosh etish usuli rivoyat kompozitsiyasida o‘rinli muvofiqlashgan. Chunki syujet kulminatsiyasidagi Ulug‘bek bilan Avaz kitobfurushning uchrashuvi, Sultonning u haqda saroy ahliga bergan axborotidan so‘ng voqeaga bemaol yakun yasab qo‘yilsa ham tarixiy shaxs haqidagi yarim informativ, yarim folkloriy xususiyat meyorini buzilmasligi mumkin edi. Biroq, bu yerda yana bir muhim qonuniyat—folklorga xos ishontiruvchanlikning qo‘shimcha dalillash metodi mavjud. Shuningdek, mazkur rivoyatda faqat tarixiy shaxsni ideallashtirish emas, balki xalq og‘zaki ijodi an‘analariga ko‘ra, adolatli podshohni ulug‘lash, ilm-ma‘rifatga hurmat, eng asosiysi, oddiy odamlar jamiyatning asosiy harakatlan-tiruvchi kuchi ekanligiga sha‘ma bu kichik epik janr mazmunida o‘z ifodasini topgan. Demak, rivoyat strukturasidan o‘rin olgan ertak janriga xos elementlarning mavjudligi bu janr o‘z ustiga yuklangan funksiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda badiiy vosita bo‘lib xizmat qilgan deyish mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq mazkur rivoyat tarixiy-folkloriy jarayonda ertak janri keng tarqalgan, og‘zaki ijroda aktiv faoliyat ko‘rsatayotgan paytlar yaratilganligini ham hisobga olmoq lozim. Buni faqat Ulug‘bek haqidagi rivoyat xususida emas, balki X-XV asrlar yashab o‘tgan boshqa tarixiy shaxslarga oid afsona, rivoyatlar struktural-tipik xususiyatlari to‘g‘risida ham aytish mumkin. Qaysi bir janrni olib qaramang, unda uchraydigan arxaik tushuncha va shakllar-

⁵⁴ Алломалар ибрати. Тошкент, 1982, 23-24-бетлар.

dan tortib, to umuminsoniy g'oyalar keng masshtabda ifodalangan badiiy namunalariga cha boshqa janrlar bilan struktural-tipik munosabatlari asosida namoyon bo'lishi o'zining ifodasini topgandir. Zero, muayyan xalq tarixi, etnografiyasi, milliy marosimi, umumiy falsafiy dunyoqarashi, axloqi va madaniyati qirralarini yoki bu darajada o'zida aks ettirmagan folklor janri yo'q. Shuning uchun ham, folklor janrlari rivojlanish sistemasiga tarixiy-folkloriy jarayon nuqtai nazaridan yondoshib, ularning shakllanishi va taraqqiy etishini ikki tomondan, ya'ni, differentsiatsiyalanish va integratsiyalanishi holatlariga qarab baholashi kerak.

Janrlar munosabatiga doir differentsiya va integratsiyalanishidan tashqari ayrim janrlarning turg'un holatga kelib qolishi, keyinchalik yozma adabiyot san'ati rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish jihatlari ham mavjud. Bunda afsona, rivoyat, naql, matal, latifa kabi kichik janrlarning turg'unlik xususiyatlaridan kelib chiqqan integratsiyalanishi, ya'ni yaqinlashuv hodisasi nazarda tutilmoqda. Demak, janrlarning o'zaro yaqinlashuvchi birinchidan, ularning struktural-an'anaviy elementlarida (syujet, motiv, obrazloari sistemalarida) namoyon bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarning tarixiy bosqichlari, ulardagi ustqurma ta'siri taqozosiga ko'ra sodir bo'ladi.

O'zbek folklori janrlar tarkibidagi ko'pgina janrlar munosabatida sun'iylik ko'proq sodir bo'lgandek tuyuladi. Kichik epik janrlar bilan ertak janri struktural-tipik munosabatlarida bu sun'iy yaqinlashuv hodisasini yaqqol sezish mumkin. «O'zbek xalq ijodi» turkumidagi ko'pgina ertaklarga tarixiy shaxslarga oid afsona, rivoyat janrlari, shuningdek, didaktik xarakterdagi naqlar sun'iy moslashtirib yuborilgani yoki kichik epik janrga oid ayrim syujet, motiv, obrazlar ertaklashtirilganligini uchratish mumkin.⁵⁵

Hayotiy-maishiy ertak tipiga mansub namunalar orasida rivoyat, naql janrlari funksiyasini bajaruvchi «Ayoq», «Luqmoni hakim», «Erni er qilgan xotin», «Kichik kelinning davlati», «Tadbirli ayol», «Ko'rpangga qarab oyoq uzat», «Har kim ekkanini o'radi», «Teshik danak», «Zolim podsho», «Umrbek bilan eshon», «Mir Alisher bilan Sulton Husayn», «Ibn Sino va tarbiya», «Navoiy bilan cho'pon», «Iskandar Zulqarnayn», «Shoxli Iskandar», «Hotam» va boshqa ko'plab namunalar uchraydi.

Agar mana shu tipdagi folklor asarlari struktural-tipik xususiyatlariga ko'ra afsona, rivoyat, naql janrlari bilan munosabatlari doirasida aniqlansa, ularning qaysi folklor janriga mansub tabiati ma'lum bo'ladi. Fikrimiz asossiz bo'lib qolmasligi uchun quyidagi misollarga murojaat qilaylik. «Oyjamol» hayotiy ertaklar to'plamida Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bir nechta ertak berilgan. Lekin ular tabiatiga xos struktural-tipik xususiyatlar jihatdan baholansa, syujet voqealari, ifoda uslubi, xalq og'zaki an'analardagi muayyan tarixiy shaxsga tegishli real faktlarning tasvirlanish darajasi, uydirma

⁵⁵ Олтин олма. Ҳаётий эртақлар, 1-китоб, Тошкент, 1966; Ойжамол, Ҳаётий эртақлар, 2-китоб, Ф.Ғулом нашриёти, Т., 1969; Сув қизи. Фантастик эртақлар, Т., 1966. Алломалар ибрати. Ёш гвардия, Т., 1982; «Лайлак келди, ёз бўлди». «Меҳнат», Т., 1990.

elementlari qay yo‘sindaligi, kompozitsion qurilishning soddaligi kabilarga ko‘ra, tomonlariga qarab ularning rivoyat janri ekanligi namoyon bo‘ladi. Ertak janri nomi ostida berilgan bu asar rivoyat syujeti fabulasi asosida vujudga kelganligini uning kompozitsiya qurilishi va tarixiy shaxs to‘g‘risidagi informatsiyani uydirma obraz yordami bilan tinglovchiga yetkazishga qaratilganligi uning semantik ma‘nosidan ham sezilib turadi. Agar e‘tibor berilsa, jamiyatdagi ijtimoiy shaxs darajasiga ko‘tarilgan kishilar to‘g‘risida turli mavzudagi rivoyatnoma og‘zaki ijroda ko‘plab uchraydi. Agar o‘sha odam insonparvar, xudojo‘y, bag‘ri keng, kamtarin fazilatlar egasi bo‘lsa, xalq unda yo‘q fazilatlarni qo‘shib, uni hayotiy uydirma bilan boyitgan holda tasvirlash hodisasi mavjud. Bunga yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan shoir-yozuvchilar, artistlar, fan-madaniyat arboblari, davlat rahbarlari to‘g‘risida to‘qilgan rivoyatnoma folklor namunalari misol bo‘ladi. Masalan, H.Zarif, P.Shamsiyev kabi olimlar Oybek, Shayxzoda, G‘afur G‘ulom singari yozuvchi-shoirlar haqidagi xalq mehri bilan sug‘orilgan «hangomalar»ni kiritish mumkin. Epik janrlarga xos shu an‘ana qonuniyatidan kelib chiqilsa, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Muhammad Rahim II (Feruz) singari tarixiy shaxslar haqida to‘qilgan rivoyatlar asosan, xalq romantizmi mehri bilan sug‘orilgan. «Navoiy bilan cho‘pon» ertagi ham xalqning o‘z shoiri, xaloskoriga bo‘lgan samimiy muhabbati ramzi sifatida yuzaga kelgan rivoyatlardan biridir.

«Alisher bilan cho‘pon» rivoyatini ertak janri tipologik xususiyatlar jihatidan solishtirilsa, syujet voqealari boshlanishi ertak janriga xos an‘anaviy insial formula bilan emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarixiy shaxs biografiyasiga oid ma‘lumot bayoni bilan boshlanadi. «Navoiyning yoshligida otasi o‘lib ketgan ekan. Otasi o‘lgandan so‘ng o‘z shahrida turolmay, Samarqandga borib, madrasada o‘qibdi»⁵⁶. Shundan keyingi voqealar dinamikasi ertak uslubiga o‘xshaydi. Navoiy o‘qishni tugatgach, ot-ulovsiz uyiga qaytayotib, tog‘da qo‘y boqib yurgan bir cho‘ponni uchratadi. Uning boqib yurgan qo‘ylari otasiga qarashli ekanligini bilgan Navoiy cho‘ponga 200dona qo‘y berib, qolganini bozorga olib boradi. Odamlar qo‘ylarning narxini so‘rashganida: «Men qo‘yimni nasiyaga sotaman, shu shart bilanki, pulini podsho o‘lgan kuni berasizlar»,— deb hammasini odamlarga tekin berib yuboribdi». Tabiiyki, ushbu voqealar mantiqidan rivoyatga xos real detallar uydirma bilan moslashtirilganligi seziladi. Mazkur rivoyatning boshqa bir variantida Navoiy yo‘l-yo‘lakay, Hirotga borgunicha qo‘ylarni tarqatib ketishi, endigina taxtga o‘tirgan do‘sti Husayn Boyqaro uzoq safardan kelgan do‘stini izzat-ikrom ko‘rsatib, o‘ziga bosh vazir qilib ko‘tarishi, g‘animlar esa: «Shohim, Navoiy sizga dushman ekan»,—deya yomonlab, el orasidagi Navoiyning tekinga ulashgan qo‘ylari haqidagi gaplarni yetkazishadi. Boyqaro esa do‘stidan ranjib: «Do‘stim Navoiy, mening o‘limim sizga nechuk zarur bo‘lib qoldi»,—degan so‘roviga: «Do‘stim Husayn, men sizning umringiz uzoq bo‘lishi, xalq sizni doim duo qilib: «Ilohim, podshomiz umrlari uzoq bo‘lsin. Agar shohimiz o‘lsa, Navoiy pulini qistaydi»,—deyishlari uchun qo‘ylarimni nasiyaga

⁵⁶ Ойжамол, Ҳаётий эртақлар, 2-китоб, Ф.Фулум нашриёти, Т., 1969; 212-бет

bergan edim»,—deb javob beradi. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala variant syujet fabulasi bir-biriga o‘xshash. Biroq ularning voqealar rivoji uslubi turlicha. To‘plamdagi «Navoiy bilan cho‘pon» rivoyati syujeti yechimida ko‘proq ertak strukturasi xos elementlar ustunlik qilsa, jonli ijrodagi rivoyatda ertakka xos an‘anaviy uslub va ta‘sir kuchsizroq. To‘plamdagi Navoiy noreal shaxs bilan qarama-qarshi qo‘yilib, asosiy estetik ideal amalga oshirilsa, rivoyatda Alisher Navoiy tarixiy shaxs-Husayn Boyqaro bilan konfliktli vaziyatdagi epizodda emas, balki, haqiqiy rivoyat janriga xos yarim real, yarim uydirmali tasvirlash usulida berilgan. Lekin har ikkala folklor asari kulminatsiyasi, voqealar yechimi mohiyati o‘xshash bo‘lib, Alisher Navoiyning faqat ulug‘ mutafakkir shoir emas, balki, xalq idealiga mos fazilatlar egasi, hozirjavob, zukko so‘z ustasi - zakiy (askiyachi ma‘nosi) ham ekanligi asoslanadi. Shuning uchun Navoiy to‘g‘risidagi rivoyatning ikkinchi variantida estetik funksiyaga qaraganda informatsiya berish, ma‘rifiylik ustun turadi. Bu fikrni shu to‘plamdagi «Ibn Sino va tarbiya», «Navoiy va Husayn», «Navoiy bilan mardikor», «Dunyo nima bilan lazzatli», «Navoiy kimni yomon ko‘rgan?» kabi rivoyatlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Chunki ularni eshitib yoki o‘qib chiqqan tinglovchida qandaydir boshqa xalq ertaklaridagi singari abstrakt taassurot hosil bo‘lmay, balki aniq bir odam, turkiy xalqlar mutafakkiri, XV asrning ulug‘ davlat arbobi siyosi – real shaxs haqida tasavvur paydo bo‘ladi.

So‘nggi yillar chop etilgan rivoyat janriga mansub folklor namunalari tarkibidagi ertak janriga xos elementlarning ustunligi faqat tarixiy shaxslar, tarixiy voqealarga baqishlangan asarlarda emas, boshqa mavzulardagi kichik epik janrlar tabiatida ham uchramiz. Buni «Allomalar ibрати», «Asotirlar va rivoyatlar», «Laylak keldi, yoz bo‘ldi» to‘plamlariga kirgan ayrim rivoyatlar misolida ko‘rsatish mumkin. «Asotirlar va rivoyatlar» to‘plamida rang-barang mavzudagi rivoyatlar orasida musiqa asbobi yaratilishi bilan bog‘liq «Doira»⁵⁷ nomli geneologik rivoyat ham o‘rin olgan. Ushbu rivoyatda: «Qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishi, yo‘llari Qarshi bilan Buxoro o‘rtasida joylashgan Malik cho‘liga tushishi», «Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham oz emas, mo‘l yurishib» cho‘lning qoq o‘rtasiga kelgach, suvlari tamom bo‘lib qolishi, karvon suvsizlikdan madori keta boshlagach, savdogarlar orasidan bir yigit chiqib o‘z meshidagi oxirgi suvni safdoshlari og‘ziga tomizib, suvdan bo‘shagan charm meshni yorib, aravaning g‘ildiragiga bog‘lab, undan soyabon o‘rnida foydalanishi, g‘ildirakda taranglashgan terini suvsizlikdan joni xalqumiga kelib, qattiq urganida, undan chiqqan sadoga asta-sekin holsizlana boshlaganlarda hayratlanish paydo bo‘lib, ko‘zlarini ochishlari, bundan ruhlangan yigit tarang terini yana ham qattiqroq urganida, uning ovozi barxanlardan-barxanlarga o‘tib borayotgan boshqa karvonlarga yetishi va oxir-oqibat falokatga uchragan karvon «taka-tum» deb ovoz chiqqan asbob natijasida o‘limdan xalos bo‘lishi, o‘shandan buyon odamlar bu musiqa anjomini e‘zozlab kelayotganligi hikoya

⁵⁷ Асотирлар ва ривоятлар. Ёзиб олувчи М.Муродов. Ёш гвардия, Т., 1990, 9-бет.

qilinadi. Mazkur rivoyatni g‘oyaviy mazmunga ko‘ra tahlil qilish uchun hech qanday zarurat yo‘q. Lekin badiiy shakli, ifoda usuli — strukturasini epik turga mansub boshqa janrlar strukturasi bilan tipologik munosabatlarda ko‘rib chiqish zarur. Chunki mazkur rivoyat ijro jarayoni, yozib olinishi vva nashr qilinishi jihatidan boshqa rivoyatlarga qaraganda farq qiladi⁵⁸.

«Doira» rivoyati strukturasida ham «Qadim-qadim zamonlarda, bir mamlakatning savdogarlari... safarga chiqishibdi, «Yo‘l yurib yo‘l yursa ham mo‘l yurib», «cho‘l larzaga kelibdi», «hatti-harakat paydo bo‘libdi» kabi xalq ertaklariga xos medial formula bor. Lekin kompozitsiyasiga ko‘ra soddaligi, narsaning mohiyatini mantiqiy ishonitiruvchan axborot bilan badiiy izohlashi, ya’ni doira insonlarni falokatdan qutqaruvchi, yaqinlashib kelayotgan halokatning oldini olishga, yordam beruvchi mo‘jizali cholg‘u asbob ekanligini «Shu-shu doira taka-tak-tum» deb ovoz chiqara boshladimi, odamlarga tetiklik, dadillik, jasurlik»⁵⁹ bag‘ishlaydigan narsa sifatida e‘zozlanibdi», degan dalil bilan tasdiqlash o‘rinlariga qarab, mazkur folklor namunasi afsonalik xususiyati unchalik yo‘qolmagan rivoyatdir, degan xulosa chiqarishi imkoniyatini beradi. Demak, kichik epik janrlar orasida o‘zining qadimgi holatini yo‘qotmay kelayotgan afsona, rivoyatlar struktural-tipologik jihatdan epik turga mansub boshqa janrlar bilan muvofiqlashib ketishi hodisasi kamidan-kam sodir bo‘lar ekan. Bunga zoomorfik, etnonimik, toponimik tipga mansub afsona, rivoyatlarning arxaiklashgan namunalari kiradi. Binobarin, xalq jonli ijrosida yashaydigan uruq, qabila nomlari, tog‘, tepa, daryo, aziz avliyo joylar bilan bog‘liq kichik epik janrlar, shuningdek, zoomorfik xarakterdagi uy hayvonlari, parrandalar, hashorat, zararkunanda, yirtqich hayvonlar instinkti, hatti-harakati bilan bog‘liq ramziy ma’nodagi afsona va rivoyatlarni ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Ana shunday rivoyatlardan biri «Jazo» deb nomlanib, baxshichilik san’atining asosiy sozi hisoblangan do‘mbira kuyiga bag‘ishlanadi. Rivoyat qilishlaricha, Qoratoy degan shohning yagona o‘g‘li yolg‘iz o‘zi to‘qayga to‘ng‘iz ovlagani borib, to‘nqizlar hujumiga yo‘liqadi va nobud bo‘ladi. O‘g‘lining hadeganda ovdan qayta bermaganini ko‘rgan shoh bosh vazirni chaqirib: «O‘g‘limni tezda topasan, topmay qaytib kelsang yoki yomon xabar keltirsang, og‘zingga qo‘rg‘oshin qo‘ydiraman»,—deydi⁶⁰. Shundan keyin vazir biladiki, podshohning vajohati yomon. Ma’shum xabarni qanday qilib unga yetkazish yo‘lini qidiribdi. Oxiri to‘qayning chetida dono bir keksa baxshi yashashini bilib, undan maslahat so‘ragani boribdi va bo‘lgan voqeadan uni xabardor etishibdi. Chol: «Mayli, men o‘zim borib javobini beraman»,—debdi. Zo‘r tashvishda o‘tirgan podshohning oldiga borib, do‘mbirani shunday qilib chalibdiki, ohangidan podsho o‘g‘lining nima bo‘lganligini

⁵⁸ Kўrsatilgan kitobning shakllanishi, undagi materiallarning e‘zib olinishi jara‘oni haqidagi ma‘lumotlar prof. Murodov arxividan kўriladi.

⁵⁹ Kўrsatilgan kitob, 9-bet.

⁶⁰ Сарчашмадан томчилар. Ф.Фуллом нашриёти, Т., 1984, 37-бет.

bilib olibdi va g'azab bilan: «Cholning og'ziga qo'rg'oshin quyilsin!⁶¹ deb buyruq beribdi. Shunda donishmand chol: «Avf eting, shohim menda hech qanday ayb yo'q, qayg'uli xabarni men emas, mana bu do'mbira aytdi, jazoni u tortishi kerak!»—degan ekan. Hukmi podsho—amri vojib,deganlaridek, qo'rg'oshinni chol og'ziga emas, do'mbiraning qorniga eritib quyibdilar»⁶².

Keltirilgan misoldan ma'lum bo'ladiki, arxaik rivoyatlar har qancha takror ijro etilmasin,afsona,naql va hayotiy-maishiy ertak janrlari strukturasi xos elementlar uning tarkibida tarixiy rivoyatlardagi singari ko'p uchramaydi. Biroq folklorning boshqa turi namunalari uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar rivoyatda uchrashi tabiiy hol hisoblanadi.Chunonchi, biz ko'rib chiqqan bu rivoyatdagi epik mazmuni hikoyalash usuli, hukmdorning o'ylamay farmon chiqarish epizodi, eng asosiysi, inson hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan predmet- do'mbiraning ahamiyati folklorga xos yo'l bilan demokratik hal qilinishida namoyon bo'ladi. Xalq ertak, doston janrlari syujetlarida tez-tez uchraydigan dono baxshi,tadbirkor inson,ziyrak odam,oqil mo'ysafid chol obrazi mazkur rivoyatda ham idealizatsiyalashtirilgan. YA'ni, «to'qay chekkasida yashovchi dono baxshi-chol» mamlakat hukmdoridan ustun qo'yilgan. Albatta, bunday tasvirlash uslubi xalq og'zaki ijodida isbot talab qilmaydigan masala bo'lgani bilan, ushbu rivoyat maqsadi—kuy, qo'shiq, baxshichilik, musiqa va donishmandlik insoniyat hayotining ajralmas qismlari ekanligini ishontira oluvchi hayotiy uydirma orqali tasvirlanganligini ta'kidlamoq kerak.

Demak, «Jazo» rivoyati mazmun-mohiyatiga ko'ra qanchalik qadimiy bo'lganligi bilan uning tarkibida epik turga xos umumiy struktural-tipik xususiyat elementlari u yoki bu darajada mavjud. Rivoyat janriga mansub asar qachon yaratilganligi va qanday mavzudaligidan qat'iy nazar, umumfolklor janrlar tizimida boshqa janrlar bilan o'zaro munosabatda rivojlanadi. Rivoyat bilan ertak janrlari munosabatining struktural-tipik jihatlari yana ham chuqur va kengroq tasavvur qilishda «Luqmoni hakim» ertagi muhim ma'lumotlarni beradi. Mazkur folklor namunasi mustaqil syujetga ega bo'lgan to'rtta kichik epik janrning o'zaro muvofiqlashuvidan tashkil topgan murakkab kompozitsiyali ertakdir. Ertak syujeti voqealari markazida yagona obraz — Luqmoni hakim bilan bog'liq turli mavzudan iborat folklor namunalari tabiatiga nazar solinsa, ularning har biri o'z holicha mustaqil afsona, rivoyat janrlariga mos asarlar ekanligi ma'lum bo'ladi. «Luqmoni hakim» an'anaviy xalq ertaklari singari «Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bir zamoni vaqtida podsho Iskandar Zulqarnayn o'tgan ekan»⁶³ insial formulasi bilan boshlanadi.

Shundan keyin syujet voqealari boshlanishi bayoni — Iskandarning kun chiqishidan kun botarga qadar yerlarni so'raganligi, vazirlari oldiga endi osmon usti va yer osti odamlarini qanday qilib bo'ysundirish masalasini ko'ndalang qo'yishi hikoya qilinadi.

⁶¹ Kўрсатилган китоб, 38-бет.

⁶² Kўрсатилган китоб, 38-бет.

⁶³ Луқмони ҳақим. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Ф.Ғулом нашриёти, Т., 1990, 5-бет.

Mana shu buyruq ertak umumiy voqealari tizimidagi birinchi afsona syujeti uchun tugun vazifasini o‘taydi. Ertak syujeti tarkibidagi qoliplovchi syujet ham bevosita o‘ziga xos mustaqil kompozitsiyaga ega asar. Iskandar Zulqarnayn nomi bilan bog‘liq xalq orasida aytib kelingan afsona keyinchalik o‘rta asarlar yozma adabiyoti uchun ham o‘ziga xos ta’sir rolini bajarganligini xamsanavislar asarlari, xalq kitoblaridan bilish mumkin. Demak, ertakdagi mana shu birinchi syujet voqealari mazmunidan chiqadigan semantik ma’noga qarab, bu afsonani shartli ravishda «Iskandar bilan obi odamlar» deb atash mumkin. Chunki undagi «ijtimoiy hayot voqea va hodisalari xayoliy uydirma»⁶⁴ bilan birga fantastik elementlar vositasida hikoya qilinishi, syujet voqealarining birdaniga tugundan boshlanashi, eng asosiysi, tarixiy shaxs to‘g‘risida informatsiya berishi kabi jihatlariga qarab, uni afsona deyish mumkin. Ertakdagi boshqa namunalarni esa Luqmoni hakimga bag‘ishlangan rivoyatlar desa bo‘ladi. Luqmoni hakim bu rivoyatlarning har biri uchun umumiy funksiya bajaruvchi obraz. Xalq orasida mazkur ideal insonga bag‘ishlangan afsona, rivoyat, naqlarning folklor timsoli Luqmoni hakim ekanligi azaldan ma’lum. Ertak voqealari syujeti ichida bir necha qoliplovchi kichik epik janrning kelishi ertak, doston janrlari tabiatiga xos tipik xususiyatlardan biri sanaladi. Luqmoni hakim, Hotam Toyi, Nasriddin afandi, Kal kabi Sharq xalqlari og‘zaki ijodida ko‘chib yuruvchi obrazlar bilan bog‘liq afsona, rivoyat, naql (og‘zaki hikoya)lar xalq og‘zaki ijodi an’analaridagi tarixiy shaxsni idealizatsiyalash, folklorga xos romantizmni hayotiyashtirishda qo‘l keluvchi vositalardir. Sharq xalqlari folklori ijodiyotida ko‘chib yuruvchi ana shu obrazlarga taalluqli motiv va syujetlar nisbatan hajmi katta epik janrlar tarkibiga oson moslashib ketadi.⁶⁴

Yozma adabiyotning paydo bo‘lishi, ilk badiiy nasriy asarlarning yaratilishi manbalari xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishi qayta-qayta isbotlab berilgan. Shulardan eng so‘nggi ilmiy izlanishlar mahsuli bo‘lgan «O‘zbek nasri tarixidan» kitobida: «O‘zbek nasrining ilk manshalari dastlab xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘lanadi. Xalqimiz tilida ming yillar davomida nasldan-naslga, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan ertaklar, qissalar, shubhasiz, o‘z ibtidosini juda qadim zamonlardan oladi»⁶⁵ deb bu masalaning yechimiga to‘g‘ri yondoshilgan. Agar mana shu bayon etilgan xulosaga asosan Luqmoni hakim, Iskandar Zulqarnayn, Hotam Toyi kabi obrazlar bilan bog‘liq folklorning kichik epik janrlarini tarixiy-tipologik tekshiradigan bo‘lsak, bu tipdagi og‘zaki ijod namunalari nafaqat X-XV asr yozma adabiyot san’ati, balki, undan oldingi yozma adabiyot uchun manba rolini o‘ynaganligi ma’lum bo‘ladi. O‘rxun-Yenisey bitiklari, Sharq xalqlari yozma yodgorliklari, shuningdek, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Muhammad G‘azzoliy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Rabg‘uziy va boshqa ijodiy, ilmiy faoliyatlari kam o‘rganilgan allomalarning ilmiy-ma’rifiy, ilmiy-falsafiy, ilmiy-axloqiy asarlari

⁶⁴ Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Ўқитувчи, Т., 1990, 174-бет.

⁶⁵ Ўзбек насри тарихидан. Фан, Т., 1982, 18-бет.

tarkibidagi ibratli afsona, rivoyat, qissa, naqlar xalq og‘zaki ijodida ulargacha mavjud bo‘lgan syujet, motiv, obrazlar ta’sirida yaratilganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Haqiqatan ham, «Qissai Rabg‘uziy»da ifodalangan g‘oyalarning xalqchilligi, hayot bilan amaliy jihatdan bog‘langanligi, ishontiruvchanligi va kitobxon xotirasiga tez singuvchanlik xususiyatlarida folklorning kichik epik janrlari muhim rol o‘ynaydi⁶⁶.

Luqmon, Hotam Toyi, Iskandar, Doro kabi obrazlar bilan bog‘liq rivoyatlar hozirga qadar jonli ijroda ham saqlanib qolgan. Ular syujet fabulasi strukturasi ko‘ra aynan yozma manbalardagiga o‘xshash bo‘lmasa-da, boshqa variant va versiyalarda aytib kelinadi. Yoki ayrimlarining syujeti ertak janri tarkibiga moslashgan tarzda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek folklori epik turiga mansub rivoyat va ertak janrlarining o‘zaro munosabati uzoq davrlardan doimiy aloqda bo‘lib kelayotgan folkloriy jarayon mahsulidir. Har bir janr tabiatida boshqa janrga xos elementning kelishi yoki shakl jihatdan kichik bo‘lgan rivoyatning ertak tarkibiga moslashuvi — bu janrlararo munosabatdagi moslashish, muvofiqlashish hodisalarining sodir bo‘lish natijasidir.

Naql va ertak

O‘zbek folklorshunosligida ta’riflanishicha, «naql struktura jihatdan sodda, hajmi ixcham, badiiy-tasviriy vositalari u qadar boy emas, informativ va estetik funksiyasi uyqun, didaktik ruh ustun, bayon qilish uslubi oddiyligi bilan boshqa kichik epik janralardan ajralib turuvchi janr hisoblanadi⁶⁷. Boshqacha qilib aytganda, «naql— axloqiy norma hamda odob haqida yuzaga kelgan fikrlarni izohlovchi, ta’limiy xarakterdagi majoziy hikoya»⁶⁸, ham deyish mumkin. Bu janrning shakllanish tarixi, ommaviylashishi davri yozma adabiyot rivojlangan X-XI asrlarga to‘g‘ri keladi. Ungacha naqlar bajaradigan estetik funksiyani afsona, rivoyat janrlari bajarib kelgan deb taxmin qilsa bo‘ladi. Bulardan tashqari, Markaziy Osiyoga Islom ma’rifati kirib kelishi munosabati bilan qadimdan arablar og‘zaki ijodida mavjud naql, hikoyat kabi namunalarning interpretatsiyaga uchrashi hodisasini ham e’tiborga olish zarur⁶⁹. Shuningdek, o‘zbek xalq ertaklaridagi ayrim syujet, motiv, obrazlar, hatto kompozitsiya qurilish uslublariga qarab, arab, eron, hind va Sharq turkiy xalqlaridan ta’sirlanish natijasida yuzaga kelganligi va qadimgi ajdodlarimizning boshqa xalqlar bilan o‘zaro madaniy aloqalari bizga mana shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. X asrda yashagan O‘rta Osiyoning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» kabi asarlarida o‘zining aniq fanlar sohasidagi kuzatish va tajribalardan chiqqan ilmiy xulosalarini isbotlash uchun keltirgan qadimgi afsona, rivoyatlardan

⁶⁶ Рабғузий. Қиссаи Рабғузий. Т., 1992.

⁶⁷ Ўзбек фольклори очерклари. Фан. Т., 1988, 74-бет.

⁶⁸ Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Ўқитувчи, Т., 1990, 182-бет.

⁶⁹ ўранг: Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Фан. Т., 1976, 40-41-бетлар.

tashqari, axloq-odob, tarbiya masalaridagi qarashlari hayotiy, amaliy ahamiyatiga urg'u berish maqsadida, xalq naqlariga ham murojaat qilganligi bejiz bo'lmay, bu janr qadimiy va ommaviy ekanligidan ham dalolat beradi⁷⁰.

Fikrimizni ulug' olimning o'z davri nuqtai nazaridan ayrim afsona, rivoyatlarga nisbatan qarashlari bilan qiyoslamochimiz. Beruniy zamonida ham Iskandarni ne sababdan Zulqarnayn deb atalishi bo'yicha munozaralar bor ekanligi va ulug' allomaning ushbu masaladagi fikrlari hozirgi folklorshunoslar uchun ham asqotishini ko'rib chiqamiz. Beruniyning fikricha, dunyoning yarmini egallagan Iskandar ilm-fan bobida ustoz Aristotelga doimo suyanib ish tutganligi tufayli Zulqarnayn deydilar, degan edi⁷¹. Shuningdek, xalq orasida yurgan turli afsona, rivoyatlarni ham e'tiborga olib, Iskandar kun chiqishdan kun botishga qadar hududini mahv etganligi, Bobil podshohi Somirusni yengib, uning bosh terisini sochi hamda ikki kokili bilan shilib olib, undan toj yasab kiyganligi va nihoyat, «Zulqarnayn... ikki yelkasiga tushib turgan ikki kokili sabab shu nom bilan atalganligi»⁷² kabi bir tarixiy shaxsga turlicha yondoshilgan xalq og'zaki ijodiga mansub qarashlar haqida ham to'xtalgan edi. Beruniy «Avesto» kitobining Iskandar tomonidan kuydirilishi tafsilotlarini⁷³ arab darveshlari orasida aytib yurilgan: «Hotam at-Toyi» nomi bilan bog'liq naqlardan bilganini bayon qiladi. Demak, darveshlardan yozib olingan og'zaki ijod namunalariga qaraganda, X asrlarda ham xalq og'zaki ijodining afsona, rivoyat, naql kabi kichik epik janrlari ommaviylashgan ekanligini u faktlar tasdiqlaydi⁷⁴.

Xullas, naql janri ertak, doston singari murakkab kompozitsiyali janrlarga nisbatan avval shakllanib, keyingi tarixiy-folkloriy jarayonda ertak, doston janrlari takomil topishi uchun o'ziga xos rol o'ynagan. Hayotiy-satrik deb tasnif etilgan xalq ertaklari ana shu janrlar ta'siri orqali dunyoga kelgan. Binobarin, afsona, rivoyatlarda hayotiy va xayoliy uydirma elementlari mavjud bo'lib, ular real hayot voqealari, tarixiy shaxslar haqidagi informatsiyaga yarim real funktsionallik va yarim folklor uslubiga xos uydirma asosida munosabat bildirsa, naqlda esa xayoliy uydirma, ko'tarinki romantizm, obrazni idealizatsiyalashtirish uchramay, real voqelik badiiy-axloqiy funktsiya bilan birga ko'pchilik uchun ibrat, namuna bo'la oladigan xalqchil g'oyani ilgari surish yetakchi.

Naql struktural-morfologik jihati va hikoyalash uslubiga ko'ra sodda, ixcham bo'lib, kompozitsion qurilishi bilan kichik epik janrlarga yaqin turadi. Uning syujet, motivlari, obrazlari afsona, rivoyat kabi asosan informatsiya berish maqsadi uchun xizmat qilmay, tinglovchiga axloqiy-ma'rifiy tarbiya berish, xalq pedagogikasi an'analarini targ'ib qiluvchilik funktsiyasi uni boshqa epik janrlardan farqlab turadi. Xalq orasida aytib kelinadigan naqlar tinglovchi uchun noma'lum bo'lgan voqelik yoki narsa mohiyatini

⁷⁰ Абу Райхон Беруний. Ўйлар, хикматлар, нақллар, шеърлар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи А.Ирисов. Ёш гвардия, Т., 1973.

⁷¹ Абу Райхон Беруний. Ўйлар, хикматлар, нақллар, шеърлар. 25-бет.

⁷² Кўрсатилган китоб, 25-бет.

⁷³ Кўрсатилган китоб, 35-бет.

⁷⁴ Кўрсатилган китоб, 59-бет.

ochib berish, uni ishontira olishga baqishlanganligi bilan bu janrning tarbiyaviy kuchi alohida ahamiyatga ega.

Naql ifoda funksiyasi bilan ertak janriga yaqin turadi. Ma'lumki, xalq ertaklari estetik funksiyaga ega. Biz yuqorida qisman ta'kidlagan ertak janri bilan kichik epik janrlarni chalkashtirib talqin qilinishining ham boisi ana shu o'xshashlik natijasidir. O'zbek folklorshunosligida janrlar tizimi masalasiga yondoshish bo'yicha yana bir muammo folklorga milliy-lokal tabiatidan kelib chiqilgan holda tadqiq etish metod hisoblanadi. Xususan, «O'zbek folklori ocherklari» II tomli risolasining birinchi tomida naql va ertak janrlari struktural-tipologik munosabatlari masalasiga taalluqli mana shunday fikrlardan biri: «Asar «Bor ekan-da yo'q ekan» deb boshlansa-da, u ertak janriga mansub bo'lavermaydi. Uning qaysi janriga mansubligini belgilashda, eng muhimi, uning strukturasi, badiiylik darajasi, tasvir xarakteri va ijtimoiy-estetik funksiyasiga ahamiyat berish lozim⁷⁵, degan qarashdir. Agar mazkur qarash nuqtai nazaridan janrlar munosabatiga yondoshiladigan bo'lsa, naql janri bilan ertak munosabatlarini aniqlashga bevosita aloqador har bir janrga xos differensial, integral va stabillik xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim. Shuning uchun yuqorida bejiz naql janrining tarixiy-folkloriy jarayonda shakllanish, ommalashish, boshqa janrlar struktural-tipik jihatdan o'xshashlik yoki noo'xshashlik jihatlariga qisqacha to'xtalib o'tmagan edik. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, naql janri ertak janridan ilgari shakllanib, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy davrlar taqozosiga ko'ra ertak janri yaratilishi uchun muhim rol o'ynagan. Buning ustiga ustak, ertak janrining struktural-tipologik jihatdan naql janriga o'xshash tomonlari borligi ham mazkur janrlarning tarixiy-folkloriy jarayon qonunlari asosida sodir bo'lgan moslashish va muvofiqlashish hodisalari mahsuli ekanligidan darak beradi. Naqlarning syujet, motiv obrazlari ertak janriga transformatsiyalanishi, ertak syujetida ular semantik jihatdan muhim funktsiya bajarishi hodisasi har ikkala janr munosabatlaridagi ko'zga tashlanuvchi hodisadir. Naql janri strukturasi, uning o'ziga xos tabiatini belgilaydigan muhim xususiyat bu – naqlning syujet voqealari natijasidan chiquvchi umumiy g'oyani maqol, ibratli so'z birikmasi bilan yakunlanishidir. Mana shu xususiyat, jonli ijroda ko'pincha aksincha, ya'ni, naqlni aytuvchi odam avval so'zlab turgan voqelikka o'z munosabatini bildirib, bir xalq maqolini keltiradi-da, keyin «naql qilishlaricha», «aytishlaricha», «eskidan qolgan bir gap bor, shunda aytilganidek... » kabi an'anaviy kirish tarzida kelishi ham mumkin.

«Oltin olma», «Oyjamol», «Xorazm ertaklari» kabi to'plamlarining hayotiy ertaklar deb berilgan namunalar orasida «Dono qiz», «Ahmoq podshoning dono xotini», «Dono xotin», «Yetti ahmoq», «Otangga qilsang, boladan qaytadi», «Til tiqdan o'tkir», «Yaxshisi ham, yomoni ham til», «Ibn Sino va tarbiya»⁷⁶, «Shirin uyqu», «Qaysi yerda chivin yo'q?», «Oltin olma», «Har kimniki o'ziga shirin», «Ko'r bilan shol», «Kuygan

⁷⁵ Ўзбек фольклори очерклари. Фан. Т., 1988, 74-бет.

⁷⁶ Ойжамол, Ҳаётий эртақлар, 2-китоб, Ф.Фуллом нашриёти, Тө, 1969.

chol», «Ko‘rpangga qarab oyoq uzat», «Hunarsiz kishi o‘limga yaqin», «Ota mehri», «Mashq-da», «Ayoq», «Yaxshi ayol — hamisha bahor», «Ayyor bilan sodda», «Kenja kelinning davlati», «Bir xotinga bir er», «Erni er qilgan xotin», «Yamoqchi bilan Shog‘arib», «Zolim podsho», «Aqlli bola», «Har kim qilsa o‘ziga», «Teshik danak», «Har kim ekkanini o‘radi», «Xasis boy va uning o‘g‘illari», «Boyning o‘g‘li», «Ikki o‘jar», «Podsho bilan ikki xotini»⁷⁷ kabi naqlar ham o‘rin olgan. Bulardan boshqa yana 1981 yil nashr qilingan «O‘zbek xalq ertaklari» to‘plamida (Yosh gvardiya) ham yana bir qancha naqlar bor.

Naql janri shakl, xususiyati va ijtimoiy-estetik funktsiya bajarishiga ko‘ra ertak janriga yaqin turganligi uchun ham tabaqalanish xususiyatlaridagi murakkablik ularni farqlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shunday naqlar borki, strukturasiqa qarab bemalol ertak janriga kiritib yuborish mumkin. Lekin syujet voqeasi semantikasi, hikoyalani sh uslubidagi farq, shuningdek, uydirma, fantastik elementlar yo‘qligi va syujetning yechimi ibratli ma’no anglatuvchi fikr yoki biror maqol bilan yakunlanishi o‘rinlariga qarab, uni ertak janri deya olmaymiz. Misol tariqasida «Podsho bilan ikki xotini» naqlini ertak janri bilan struktural-tipologiya asosida solishtirib ko‘raylik. Naql «Bor ekan, yo‘q ekan, bir podsho bor ekan»⁷⁸ an’anaviy stilistik formulasi bilan boshlangach, kundoshlik motiviga xos voqea keltiriladi. YA’ni podsho xotini ustiga kichik xotin qilib, vazirining qizini oladi. Katta xotin bilan kichigi hadeb urushaveradilar. Bir kuni podsho ularning janjallashib turganining ustidan chiqib qolib, garchi ayb vazirning tantiq qizi kichkina kundoshda ekanligini bilsa ham, katta xotinini rosa urishi epizodi beriladi. Tugunning yechimi ertaklardagi kabi turli sarguzashtlar, uydirmali voqealar yoki biror sirli vosita orqali sodir bo‘lmay, hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ibratli voqelikdan iborat. Kichkina kundosh: «Xotiningni o‘ldirmasang, senga xotin bo‘lmayman», deya podshoga o‘z maqsadini ko‘ndalang qo‘yadi, podsho vaziridan maslahat so‘raydi. Vazir esa o‘z qiziga yaxshilik qilib, katta xotinning o‘lib ketishiga yordam beruvchi maslahat beradi: «Podshohim, agar yana urishganlaringning ustidan chiqqudek bo‘lsam, har ikkovingga ham jazo beraman, deng va xizmatkorlarga buyuring-da, katta xotiningizni qorga ko‘mdiring, kichigini unga ko‘mdiring»,—debdi. Tabiiyki, naql syujeti yechimi xalqona usulda hal etilgan. Albatta, bunda yechim qat’iy hayot mantiqiga asoslangan. Podsho bir kuni ikki xotinning yana janjali ustidan chiqqach, vazir bergan haligi maslahatga amal qiladi. Bir ozdan keyin ko‘milgan har ikki xotin ochib ko‘rilganda, un tagidagi vazir qizi nafas ololmay o‘lib qolgani, qor tagidagisi esa tirik qolganligi ma’lum bo‘ladi. Naqlning asosiy voqealari mazmunidan chiquvchi ibratli ma’no: «Yoqma — pisharsan! Qazma — tusharsan!»⁷⁹ xalq maqoli bilan ifodalangan.

Naqlning kompozitsiyasi, voqealarni bayon qilish uslubi, syujet yechimi, ayrim an’anaviy sintaktik formula va jumalarga qarab, unda ertak janriga xos elementlar

⁷⁷ Олтин олма. Ҳаётий эртақлар. 1-китоб., Ф. Фулом нашриёти, Т., 1966.

⁷⁸ Олтин олма. Ҳаётий эртақлар. 1-китоб, Ф. Фулом нашриёти, Т., 1966. 323- бет

⁷⁹ Кўрсатилган китоб., 323-бет.

mavjudligi, hayotiy uydirma asosida yomonlikning yaxshilik oldida magʻlubiyatga uchrashi kabilar muvofiqlashganini koʻzlash mumkin. Biroq yechim syujet mohiyatiga qarab, bu folklor namunasi naql janriga mansubligi yaqqol namoyon boʻladi.

Xalq orasida aytib yuriladigan shunday ommaviy naqlar borki, ularning syujeti, motivlari va ifodalaydigan axloqiy-didaktik maʼno hech qachon eskirmaydi. Ana shunday motivlardan biri, ota-onaga nisbatan mehribonlik qilmaydigan, tarbiyasiz yoshlarga nisbatan aytib kelinadigan «Otang, onang, qaynonangga qanday munosabatda boʻlsang, senga ham farzandlaringdan ana shunga yarasha qaytadi», motividir. «Har kim ekanini oʻradi», «Teshik danak», «Otangga qilsang, bolangdan qaytadi» kabi naqlar ana shu motiv asosida yaratilgan. Toʻgʻri, ularning strukturasi, obrazlar sistemasi bir-biridan bir oz farq qilsa-da, axloqiy-didaktik maʼno bir.

«Har kim ekanini oʻradi», «Teshik danak» naqlari Toshkent shahridan, «Otangga qilsang, bolangdan qaytadi» naqli Toshkent viloyatidan yozib olingan. Ularning strukturasi va voqealar mazmuni yoʻnalishida muayyan geografik joy, turmush kechirish sharoiti bilan bogʻliq ayrim lokal oʻrinlar hisobga olinmasa, ifodalanadigan ibratli maqsad aytarli darajada bir xil. Toshkent shahridan yozib olingan «Teshik danak», «Har kim ekanini oʻradi» naqlari ustida toʻxtalamiz⁸⁰.

«Teshik danak» naqlining syujeti qaynona bilan kelin oʻrtasidagi munosabatlarga bagʻishlangan ibratli voqealar bayonidan iborat. Naqldagi obrazlar, ular orasidagi ziddiyatlar oddiy kundalik turmushda sodir boʻlishi mumkindek tuyulsa ham ularning tafsiloti xalq ijodiyotiga xos toʻqima bilan badiiylashtirilgan. Shuni aytish kerakki, naql obrazlarida romantik xususiyat yoʻq; ertak, doston obrazlari kabi idealizatsiya qilinmaydi. Oʻzbek millatiga mansub, normal tarbiyalangan har qanday odam bevosita naqldagi obrazlar oʻrniga oʻzini qoʻyib tasavvur eta olishi, chiqadigan xulosaga esa oʻz shaxsiy munosabatini bildirishi mumkin. Mana shu jihatlar «Teshik danak» naqlining oʻziga xos struktural-morfologik xususiyat kasb etib, janr sifatida turqunlashgan folklor namunasi ekanligini koʻrsatadi. Garchi voqealarni hikoyalash uslubi ertakchining sintaktik konstruksiyali gaplaridan iborat boʻlib, ertakka xos ayrim elementlar yordamida tinglovchi diqqatini yana-da tortish va dramatik kolliziyani kuchaytirish uchun moslashtirilgan ayrim anʼanaviy detallar hisobga olinmaganda, folklorning bu kichik epik janri naql ekanligiga hech qanday shubha tugʻilmaydi.

Naql ekspozitsiyasi «Bir ablah podshoning zamonida qaynonalar bilan kelinlar bir-biriga it-mushuk ekan» mazmunidagi abstrakt mazmun ifodalovchi boshlamadan iborat. Shundan keyin hayot manzarasi aniq voqealar tasviriga koʻchadi. Oʻsha zamondagi bir kampir oʻgʻli, kelini va nabiralari bilan umrguzaronlikda hayot kechirayotgani, kelinning qaynonaga bergan minnatli ovqatlari, bechora onaning unga chidab, oʻz yirtiq-yamoqlari bilan hujrada ovunib oʻtirishi manzarasi bayon qilinadi.

⁸⁰ Kўрсатилган китоб, 188-290-бетлар

Naql syujeti voqealarning tuguni qaynona bilan kelin o‘rtasidagi ziddiyatlariga nisbatan o‘g‘ilning munosabati motividir. Lekin «Teshik danak» naqli sodda ko‘ringandek tuyulgani bilan kompozitsion qurilish jihatdan bir oz murakkab, ya‘ni, syujet voqealari ichida yana kichkina voqealar mavjud bo‘lib, ularning o‘z tuguni, kulminatsiyasi va yechimi mavjud.

Naqlning asosiy maqsadi — kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, keksalarga izzat ko‘rsatish, hurmatini joyiga qo‘yish, bu dunyo nisbiy ekanligini ko‘rsatish kabi axloqiy-falsafiy didaktikadan iborat. Shuning uchun ham naql tugunini umumiy «ablah podsho zamoni-dagi qaynonalar bilan kelinlarning bir-biriga it-mushuk» ekanligini ko‘rsatgan holda, o‘sha zamondan olingan bir kichkina oila misolidagi voqealar uchun ikkinchi ichki tugun sifatida «nabiraning do‘ppisidan tushib qolgan bir turshakni tishi yo‘q kampirning tinmay shimishi» voqeasini ham nazarda tutish kerak. Kelin jahl bilan erini «o‘n bir oy emizib, oq yuvib, oq tarab katta qilgan» qaynonasiga ovqat bermay, och qo‘yganida ham «kampirning og‘zi bo‘shamasligi, xasis kelin jon-poni chiqib eriga: «Onangiz bizni xarob qiladi. Nuqul kavshangani kavshangan, men unga ovqat yetkazib berolmayotibman»,— deya yomonlagach, ahmoq o‘g‘il onasini yetaklab borib, bir jarlikka tashlab kelganligi ikkinchi voqeaning kulminatsiyasini tashkil qiladi.

Kelin bilan qaynonaga bag‘ishlangan voqealar kulminatsiyaga qadar bayon qilinuvchi tasvir hayotiy ertaklarnikiga o‘xshaydi. Chunonchi, «kampir bir hujrada o‘z yirtiq-yamoqlarini yamab o‘tirar, kelinning bergan ovqatlariga, qilgan minnatlariga chidar edi. Kelinning minnati bir kuni toqatini toq qilibdi-yu, ko‘zidan yosh oqizib shunday debdi⁸¹, «Bir kuni nabiralaridan biri to‘ppisiga turshak solib buvisining hujrasiga kiribdi. —Qo‘lingdagi nima, bolam, menga ham ber, — debdi och kampir nabirasiga»⁸². Yoki «Kunlar o‘tibdi. Kampirning hech jag‘i tinmay, o‘sha turshakni shimib o‘tiraveribdi»⁸³ singari ertak janri sintaksisiga xos jumlar, «Kunlardan bir kuni», «Kunlar o‘tibdi», «Kunlar, oylar birin-ketin o‘taveribdi» kabi sintaktik formulalarga qarab, bu naql strukturasi xalq ertaklariga xos elementlardan holi emasligi, tarixiy-folkloriy jarayonda biz tahlil qilayotgan naqlning mazkur varianti ertak janri bilan munosabatga kirishganligi tufayli unda ertakka xos xususiyatlar moslashganligini bu ta‘sir misolida ko‘rsatish mumkin. Lekin har holda, naqlning umumiy syujet fabulasi saqlanib qolganligi, syujet voqealaridan chiqadigan mazmunning axloqiy-estetik, falsafiy mazmuniga ko‘ra uni naql janriga mansub namuna desa bo‘ladi. Endi bu naqlning ertak bilan munosabati haqidagi mulohazalarimizni davom ettirib, kulminatsion nuqtadan keyingi voqealar rivoji bilan tanishaylik. Syujet nihoyatda chuqur ma‘no kasb etadi, insonparvarlik va xalq milliy axloqiy qarashlarini yuksak g‘oya bilan ifodalashida ajralib turadi: «Kelin qaynonasidan qutulganiga xursand bo‘lib yurgan kunlarning birida o‘g‘il insofga kelib:

⁸¹ Kўрсатилган китоб, 289-бет.

⁸² Kўрсатилган китоб, 289-бет.

⁸³ Kўрсатилган китоб, 289-бет.

«Onamdan bir xabar olib kelay-chi»,—deb jarlikka borsa, ona bechora haliyam jarlikda o‘tirib, nuqul bir narsani shimib o‘tirganmish.

— Oyi, —deb chaqiribdi o‘g‘il, — nima yeyapsiz?

— O, bolaginam, nima ham yerdim! Bir kuni bolangning to‘ppisidan tushib qolgan bir turshakni olib, og‘zinga solgan edim, o‘shani shimib o‘tiribman. Ishonmasang, mana ko‘r,—debdi ona va og‘zidagi haligi turshakning danagini olib o‘g‘liga beribdi. O‘g‘li danakni olib qarasa, danak shimilaverganidan teshilib qolgan ekan. O‘g‘il gap nimada ekanligini fahmlabdi-da, onasini olib uyiga jo‘nabdi⁸⁴. Mana shu kichik dramatik kolliziyali vaziyat naqlning yechimi. Bu yerda hech qanday «murod-maqсадga erishish», «xasis, kaltafahm kelinni jazolash» an‘anaviy formulasi bilan yakunlanmagan. Naqlning xulosasi barcha saviya va barcha yoshdagi tinglovchiga qaratilgan bo‘lib, nihoyatda kuchli xalqchillik ruhi bilan sug‘orilgan. Binobarin, shuni ta‘kidlash kerakki, afsona, rivoyat, ertak, doston janrlari xulosasida naqldagi kabi kuchli portlashga o‘xshagan ibratli g‘oya yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas.

Naql janri o‘z tabiatiga ko‘ra, paremiologik janrlarga xos funksiyani bajarishi bilan ham xarakterlidir. Buni quyidagi misol hami tasdiqlashi mumkin: «O‘tgan zamonda bir qashshoq donishmanddan:

— Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q, juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim,— debdi.

Shundan keyingi voqealar davomida naqlning mazmuni ochiladi. Cholning qashshoq bilan suhbatini ma‘nosi naqlning xulosasidir.

—Sen kambag‘almisan? — degan savolga noshukur odam: — Ha, bola-chaqam va o‘zim ochman, —deb zorlanibdi. Chol:

— Xo‘p, bo‘lmasa menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray, — desa, haligi yigit:

— Yo‘q, qo‘l o‘zinga kerak, sotmayman, — debdi. Shunda donishmand:

- Bo‘lmasa o‘ng ko‘zingni sot, —desa u:

- Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak,— debdi.

Shu tarzda chol qashshoq yigitning tana a‘zolarini birma-bir sotgin deb aytib chiqibdi va yigitdan «yo‘q» javobini olgach,

—Ha, butun muchang sog‘ bo‘lsa, turmushdan nega zorlanasan, kishining tani-joni sog‘ligi — tuman boyligi-ku, — degan ekan»⁸⁵.

Ushbu naqlning syujeti mazmunidan chiqadigan xulosadan ham ma‘lum bo‘ladiki, «Tan sihatlik — tuman boylig» maqoli unda o‘z sharhini topgan. Unda mehnatsevarlikka undash, tekinxo‘rlik va ta‘magirdikni qoralash mazmuni ham bor. Bu naql janri strukturasi ayrim elementlar («O‘tgan zamonda», «Zorlanibdi», «Javob qaytargan ekan») va epik mazmun bayon qilish usulini hisobga olmaganda, ertak janriga xos tipik o‘xshashlik yoki munosabatlar ko‘zga tashlanmaydi. Yechimi ham naql janri tabiatiga

⁸⁴ Kўрсатилган китоб, 290-бет.

⁸⁵ Ойжамол, Ҳаётий эртақлар, 2-китоб, Ф.Фуллом нашриёти, Т., 1969. 204-205- бетлар.

xos bo‘lib, xalq maqollaridan biri bilan yakunlanishi bu folklor asarining qanday janr sifatidagi xususiyatlarini aniq ko‘rsatib turibdi.

Xalq orasida ijro etib kelinayotgan aksariyat naqlar yosh avlodga turmush mu-rakkabliklarini yengish va muammolar girdobida qolganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan. Ayniqsa, axloq-odob, insonparvarlik doirasidagi ibratli maslahatlar berishi bilan qimmat-lidir. Bular orasida kekxa ota-ona oldidagi farzandlik burchini unutmaslik motivi ifoda-langan naqlar alohida ajralib turadi. Mana shu motivdagi naqlarning turli variant va versiyalari struktural-tipik xususiyat jihatdan hayotiy-maishiy ertak janri tabiatiga o‘xshab ketish hollari ham bor. «Otangga qilsang, bolangdan qaytadi» naqli syujeti, motiv va obrazlar sistemasiga ko‘ra ertak janri kompozitsiyasi bilan monandligiga qarab, ana shunday fikrni bayon qilish mumkin.

Bu naqlning kompozitsiya tuzilish sodda, syujet voqealari ibratli ma’no ifodalaydi, lekin uning xulosa qismi bir oz ertak janri yechimiga mos keladi. Chunonchi, naqlning kirish qismi ertaklardagi kabi: «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning yolg‘iz o‘g‘li bor ekan»⁸⁶ insial formula bilan boshlanadi. Shundan so‘ng voqealar rivoji xuddi xalq ertaklari janriga o‘xshab syujet uchun asos bo‘luvchi sabab — «yolqiz o‘g‘ilni uylantirishgan chol-kampir» holati hikoya qilinadi. Naqlning asosiy maqsadi — axloqiy-didaktik mazmuni. Syujet voqealar tuguni esa «chol-kampir qa-rishib, qo‘llari qaltiraydigan bo‘lib qolishi, choy ichsalar piyolani tushirib yuboraverib sindirishi», undan bezor bo‘lgan kelinning eriga qilgan ta’nasi epizodik vaziyatdir. Tugun vazifasini bajaruvchi mazkur motiv shu mavzudagi boshqa naqllarda o‘zgacha yo‘sinda ekanligi bilan farq qiladi. Biroq ushbu naql kompozitsion tuzilishi jihatidan ertakka ya-qinligi tufayli, boshqa naqllardagi singari voqealar tugshuni birdaniga berilmaydi. Bu hodisa naql syujeti, motivi, obrazlari sistemasining ertak janri bilan munosabati va ularn-ing o‘zaro yaqinlashuvi hodisasi yuz bera boshlaganligidan darak beradi. Umuman ol-ganda, kichik epik janrlarning bir-biridan farq qilish jihatlarini epik mazmuni bayon qi-lish syujet voqealariga qarab emas, ularning qanday funktsiya bajarishiga qarab baholash maqsadga muvofiqdir.

M.V.Lomonosov naql bilan rus xalq folkloridagi og‘zaki hikoya janrlari munosa-batlari ustida to‘xtalib: «Naql kichik uydirma bo‘lib, undagi pand-nasihati bilan bog‘lan-gan namunalarni Ezopda uchratish mumkin»⁸⁷, — deydi va naqlarni uch tipga ajratib tasnif qiladi:

1. Tabiiy naqlar.
2. Notabiiy naqlar.
3. Aralash holdagi naqlar⁸⁸.

O‘zbek folklori janrlar tizimidagi naqlarni tabiiy guruhga kiritish mumkin. Chunki boshqa xalqlar folklori tabiatiga xos masal, og‘zakihikoya kabi janrlarning o‘zbek

⁸⁶ Kўrsatilgan kитоб, 206-бет.

⁸⁷ Ломоносов М.В. Сочинение. Т.,3. СПб, Издание Академии наук, 1895, стр. 207-208.

⁸⁸ Kўрсатилган китоб, 207-бет.

folklori uchun tipik hol emasligi, shuning uchun M.Lomonosov ko'rsatgan «tabiiy naql»lar guruhiga o'zbek naqllarini kiritishdan maqsad, ular struktural-tipik xususiyati bilan ertak janriga yaqinligi va u bilan oson munosabatga kirishuvidir. Binobarin, naql janrining kompozitsion qurilishi ertak janriga o'xshashligidan tashqari semantik tomondan xalq matal, maqollari bilan ham o'zaro yaqin munosabatda ekanligi bilan izohlanadi. Biz ko'rib chiqqan qaysi naql bo'lmasin, uning voqealar yakunidan chiqadigan fikr yoki umumiy g'oya biror o'zbek xalq maqoli mazmuniga mos kelishini bilamiz. Shuning uchun ham, bir turga mansub janrlar orasida strukturasi va tipik xususiyatlariga ko'ra o'zaro o'xshash, bog'lanish munosabatlari bilan naql o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, uzoq tarixiy-folkloriy jarayon davomida tabaqalangan janr hisoblanadi. Naql inson hayot kechirish jarayonida turli voqea-hodisalarni idrok qilishi, mushohada yuritish malakasini oshirishga yaqindan yordam beruvchi janr bo'lib, nemis olimi Gegel: «Naql masal kabi voqealarni oddiy hayotdan oladi, lekin unga oliy va umumiy ma'no beradi, bu ma'noni oddiy bir voqea orqali tushunarli va ko'rgazmali qilib ko'rsatishga intiladi. Naql umumiy qiziqish uyg'otib, oliy ma'noga ishora qiladi»⁸⁹, - deya boshqa folklor namunalari bilan farqini ko'rsatgan edi. Darhaqiqat, o'zbek naqlari strukturasi, ayrim ma'no ifodalash uslubiga ko'ra ertak janriga bir oz o'xshasa-da, biroq u ertakka nisbatan yanada chuqur va umuminsoniy ma'noga ega bo'lgan axloqiy-didaktik, axloqiy-falsafiy fikrlarni aks ettiradi, tinglovchining tafakkurlash faoliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ertak janri bilan naql munosabatlarini struktural-tipik o'xshash jihatlar nuqtai nazaridan baho berishga intildik. Lekin ular munosabatiga doir yana bir muhim jihat ustida to'xtalib o'tish lozim. Bu — naql janrining ijro etilish vaziyati masalasi bo'lib, ana shu holat uning afsona, rivoyat, ertak, maqol janrlari bilan munosabatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq naqlari (maqol ham shunday xususiyatga ega), suhbat jarayonida, biror hayotiy muammo ustida bahsli vaziyat yoki muhim narsa, voqelikni to'g'ri idrok etolmayotgan tinglovchiga qarata aytiladigan ibratli hikoyadir. U maxsus auditoriyaga ega emas. Ayrim sharoitlarda notiq o'z nutqini yana ham ta'sirli, faktlar bilan boyitish va fikrini ishon-tirish maqsadida afsona, rivoyatlardan foydalanish kabi naql janridan ham bahramand bo'lishi mumkin. Ammo naqlning ko'pincha dunyoqarashi boy, turmush tajribasi ko'p kishilar tomonidan bexos ijro etilishiga qarab, ham unga xos janr tabiatini farqlash mumkin. Shu bois I.A.Nikiforovning: «Agar naql didaktik va axloqiy maqsadlarni nazarda tutib aytilsa, ertak ovuntirish maqsadida aytiladi»⁹⁰, degan fikrida ham jon bordir. Demak, ertakda estetik funksiya ustun bo'lsa, naql janri mantiqiy fikr, didaktik ma'no ifodalash funksiyasiga ega.

⁸⁹ Гегель. Эстетика. Т.2. «Искусство», М., 1969, стр. 100-101.

⁹⁰ Никифоров И.А. Сказки, ее бытовании и носители. Минц С.И. Русская фольклористика, «Высшая школа», М., 1965, стр. 344.

An'anaviy insial, final formulalar naql janri tabiatida ertak strukturasidagi kabi uchramay, ularning ayrim elementlarigina kelishi mumkin. Biz ko'rib o'tgan misollardagi insial formula, ertakka xos hikoyalash uslubidagi ayrim sintaktik konstruksiyalash ana shunday elementlar jumlasiga kiradi. Lekin ertak janri uchun muhim tipik xususiyat hisoblangan fantastika, o'ta uydirmali elementlar, sehrlil vositalar naql janri tabiatida uchramaydi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, naql janriga xos ayrim syujet, motivlar ertak janri tarkibiga muvofiqlashishi ham mumkin. Bunga hayotiy-satirik ertaklar syujetidagi ideal obrazlarni folklor qonuniyatiga mos ravishda bo'rttirib tasvirlashda foydalanilgan naqlar misol bo'la oladi. Masalan, «Dono qiz», «Ahmoq podsho», «Boyning o'g'li», «Boy bilan mehmon», «Yamoqchi bilan Shog'arib», «O'g'ri bilan podsho», «Tentak podsho» kabi hayotiy-satirik ertaklar strukturasida naql janriga xos elementlarning muvofiqlashgan o'rinlarini ko'rsatish kifoy. Naqlning katta hajmli, murakkab kompozitsiyali epik janrlarga muvofiqlashish hodisasi tasodifiy yoki ertakchining individual mahorati emas, balki bu hodisa uzoq davrlar mobaynidagi tarixiy-folkloriy jarayondagi epik janrlarning o'zaro munosabatga kirisha borib, o'zidagi eng yaxshi elementlarni ertak, doston kabi nisbatan keyinroq yuzaga kelgan janrlar strukturasida boyishi uchun xizmat qiluvchi funktsiya bajarishidagi namoyon bo'lishidir. O'zbek folklori janrlar tarkibida bironta epik janr yo'qki, ijtimoiy-tarixiy bosqichlar ta'siri bilan o'zgarishga uchramagan yoki o'z strukturasida boshqa janrlarga xos elementlari moslashmagan, muvofiqlashmagan bo'lsin. Biz nisbatan turqun holatdagi janr deb ko'rsatgan naqllarda ham boshqa folklor asarining u yoki bu janr tabiatiga xos ayrim elementlari mavjud. Janrlar o'zaro munosabatga kirishganlarida hayotiy ehtiyoj nuqtai nazaridan odamlar ma'naviyatiga qanchalik foyda berishiga qaraladi. Bunda janrning nisbatan avval yuzaga kelgani, o'zidagi eng yaxshi tomonlarini saqlab qolgan holda, yangi shakllangan janrlar xususiyatlaridan tarkibiga singdiradi. Quyidagi ertak ana shunday munosabat asosida tarkib topgan folklor asaridir: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir boy o'tgan ekan» tarzda boshlanuvchi «Boyning o'g'li» hayotiy-satirik ertagi strukturasida naql janri bilan tipologik munosabatlarida tekshirilganida, ushbu ertak syujeti voqealaridan kelib chiqadigan xulosa xuddi naql janri yechimiga o'xshashi ma'lum bo'ladi.

Boy farzandining beparvo, ishyoqmas, yalqov va laqma bo'lib o'sayotganligini bilib ich-ichidan zil ketsa ham, yolg'izligi uchun unga qattiq gapirmaydi. Bir kuni u o'g'lini yoniga chaqirib, «o'lar oldida senga aytadigan so'zim shuki, qachon vaqting yetib, o'lar bo'lsang, mana shu yuqoridagi ustunga osilib o'lgin»,—deb vasiyat qiladi. Nihoyat, boy qazo qilgach, uyda yolg'iz qolgan bola har kuni 5-6 o'rtoqlari bilan ulfatchilik qilishib, otadan qolgan boylikni bosh-ko'ziga qaramay sovura boshlaydi. Bola ziyofatda qanday noma'qulchilik qilsa, o'rtoqlari indashmaydi. Hatto bir kuni u ziyofat chog'i: «Men kechasi yotganimda osmonga qaragam, osmonning tepasida ikkita it menga

qarab turgan ekan»,—desa jo‘ralari ham: «Ha, shunday, osmonda it qarab turganligini biz ham ko‘rdik»,— deb uning gapini ma’qullashadi.

Shu taxlit u bor-shudini sarflab, ziyofat va ulfatchilik uchun bir tiyin ham puli qolmagach, jo‘ralari ham unikiga qadam bosmay qo‘yadi. Borib-borib shu darajaga yetdiki, uyidagi bor lash-lushini sotib, uning puliga bir kalla sotib oladi va ulfatlarini mehmon qilish maqsadida uni bir o‘rtog‘ining uyiga kirayotib eshik tagida qoldiradi. O‘rtog‘ini mehmonga chaqirib uydan chiqsa, eshik oldida qoldirgan kallani itlar tortqilab ketishibdi.

Kechqurun jo‘ralari kelib: «Ha, sho‘rpehona, ziyofating qani?» — deb so‘raganlarida u: «Men Azamat shovozning uyiga kirib chiqqunimcha, eshik oldida qoldirgan kallani itlar tortqilab ketishibdi», — degan ekan, ular yigitni ura boshlabdilar va: «Kallani ham it oladimi?» — deb xo‘rlabdilar. Ertak syujeti voqealarining mana shu nuqtasi uning ikkinchi ichki voqea tuguni bo‘lib, yechimi naql strukturasi o‘xshaydi. Bu o‘rinda mantiqiy xatti-harakat, inson tafakkurida sodir bo‘luvchi ziddiyat unga qanday qilib yashash uchun yo‘l ko‘rsatishi, har qanday sharoitda inson mushkul holatga tushib qolganida, aqlning ishga tushishi uchun pishib yetiluvchi vaziyat ishonarli dalillar bilan ko‘rsatilganki, ertak yechimida faqat hissiyot bilan yashab kelayotgan yigitning qanaday qilib to‘g‘ri yo‘lga tushib ketishi ibratli hayot manzarasi orqali tasdiqlangan.

Voqealar kulminatsiyasidan keyingi davomi yana ham ibratlidir: «Yigit osmonda it hurishiga ishongan» do‘stlari endi kallani it yedi, degan rost gapiga ishonmaganlari, ulardan rosa kaltak yeganidan alami keladi va otasi tirikligida vasiyat qilganidek, «Bunday yurganimdan ko‘ra o‘lganim yaxshiroq», — deya o‘zini tokchening bir chetidagi ustunga osadi. Shunda ustun o‘pirilib, tagidagi quti yerga tushadi otasi to‘ldirib ketgan oltin-kumushlar sochilib ketadi.

Do‘stlari uning turmushi yana farovonlasha boshlaganligini ko‘rishib, yigitnikiga yana kela boshlaydilar. U hammasini oldiga solib haydaydi va hunar o‘rganib, bola-chaqa qilib, murod-maqsadiga yetadi. Shunisi e’tiborliki, ertak finali:

«Qo‘lda moling borida begonalaridan yor ko‘p,

Davlatning ketsa agar dildor yo‘q, ozor ko‘p,

Degan ekan aqlli odamlar»⁹¹, mazmunidagi bayti bilan yakunlanadi.

Ushbu hayotiy-satirik ertak strukturasi moslashgan «yolg‘iz o‘g‘ilning otaga keltiruvchi tashvishi», «mol-dunyo evaziga orttirilgan do‘stlikning kasofati» va «donishmand otaning tadbirkorligi» kabi naql motivlari og‘zaki ijroda alohida variantlarda ham ijro etib kelinadi. Yolg‘iz bolali ayrim oilalar va turmushda ko‘plab uchraydigan yolg‘iz bola motividagi naqlar yoki shunga monand turmushda sodir bo‘luvchi voqea-hodisalar har qadamda uchrashi zarurati «Boyning o‘g‘li» singari hayotiy-satirik ertaklar yaratilishi uchun asos bo‘lgani ham ehtimoldan holi emas. Bunday ertaklardagi satirik obraz kontrastlilik xarakteri bilan naqlga xos mazmuni ifodalashga xizmat qiladi. Biz ko‘rib

⁹¹ Олтин олма. Хаётий эртақлар. 1-китоб, Ф.Фулум нашриёти, Т., 1966. 296- бет

chiqqan boyning o'g'li harakatlaridagi ana shu qarama-qarshilik ertak syujeti voqealarining yechimi xuddi naql funksiyasi kabi ibratli didaktik g'oya bilan yakunlashi uchun mantiqan shart-sharoit yaratib berganligi va tarixiy-folkloriy jarayonda naql janri semantik jihatdan ertak janri tarkibiga muvofiqlashib ketanligini ko'rsatadi.

Nomoddiy madaniyatning o'zlikni namoyon etishning og'zaki shakli ichki xususiyatlariga ko'ra an'analarga ega. Tarixiy-folkloriy jarayon odamlarning ijtimoiy hayot tarzi o'zgarishi bilan og'zaki ijod san'atida omma uchun yetakchi bo'lib kelayotgan ayrim folklor namunalari ifoda usuli, biror maqsad yoki g'oyani tinglovchiga yetkazish yo'llari rekonstruksiyalanib, avvalgi janriy shakli o'sha zamon va makon talablariga moslashadi. Masalan, xalq maqol va naqlarining o'zlariga nisbatan badiiy va g'oyaviy jihatdan ustun tinglovchilarga maqbul janr-ertakka muvofiqlashish hodisasi folklor namunalari tarixiy jarayonning talabi sifatida janrlar rekonstruksiyasi deyiladi. Qadimgi Yunon faylasufi Demokritning fikricha, inson uchun birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Folklor janrlari orasidagi o'zaro munosabatlarga ana shu nuqtai nazardan qaralsa, og'zaki ijod an'anasiga muvofiq epik turga oid janrlarning aksariyati yaxshilik bilan yomonlik, mehnatsevarlik bilan dangasalik, kamtarlik bilan manmanlik umuman olganda, foyda va zarar singari narsa-tushunchalarni farqlashga o'rgatuvchi g'oyalar xayoliy va hayotiy uydirmalar, timsollar orqali ota-bobolarimizning yashash uchun kurash ehtiyoji asosida maydonga kelgan tajribalarini poetik ravishda ilgari suriladi.

Xalq og'zaki ijodi an'analari, undagi barcha janrlari uchun umumiy qonniyat – aql-idrokning inson vujudini boshqarishga qaratilgan. Inson sezgilarining majmui hisoblangan fikrlash nomoddiy madaniyat merosini yaratgan va turli ko'rinish hamda harakatlar shaklida namoyon etgan. Yuqorida tahlil etilgan folklor janrlari insonlarga ezgulik bilan yovuzlik mohiyatini sodda til qurilishi, oddiy syujet voqealari va ibratli ifoda uslubidagi madaniy yodgorliklar qay tarzda yaratilganligini bilishga yordam beradi.

Folklor-barcha san'at turlarining asosiy manbai. U ma'naviy estetik vosita sifatida o'zining vazifasini hech qachon yo'qotgan emas.

Ayniqsa, xalq og'zaki poetik ijodi asosida shakllangan badiiy adabiyot san'ati folklor an'analaridan hanuzgacha bahramand bo'lib kelmoqda. Chunki har qanday so'z san'atlari o'zi mansub bo'lgan xalqning folklor merosidan oziq olib voyaga yetganligini, omma orasida og'izdan og'izga o'tib kelayotgan iboralar, qayroqi so'zlar, iborali maqol va boshqa namunalardan ruh olganligini hisobga olsa, bu bebaho qadriyatni doimo e'zozlash, o'rganish va kelajak avlodlarga qoldirish muhimligi ayon bo'ladi.

San'at va madaniyat, filologiya, tarix, pedagogika va boshqa ijtimoiy-gumanitar sohada bilim oluvchi talabalarga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining go'zal namunalarini o'rgatish, ulardagi o'tmish avlod orzu qilgan ideallarni tanishtirish, etnomadaniyat bilan bog'liq jihatlarini aniqlash va eng asosiy, oddiy mehnatkash omma niyat qilgan axloq-odob normalarini zamonga mos davom ettirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ilmiy-nazariy ishlardan hisoblanadi.

O'zbek xalq milliy madaniyat merosining salmoqli qismi-xalq ertaklari, ularning boshqa janrlar bilan o'zaro aloqa va munosabatlari talabalarga o'rgatish kerak bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Talabalar o'zbek xalq ertaklari, uning o'ziga xos janr tabiatini aniqlashda bu janrning o'zga janrlar bilan g'oyaviy-badiiy bog'lanishi, ertaklar o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy meros ekanligini ilmiy-nazariy angelaydilar.

Xalq ertaklari mif, afsona, rivoyat va hakl janrlari bilan munosabatda rivojlanib bizga qadar yetib kelgan.

Ertak janrining tarkibida transformatsiyalangan mif, afsona, rivoyat va naql janrlar o'zlariga xos funksiyalarni qisman bajarishlari bilan birga ertakning badiiyati yanada yuksalishi, g'oyaviy mazmuni pishiq bo'lishga yordam beradi.

XALQ IJODIYOTI VA SAN'AT

Insoniyat tafakkur faoliyatining ilk rivoji SO'Z vositasida shakllangan. Shuning uchun ham, diniy va dunyoviy ilmlarda so'z muqaddas hisoblanadi. Kishilik madaniyati tarixi haqida olib borilgan aksariyat tadqiqotlarda til bosh omil sifatida baholangan.

So‘z, til tufayli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy birlik shakllangan. YA’ni ko‘pgina xalqlar va etnik guruhlar nomlanishiga til asos bo‘lib xizmat qilgan.

So‘z faqat muloqat vositasi bo‘lmay, odamlarning jamoa bo‘lib hayot kechirish jarayonida muhim madaniy-ma’rifiy hodisa rolini o‘ynagan. Jamoaviy hayotning dastlabki shakli oila hisoblanadi. Undan so‘ng urug‘, qabila, elat mukammal etnik tizimiga ega xalq tarkib topgan.

So‘z, til insoniyatning barcha tarixiy bosqichlari uchun muhim taraqqiyot qurolidir. Oila esa ijtimoiy-iqtisodiy birlikni belgilovchi urug‘, qabila va xalqlar etnik hayot tarzining birinchi ko‘rinishidir.

Demak, odamzod tomonidan yashash va hayot kechirish uchun xizmat kiluvchi birinchi kashf etilgan moddiy asbob-anjom ashyolari, mehnat qurollari va odamlar o‘zaro muloqatlari, o‘zlarini o‘rab turgan tabiat, koinotdan olgan hayratlanish natijasida olgan taassurotlari, sodda fantaziyasi va boshqa jihatlar turmush madaniyatining ilk ko‘rinishlari hisoblanadi.

Ular turli ko‘rinish va vazifalarga ega bo‘lib, odamlar jamoa sifatida yashay boshlagach, yashash uchun kurash ehtiyoji natijasida qo‘l bilan yasalgan ilk moddiy predmet va asbob-anjomlar asta-sekin takomillasha borib, davrlar o‘tishi bilan ko‘pchilikni qiziqtiruvchi, zavqlantiruvchi va hayratlantiruvchi predmetlar paydo bo‘la boshlagan, ya’ni ilk san’at asarlari namunalarini maydonga kelib, moddiy va nomoddiy madaniyatning shakllari paydo bo‘la boshlagan edi.

Qadimshunos olimlar tomonidan qayd etilgan birinchi san’at ashyolari uy-joy – makon bilan bog‘liq namunalar hisoblanadi. Zero, inson yashaydigan makon, ya’ni manzil qancha - qancha tarixiy davrlar o‘tishiga qaramay, hamon o‘zining asl mohiyatini saqlab kelmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joyizki, yuqorida ta’kidlangan oila munosabati asta-sekin rivojlana borib, ona- zamin, kindik qoni to‘kilgan muqaddas joy ma’nosida muqaddas ijtimoiy tushunchaga aylandi va bu an’ana - ya’ni odat insoniyat har tomonlama taraqqiy etgan 21-asrga qadar yetib kelib, turli-tuman etnoslar tarixiy joylarini ideallashtirib, uning yanada taraqqiyot etishini ta’minlash uchun kurashmoqdalar.

Mazkur an’ana ming yillar mobaynida takomillasha borib, odamlarning tafakkur taraqqiyotida global darajaga ko‘tarildi. Bugungi yer yuzi aholisi turli irq, millatlar va elatlarga bo‘linib, ona-yurt, Vatan, mamlakat va davlat singari ijtimoiy tushunchalar yuzaga kelishi uchun zamin yaratgan edi.

Muhtaram Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev 2019 yil, 5 aprel kuni baxshilar yurti Termizda “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivalining ochilishiga bag‘ishlangan yig‘ilishda: “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma’lum. Turli

xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifodalaydigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir"-deganlarida xalq ijodiyoti donishmandligiga yuksak bahobergan edilar.

Demak, yer yuzidagi barcha millat, elat va xalqlarga xos turli an'ana va urf-odatlar, etnomadaniyat qadriyatlarini ularning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vosita bo'lganligi, ular hanuzgacha o'z qadrini yo'qotmay kelayotganligi nazarda tutilsa, boshqa etnoslar qatori insoniyatning umumiy taraqqiyot qonuniyatiga muvofiq holat o'zbek xalqi san'at va madaniyati evolyusiyasida jarayoniga ham bevosita taalluqlidir.

O'zbek xalqining o'ziga xos milliy ijodiyoti -og'zaki badiiy so'z san'ati va etnik turmush madaniyati Jahon etnologiyasi, madaniyatshunosligi, folklorshunosligi va san'atshunosligi fanlari nuqtai nazaridan nisbatan keyinroq o'rganila boshlandi.

Ayniqsa, 20-asrning 60-yillarida Yevropa va jahon madaniyatshunos, etnograf va folklorshunoslik tadqiqotlari yurtimizga kirib kela boshlagach, Hodi Zarifov, Buyuk Karimiy, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, M.Murodov, G'.Jalolov, B.Sarimsoqov, K.Imomov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, SH.Turdimov, Omonulla Madayev, S.Yo'ldosheva, M.Qo'shmoqov va boshqa o'nlab o'zbek folklori so'z san'ati ilmiy-nazariy tadqiqotchilari, shuningdek, I.Jabborov, V.Livshits, S.Klyashtorniy, B.G'ofurov, V.Masson, K.Shoniyozov, A.Asqarov, T.Qilichev, B.Aminov kabi o'zbek etnograf tadqiqotchilarining ilmiy-nazariy ishlari maydonga keldi.

Qariyb, bir asr mobaynida o'zbek xalq ijodiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommaviy tadqiqotlar va zaxmatkash olimlarimiz tomonidan qishloqma-qishloq, ovulma-ovul, tog'ma-tog', cho'lu sahrolar kezib to'plangan materiallar, shuningdek, 21-asr boshlari ilm-fan texnologiyalari hamda sohaga tegishli bo'lgan axborotlar bazasi aks etgan zamonaviy elektron texnologiyalari vositasi orqali olingan materiallar ta'siri asosida xalq ijodiyoti va zamonaviy san'at munosabatlariga doir ayrim mulohazalarni bayon etishga maqsad qildik.

21-asr boshlariga kelib, O'zbekiston madaniy hayotida xalq ijodiga qiziqish yanada kuchayganligi ko'zga tashlanadi. Buni kundan-kun yangilanib, yuksalib borayotgan davlatimiz Rahbarining asrlar osha bizga qadar yetib kelgan ona-xalqimiz ijodiyotiga nisbatan ko'rsatayotgan e'tibori va g'amxo'rliklari hamda davr nafasini o'z vaqtida his etayotgan fidoiy insonlar faoliyatlaridan bilish mumkin.

Xalq ijodiyotining bitmas-tuganmas xazinasidan badiiy adabiyot so'z san'ati, tomoshaviy san'atning turli janrlari, shuningdek, barcha turdagi ommaviy axborot vositalarida uning badiiyligi ya'ni so'z qudratidan iloji boricha fikr ta'sirchanligi,

tinglovchi qalbiga tez va chuqur kirib borishi, ko‘pchilik uchun ibratli bo‘ladigan fikr-g‘oyalarni ifodalashlarida namoyon bo‘ladi.

Chunonchi, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar faoliyatlarida epik folklor janrlari (afsona va rivoyatlar,ertak va dostonlar) hamda xalq maqollari, iboralari, olqish-qarg‘ish, aytimlari singari paremiologik janrlarlardan bahramand bo‘lish hollari so‘nggi davrlar o‘zbek adabiyotida kuchayganligini M.Yusuf, A.Obidjon, M.Toyir, A.Suyun, F.Afro‘z va boshqa ijodkorlar asarlarida kuzatish mumkin.

Ayniqsa, zamonaviy kino san’ati, animatsion filmlar ssenariyalarida o‘zbek xalq maqollari, iboralari, afsonalari, rivoyatlari, ertak va dostonlaridan foydalanish, qahramonlari nutqida ulardan o‘rnida qo‘llash faktlari fikrimiz dalilidir.

Bulardan tashqari, san’atning musiqa,qo‘shiq va estrada yo‘nalishida shakllangan tomoshalarida xalqning o‘yin folklori, bolalar folklori raqslari, xalq marosim folklori,ayniksa,baxshilar terma va doston kuylaridan,baxshilar ijro usuli hamda ohanglaridan bevosita foydalanilayotganligini zamonaviy bolalar guruhlaridan tortib, “Yalla”, “Boysun”, “Lazgi” singari taniqli jamoalar repertuarlari orqali ko‘rish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joyiz, “Yalla” ansambli folklor qo‘shiqlari orqali dunyoga tanilgan. Uning nomlanishi ham xalq yalla va lapar qo‘shiqlari nomiga monand. Bundan tashqari, yaqin va olis xorij safarlariga chiqadigan har qanday ashula va raqs guruhlari yoki taniqli san’atkorlar albatta folklor namunalari raqslari bilan o‘z repertuarlarini boyitishadi.

Svilizatsiya nisbatan yuksalgan Yevropa san’atsevarlarini zamonaviy estrada musiqa va qo‘shiqlari allaqachonlar joniga tekkanligi san’atshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Buni kundalik gazeta va teleradio intervyularida qo‘shiqchi yoki musiqachilarimiz tomonidan aytilayotgan fikrlaridan ham bilsa bo‘ladi.

Darhaqiqat, o‘tgan asrning 80-yillari Toshkent davlat madaniyat institutining prof. M.Murodov rahbarligida yurtimizning hali zamonaviy estrada qo‘shiqchiligi kamroq yetib borgan hududlari qishloq - ovullarida o‘tkazib kelgan folklor-etnografik o‘quv-amaliyotlari payti yozib olingan va magnitofon tasmasiga tushirilgan xalq qo‘shiqlari, aytimlari, raqs va laparlari o‘sha davr yosh estrada ijrochilari tomonidan transformatsiya qilinganligi, xalq ijodiyotiga nisbatan qiziqishning kuchaya borganligini tasdiqlaydi.

Misol tariqasida Xorazmning Xeva, Shovot tumanlari va ularning atrofidagi qishloqlarda o‘tkazilgan folklor –etnografik ekspeditsiya payti Bola baxshi, Norbek baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov va yoshi ulug‘ otaxon-onaxonlardan yozib olingan to‘y, mehnat va marosim qo‘shiqlari, o‘sha region aholisiga xos har xil aytilar, afsona va rivoyatlar orqali asoslash mumkin.

Chunonchi, “Chipra Dalli” qo‘shig‘i zamonaviy estrada ijro usuliga mosligi, raqs va qo‘shiqning estrada ritmiga to‘g‘ri kelishi o‘sha yillar chika boshlagan Baxtiyor Sultonov ismli estrada guruhi a‘zosi tomonidan sayqallashtirilib, O‘zbekiston televideniyesi ekrani orqali namoyish etildi.

Shundan sal o‘tmay, xorazmlik yosh estrada ijrochilari mazkur folklor namunasini maxsus ssenariya asosida sahnalashtirib, san’atsevarlarga namoyish etgan edilar. “Chipra Dalli” qo‘shig‘i o‘zining qadimgi yumorga boy va satirik mohiyatini o‘zgartirib, zamonaviy yoshlarning sevimli asariga aylandi.

Xalq ijodidan davrga moslab foydalanishning yorqin namunasini ushbu qo‘shiq hamda keyinchalik Janubiy O‘zbekiston xalq baxshilari terma va dostonlari ta’sirida shakllangan “Boysun”, “Chiroqchi chiroqlari”, “Momogul” singari nomlari xalqqa tanilgan jamoalari ijrolari namunalarini ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Birgina “Chipra Dalli” xalq qo‘shig‘i ta’sirida sahnalashtirigan estrada qo‘shig‘i kadimgi paytlarda ommaviy tomoshalar, to‘ylar va yosh-yalanglar to‘planadigan sayillarda an’ana xalq udumlarini yaxshi biladigan o‘spirinlar tomonidan ijro qilib kelinganligini baxshidan bilib olgan edik.

Xeva tumanining Ogohiy jamoa xo‘jaligi madaniyat uyida tashkil etilgan «Doston» folklor-etnografik ansambli badiiy rahbari Norbek baxshi Abdullayev otasi – Bola baxshi hamda Xiva tumani atrofidagi qishloqlar aholisidan bunday nomoddiy madaniyat merosi namunalarini yozib olib, ansambl repertuariga moslashtirib, har yakshanba kunlari va bayram-sayillarda namoyish etganligi guvohi bo‘lganmiz.

“Chipra Dalli” qo‘shig‘i azaldan bir o‘spirin raqqos tomonidan qo‘shiq ohangiga mos kuylab kelingan. O‘sha ekspeditsiya paytida “Chipra Dalli” qo‘shig‘idan tashqari, «Qum pishigi»(yumronqoziq) voqeband raqsi ham ko‘rsatilgandi.

Xalq masxarabozligi va yumorga boy raqsni ijrochi bola burni bilan pastki labiga kichkina cho‘p ayrichani o‘rnatib, xuddi yumronqoziq harakatlariga monand ravishda olingan yemaklarini ini tomonga olib borishi uni boshqa jonivorlar ko‘rib qolmasligi uchun turli qiliqlar namoyish etgan edi.

Qum mushugi shevada “pishik” –yumronqoziq dehqonlarning ekinlariga zarar yetkazishini raqs ijrochisi bu timsolda turli zararkundaga xos harakatlari bilan raqs tushib, tomoshabinlarga zavq bag‘ishlagan edi.

Keltirilgan faktlardan ma’lum bo‘ladiki, kadimgi ajdodlar erta-yu kech faqat mehnat qilishib, yegulik dardida yashagan emaslar. Ular Yaratgan tomonidan in’om etilgan fikrlash, fantaziyalash va odam bolasiga berilgan ma’nan dam olish, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish singari insonga xos jihatlar taomili borasida sodda bo‘lsa ham o‘ziga xos san’atini kashf qilishgan.

2019 yilning dekabr oyi o‘rtalarida Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Xorazm folklori san’atining merosi - «Lazgi» nomoddiy madaniyat sifatida tan olinishi ushbu meros o‘zining qadimiyligi va chuqur tarixiy ildizga ega mifologik raqs ekanligini tasdiqlaydi.

Xalq ijodiyoti merosi bugungi kundagi tomosha san’atining barcha tur va janrlari uchun bebaho manba’ hisoblanadi. Tomosha qilish bilan bog‘liq san’at faqat qadimgi Rim-Yunon, Mesopatamiya kabi tarixiyarxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan, antik davr dramalari namoyish etilgan teatr spektakllarisahnalashtirilgan manejarlar, hamda yirik sport musobaqalario‘tkazish uchun mo‘ljallangan o‘yingohlari saqlanib qolgan shaharlar etnoslargagina xos emas.

Binobarin, o‘zbekxalq ijodiyoti milliy merosida «Xalq teatri» va «Og‘zaki drama» kabi tomosha san’ati an’anasi saqlanib qolgan va ulardan ayrimlari hozirgacha mavjud. Mazkur milliy tomosha san’ati xuddi xalq baxshichiligi singari o‘zining qadimiy shaklini o‘zgartirib, ommaviy badiiy tadbirlar, to‘y-tomoshalarda askiyachilik, qiziqchilik, miniatyura teatri kabi shakllarda davom etmoqda. Xalq ommasi tomoshasiga mo‘ljallangan bu nomoddiy madaniy san’at tomoshabinlar yoki tinglovchilarni jalb etish uchun jonli so‘zlashuvning poetik so‘z boyligi hamda o‘ziga xos ovoz jozibasi usullari, harakat-ritmlaridan mohirona foydalanishgan.

Bunday ijrochilik esa odamlarga zavq bag‘ishlab, ma’naviy-ma’rifiy g‘oya ulashgan va ularda hayotga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otgan. Demak, qadimgi davrlarda an’anaviy tomoshalar ko‘pincha odamlar mehnatlaridan keyin bo‘sh vaqtlarini madaniy-ma’naviy hordiq chiqarishlari uchun xizmat qilgan. Xalq aktyorlarining jonli ijrodagi mahorati tomoshabinlarga muayyan estetik zavq bergan.

An’anaviy xalq teatri og‘zaki dramaturgiyasining 21-asrga qadar yetib kelgan eng yorqin namunasi bu «Askiya» va «Qiziqchilik» («Masxrabozlik») san’atlaridir. Mazkur xalq ijodiyoti merosi 20-asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan Yevropacha teatr san’atining yurtimizda urf bo‘lishi uchun o‘ziga xos manba rolini o‘ynagan.

Xususan, Behbudiy, Hamza, Mannon Uyg‘ur kabi dastlabki teatr san’ati arboblari ijodiga ta’sir qilib, o‘zbek professional teatr san’atining yurtimizda shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan edi. «Padarkush», «Maysaraning ishi», «Tuhmatchilar jazosi» va boshqa dramalar 19-asr oxirlari va 20-asr boshlari xalqimiz mehriiga sazovor bo‘lganligini maqsadga muvofiqdir. Hozirgi faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek teatr san’ati tamal toshini va xalq ijodiyotidan bahramand bo‘lish uslubini ana shu ma’rifatparvar ijodkorlardan olganligini hech kim inkor eta olmaydi.

Hozirgi o‘zbek teatr sahnasidan hamon tushmay kelayotgan «Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Oltin devor», «Toshbolta oshiq», «Chimildiq» singari spektakllar tomoshabinlarga zavq berishidan tashqari, xalqimiz etnomadaniyati an’analarini yosh avlodlarga namoyish

etishi, o'zbek oilalaridagi ota-ona, aka-uka, tog'a-jiyan, qarindosh-urug'chilik va qo'ni-qo'shnichilik kabi ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy ahamiyatini ko'rsatishda hammuhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Chunki, qayd etilgan spektakllardan tashqari, etnomadaniy va folklorizm bilan boyitilgan boshqaana shu tipdagi sahna asarlari hech qachon tomoshabinlarini yo'qotmaydilar.

Xalq ijodiyoti badiiy an'analari bilan sug'orilgan tomosha san'ati milliy o'ziga xosligimizni saqlab qolishda Muhtaram Yurtboshimizning zamonaviy san'at asarlari yaratayotgan dramaturglar, rejissyorlar va madaniyat sohasida xizmat qiluvchi barcha mutaxassislar ish uslublarini yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida qanday o'zgartirish bo'yicha bayon etgan fikrlari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz ta'kidlagan bunday ruhdagi spektakl tomoshalarini ijod etishlari, asarga xalqona ruh berishlarida ssenariya mualliflari, rejissyorlariva aktyorlarimiz, avvalo o'zlari xalq ijodiyotini yaxshi bilishlari, chuqur his etishlari, uning asl mohiyatini anglagan bo'lishlari talab qilinadi.

Spektakl tomoshabop bo'lishi uchun munosib ko'rinishlardagi qahramon va obrazlar (aktyorlar, ommaviy sahna aktyorlari) tanlashi, ularga milliylik ruhini berishlarida faqat grimm va liboslarga e'tiborni qaratishlaridan tashqari, jonli ijro jarayoni yanada tabiiy, etnik turmushimizga xos nutq, mimika-jest, hatti-harakatlar va, eng asosiysi, xalq og'zaki ijodining odamlar kundalik turmush tarzida ko'p qo'llaniladigan xalq maqollari, iboralari, yumorga yo'g'rilgan so'zlaridan foydalanishga erishmoqlari zarur.

Teatr, kino va maydon tomoshalari san'atlarida so'z, undan o'z o'rnida foydalanish, nutq mahorati muhim ahamiyatga ega. Buni Rixsivoy Muhammedjonov tomonidan ekranga chikarilgan «Chinor ostidagi duel», «Suyunchi» tipidagi badiiy filmlar misolida ko'rsatish mumkin. «Mahallada duv-duv gap», «Maftuningman», «Yor-yor», «Abdullajon» kabi filmlar qahramonlari tomonidan aytilgan so'z va iboralar, nutq-dialog hamon tomoshabin xotirasida muhrlanib qolganligidan ham bilsa ham bo'ladi.

Demak, xalq og'zaki badiiy ijodi so'z san'ati teatr, kino va maydon tomoshalarining milliy ruhi, ma'naviy-g'oyaviy barkamol va har tomonlama muvaffaqiyatli chiqishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan ekan.

Tomoshaga asoslangan san'at turlari xalq ijodiyotining faqat nomoddiy merosidan foydalanmay, o'z o'rnida moddiy shakllaridan ham foydalanadi. Buni milliy madaniyat an'analari uslubida sahnalashtirilgan spektakl, badiiy film va maydon tomoshalari bezaklari, ishtirok etuvchi obrazlari kostyum-liboslari orqali kuzatish mumkin.

Chunonchi, sahnaga qo'yilgan etnomadaniyatga oid turmushda ko'p ishlatiladigan turli idish-anjomlar, dehqonchilik, hunarmandchilik, bog'dorchilik va boshqa ish qurollari - kundalik hayot tarzida yaqqol ko'zga tashlanib turishida ko'rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish maqsadga muvofiq, ya'ni 21-asr tomosha san'atlari rejissyorlari, ssenariyachilari xalq ijodiyoti merosi tarixi, ularning kelib chiqishiga bilan bog'liq an'analarning ilmiy nazariyasi va amaliyoti bo'yicha muayyan bilim-ko'nikmalarlarini yaxshi bilishlari lozim.

O'zbekistonda Davlatimiz Mustaqilligi qo'lga kiritilgan birinchi yillari maydon tomoshalari san'atiga asosiy e'tibor qaratilib, u zudlik bilan rivojlantirildi Buning boisi, O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga tezroq tanitish, yurtimizga xorijlik investorlarni jalb etish, va eng asosiysi, uzoq yillar sovet mafkurasi g'oyalari bilan yashab kelgan xalqimizga Istiqlolning mohiyatini ommaviy tomoshalar vositasida ko'rsatish, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini maydon tomosha san'ati obrazlari, kichik sahna epizodlari harakat va ehtirosli deklomatsiyalari, qo'shiqlari, folklor-etnografik jamoalar dasturlaridan o'rin olgan tarixiy qo'shiqlari va turli udum, marosimlari ko'rinishlari g'oyalarini singdirish, ayniqsa, Mustaqillik mafkurasi immunitetini shakllantirish singari dolzarb vazifalardan iborat edi.

Davlatimiz rahbari, o'sha davr maydon tomoshalari tashkilotchilari, ssenariya hamda rejissurasi bilan shug'ullangan mas'ullar iloji boricha, tomoshalar tabiiyligi va ta'sirchanligini oshirishlarida nomoddiy madaniy merosning folklor an'alariga asosiy urg'uni berishdi. Buni hozirgi «Xalqlar do'stligi» saroyi maydonida ilk o'tkazilgan «Navro'z» xalq bayram-sayilidagi "Ipak yo'li"ni ko'rsatishda qo'shni Qozog'iston davlatidan maxsus olib kelingan tuyalar va ularga o'sha qadimgi davrlar ruhini aks ettiruvchi savdogaru sarbonlarni Toshkentning teatr artistlarini maxsus kiyimlar, turli ashyolar bilan bezantirgan holda mindirishib namoyish etilganligi sahna namoyishlaridan bilish mumkin.

Binobarin, dastlabki «Navro'z», «O'zbekiston Mustaqilligi» xalq bayramlari keng miqyosda namoyish qilinishi faqat mamlakatimiz ommaviy axborot vositalaridan tashqari, yaqin va olis xorij tomoshabinlariga yo'ldosh vositasi orqali ko'rsatilgan edi. O'sha maydon tomoshalari milliy an'alarimizning qay darajada muhim ahamiyat kasb etganligi va ular dunyo xalqlari tomoshabinlarida ham juda katta taassurot uyg'otganligini o'sha davr o'zimizning ommaviy axborot vositalaridan tashqari, jahon axborotida ham keng miqyosda yoritilganligidan ham bilsa bo'ladi.

2017 yilga kelib, "Navro'z" xalq bayrami maxsus maneji yoki usti yopiq binolarda o'tkazish an'anasidan davr talabiga ko'ra, ko'prok tabiat qo'yni yoki atrofi ochiq joylarda tashkil etish an'anasiga o'tildi. Bu bayram o'z nomi bilan haqiqiy xalq sayliga aylantirildi. Endilikda, maydon tomosha-sayillar odamlar ko'p to'planadigan istirohat bog'lari yoki katta guzarlarda uyushtirila boshlandi. Bayramda ilgaridagidek faqat maxsus taklifnomalar orqali tashrif buyuradigan tomoshabinlar o'rniga butun boshliq mehnat jamoalari, barcha oila a'zolari, o'quvchilar, talabalar, keksa otaxonu onaxonlar, umuman, barcha katta-yu kichik ishtirokchilar qatnashib, xohlaganlaridek sayl-

qilishib, tashkilotchi-rejissyorlar tomonidan sahnalashtirilgan turli-tuman sahna tomoshalari, konsertlar va har xil ko'ngil ochar o'yin- musobaqalarda qatnashadilar, o'zlari ham ijrochi-ishtirokchilar sifatida bayramni an'anaga mos holda nishonlaydilar.

Poytaxt va viloyat markazlaridagi keng miqyosda uyushtiriladigan bayram-sayllarda asosiy bayram sahnasi tashkil etish udumga aylandi. Unda «Navro'z» bayram-saylining yetakchi g'oyasini tashviq etuvchi ibratli ma'ruza va suhbatlar bayon etilib, tadbirga kelganlar tadbir ruhiga mos tabriklanadi. Qo'lga kiritilgan kiritilgan yutuqlar va g'alabalar, bajarilgan ishlarga umumiy xulosa berilib, yangi yilda rejalashtirilgan maqsadlar haqida gapiriladi. Bayram tabrik va qutlovlar xalqona so'zlar orqali bayon etilib, rasmiylikdan iloji boricha cheklanadi.

San'atning barcha tur va janrlari xalq ijodiyotidan maksadli ravishda ijodiy foydalanish zarur. Chunki zamonaviy elektron vositalari, ayniqsa, internet orqali berilayotgan o'zga mamlakatlarning bayram va ommaviy – badiiy tadbirlari yosh avlod ongiga u yoki bu darajada ta'sir etishi tabiiy. Mana shu muammolarning ijobiy hal etilishida soaha mutaxassislari xalqimiz milliy ijodiyoti bo'yicha ilmiy-nazariy va ixtisosligi bo'yicha tajribalarga ega bo'lishlari kerak.

Binobarin, tomoshaviylikni yanada kuchaytiraman deb, Fransiya yoki Braziliyadagi karnaval raqslari ijro uslubi va grimm-liboslaridan ijodiy «bahramand» bo'lmaslik kerak. Binobarin, bayram-sayillardagi xalq raqslari ijro uslubi shu darajada rang-barangki, ulardan tadbir maksadini amalga oshirishda bemalol foydalanish imkoni bor. Bunga xar ikki yilda bevosita folklor-etnografik anjuman o'tkazib kelinayotgan «Boysun bahori» yoki «Qo'qon kasb-hunarmandchiligi festivali» va boshqa ommaviy-badiiy tadbirlar bevosita misol bo'la oladi.

Xalq jodiyoti bilan bog'liq tashkil etiladigan har qanday ommaviy-badiiy tadbir xalq orasidan chiqqan va xalq an'ana – udumlarni yaxshi biladigan, so'zga chechan odamlarga ishonib o'tkazilmaydi, balki ularning maqsadini nomoddiy madaniy merosning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini biladigan va bayramshunoslik hamda rejissura ilmi sirlaridan boxabar mutaxassislardan tomonidan tashkillashtiriladi. Buning yaqqol dalili sifatida so'nggi yillar Boysun, Kitob, Xiva, Sarmishsoy va Qo'qonda muvaffaqiyatli ravishda o'tkazilgan moddiy va nomoddiy xalq madaniyatiga bag'ishlangan bayram-festivallari misol bo'la oladi.

Ommaviy tomosha san'atining bevosita xalq marosim va udumlari bilan tadbirlar maxsus professional tayyorgarlikka ega bo'lmagan oila yoki maxallada hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksa kayvoniy onaxon va oqsoqollar tomonidan uyushtirilishi an'anaviy holat hisoblanadi.

Masalan, to'y, ma'raka yoki biror oilaviy, mavsumiy, diniy marosimlar shu mahalla, ko'cha, guzarda ko'pchilik tomonidan e'tirof-hurmatga sazovor otaxon-

onaxonlarga maslahat solingan tarzda o‘tkazib kelinishi o‘zbek etnomadaniyatiga xos lokal xususiyatdir.

Odamlar tomonidan asrlar bo‘yi e‘zozlab kelinayotgan bunday ijtimoiy-ma‘naviy, axloqiy-madaniy ahamiyatga molik an‘analarning otadan farzandga, onadan qiziga va ustozdan shogirdga o‘tishi, quvvai hofiza orqali o‘zlashtiriladi.

Mazkur holatni xalq og‘zaki badiiy ijodidagi ertakchilik, askiyachilik, baxshichilik va xalfachilik an‘analari tizimiga ham qiyoslasa bo‘ladi. Zamonaviy professional madaniyatshunoslik va san‘atshunoslik ommaviy-badiiy tomoshalarning milliyligi, mafkuraviyligi va badiiyligini ta‘minlashlarida davom etib kelayotgan xalq rejissurasi an‘analaridan meyori bilan ijodiy foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki sahna vositasida tomoshaga mo‘ljallangan san‘at asarlari uchun tomoshabin bilan ijrochilar muloqati muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ijodiyoti merosining moddiy va nomoddiy turi davrlar o‘tishi va ijtimoiy-madaniy hayot tarzi evolyusiyasiga muvofiq zamonaviy san‘at asarlari tarkibiga transformatsiyalashadi. Buni san‘atning badiiy adabiyot, teatr va maydon tomoshalari turlarida ko‘proq kuzatish mumkin.

Ayniqsa, badiiy so‘z san‘atining bolalar adabiyoti, teatr san‘atining etnografik mavzuidagi dramalari va xalq milliy marosimlari, urf-odatlar yetakchi planda namoyish etiladigan ommaviy maydon tomoshalari kabilarda ijodkorlar ibratli g‘oyalarni qiziqarli namoyish etishlarida foydalaganliklarida namyon bo‘ladi.

Xalq ijodiga xos voqelik va ibratli sahnani transformatsiyalashda 21-asr informatsiyalar ummonida hayot kechirayotgan virtual kitobxon, tomoshabin yoki maydon tomoshalari ishtirokchilarining psixologik – ruhiy holatlari, ularning his-tuyg‘ulariga xos nozik jihatlari hisobga olingan uslubda ish tutishlari kerak. Chunki insonning tabiatida ko‘proq informatsiya olish, iloji boricha vaqtni tejash singari ruhiy holatlar mavjud. Bu 21-asrga kelib, kitob mutolaasi va kitobxonlikka zarar yetkazdi.

Shuning uchun kadimgi avlodlar ko‘z orqali ko‘rish, quloq vositasi bilan tinglash, o‘qish orqali uqish - bilim-axborotlar olish muvozanati buzilmasligi uchun bolalar o‘rtasida ko‘prok she‘r yodlash, ko‘proq maqol aytish singari tadbirlar o‘tkazishgan.

Bu xildagi xalq pedagogikasi ta‘lim-tarbiya tadbirlari O‘zbekistonning turli viloyatlari aholisi etnik turmush tarzi an‘analariga mos uyushtirilgan. Masalan, qadimdan o‘troq yashash tarziga xos aholi o‘rtasida qissaxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik kabi tadbirlar uyushtirilgan bo‘lsa, janubiy hududlar aholisi o‘rtasida baxshichilik, ertakchilik singari inson ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasiga yordam beradigan yig‘inlar o‘tkazilgan.

Xalq ijodiyoti tushunchasi mohiyatan juda keng va ko'p qirralidir. San'atning hozirgi zamon odamlari uchun eng yaqini bo'lgan kuy, qo'shiq va raqs turlari kitob o'qish, mutolaa bilan shug'ullanish va, eng asosiysi, fikrlash kabi mashg'ulotlardan ilgarilab bormoqda. Inson tabiatidagi nafs ko'proq mehnat qilish, zaxmat chekish hisobiga aql-idrokni rivojlantirishdan ko'ra ko'proq yengil-yelpi harakatlarga moyilligi azaldan tanqid qilib kelingan. Shuning uchun zamonaviy tomosha san'ati iloji boricha xalq milliy madaniyatidagi tomoshabinga hayot kechirish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan xalqona axborotlarni berishga intilishlari yaxshi natija beradi. Masalan, bolalar va yoshlar teatr spektakllari ularning virtual hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ozgina bo'lsa ham o'zi uchun kerakli narsa-hodisa ustida fikrlash va tiriklikdan maqsad nima ekanligi haqida o'ylash ko'nikmasini shakllantiradi. Bu borada, folklor motividagi tomoshalar nazarda tutiladi.

Qadimgi ota-bobolarimiz kelajak avlodlari akl-idrok tarbiyasi, tafakkur takomili borasida ham xalq donishmandligi tadbirlarini yaratishgan. O'sha tadbirlar faqat so'z san'ati merosida emas, balki turli marosim, udum, marosimlari va mehnat jarayonlarida qo'llaniladigan raqslar, voqeband harakatlar, o'yinlar, so'z o'yinlari (topishmoq, sanama, tez aytish) kabi vositalarda namoyon bo'ladi.

Xalq ijodiyotiga xos bo'lgan moddiy, nomoddiy barcha madaniy meros namunalari odamzodning aql-idrok takomili va ma'naviy estetik, ma'naviy – axloqiy ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Masalan, ulkan imoratu jajjigina bezak buyumlari, ommaviy ahamiyat kasb etuvchi katta ashula-yu, bolalar folkloriga xos o'yin qo'shiqlari mazmun mohiyatiga nazar tashlansa, ularning amaliy jihati namoyon bo'ladi.

21-asr tomoshabinlari tomonidan zamonaviy musiqa asboblari ohanglari yordamida sevib o'ynaladigan «Lazgi» raqsi mutaxassis olimlar e'tiroficha, yurtimiz aholisi ming yillar muqaddam otashparastlik diniga topingan davrlar shakllangan bo'lsa-da, mazkur raqs hamon insonning hayot go'zalliklariga nisbatan real munosabatlarini aks ettiruvchi nomoddiy madaniyat namunasi sifatida ahamiyatini yo'qotmay kelayotir.

Moddiy va nomoddiy xalq ijodiyoti faqat san'at namunalari sifatida muayyan etnosning turmush tarzi, ma'naviy – falsafiy qarashlarini u yoki bu darajada aks ettirib qolmay, o'z navbatida, qadimgi ajdodlarimiz diniy e'tiqodlari va dunyokarashlari haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Bu esa o'sib kelayotgan avlodlarga ota-bobolari tarixi, ularning kelajak uchun naqadar bebaho meros qoldirganliklarini tasdiqlaydi. Mazkur meros avlodlar davomiyligini saqlab qolishlarida ibratli ko'zgu va tarbiya rolini o'ynaydi.

Xalq ijodiyotining san'at turlari bilan juda yaqin munosabatini badiiy adabiyotning bolalar uchun ijod qilingan asarlari misolida ko'rsatish maksadga muvofikdir. Badiiy

so‘z san‘atining ushbu turi xalq og‘zaki ijodidagi maqol, topishmoq, sanama, qo‘shiq, tez aytish, afsona va rivoyat, ertak singari janrlari asosida maydonga kelgan. Zero, mazkur janrlar mohiyat e‘tibori bilan ta‘lim – tarbiyaviy xususiyatiga egadir. U pedagogik ahamiyat kasb etishi bilan kattalar folkloridan farq qiladi.

Chunonchi, kichkintoylar folklori so‘z san‘ati qadimgi zamonlardan buyon xalq pedagogikasi uchun asosiy manba vazifasini bajarib kelgan. Binobarin, bolalar so‘z san‘ati va o‘yin folklori o‘tmish avlodlarining farzandlarga bo‘lgan g‘amxo‘rlik timsoli, desa mubolag‘a bo‘lmaydi. Insoniyat tafakkur taraqqiyoti, ilm-fanning rivoji va axborot texnologiyalari yuksalishi, turli-tuman axborotlar olish uchun imkoniyatlar osonlashgan davrda bolalar folklori o‘z vazifasini animatsion filmlar, qo‘g‘irchoq teatrlari va kompyuter o‘yinlariga bo‘shatib berdi. Go‘daklarimiz tarbiyasi ham virtuallasha boshladi. Natijada, an‘anaviy xalq tarbiyasi xuddi g‘arbdagi holatga yaqinlashib, inson farzandi uchun normal o‘shish jarayonida bo‘shliq hosil bo‘lib, jamiyatda bolalarimiz xarakter xususiyatlarida egoizm – xudbinlik illati maydonga keldi.

Bundan 70-80 yillar ilgarilari hozirgi katta avlod vakillari eshitgan maqollar, topishmoqlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar bugungi kunlarga kelib, zamonaviy ota-onalar, buvijonu bobojonlar nutqlaridan emas, balki televizorlar, teatr sahnalari va kompyuterlarda maxsus san‘atkorlar, rejissyorlar, ssenariyachilar tomonidan ijodiy ishlangan asarlari orqali bahramand bo‘lishayotir.

Demak, kelajakda katta yoshdagi kitobxon yoki san‘atsevarlarni yetishtirish uchun bolalar xalq ijodiyoti merosi an‘analarining mohiyatini yaxshi biladigan mutaxassis kadrlarni yetishtirish maqsadga muvofikdir. Binobarin, bolalar folklori va bolalar san‘ati masalalari bilan maxsus shug‘ullanadigan ilmiy-madaniy bilim o‘choqlari moliyaviy muhtojlik bahonasida barham topganligini ta‘kidlash joyiz.

Asrimizning 2017 yiliga kelib, jamiyat uchun xalq ijodiyotining amaliy ahamiyatini o‘z vaqtida anglab yetgan davlatimiz Rahbari san‘at va madaniyat maskanlari ish faoliyatida ko‘proq milliy merosimiz ruhi va an‘analariga e‘tibor berish masalasini kun tartibiga qo‘yib, jamiyat taraqqiyoti uchun ishlab chiqilgan tashabbuslarning eng asosiylaridan biri sifatida xalq ijodiyotini ko‘rsatdilar.

Yurtimiz Rahbari: “Hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta‘siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san‘atiga e‘tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san‘ati, ta‘bir joyiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir”, - deya ta‘kidlaganlarida naqadar haq edilar. Zero, ota-bobolarimizning inkor qilib bo‘lmas hayot sinovlari-yu tajribalaridan o‘tib, bizgacha yetib kelgan o‘g‘ituvchi nasihatlar va mehru duolarga to‘la donishnomasi hisoblangan og‘zaki so‘z durdonalari Uchinchi

renessans davri poydevorini qurayotgan avlodlar ijtimoiy-madaniyati taraqqiyoti yo'lida bebaho saboq manbai bo'lib xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy meros – bebaho manba sifatida

Inson o'zi yashaydigan olamni idrok qilishning turli yo'llaridan foydalangan. Shulardan birinchisi, so'z orqali ilk taassurotlarni bayon etish an'anasi. Binobarin, so'z dunyoning barcha xalqlari diniy va ilmiy qarashlarida muqaddas kult hisoblanadi.

O'zbek xalqi milliy o'ziga xosligi, boshqa etnoslardan farqlanib turuvchi jihatlaridan biri ham uning til boyligi va so'zlari serjiloligi orqali namoyon bo'lishida ko'rinadi. Buni birgina jahon tilshunos olimlari tomonidan ilmiy e'tirof etilgan o'zbek tili va adabiyoti asoschisi Alisher Navoiy tomonidan ishlatgan so'zlari 26 ming 35 ta ekanligi va dunyodagi boshqa buyuk so'z san'atkorlaridan ustunligi misolidan ham ko'rish mumkin. Demak, badiiy adabiyot san'atining onasi bo'lgan folklor so'z san'ati milliy madaniyatimiz merosi uchun eng muhim manba'dir.

Nomoddiy madaniy meros haqidagi ayrim mulohazalarimizni so'z va uning madaniy hayotdagi alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlashdan boshlamadik. Chunki nomoddiy va moddiy madaniyat bevosita so'z boyligi, odamlar o'rtasida doimiy muloqot orqali yaratilgan va bu jarayon davom etadi. Muhtaram Yurtboshimiz o'zbek nomoddiy madaniyati merosining asrlar osha necha-necha bosqin to'fonlar kasofatlaridan o'tib, 21-asrga qadar yetib kelgan xalq dostonchiligi va uning baxshichilik san'atiga alohida e'tiborini qaratdilar. Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2019 yil yurtimizda Xalqaro miqyosga bo'lgan baxshichilik san'ati ochiq Folklor festivali o'tkazilishi davlatimizning nomoddiy madaniy merosga nisbatan olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy siyosatning qay darajada yuksak ekanligini tasdiqlaydi. ishtirokchilariga bayon etgan nutqlari ham tasdiqlaydi: "Insoniyat yaratgan san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir. Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, har bir etnosning hayot tarzi ya'ni etnomadaniyati bevosita til bilan bog'liq.

Nomoddiy madaniy merosni kelajak uchun saqlab qolish va undan ma'naviy-madaniyat taraqqiyoti yo'lida foydalanishga bag'ishlangan YUNESKOning (2003 y. 15 oktabr) Konvensiyasi talablari yurtimiz madaniy hayotiga joriy etib kelinmoqda. So'nggi yillar xalqaro miqyosda o'tkazilgan "Xalqaro baxshichilik san'ati" (2018 y.), "Xalqaro hunarmandchilik festivali" (2019 y.) va "Sharq taronalari" singari keng miqyosdagi

anjumanlar umumbashariy ahamiyatga molik nomoddiy madaniyatimiz merosi targ‘ibotlariga xizmat qiladi.

Ota-bobolarimiz qadimgi zamonlardayoq odamga jismonan kuch beradigan va quvvatlantiradigan moddiy ne‘matlarni yetishtirish yoki ulardan sog‘liq-salomatlik yo‘lida foydalana olishdek moddiy narsalar keyingi hayot yo‘llari uchun asosiy omil emasliklari, balki yashash uchun kurashda aql-idrokni peshlash, turmush tajribalarini yanada takomillashtirish zarur ekanligini anglagach, ma‘naviy ruhni tarbiyalash ehtiyoji shakllanadi. Natijada, o‘zlikni namoyon qilish, olamni idrok qilishning usullari, ya‘ni so‘z san‘atining sodda bo‘lsa-da, ibratli namunalari turmush tarziga kirib keladi. Bu nomoddiy madaniyatning folklor deb ataluvchi shaklidir. Ota-onaning farzandiga, tajribali odamlarning bolalarga, ustozning shogirdlariga bergan ilk ibratli maqsadlari folklor janrlari ko‘rinishida va og‘zaki usulda bayon qilish an‘anasi maydonga keldi. Bu an‘ana ming yillar mobaynida takomillasha borib, og‘zaki usulda yaratilgan folklor janrlari ko‘rinishidagi nomoddiy madaniy merosga aylangan. Ushbu meros alohida ma‘naviy-ma‘rifiy vazifani bajarishdan tashqari xalqning etnik turmush tarzidan o‘rin olgan gaifodalashga xizmat qiladigan an‘analar tizimiga singib ketgan. Ular har xil aytimlar, duolar, olqishlar, qo‘shiq, laparlar, o‘lanlar, yor-yorlar shaklida hozirga qadar yashab kelayotir. O‘zbek xalqining an‘naviy etnomadaniyati tizimidan o‘rin olgan ommaviy-badiiy tarzidagi barcha tadbirlari u yoki bu folklor janrlari namunalarisiz o‘tkazilmasligini oilaviy-maishiy urf-odat va marosimlaridan tortib, keng miqyosdagi bayram-sayillari tarkibida ko‘ramiz. Masalan, oilaviy doirada tashkil qilinadigan “Beshik to‘yi” marosimida chaqaloqni beshikka belash jarayonidagi ushbu aytinga e‘tibor qaratamiz:

Qoch-qoch babasi,

Keldi beshikning egasi.

Yoki: Isiriq, isiriq,
 Chatnasin, isiriq,
 Tutasin isiriq.
 Bolamga ko‘z tegmasin.
 Kim qo‘zimga ko‘z qilsa,
 Ko‘zlari oqib tushsin.

Kabi badiiy aytimlar yurtimizning turli hududlari “Beshik to‘yi”lari marosimlarida kayvonilar tomonidan ijro etiladi.

Xalqimizning an'anasi tizimidagi turli mavzu va shakllarida o'tkazib kelinayotgan ijtimoiy madaniy marosim tadbirlarida og'zaki so'z san'ati-

ning shunday go'zal namunalari borki, ular asrlar mobaynida o'zlarining ma'naviy-estetik mohiyatini yo'qotmagan. Fikrning dalili sifatida folk-

lor qo'shiqlarini keltirish mumkin.

Daryoga tosh otmanglar, botar-ketar yor-yor,

Yiroqqa qiz bermanglar, olar-ketar yor-yor.

Yiroqqa tushgan qizning rangi sariq, yor-yor,

Ko'zidan oqqan yoshlar, misli ariq, yor-yor!

Ushbu "Yor-yor" qo'shig'idagi lirik obraz-begona oila a'zosiga aylanayotgan qizning ruhiy kechinmasi shu darajada sodda va poetik ifoda etilgan. O'zbek ayollari taqdiriga bir lahza razm solinsa, ularga xos bo'lgan folklorona tipiklashtirish san'atkorlik bilan bayon etilganligidan dalolat beradi.

Nomoddiy madaniy meros namunalari faqat biror ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan namunada faqat tinglovchi yoki ishtirokchilarda zavq uyg'otish va marosimga nisbatan munosabatini bildirmay, o'z o'rnida unga ma'rifiy tushuncha ham beradi. Masalan,

Taxta-taxta ko'prikday

Taxting bo'lsin, yor-yor.

Payg'ambarning qiziday

Baxting bo'lsin, yor-yor.

Mazkur "Yor-yor" qo'shig'idagi "taxta ko'prik" qizning kelinlik dunyosiga o'tishini anglatsa, "Payg'ambarimizning qizi-Fotimaga Farishta sovchi bo'lib kelganligiga ishoradir.

Xalq ijodiyotiga xos nomoddiy madaniyat merosidan faqat irim, urf-odat, marosim va bayram-sayillar o'rin olmay, xalq og'zaki dramasi, xalq sirki va raqsi singari tomosha san'ati shakllari

merosi ham mavjud. Tomosha san'atining hozirga qadar faol turlaridan

biri xalq raqsi hisoblanadi. Ushbu san'atning iqtisodiy va ma'naviy-estetik ahamiyati jahon madaniyatida qadrlanishini qo'shni Hindiston, Pokiston, Xitoy va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari hamda

Janubiy Amerika mamlakatlari misolida ko'rsatish mumkin. Chunki raqs mutaxassislari e'tiroficha, raqslar so'zlashish yoki og'zaki muloqotlarni raqqos tomonidan bajariladigan harakatlari orqali ifoda etishadi. Bu san'atning 21-asrdagi ahamiyati va nufuzi yuqoriligi yangilanayotgan O'zbekiston madaniyati mas'ullari tomonidan e'tiborga olindi. Muhtaram Yurtboshimiz 28 sentabr, 2020 yil "Lazgi" Xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" Qaroriga imzo chekdilar. Ushbu Qarorda:

"Mamlakatimizning boy raqs san'ati tarixida alohida o'rin egallagan "Xorazm lazgi raqsi" o'ziga xos ijro uslubi va jozibasi bilan nafaqat O'zbekistonda, balki chet davlatlarda ham mashhurdir. YUNESKO tomonidan "Xorazm lazgi raqsi" insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilganligi ham uning betakror san'at ekanligidan dalolat beradi." ("Xalq so'zi" gazetasi, 20.09.2020 yil.). Demak, Vatanimizda xalq ijtimoiy madaniy turmush tarzida asrlar bo'yi nomoddiy meroslardan yana birini dunyoga tanitish, uning umumbashariy mohiyatini raqs orqali namoyon etuvchi Xalqaro festivaliga start berildi. Festival 2022 yildan boshlab, har ikki yil- 25-30 aprel kunlari tarixiy Xiva shahrida o'tkazilishi belgilandi.

Insoniyat ijtimoiy madaniyati turli tarixiy voqealar, siyosiy tuzumlar va ilm-fan sohasidagi qo'lga kiritilgan yutuqlar ta'sirida rivojlanib boradi. Buni hozirgi sotsiologlar tomonidan Uyg'onish-Renesans davri

deb e'tirof etilayotgan ulkan tarixiy bosqichlar tahlili ham tasdiqlay oladi. Butun dunyo ahlini lol qoldirmagan 10-11 –asrlar yurtimiz Allomalari

ko'pgina aniq va ijtimoiy fanlar shakllanishiga asos solganlar. Hatto, Islom ma'rifatining turmushga tadqiq etilishida Al-Buxoriy, At-Termiziy, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro singari Allomalar arab tilida bitgan kitoblari bugungi kunlarga qadar ahamiyatini saqlab kelayotganligini ta'kidlash joyiz.

Yurtimiz tarixidagi ikkinchi buyuk Renesans – Sohibqiron Amir Temur davlatchiligi davri. Temur va uning avlodlari tomonidan rivojlantirilgan

ilm-fan, adabiyot va san'at, qurilish va me'morchilik hamda ulkan obodonchilik ishlari bugungi kun odamlarini lol qoldirayotganligini faxr

bilan ko'rsatish lozim. 21-asrning 20-yillariga kelib, ulkan globallashuv zamonida O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy eta boshlaganligiga to'liq

ishongan holda va bu yurtga o'z mablag'larini hech ikkilanmay olib kirayotgan xorij sarmoyadorlari-investorlari mamlakatimizning kundan-kun rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. O'zbekistonning ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan barcha sohalardagi islohatlar jahon siyosatchilari tomonidan uchinchi Renesans deb e'tirof qilinishi va bu tarixiy jarayonlar hech qachon ijtimoiy madaniyat ta'sirisiz sodir bo'lmasligi ular tomonidan qayd etilmoqda. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha tarixiy-madaniy protsesslar har bir davr taqozo etgan xalq ijodiyoti an'analari bilan u yoki bu jihatdan o'zaro bog'liq ravishda sodir etiladi. Qalbida Vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh urgan odamlarda milliy ruh ota-bobolar tomonidan etnik turmush tarziga singdirib yuborilgan nomoddiy madaniyat ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Zero,

an'anaviy ta'lim-tarbiya ta'sirda voyaga yetib, ilm-fan va adabiyotga kirib kelgan barcha tarixiy shaxslar, Allomalar va san'at ahllari ham bevosita nomoddiy madaniyatga taalluqli asarlar bitishganligini Abu Rayhon Beruniyning "Navro'z" bayrami to'g'risidagi ma'lumotlari, Ibn Sinoning "Hayy ibn Yakzon", Salomon va Ibsol", Forobiyning "Musiqqa haqida kitob", shuningdek, Temuriylar davri olim va so'z san'atkorlari tomonidan bitilgan xalq urf-odatlari, marosimlari va bayram-sayillariga

oid risolalar, xususan. "Temur tuzuklari", Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va Alisher Navoiyning "Hayratul-abror". "Majolisun nafoyis", Lutfiyning "Gul va Navro'z", Gulxaniyning "Zarbulmasal" va boshqa xalq og'zaki nomoddiy madaniyati an'analari ta'sirida yaratilgan asarlar tariximizning zarhal varaqlarini bezab turganligini eslatish joyiz. Ma'naviy-madaniyat davlatimizning eng zarur tayanch ustunidir. Bu ustunni ma'rifat ushlab turadi. Zero, xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, hayot tarziga singib ketgan xalq maqollari, iboralari, ertaklari, dostonlari, latifa va loflari, askiyachiligi

qiziqchiliklari, ayniqsa, bolalar folklori merosi durdonalari qadim-qadimdan inson aql-idroki va tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan.

O'zbekiston istiqbolga erishgach, dunyo hamjamiyatiga tanilishi va endi oyoqqa turayotgan davlatni dunyoga yuz tutishini ta'minlashda xalq ijodiyoti an'analari bag'rida kelayotgan tomosha san'atidan foydalanish qo'l keldi. Ayniqsa, an'anaviy ijtimoiy faoliyatning "Navro'z" bayrami bu borada muhim amaliy ahamiyat kasb etdi. Chunki bu nomoddiy madaniyat namunasi tarkibida o'zbek xalqi milliy irim, udum va marosimlari u yoki bu darajada o'z ifodasiri topgan. Masalan, "Dalaga qo'sh chiqarish", "Hashar", "Sumalak sayli", "Bolalarga sumalak maysasini taqish" kabi biri-ikkinchisini mantiqan to'ldiruvchi udumlar bayram kayfiyatini ko'tarib, ishtirokchilarini muayyan bir ma'naviy-og'oyaviy maqsadni amalga oshirishlariga undaydi. Ularda ko'tarinki ruh uyg'otib, umr yo'llaridagi go'zal bir voqeaga nisbatan insoniy tuyg'ularini bir-birlariga ulashadilar.

Yurtimiz madaniy hayotida bevosita Davlatimiz rahnamoligi va soha mutassadilari say-harakatlari natijasida “Maydon tomoshalari” nomli yangi ijtimoiy -madaniy faoliyat ommalashdi. San’atning bu shakli respublikamizdagi iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-ma’rifiy sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlar, odamlar turmush tarzlaridagi rivojlanish darajasini namoyish etish, mehnat va sportdagi g‘alabalar, ilm-fanda erishilgan muvaffaqiyatlar kabi jamiyat taraqqiyotini faqat xalqimizga emas, balki yangilanayotgan O‘zbekiston ishlab chiqarish va xorij investorlari uchun katta imkoniyatlar beruvchi diyor ekanligini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham, 2001 yildan boshlab, an’anaviy “Boysun bahori”, 2002 yildan “Sharq taronalari” va qator sport bayramlari faqat madaniy-ma’rifiy tadbir maqomidagi ijtimoiy faoliyat bo‘lmay, o‘z navbatida O‘zbekistonga chet el investitsiyasi kirib kelishiga yo‘l ochadigan vosita hisoblanadi. Ayniqsa, 2018 yildan boshlab ochiq folklor va xalq amaliy hunarmandchiligi festivallari ishtirokchilari orasida xorijlik sayyohlarning ko‘payganligi xalqimiz nomoddiy san’ati yurtimiz sarhadlarida turli qo‘shma korxonalar, firmalar kirib kelishi uchun vosita rolini o‘ynadi, desa mubolag‘a bo‘maydi.

Maydon tomoshalari va ochiq osmon ostida o‘tkazilgan xalqaro festivallardagi xorijlik olimlar, xalq milliy amaliy san’ati ixlosmandlari qo‘li gul chevarlarimiz tomonidan qo‘lda to‘qilgan gilamu so‘zanalarni insonning qalb qo‘ri bitilgan yuksak san’at asari sifatida e’zozlashlari, kulolu yog‘och o‘ymakor ustalar tomonidan xalq amaliy san’ati an’analarini uslubida yasalgan jimjimdor idish va xo‘jalik ashyolarini hayrat ruhi bilan sotib olishlari yurtimizga bo‘lgan qiziqish va taassurotlari yanada kuchayishiga sabab bo‘ldi. Shu o‘rinda yana bir masalaning mohiyatini ta’kidlash lozim. Xalq milliy hunarmandchiligi an’analarini belgilovchi mezon bor bo‘lib, har qanday amaliy san’at ashyosi nomoddiy madaniyat namunasi bo‘la olmaydi, qachonki biror buyum, kandakorlik mahsuloti yoki gilamdo‘zlik, kashtachilik, zardo‘zlik mahsulotlari muayyan kosib, tikuvchi, zardo‘z pichoqsoz, naqqosh tomonidan an’anaviy usul bilan qo‘l mehnati vositasida ishlanishiga qarab, xalq amaliy san’ati toifasiga kiritiladi. Chunki 19-asrning ikkinchi yarmida yurtimizga Yevropa va rus yengil sanoati kirib kelishi munosabati bilan milliy xalq amaliy san’atiga xos xaridorgir buyumlar asta-sekin avtomatlashtirilgan sexlar firmalarda ishlab chiqarilishi ommalashtiriladi. Natijada, qo‘l mehnati buyumlari yurtimizning chekka joylari ustalari, hunarmandlari tomonidan an’anaga muvofiq davom ettirilgan. Bu haqda 20-asrning 20-30 – yillarida faoliyat ko‘rsatgan Abdulla Qodiriy, Miskin Toshkandiy va G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlar ko‘pincha Eski shahardagi xalq hunarmandlarining do‘konlarida odamlar bilan suhbat qurganliklari ularning biografiyasiga oid manbalar ham xabar beradi. Keyinchalik, Chor Rossiyasi o‘rniga kelgan SHo‘rolar tuzumi xalq hunarmandlarini maxsus shirkatlarga birlashtirganligi tarixiy ma’lumotlardan ham bilish mumkin.

Vatanimiz sarhadlarida ishlab chiqarishni yanada taraqqiyot ettirish, har bir sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etib, davlatimiz qudratini yanada kuchaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan dunyo bozoriga chiqish masalasi kun tartibiga qo'yilgan bir davrda madaniyat va san'at ham o'zining eksport bozoriga chiqishi zarur. Bunda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan katta imkoniyatlardan o'rni foydalanish talab etiladi. Madaniyatchilar yurtimiz sha'nini yanada yuksak darajaga ko'tarishlari uchun xalqimizning an'anaviy ijodiyotidan davr talabi va ruhiga mos ravishda bahramand bo'lishlari kerak. Har yili uyushtiriladigan turli mavzudagi ommaviy-badiiy tadbirlarda yurtimizning boshqa xalqlar bilmaydigan nomoddiy madaniyatini namoyish etib, chet el investorlarini jalb qilish, O'zbekistonning turizm bozorini yanada boyitish yo'lida tinimsiz izlanishlari zarur. Zero, madaniyat va san'at sohasini jahon standarti darajasiga yetkazish uchun dunyoqarashi va bilim doirasi keng, o'z mutaxassisligi sirlarini yaxshi egallagan, har tomonlama savodxon kadrlar tayyorlash kechiktirib bo'lmaydigan ishlar qatoriga kiradi.

O'TMISHNING HAYOTBAXSH SADOSI

Shaxsning ma'naviy – madaniy faoliyatini shakllantirish, uni yanada takomillashtira borish qadimgi ota-bobolarimiz kundalik hayot kechirish kun tartibidagi tarbiyaviy masalalardan biri bo'lgan. Buni ilm-fan, madaniy-ma'rifat va ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanadigan zamonaviy soha odamlari izchil o'rganib, xalq milliy ijodiyoti merosi o'zining mohiyatini hech qachon yo'qotmasligini e'tirof etishmoqda. Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalida (2019 y. 5-6 aprel) so'zlagan nutqlarida "Baxshilar nafaqat o'tmishning aks-sadosi, ayni paytda, bugungi kunning ham jarangdor ovozidir",- deya o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining turli janrlarini bag'rida saqlab kelgan dostonlar, ularning ijrochilari va ijodkorlari faoliyatiga baho berdilar. Chunki xalq dostonlari sinkretik ahamiyatga ega bo'lgan keng epik qamrovli janri sanaladi. O'zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida xalq dostonchilik an'analari, ularni el-yurt orasida asrlar bo'yi kuylab kelgan baxshilar nomoddiy madaniyatning betakror boyligidir. Xalq dostonlari xalqimizning asrlar bo'yi avlodlarni ma'naviy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelayotgan og'zaki so'z san'ati hisoblanadi. Xalq dostonlari milliy qadriyatlarimizning turli qirralarini baxshi ijrosida aks ettirishi bilan birga, nomoddiy madaniyatning ona-yurt, insonparvarlik, vatanparvarlik singari g'oyalarini yoshlarimizga singdirish, kindik qoni to'kilgan zamin nima uchun muqaddasligi, uni ko'z qorchig'iday asrash iymondan ekanligini ifodalaydi. Mamlakatimizda xalq og'zaki ijodiga munosabat alohida ahamiyat kasb etayotganligini Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2019 yil Surxondaryoda o'tkazilgan "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivali, shuningdek, xalq ijodiyoti moddiy va nomoddiy meroslarini saqlab qolish

masalalariga bag'ishlangan qator tadbirlar orqali ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Zero, avlodlarimiz hayot tajribasi, axloqiy-falsafiy dunyoqarashi va eng asosiysi, tarixiy lavhalarini folklorona aks ettiruvchi xalq og'zaki ijodi Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, kelajagimizning yangroq ovozi. Buni birgina o'zbek qahramonlik eposi – "Alpomish" dostoni misolida ko'rsatish mumkin. Dostonda qadimgi ajdodlarimizning etnik turmush tarzi – oddiy ijtimoiy munosabatlardan tortib, turli irimlar, udum va marosimlar, o'sha davrga xos ishlab chiqarish kuchlari – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandlik, xalq sporti kabilar to'grisida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, qadimgi ota-bobolarimizning urug'chilik tuzumidan davlatchilik tuzumiga o'tishi aka-uka Boybo'ri va Boysarilar orasidagi ziddiyatning kelib chiqishi, ya'ni akaning mamlakat xazinasi uchun ukasidan soliq talab qilishi lavhasida namoyon bo'ladi. "Alpomish" dostonidagi Hakimbekning Barchinni qalmoqlar yurtidan olib kelish lavhasi bilan bog'liq sarguzashtlar, epik dushman – qalmoqlar bilan to'qnashuv, bosh qahramonning ko'rsatgan jasratlari asosida vatanparvarlik, o'z eli manfaatlari uchun kurash g'oyasi birinchi planda namoyish etilishi ushbu asarga milliy epos maqomini beradi. Bu o'tmishdayashagan ajdodlarning ona-yurtga bo'lgan samimiy muhabbat shaxsiy manfaatlardan ustun tarzda tasvirlanishini asoslaydi. Dostondagi Qo'ng'irotdan arazlab ketgan yurtdoshlarini qalmoqlar zulmidan qutqarib, Vatanga qaytarish lavhasi dostonni tinglagan yoki o'qigan odamda or-nomus, oriyat tuyg'usi uyg'onishga xizmat qiladi. Xalqimizning o'tmish tarixi dostonlarda janr xususiyati va baxshilar ijrosi an'analari tizimida badiiy tasvirlanadi. Xalq madaniyatiga oid har qanday merosning ma'naviy munosabatlari ijtimoiy hayot tarziga borib taqaladi. Masalan, dostonlar uchun tipik hisoblangan farzandsizlik motivi zamrida avlodlar davomiyligi, mol-davlatga egalik turadi. Binobarin, xalq ommasini uchun umumiy hisoblangan moddiy va ma'naviy qarashlar folklor merosiga mansub barcha namunalari aksini u yoki bu darajada namoyon qilishi o'ziga xos qonuniyatdir. Demak, xalq og'zaki ijodi merosiga mansub barcha namunalari o'tmish avlodlarimizning hayot tajribalari sinovidan takror va takror o'tib, bizga qadar yetib kelgan durdonalari hisoblanadi. Binobarin, hozirga qadar to'plangan insoniyat tafakkuri tarixiy-madaniy va ma'naviy-falsafiy mahsullari o'z-o'zidan yetib kelgan emas. Ular irqi, millati va diniy – e'tiqodi turlicha bo'lgan yer yuzi odamlarining xalq og'zaki ijodi namunalari orqali yetib kelgan. 19-asr Yevropa folklorshunos va etnograflarining evolyusion maktab yo'nalishidagi olimlari tarixiy-folkloriy jarayonni og'zaki so'z san'ati janrlari kesimida o'rganishib, etnik xalqlar tarixini ular asosida aniqlash ijobiy natija berishi mumkinligi haqida xulosaga kelishgan. Xalq og'zaki ijodiyotiga shunday usulda yondoshish o'zbek folklori namunalari uchun ham yaxshi natijalar berishi mumkin. Chunki bugungi kunlargacha yetib kelgan qadimiy avlodlarga mansub nomoddiy yodgorliklarning aksariyati yurtimiz boshiga tushgan talon-tarojliklar, urushlar va boshqa bosqinchiliklar

natijasida yo‘q bo‘lib ketgan. Ular asosan, og‘zaki ijod va ota-bobolar etnik madaniyati an‘analarini xotirasida saqlab qolgan iste‘dodli odamlar orqali bizga qadar yetib kelgan. Xalq og‘zaki ijodi o‘tmish avlodlarimizning kelajak uchun qoldirgan xotira yodgorliklaridir. Har qanday ma‘naviy yemrilish ota-bobolarning ma‘naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy merosiga nisbatan e‘tiborsizligidan boshlanadi. Buni oiladagi kundalik turmush tarzida farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq oddiy “Alla”dan tortib, turli mavzularga xos maqol, ibora, afsona va rivoyat, ertak hamda pand-nasihatlar misolida ko‘rsatish mumkin. Chunki millatimizning kelajagi hisoblangan yosh avlodlar dunyoqarashi oila muhitida shakllanadi. Ma‘lumki, insoniyatning ilk madaniy o‘chog‘i uning uyi-makoni hisoblanadi. Ota-bobolarimizning o‘tmishi tarixiy voqea lavhalarga boy. Chunonchi, V.G. Belinskiy: “Quruq va toshloq yer nabotot uchun noqulay bo‘lganidek, mazmunan qashshoq bo‘lgan tarixiy voqelik ham san‘at uchun ahamiyatsizdir”, - degan edi. Ulug‘ tanqidchining ushbu fikri o‘zbek folklori merosiga tadbiiq etilsa, avlodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, otadan-farzandlarga va ustozlardan shogirdlarga o‘tib kelgan kichkina janrdan tortib, murakkab epik mazmunli ertagu dostonlarda muayyan hayot haqiqatlarini aks ettiruvchi faktlar mavjud. Masalan: “Xatirchining yo‘lida, qishlog‘i bor Tasmachi, Xalqni vayron ayladi, uying kuygur bosmachi”. Yoki: “Jo‘ji keldi, Jo‘ji keldi, Jo‘ji bilan bo‘ji keldi” singari bir baytli folklor aytimlarida tarixning qaysidir davrlarida xalqqa jabr-zulm ko‘rsatilgan voqealarga munosabat bildirilgan. Xalq o‘tmishining juda ham qadimgi, ya‘ni davlatchilik tizimi paydo bo‘lmasdan ilgari urug‘chilik, qabilachilik davrlarini aks ettiruvchi “Oq terakmi, ko‘k terak” bolalar o‘yini genezisiga nazar solinsa, ikki urug‘ yoki qabila o‘rtasidagi o‘zaro urush-nizolari ifodalanganligini sezish qiyin emas. Bunday urush va nizolar yaqin-yaqin yillarda Afrika, Janubiyamerika va Okeaniya orollari etnik guruhlarida sodir bo‘lganligi vaqtli matbuot, nisbatan taraqqiy etgan davlatlar etnograf-folklorshunoslari to‘plagan hujjatli materiallardan ham bilsa bo‘ladi. Demak, xalq og‘zaki ijodiyoti insoniyat madaniyati tarixini u yoki bu darajada aks ettirishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Asrlar davomida yaratilgan barcha janrlarga xos og‘zaki ijod namunalari tabiat va jamiyat hayotida sodir bo‘lgan turli voqea-hodisalar, odamlar orasidagi ma‘naviy munosabatlar, kelajak haqidagi orzu-umidlarini poetik sodda til orqali ifodalovchi va ular ustidan hukm chiqaruvchi donishmandligidir. Xalqning jamiyat tarixidagi dahshatli voqea-hodisalarga real munosabatini ifodalovchi “Mardikorlar qo‘shig‘i” (Hodi Zarifov yozib olgan) da: “Poyezdingni jildirgan, O‘txonasi bilan do‘ngalagi. Dvinskka ketishdi Mard yigitning bir bo‘lagi” o‘zbek xalqining Chorizm mustamlakachilik siyosatini shunday bir go‘zal jumlar orqali ifodalaganki, uni tinglagan odamda tarixda sodir bo‘lgan voqelik beixtiyor ko‘z oldiga keladi. O‘zbek xalqining tarixiy hayotidagi yosh yigitlarni zo‘rlilik bilan mardikorlikka olib, ulardan

urush inshootlari qurish, sovuq o'lkalarda daraxt kestirib, sanoat qurilishlarida foydalanish singari inson sha'ni va huquqi oyoq osti qilinishi folklor an'anasiga monand real manzaralari bilan aks etgan. O'sha mudhish voqealar qo'shiqlari ijrochisining sadosi va nola-yu fig'oni tarixchilar uchun ham muhim material berishi shubhasizdir. "Mardikorlar" qo'shig'ini xalqimiz og'zaki yodgorligi namunasi sifatida jahongatanitgan "Yalla" guruhining bu merosni folklorona ruh va ohangda ijro etganligi ham tasodif emas. Xalq ijodiyoti merosini zamonaviy san'at ijrochilari tomonidan sahnada namoyish etilishi yoki axborot vositalarida kuylanishi unutila yozgan ayrim tarixiy xotiralarni uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda shaxsning roli mavjud. Chunonchi, 19-asrning boshlarida o'lkamizga Yevropa va rus oriyentalistlari, missionerlari kelishib, Turkiston o'lkasidagi etnik aholidan moddiy va nomoddiy madaniyatga xos materiallarni yozib olish bilan birga ularni o'sha davr jahonga mashhur bo'lgan gazeta-jurnallarda chop ettirgan edilar. Buni hozirgi O'zbekiston Milliy kutubxonasi saqlanayotgan "Turkiston to'plami" sahifalaridan o'rin olgan xalq iboralari, maqollari, ertaklari, dostonlari va boshqa folklor asarlari, shuningdek, urf-odat, udum, marosim, xalq og'zaki dramasi, xalq sirki singari qadriyatlarimizdan ko'rish mumkin. Masalan, Turkiston general-gubernatorining mafkuraviy ishlari bo'yicha maslahatchisi N.P. Ostroumov "Sartlar", "Sartlarning maqol va matallari", "Sart ertaklari" nomli qator kitoblar yozib, ularni Sankt-Peterburg, qisman Toshkentda chop ettirganligi bejiz emas. Chor Rossiyasi ideologlari yurtimizni yanada chuqurroq bilish va yerli aholini boshqarishda uning folklor merosi qulay vosita ekanligini juda yaxshi bilgan edilar. Shuning uchun ham chorizm mafkurachilari xalq xotirasini iloji boricha tezroq yo'qotib, uning o'rniga g'arb turmush tarzi va ma'rifatini mahalliy xalq urfiga kiritish uchun rus-tuzem maktablari ochishib, teatr tomoshalari tashkil etishib, ularni yoshlar tarbiyasiga singdirishga intilgan edilar. Biroq Milliy uyg'onish davri o'zbek ma'rifatparvar – ijodkorlari, olimlari, xususan, Elbekning "Laparlar", G'ozim Olimning "Alpomish" dostoni, "Alla" qo'shig'i to'g'risidagi o'zbek folklori namunalarini o'sha davrdagi "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qitg'uvchi" kabi matbuot vositalarida chop etilishi xalq og'zaki ijodining millatni uyg'otishda muhim ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi. 1925 yil tuzilgan O'zbeklarni o'rganish Komiteti xalq baxshilarini topib, ulardan dostonlarni yozib olish va nashr etishda tashabbuskor bo'lgan edi. Hodi Zarifov, G'ozim Olim, Buyuk Karimiy va boshqa Milliy uyg'onish davri ma'rifatchi-folklorshunoslar "Alpomish", "Rustamxon", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlarini, shuningdek, xalq ertaklari, maqol va matallari, bolalar folklori namunalarini qishloqma-qishloq, ovulma-ovul, shaharma-shahar yurishib yozib olgan edilar. Ulardan keyin yetishib kelgan fidoiy folklorshunoslarimiz to hozirgi kunlarga qadar ustozlar an'anasiga sodiq holda og'zaki ijroda saqlanib kelayotgan og'zaki ijod merosini yozib olishib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Alisher

Navoiy nomli Til, adabiyot va Folklor institutining Hodi Zarifov nomli arxiviga topshirmoqdalar. Xalq ogʻzaki ijodining yangilanib borayotgan Oʻzbekiston madaniy-maʼnaviy hayotidagi ibratli sabogʻi bugungi kun taʼlim-tarbiya, madaniyat va sanʼatimiz uchun bebaho manba ekanligi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning fikrlari yaqqol tasdiqlaydi: “Agar biz bu noyob sanʼatni saqlab qolish uchun bugundan barchamiz birgalikda harakat qilmasak, ertaga afsuski, kech boʻladi, kelajak avlodlar, tarix bizni kechirmaydi”(Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida Qaror, 2018 yil 1 noyabr) Darhaqiqat, Muhtaram Yurtboshimiz 2019 yilning 5-6 aprel kunlari Surxondaryoda oʻtkazilgan Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalida dunyoning 74 ta davlatidan tashrif buyurgan olim-mutaxassislariga bebaho maʼnaviy merosimiz faqat oʻzbek xalqi uchun emas, balki bu boylik umumbashariy ahamiyat kasb etishini alohida taʼkidlagan edilar. Dunyodagi turli xalqlar ogʻzaki ijodiga mansub maʼnaviy meros oddiy odamlar tomonidan yaratilib, ogʻizdan-ogʻizga, bir avloddan keyingisiga oʻtib kelayotganligi va bu qadriyatlar gʻoyasi inson maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qilib kelayotganligini, ular oʻzbek kitobxonlariga ham ibratli saboq berishini bolalarimiz uchun nashr etilgan kitoblar, kichkintoylarga atab ishlangan multfilmlar misolida ham koʻrsatish mumkin. Oʻzbeklarni ulgʻaytirgan bu qutlugʻ zamin hali yozuv paydo boʻmasdan oldinroq oʻzining isteʼdodli farzandlarini tarbiyalab yetishirgan. Ular real borliqda sodir boʻlgan va inson maʼnaviy ehtiyojiga loyiq ibratli narsa-hodisalarga badiiy bezak berib, hayot kechirish, fikrlash va kelajak toʻgʻrisida fantaziyalash orqali dastavval kichik-kichik folklor namunalarini, ijtimoiy taraqqiyot yuzaga kelgach, kuylash, timsollar vositasida voqeband hodisalarni ijro etish, liro-epik janrlarni ogʻzaki usulda namoyish eta boshlagan edilar. Bu haqda arxeolog, etnolog va folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida bayon etilgan fikrlar diqqatga sazovordir. Xronologik jihatdan aniqlangan arxeologik davrlar toʻgʻrisidagi fikr va qarashlar insoniyatning madaniy hayot tariziga qaysidir jihatdan baho berishi, odamzodning har tomonlama tinimsiz izlanishi, turmush kechirish jarayonida ijodiy faoliyat koʻrsatib kelganligidan dalolat beradi. Bizga qadar yetib kelgan har qanday moddiy madaniy meros zamirida odamzodning bir-biri bilan oʻzaro muloqati, ijtimoiy munosabati tushunchalari yotibdi. Agar masalaga ana munosabatlar nuqtai nazaridan yondoshilsa, ogʻzaki soʻz sanʼati namunalaridagi tabiat hodisalari, mehnat va turmush tarzi bilan bogʻliq irim, udum, urf-odat, marosim va boshqa nomoddiy madaniyat merosi tarkibidagi paremiologik janrlar, qoʻshiqlar, maqollar, matallar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklarhamda murakkab syujetli epik folklor meroslari insoniyatning dunyoni anglash, bilish, tasavvur qilish-tafakkurni rivojlantirish yoʻlidagi oʻziga xos saboqlari ekanligi maʼlum boʻladi. Demak, xalq ijodiyoti ilm-fan qanchalik yuksak darajada rivojlanmasin, u doimo buloq suvidek pokizaligi va hayotbaxshligi bilan inson bolasi qalbini goʻzal tuygʻular bilan sugʻorib boraveradi. Folklor merosi bebaho ijodiy manba sifatida madaniy-maʼrifiy, madaniy-falsafiy va madaniy-

ma'naviy qadriyatlar bo'lib, yangilanib borayotgan yurtimiz umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

XULOSALAR

Nomoddiy madaniy meros o'zbek xalqining milliy o'ziga xos etnomadaniyatini aks ettiruvchi qadriyatlardir. U davlat tomonidan qonun yo'li bilan himoya qilinadi. Eng qadimgi avlodlarimiz tomonidan hayot tarziga singdirilgan nomoddiy madaniyat xalqning milliy o'zligini asrash va saqlanib qolishda asosiy meros hisoblanadi.

O'zbekistonda BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan 2003 yil qabul qilingan Konvensiya asosida "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" ishlab chiqilib, shu soha kadr-mutaxassislarini tayyorlash, ularning kasbiy malakalarini oshirish tadbirlari yo'lga qo'yilgan. Nomoddiy madaniyatning eng ommaviylashgan yo'nalishi hisoblangan og'zaki so'z san'ati shakli beshta turga bo'linadi. Har bir tur esa janrlar tizimidan iborat. Janrlar tizimidagi barcha og'zaki ijod namunalari yaratilishiga ko'ra umumiy mohiyatga ega. Ular folklor janrlari matni va ijro jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki ilk yaratilgan badiiy so'z insonning ichki tabiatidagi ehtiyoji – tuyg'u amridan tug'ilgan. Masalan, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qizning boshqa xonadonga borishi voqeasi ta'sirida tug'ilgan "Yor-yor" qo'shig'i, ona-yurtiga tahdid solgan boshqa mamlakat podshosiga nafrat tuyg'usi "Go'ro'g'lining tug'ilish", "Alpomish" dostonlari va boshqa og'zaki so'z san'ati namunalari kabi tarzda yaratilgan. Har bir folklor janrining muayyan ma'no va mazmun ifodasi tarixiy-folkloriy jarayon munosabatlari qiyosida ko'rinadi. Chunki xalq og'zaki ijod asarlarining yuzaga kelish prinsiplari quyidagi umumiy qonuniyatlarga xos an'anaviy xususiyatlardan iborat:

1. An'anaviylik
2. Og'zakilik va badihago'ylik.
3. Ommaviylik va jamoaviylik.
4. Variantlilik va versiyalilik.
5. Anonimlilik (muallifning noma'lumliligi)

O'zbekiston nomoddiy madaniyati merosining ommaviy yo'nalishi hisoblangan xalq og'zaki ijodi san'ati jamiyatdagi takomillashgan boshqa san'at turlari uslubi, ifodalash bayoni va tinglovchi-tomoshabin xotirasiga tez o'rasha olish xislati zamonaviy maydon tomoshasi, teatr-kino san'atlari milliy rivojida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi merosi janrlar tizimidan joy olgan turli shakl bayon uslubidagi minglab namunalardan tashkil topgan. Ularning voqe bo'lishi ijro jarayonida ko'rinadi. Shunday janrlar borki, ularni har qanday normal odam bema'lol ijro etishi va amalda qo'llay bilishi mumkin. Biroq murakkab ijro san'ati talab qiladigan va murakkab ijtimoiy munosabatlarni soz jo'rligida lirik va nasriy uslubda ijro etiluvchi janrlar xalq orasidan yetishib chiqqan, an'analarga rioya qiladigan iste'dodli odamlar tomonidan kuylanadi. Xalq baxshilari, xalfa-baxshilari, qo'shiqchi-laparchilari, askiyachi-Y. qiziqchilari, aytimchi-yu, so'z ustalari teatr, kino, estrada va maydon tomoshalari kabi

zamonaviy san'at turlari milliy ohangi rivojlanishida ijodiy o'rganish va ta'sir olish manbalari rolini o'ynaydi.

Nomoddiy madaniy merosning og'zaki so'z san'atning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotidagi roli nima uchun ommaviy, amaliy va ibratli ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan izohlashda tarixiy-folkloriy jarayon harakatlantiruvchi qonuniyatligi afsona bilan ertak, rivoyat bilan ertak, naql bilan ertak janrlari struktural-tipologik munosabatlari ko'rsatildi. Tarixiy-folkloriy jarayon og'zaki ijod merosini yaratgan har bir etnosning ijtimoiy taraqqiyoti bilan u yoki bu jihatdan bog'liq an'analar sifatida namoyon bo'ladi.

Nomoddiy madaniy merosning tarixiy-folkloriy jarayon bilan an'analari barcha yo'nalishdagi turlari uchun taalluqlidir.

“Xalq ijodi”, “Xalq ijodiyoti”, “Etnomadaniyat” singari qo'llab kelinayotgan tushunchalar asosiy e'tibori bilan “Nomoddiy madaniyat merosi” atamasi mohiyatini ifodalaydi. 2003 yil BMTning Parijda bo'lib o'tgan 32-sessiyada qabul qilingan Konvensiyasidan so'ng ijtimoiy-gumanitar fanlarda “Nomoddiy madaniy meros” atamasi istiloh etila boshladi.

O'zbekistonda nomoddiy madaniyatni saqlash, arxivlashtirish va ilmiy-nazariy tadqiq etishdan tashqari turli madaniyat-ma'naviyat muassasalari ish faoliyatlariga amaliy jihatdan tadbiriq qilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Buni respublikaning turli shahar, tuman, viloyatlari, Qoraqalpog'iston respublikasi shahar va tumanlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan “Folklor-etnografik” jamoalari repertuarlaridagi xalq qo'shiqlari, baxshi-shoir va xalfalar ijrosidagi termalar, dostonlar hamda xalq urf-odat, marosimlari sahnalashtirilgan tomoshalari orqali ko'rish mumkin.

Nomoddiy madaniy merosning zamonaviy o'zbek estrada san'atidagi yorqin ta'siri “Yalla”, “Surxon” va boshqa guruhlar, shuningdek, xalq ommaviy-badiiy tomosha tadbirlarida odamlar hurmatiga sazovor bo'lgan “Askiya” chi va qiziqchi-so'z ustalari repertuarlaridan joy olgan folklor qo'shiqlari, iboralari, naqlari, maqollari, latifa va lof singari janrlardan an'ana doirasida ijodiy foydalanganliklarida ko'rinadi.

Mazkur o'quv qo'llanmasida nomoddiy madaniy merosning an'anaviylik va zamonaviylik jihatlarining og'zaki shakldagi ayrim janrlari va 2010 yil qabul qilingan Davlat dasturidan o'rin olgan bu merosni targ'ib qilish va ulardan foydalanish masalasidagi ko'rsatmalar imkoniyat darajasida yoritildi.

Mazkur o‘quv qo‘llama A1-011-sonli “Nomoddiy madaniy merosning xalq milliy og‘zaki so‘z san‘ati ,urf-odat,marosim,bayramlari va xalq havaskorlik hunamandchiligi an‘analarini ta‘lim tizimiga tatbiq etish”Loyiha doirasida tayyorlangan bo‘lib,qo‘llanmadan “Folklor-etnografiya”(5151600-folklor va etnografiya)yo‘nalishi,shuningdek,O‘zbekiston San‘at va madaniyat institutida tahsil olayotgan barcha yo‘nalish talabalari,institutda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi-professorlar,magistrlar,soha bo‘yicha malaka oshirish tinglovchilari va nomoddiy madaniy merosiga qiziquvchi tadqiqotchilar hamda filologlar foydalanishlari mumkin.

Asosiy adabiyotlar

1. Sayfullayev B., Yo‘ldosheva S. va boshqa. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san‘ati an‘analari. O‘quv qo‘llanma. T.: Navro‘z, 2017. 215 b.

2. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. T.: Barkamol fayz mediya, 2017. 180 b.
2. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. T.: “Aloqachi” - 2008. 560 b.
3. Murodova M. Folklor va etnografiy. O‘quv qo‘llanma. T.: “Aloqachi”-2008. 100 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022-sonli qarori. "Xalq so‘zi", 2017-yil 1-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil 3-dekabr, 48-son, 921-modda.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
6. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Asarlar. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
7. Mirziyoyev SH.M. 2017 yil 3 avgust kuni O‘zbekiston ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqi – Toshkent, www.lex.uz
8. Mirziyoyev SH.M. Madaniyat va san‘at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan nutqi. Toshkent, 2017-yil 25-dekabr www.lex.uz
9. Mirziyoyev SH.M. O‘tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil 7-aprel.
10. K.Imomov. O‘zbek xalq nasri poetikasi. T.: “Fan” - 2008. 252b.
11. M.Inoyatov. O‘zbek xalq ijodiyoti an‘analari. T.: -2010. 132b.
12. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. T.: -2006. 216 b.

13. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. Yunesko ishlari bo‘yicha o‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017. 255 b.
14. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. T.: - 2007. 276 b.
15. Jo‘rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. T.: - 2008. 172 b.
16. Jo‘rayev M., Toxirov O‘. Ostonasi tillodan. T.: 2003. 78 b.
17. Folklor til, va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi - mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Navro‘z, 2019.

Internet va Ziyonet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.folklore.uz>
3. <http://www.nmm.uz>